

A.A. PULATOV, O.M. SAVATYUGIN,
SH.SH. ISROILOV

BADMINTON NAZARIYASI VA USLUBIYATI



TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

A.A.PULATOV, O.M. SAVATYUGIN, SH.SH. ISROILOV

**BADMINTON NAZARIYASI
VA USLUBIYATI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2017

UO'K: 796.344 (075.8)

KBK 75.565

P-92

P-92 A.A.Pulatov, O.M. Savatyugin, Sh.Sh. Isroilov.
Badminton nazariyasi va uslubiyati. (O'quv qo'llanma). –T.: «Fan va texnologiya», 2017, 300 bet.

ISBN 978–9943–11–647–4

Mazkur o'quv qo'llanma amaldagi Davlat ta'lif standarti, o'quv rejasi va fan dasturi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti talabalari, magistrantlari, doktorantlari, olimpiya zaxiralari kolleji o'quvchilari, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tarmoq markazi tinglovchilari, badminton bo'yicha sport mакtablari, klublari va tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarga mo'ljallangan.

UO'K: 796.344 (075.8)

KBK 75.565

Taqrizchilar:

- Abduraxmanov F.A. – O'zDJTI dotsenti, Gандbol be'yicha O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan trener;**
Qurbanova M.A. – Toshkent shahar Mirobod tumani 2-sonli BO'SM direktori, pedagogika fanlari nomzodi.

ISBN 978–9943–11–647–4



© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2017.

KIRISH

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgan kundan boshlab Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi hamda uning bevosita rahbarligida millat genofondini shakllantirish, sog‘lombarkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo‘lmish jismoniy tarbiya va sport Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari tarkibiga kiritilgan bo‘lib, o‘tgan davr ichida ushbu sohada asrlarga teng islohotlar amalga oshirildi. Respublikamizning barcha hududlarida, hatto uzoq-uzoq qishloq joylarda ham jahon standartlariga mos sport inshootlari o‘ziga xos go‘zal infrastrukturalari bilan birgalikda bunyod etildi. Mazkur savobli ishlar ayni kunda amaldagi xalqchil siyosatni yanada jadal davom ettirayotgan yurtimizning bugungi yo‘lboshchisi Sh.M.Mirziyoyevning g‘ayrat-shijoati va konseptual dasturlari asosida o‘z ko‘lamini kengaytirmoqda, jismoniy tarbiya va sport, shu jumladan, professional sport ham, tezkor sur’atlar bilan cho‘qqi sari qanot yozmoqda, Juhon, Osiyo musobaqalari va Olimpiya o‘yinlari miqyosida yuksak natijalarga erishib, Vatanimiz shuhratini jahon hamjamiyati oldida tarannum etib kelmoqda. Lenin ta’kidlash joizki, sport natijalari to‘xtab qolmaydi, musobaqalarda keskinlashib borayotgan raqobat yuksak mahoratli sportchilar tarkibini kengaytirish, ommaviy sportdan professional sportga o‘tish sur’atini jadallashtirish zaruriyatini tug‘dirmoqda. Buning uchun 2000-yildan boshlab yurtimizda joriy etilgan “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” kabi ommaviy sport musobaqalari saviyasini ko‘tarish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish, uni xalqimiz, ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarimiz hayotining kundalik ehtiyojiga aylantirish, professional sport salohiyatini yanada ko‘tarish ishlarini jadallashtirishga qodir raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, ixtisoslashgan ta’lim muassasalari faoliyati – zamonaviy bilim berish, o‘rgatish (o‘qitish) sifatini ko‘tarish, ushbu jarayonda ilg‘or texnologiyalar va xorijiy tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur

muammolar yechimi, o‘z navbatida, xalqaro mezonlarga mos o‘quv adabiyotlarini yaratish bilan bog‘liqdir.

Taqdim etilayotgan “Badminton nazariyasi va uslubiyati” o‘quv qo‘llanmasi ana shu mezonlarga maksimal yaqinlashtirilgan bo‘lib, amaldagi o‘quv rejasi va na’munaviy o‘quv dasturi talablari asosida tayyorlangan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmani ishlab chiqishda mualliflar badminton bilan bog‘liq ayrim obyektiv qiyinchiliklarga yuzma-yuz keldi. Gap shundaki, bu sport turi yurtimizda rasman 1963-yildan boshlab rivojlana boshladi. Badminton bo‘yicha chop etilgan o‘quv adabiyotlari soni jahonda ham, hamdo‘stlik davlatlarida ham o‘ta chegaralangan.

Badminton o‘quv fani sifatida 2014-yil O‘zDJIning o‘quv rejasiga kiritildi va shu yildan boshlab ushbu yo‘nalishda kadrlar tayyorlash amalga oshirila boshlandi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma ilk bor nashrga tayyorlangan bo‘lib, unda na’munaviy o‘quv dasturida qayd etilgan barcha mavzular mazmuni jadvallar (21 ta), rasmlar (79 ta), andozalar (9 ta), innovatsion va vaziyatli o‘rgatuvchi mashqlar asosida ochib berilgan. Shuningdek, qo‘llanmadan bilim va amaliy ko‘nikmalarni nazorat qilish hamda baholashga mo‘ljallangan namunaviy test topshiriqlari joy olgan.

Qo‘llanma “kirish”, 23 ta bob va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini o‘z ichiga kiritgan (15 ta asosiy, 14 ta qo‘srimcha adabiyotlar va 6 ta internet saytlari) bo‘lib, “kirish” va 1, 11, 15, 19, 20, 23 boblar dotsent A.A.Pulatov; 3, 4, 5, 6, 7, 8, 12, 13, 14, 17, 18, 21, 22 boblar badminton bo‘yicha O‘zbekiston terma ja-moasi bosh treneri, sport ustasi O.M.Savatyugin; 2, 9, 10, 23 boblar o‘qituvchi Sh.Sh.Isroilov tomonidan tayyorlangan.

I BOB. “BADMINTON NAZARIYASI VA USLUBIYATI” FANIGA KIRISH

Mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab bugungi kungacha badminton yurtimizda borgan sari ommalashib bormoqda. Ta’lim muassasalarida, mahallalar, dam olish va sog’lomlashadirish maskanlarida katta-kichik yoshli sport ixlosmandlarining badminton o’ynayotganlari ko’zga tashlanadi.

Respublikamiz hududlarida bolalar, o’smirlar, yoshlar va professional badmintonchilar o’rtasida turli musobaqalar o’tkazish an’anaga aylanib bormoqda.

So’nggi yillarda o’zbek badmintonchilari nufuzli xalqaro musobaqalarda (Osiyo o’yinlari, championatlar, kubok musobaqalari, turnirlar) munosib ishtirok etib, hatto sovrinli o’rirlarni egallahsga muvaffaq bo’lmoqdalar.

Respublikamiz tumanlari, viloyatlari, shaharlar, hatto qishloq hududlarida ham faoliyat ko’rsatayotgan badminton to’garaklari, sport maktablari va badmintonga ixtisoslashgan sog’lomlashadirish markazlari ko’lami kengayib borayotgani ushbu sport turining yanada ommalashib ketishiga turki bo’lmoqda. Shu bilan bir qatorda, turli yosh va malakali badmintonchilarni tayyorlash, ilmiy asoslangan mashg’ulotlarni o’tkazish, o’zbek badmintonini xalqaro pog’onaga ko’tarish salohiyatiga ega o’qituvchi-trener kadrlar soni o’ta chegaralangandir. Ana shunday mutaxassis - kadrlar yetishtirish va ularning ko’lамини kengaytirish maqsadida 2014-yilda badminton ixtisoslik fani sifatida O’zDJTI o’quv rejasiga kiritilgan bo’lib, shu yildan boshlab ushbu sport turi bo’yicha sport faoliyati – 5610500 ta’lim yo’nalishida bakalavrlar tayyorlash yo’lga qo’yildi.

Ma’lumki, 5610500 – “Sport faoliyati” (badminton) ta’lim yo’nalishi bo’yicha yetishtiriladigan bo’lajak bakalavr na’munaviy fan dasturida qayd etilgan barcha mavzularga doir nazariy bilim va amaliy ko’nikma – malakalarni o’zlashtirishi lozim.

Taqdim etilayotgan o‘quv qo‘llanmada mazkur mavzular mohiyati va mazmuni ochib berilgan.

Badminton ixtisosligi bo‘yicha O‘zDJTIni tugatgan o‘qituvchi-trenerning kasbiy-pedagogik faoliyati quyidagi ta’limtarbiya va sport muassasalarida amalga oshirilishi mumkin:

- maktabgacha tarbiya muassasalari;
- umumta’lim maktablari;
- o‘rtा maxsus ta’lim muassasalari (AL, KHK);
- olimpiya zaxiralari kollejlari;
- BO‘SMIlar;
- Bolalar va o‘smirlar olimpiya zaxiralari maktablari;
- Oliy sport mahorati maktablari;
- sport klublari;
- ko‘ngilli sport jamiyatlar;
- terma jamoalar;
- xususiy sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va sport markazlari;
- oromgohlar va sog‘lomlashtiruvchi maskanlar.

O‘qituvchi-trener amaldagi o‘quv rejasida qayd etilgan fundamental, maxsus va ixtisoslik fanlari bo‘yicha belgilangan nazariy bilim, kasbiy-pedagogik ko‘nikma va malakalarni o‘zlash-tirgan bo‘lishi, jismoniy tarbiya va sportga oid hamda aloqador huquqiy, me’yoriy va ma’muriy hujjatlar mohiyatini bilishi va ularga amal qilishi, ommaviy sport mashg‘ulotlarini o‘tkazish, sport zaxiralari va yuqori malakali sportchilar tayyorlash tajribasini o‘rganib borishi darkor. Shaxs sifatida shakllangan, yuksak ma’naviy va madaniy xislatlarga ega, aqlan teran, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o‘zida jo qilgan, murakkab vaziyatlarda tashabbus va mas’uliyatni o‘ziga olishga qodir va keng dunyoqarashga ega inson bo‘lib etishishi talab qilinadi.

O‘qituvchi-trenerga qo‘yiladigan malakaviy talablar uning kasbiy-pedagogik faoliyatiga xos turli yo‘nalishli ko‘nikmalar bilan belgilanadi: boshqaruvchilik, loyihalash, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, gnostik, targ‘ibot-tashviqot, tadqi-qotchilik shular jumlasidandir.

Boshqaruvchilik qobiliyati – bo‘lajak o‘qituvchi-trener (bakalavr) o‘quv mashg‘ulotlari va sportchilar tayyorlash jarayonini ilmiy asoslangan rejalashtiruv hujjatlari, me’yoriy mezonlari hamda ilg‘or tajribalar va innovatsion texnologiyalar yordamida boshqarishni anglatadi.

Trenerning loyihalash ko‘nikmasi – o‘z ichiga ko‘p yillik sport trenirovkasi tizimida yuqori malakali sport zaxiralarini tayyorlash, yillik tayyorgarlik sikli (makrosikl), mezosikl va mikrosikllarga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar loyihasini ishlab chiqish, ommaviy badminton tadbiralarini rejalashtirish hamda sportchilarni ertalabki gimnastika va jismoniy sisatlarni rivojlantiruvchi mashqlar majmularini mustaqil rejalashtirishga o‘rgatish kabi masalalarni kiritadi.

Konstruktiv ko‘nikma – shug‘ullanuvchilarni badmintonaga oid va unga aloqador bilimlar bilan qurollantirish, mashqlarning murakkabligi va organizmga ta’sir etish xususiyati bo‘yicha ularni tanlashga o‘rgatish, mehnat, ta’lim olish, ovqatlanish, uplash va dam olish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, sportchilarni mashg‘ulot va musobaqa jarayonlarida mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish muammolarini o‘z ichiga oladi.

Tashkilotchilik qobiliyati – shug‘ullanuvchilarning ko‘p qirrali va ko‘p yo‘nalishli faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, ta’limtarbiya va sog‘lomlashtirish jarayonlarini maqsadli amalga oshirish kabi chora-tadbirlar bilan ifodalanadi.

Kommunikativ ko‘nikma – bu trenerda sportchilar, otanonalar, turli toifa va mansabga ega xodimlar, jamoat tashkilotlari bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish masalalari bilan izohланади.

Gnostik ko‘nikma badmintonaga oid turli yosh va malakali badmintonchilar mashg‘ulotlari nazariyasini va uslubiyatiga xos bilimlarni o‘zlashtirish, ilmiy va uslubiy adabiyotlardan foydalananish, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, o‘z tajribasi va ilg‘or tajribalar mohiyatini tahlil qilish masalalarini o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchi-trener faoliyatiga xos ushbu ko‘nikmalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqidir. Bundan tashqari, talabalar ta’lim jarayonida tanishtiruv amaliyoti, o‘qituvchilik va trenerlik kasbi bo‘yicha malakaviy amaliyotlar talablarini bajarishi, tanlangan

mavzu bo'yicha bitiruv malakaviy ish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi va IV kursda o'z malakaviy ishlarini yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tkazishi o'quv rejasida belgilangan.

"Badminton nazariyasi va uslubiyati" fanida (shu jumladan, badminton amaliyotida ham) tez-tez takrorlanib turadigan tushunchalar va atamalar mohiyatini bilish, ularning mantiqiy ma'nosini anglab olish ushbu darslik mavzulari va materiallarini yanada chuqurroq o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Quyida qator tushunchalar va atamalar mohiyati ochib berilgan.

Texnika – yunoncha (tehnus) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida "san'at" ma'nosini anglatadi. Sport amaliyotida, xususan, voleybolda "texnika" harakat malakalari, o'zin usul-larining tuzilish shakli, mazmuni va ijro etish tartibini ifodalaydi. Muayyan harakat (o'zin usuli – zarba, to'p uzatish, to'p kiritish va h.k) texnikasi maxsus mashqlar yordamida qanchalik ko'p va uzoq vaqt takomillashtirilsa, u shunchalik go'zal, chiroyli, yengil, bioenergetik jihatdan tejamli, samarali, aniq va "san'at" darajasida ijro etiladi.

Taktika – yunoncha (taktikus) so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida "tartiblashtirish" ma'nosini anglatadi.

Strategiya – yunoncha (strategia) so'zidan olingan bo'lib, harbiy sohada, siyosiy partiyalarda eng samarali yo'l, usul yoki vositani tanlab, g'alaba sari olib borish ma'nosini ifodalaydi.

O'zin malakalari – o'zin vositalari (to'p uzatish, to'p qabul qilish, zarba, to'siq, to'p kiritish)ni ifodalovchi harakat turlarini anglatadi.

O'zin usullari – o'zin malakalarini turlicha usullar (yuqoridan va pastdan ikki qo'llab hamda bir qo'llab to'p uzatish, to'g'ri yo'nalishda zarba berish yoki burib zarba berish, to'p kiritish turlari va h.k)da ijro etishni ifodalaydi.

Taktik harakat – samarali natija yoki g'alabaga qaratilgan hamda yakka, guruh va jamoa ishtirokida ijro etiladigan malakalarni anglatadi.

Texnik tayyorgarlik – texnik mahoratni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ushbu jarayonning natijasi texnik mahoratni o'sganlik darajasini ko'rsatadi.

Taktik tayyorgarlik – taktik mahoratni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon bo‘lib, ushbu jarayonning natijasi taktik mahoratni o‘sganlik darajasini ko‘rsatadi.

Mashg‘ulot yuklamasi – muayyan hajm, shiddat, muddat, takrorlanish, yo‘nalishda ijro etiladigan va sportchi organizmiga (ish qobiliyatiga) ta’sir etuvchi mashqlar yig‘indisini ifodalaydi.

Musobaqa yuklamasi – musobaqa davomida bajariladigan va ish qobiliyatiga ta’sir etadigan o‘yin yuklamasini anglatadi.


I-andoza



Tanlov va o‘yin ixtisosligi (amplua)ga yo‘naltirish – nasliy va hayot davomida erishilgan jismoniy (bo‘yi, vazni, kuch, tezkorlik, sakrovchanlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik va h.) va psixofiziologik (harakat reaksiyasi, ko‘rish doirasi, ko‘rish o‘tkirligi, diqqatni jamlanishi, eslab qolish qobiliyati, yurakni qisqarish chastotasi, nafas olish chastotasi, arterial qon bosimi va h.) ko‘rsatkichlarni baholash asosida sport turiga saralab olish hamda boshlang‘ich tayyorgarlik yakuniga borib va o‘quv-trenirovka bosqichi davomida o‘yin ixtisosligiga yo‘naltirish

jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Tanlov ko‘p qirrali, keng qamrovli va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, har o‘quv-trenirovka yili yakunida o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Terma va klub jamoalariga qabul qilish (saralash) ham tanlov asosida amalga oshiriladi.

2-andoza



Nazorat savollari

1. Badminton ixtisosligi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega kadrlar tayyorlash qanday qonunlar va huquqiy-me’oriy hujjatlarga asoslanadi?
2. Badminton bo‘yicha oliy ma’lumotga ega o‘qituvchi-trenerning kasbiy-pedagogik faoliyati qanday ta’lim va sport muassasalarida amalga oshiriladi? Ularning funksional faoliyatini qisqacha ta’riflab bering.
3. Badminton bo‘yicha o‘qituvchi-trener qanday ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim?
4. Badminton nazariyasi va uslubiyati qanday mavzularni o‘z ichiga oladi?

II BOB. BADMINTONNI VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

2.1. Badmintonni paydo bo‘lishi va uni shakllanish bosqichlari

Badminton insoniyat tamaddunining eng qadimiy o‘yinlaridan biridir. Uning kelib chiqishi borasida ko‘plab afsonalar mavjud. Qadimgi Yunoniston, Yaponiya, Hindiston va hatto Afrika xalqlarining rivoyatlarida bundan ikki ming yillar avval kattalar va bolalar volan (badminton koptogi) o‘ynaganliklari qayd etilgan. “Uchuvchi pat” deb nomlangan qadimiy sport o‘yini Xitoyda eramizdan ming yil oldin ham ma’lum bo‘lgan.

U Yaponiyada “oyabane” deb atalgan hamda bir nechta g‘oz pati va quritilgan sakura mevasidan tayyorlangan volanni yog‘och raketkalarda oshirib tashlashga asoslangan. V.Gyugo va I.F.Shillerlarning asarlaridan Yevropada XVI asrda o‘ynalgan volan o‘yini haqida bilib olish mumkin. Fransiyada bunday o‘yin “je-de-pom” (olma bilan o‘ynash) deb nomlangan. O‘rta asr ingliz gravyuralarida bir-birlariga volanni oshirayotgan dehqonlar tasvirlangan. XVIII asrga oid rasmlar Rossiyada ham insonlar o‘scha paytda shunga o‘xhash o‘yinni o‘ynaganlardan dalolat beradi. Gavriil Derjavin ham patli koptok haqida yozib qoldirgan.

1650-yilda Shvetsiya qirolichasi Kristina Stokgolmdagi Royal Palas (Qirollik saroyi) yaqinida saroy ayonlari va xorijiy mehmonlar bilan “patli koptok” o‘ynash uchun maxsus kort qurdiradi. Mazkur kort Shvetsiya poytaxtida hanuzgacha saqlanib qolgan hamda bugungi kunda cherkov mulki hisoblanadi.

XIX asrda Angliyada gersog Beford xonardonida volan o‘yini ayniqsa juda ommalashadi. Gersog badminton Assotsiatsiyasining homiysi bo‘lgan. Bugungi kunda u egalik qilgan Front Xollda ko‘hna raketka va volanlarning ajoyib kolleksiyasi saqlanadi.

1860-yilda Isaak Sprat badminton haqida kitob yozdi va unda ushbu o‘yinning ilk qoidalarini tavsiflab berdi.

Zamonaviy badmintonning Vatani Hindiston hisoblanadi. U XIX asrda Hindistonda keng ommalashgan va ayrim manbalarga ko‘ra – “pune”, boshqalarida aytishicha – “roopa” deb atalgan o‘yindan kelib chiqqan.

O'sha davrda Hindistonda xizmat qilgan ingliz zabitlari bu o'yinni katta qiziqish bilan o'ynaganlar. 1872-yilda Vatanlariga qaytgach, ular mazkur qiziqrarli o'yinni Glochestershirk yaqinidagi Badminton yer-mulkida namoyish etishadi. Aynan shu yil Angliyada mana shu yer-mulk nomidan kelib chiqib "badminton" deb nom berilgan o'yining "tug'ilgan yili" hisoblanadi. 1875-yilda zabitlarning "Folkstaun" nomli badminton klubiga asos solinadi. Assotsiatsiyaning ilk prezidenti polkovnik Dolbi bo'lib, u "pune" – "roopa" o'yinlari qoidalari asosida badmintonning yangi qoidalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Ana shu qoidalarning ayrimlari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Asta-sekin Angliyada badminton klublari yuzaga kela boshlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'sha davrda turli hududlarda o'lchami har xil bo'lgan maydonlarda o'ynashgan. Gvilforddag'i kort ayniqsa mashhur bo'lgan. Aynan mana shu kortning o'lchamlari (44x20 fut yoki 13,4012x6,096 m) 1887-yilda Badminton klubi tomonidan nashr etilgan o'yin qoidalari kiritiladi.

1898-yilda badminton bo'yicha ilk rasmiy turnir bo'lib o'tadi. 1899-yil 4-aprelda Londonda birinchi marta Angliya championati o'tkaziladi. Keyinchalik Angliyada championatlar ommalashadi, badminton klublari soni ham ortib, badminton o'yini Birlashgan Qirollik va butun Yevropada keng ommalashib boradi.

Yangi sport o'yini tez ommalashib, o'z navbatida, volan ishlab chiqarish ham rivojlanadi. 1898-yilda volan ishlab chiqarish bo'yicha ilk patentni Enn Jekson xonim oladi.

Badminton nafaqat Angliya, balki uning ko'pdan ko'p mustamlakalarida ham keng tarqaladi. Shu bois, 1934-yil 5-iyulda Xalqaro badminton federatsiyasi (IBF)ga asos solgan mamlakatlarning aksariyati Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakalari hisoblanadi.

Bugunga kelib mazkur federatsiyaga 100 dan ortiq mamlakat a'zo. Xalqaro badminton federatsiyasi (IBF) turli musobaqalar o'tkazib keladi. Ular orasida erkaklar milliy terma jamoalari o'rtasida o'tkaziladigan Tomas kubogi (IBFning birinchi prezidenti nomi bilan atalgan), ayollar terma jamoalari o'rtasida bo'lib o'tadigan Uber kubogi (IBFning mashhur va faol vakilasi nomiga qo'yilgan) musobaqalari eng yiriklari hisoblanadi.

Tomas kubogiga 1948-yilda asos solingan bo'lib, u har uch yilda bir marta o'tkaziladi. Saralash bosqichi to'rtta hududda: Amerika, Avstraliya-Osiyo, Osiyo va Yevropa mintaqalarida bo'lib o'tadi. Mintaqaviy musobaqlar g'oliblari kubok sohibligiga nomzodni aniqlash uchun o'tkaziladigan asosiy bosqichda kuch sinashadilar. Asosiy bosqich g'olib finalda uch yil oldingi musobaqada kubokni qo'lga kiritgan jamoa bilan ro'baro' keladi. Uber kubogi bahslari esa 1956-yildan beri uch yilda bir marta o'tkazib kelinmoqda.

1968-yildan boshlab ikki yilda bir marta Yevropa shaxsiy birinchiligi, 1972-yildan esa qit'aning jamoaviy championati o'tkazilmoqda. Jamoaviy birinchilikda milliy terma jamoalar beshtadan o'yin kuzatishadi, ya'ni: erkaklar yakkaligi, ayollar yakkaligi, erkakligi juftligi, ayollar juftligi, aralash juftlik(mikst). Bulardan tashqari, xalqaro federatsiya bir qator rasmiy shaxsiy turnirlarni ham o'tkazib keladi. Ular orasida yaqin-yaqinlargacha Angliya ochiq championati eng mashhurlaridan biri bo'lgan va u norasmiy jahon championati hisoblangan. Angliya ochiq championatiga 1899-yilda asos solingan.

Ilk rasmiy jahon championati 1977-yil Shvetsiyaning Malme shahrida bo'lib o'tgan.

1992-yilda badminton olimpiada o'yinlari oilasiga qabul qilinadi.

Sobiq Sovet Ittifoqida badminton 1957-yilda rasmiy maqomga ega bo'ldi, desak xato qilmaymiz. Shu yili Moskvada o'tkazilgan yoshlar va talabalarning Butunjahon festivalida Ittifoq vakillari V.Dyomin, I.Sokolov, S. Zamuruyeva, N. Kalashnikov mazkur xalqaro forumga tashrif buyurgan xorijlik sportchi-badmintonchilar bilan kuch sinashganlar.

1959-yilda birinchi marta Moskva shahri shaxsiy championati o'tkaziladi (g'oliblar: V.Dyomin va S.Zamuruyeva), 1960-yilda esa ilk shaharlari musobaqada Moskva va Lvov shaharlari badmintonchilari kortda kuch sinashadilar.

1961-yilda Moskva, Leningrad, Xarkov, Lvov va boshqa bir qator shaharlari badmintonchilari o'rtaida shaharlari turniri bo'lib o'tadi. Final o'yinida Moskva shahrining "Mehnat" jamiyatini

sportchilari (M.Seminas, M.Goncharova, N.Sokolov, N.Goncharov, N.Oreshkin) hamshaharlari – “Burevestnik” sport jamiyati vakillari (T.Dorofeyev, T.Chistyakova, V.Xolodov, M.Shtilman, A.Postnikov, V.Mixeyev) ustidan g‘alaba qozonishdi. O‘scha yili “Kosmonavtlar kubogi” deb nomlangan turnir ham tashkil qilinadi. Bu bejiz emasdi. Chunki dunyoning birinchi kosmonavti Yu.Gagarin o‘zining tarixiy parvozidan keyin jurnalistlarga bergen intervusida shunday degandi: “Badminton o‘ynashni yoqtiraman. Bu juda ajoyib o‘yin”.

1963-yilda Moskva shahrida birinchi SSSR championati bo‘lib o‘tadi.

1974-yilda sobiq Sovet Ittifoqi Xalqaro badminton federatsiyasi a’zoligiga qabul qilinadi. XXI asr boshlarida Xalqaro badminton federatsiyasi o‘z nomini o‘zgartirdi. Hozirda u Butunjahon badminton federatsiyasi (BWF) deb nom olgan.

Nazorat savollari

1. Badminton qachon, qayerda va kim tomonidan ixtiro qilin-gan?
2. Badminton o‘yininining birinchi qoidalari va ularni o‘zgarish dinamikasiga tafsilot bering.
3. Zamonaviy badmintonning vujudga kelishi.
4. Badmintonning paydo bo‘lishi va uning shakllanish bosqich-lari.

III. BOB. O'ZBEKISTONDA BADMINTONNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

3.1. Badmintonning mustaqillik davrigacha rivojlanishi

1957-yil sobiq "Ittifoq" badmintonining "tavallud topgan" kuni deb e'tirof etilishi mumkin. Shu kundan boshlab badminton Moskva va Leningrad hamda ayrim "Ittifoqdosh" respublikalar bo'yab ommaviylasha boshladi. 1962-yil bir qator respublikalar (Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston), shu jumladan, Moskva va Leningrad shaharlari terma jamoalari o'rtasida norasmiy musobaqalar tashkil etildi. O'zbekiston terma jamoasi 1963-yilda ilk bor o'tkazilgan sobiq "Ittifoq" championatida ishtirok etib, 14 jamoa ichidan 9-chi o'rinni egallahsga muvaffaq bo'ldi. Ana shu yillardan boshlab badminton yurtimizda, ayniqsa, Toshkent, Farg'ona, Andijon, Navoiy va Angren shaharlarida jadal rivojlanib, ommalashib bordi.

1982-yilda Toshkentda badminton bo'yicha sobiq "Ittifoq" championatining shaxsiy-jamoa musobaqaqlari o'tkazildi. O'zbekiston terma jamoasi tarkibida Bilol Agzamov, Grigoriy Klimberg (Toshkent sh.), Aleksandr Tranevich (Angren), Nuzet Kurtumetov (Angren), Elena Lizupova (Toshkent sh.) lar ishtirok etishdi va munosib o'zin ko'rsatishdi. Toshkent shahar terma jamoasi o'sha vaqtida V.A.Tkachenko, Angren terma jamoasi esa I.P.Derjak kabi trenerlar boshchiligidagi shug'ullanishgan edi.

1963-yildan boshlab O'zbekistonda badminton bo'yicha o'tkazilgan musobaqalar (championatlar) va shu sport turiga tegishli ayrim ma'lumotlarni keltirish mumkin. Jumladan, 1963-yilda Adabiyot institutida badminton bo'yicha O'zbekiston saralov championati o'tkazildi va bunda Mitxat Ibragimov champion bo'ldi.

1970-yilda badminton O'zbekiston Davlat sport qo'mitasining musobaqalar taqvim rejasiga kiritildi va bosh trener

lavozimiga “Zenit” KSJda faoliyat yurituvchi Leonid Klimberg tayinlandi.

1975-yilda O‘zbekistonda turli KSJlarda (“Zenit”, “Profsoyuz”, “Mehnat”, “Spartak”, “Morji”, “Lokomotiv”, “Burevesnik”) mehnat qiluvchi trenerlar soni 10 nafardan ortdi.

1979-yilda badmintonga ixtisoslashgan bo‘limlar Angren, Navoiy, Andijon, Namangan, Samarqand va Guliston shaharlarida o‘z ish faoliyatini boshladi.

1980–1990-yillarda bir qator respublika va sobiq “Ittifoq” miqyosidagi “kubok”, turnir, championatlar o‘tkazildi.

1991-yilda badminton bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi barcha turdagи musobaqalarda, shu jumladan, xalqaro turnirlarda ishtirok eta boshladi.

1992 va 1995-yillarda Toshkentda ilk bor xalqaro turnirlar tashkil etildi.

1998-yilda badminton bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi o‘smirlar terma jamoasi Osiyo o‘smirlar championatida ishtirok etdi.

1999-yilda O‘zbekiston Respublikasi milliy terma jamoasi Kuala-Lumpur (Malayziya)da o‘tkazilgan Osiyo championatida ishtirok etib, kvalifikatsion turnir bosqichidan yuqoriga o‘ta olmadи.

2004-yilgacha badminton musobaqalari faqat O‘zbekiston hududlarida o‘tkazildi. Faqtgina 2003-yilda O‘zbekiston terma jamoasi Qozog‘istonda o‘tkazilgan xalqaro turnirda ishtirok etdi. Ushbu turnirda vakillarimiz Oleg Savatyugin va Alisher Zoxidov sovrindor bo‘lishdi. Faxriyalarimiz terma jamaa tarkibida bir oltin va ikkita kumush medallarini olishga sazovor bo‘lishdi.

Mustaqillik davrigacha O‘zbekistonda badminton bilan 450 ming kishi shug‘ullangan, 19 nafar trener va 27 nafar hakamlar faoliyat ko‘rsatishgan.

O‘zbekistonda 1993-yilda Valeriy Aleksandrovich Tkachenko sport ustasi unvoniga sazovor bo‘ldi.

1984-yilda toshkentlik Alisher Zoxidov “Ittifoq” reytingida - 19-chi, Sergey Starchinov – 23-chi, Yelena Lizunova – 22-chi, Galina Kozina – 27-chi o‘rinni egallagan.

1986-yilda vakillarimiz Andrey Bitiyev yakka toifada Zelinogradda o'tkazilgan "Ittifoq" o'smirlar birinchiligidagi g'olib bo'lishga muvaffaq bo'ldi. Andrey Bitiyev va Anatoliy Galchenko juftlik toifasida g'oliblikni qo'lga kiritdilar. Yuliya Yakobson (Seytlin) va Galina Kozina ayollarning juftlik toifasida ikkinchi o'rinni sohibi bo'lishdi, Irina Galchenko va Marina Shutovalar esa uchinchi o'rinni bilan kifoyalanishdi.


1991-yilda o'tkazilgan "Ittifoq" xalqlari Spartakiadisida O'zbekiston terma jamoasi 6-o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi.

O'zbek badmintonchilarining 1991-yildan boshlab respublika championatlari va kubok musobaqalarida erishgan natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O'zbek badmintonchilarining respublika musobaqalarida qayd etgan natijalari

	O'zbekiston Respublikasi championati g'oliblari			O'zbekiston Respublikasi kubogi g'oliblari		
	Yakka-lik	Juftlik	Aralash (mikst)	Yakkalik	Juftlik	Aralash (mikst)
	23 – 27-fevral			14–19-mart		
1991	Agzamov Kozina	Agzamov- Savatyugin Pidenko- Yakobson	Savatyu- gin- Kozina	Zaxidov Temni- kova	Agzamov- Starchikov Yakobson- Kozina	Agzamov -Pidenko
	14 – 19-aprel			3–10-may		
1992	Zaxidov Pidenko	Savatyugin- Zaxidov Temnikova- Pidenko	Savatyu- gin- Kozina	Shereme- tov Kozina	Savatyugin -Zaxidov Yakobson- Kozina	Agzamov -Shutova
	2–8-fevral			4–10-avgust		
1993	Agza- mov Yakob- son	Savatyugin- Zaxidov Yakobson- Kozina	Zaxidov- Temni- kova	Savatyu- gin Yakobson	Savatyugin -Zaxidov Pidenko Pechen- kov	Savatyu- gin- Dayanova



1-jadval davomi

		11–17-fevral		28-aprel – 3-may		
1994	Galchenko Kozina	Savatyugin-Zaxidov Yakobson-Kozina	Savatyugin-Kozina	Agzamov Pidenko	Agzamov-Starchikov Yakobson-Kozina	Savatyugin-Kozina
	19–24-aprel			2–9-oktyabr		
1995	Bitiev Pidenko	Bitiyev-Galchenko Pidenko-Pechen	Savatyugin-Shutova	Zaxidov Pidenko	Savatyugin-Zaxidov Pidenko-Xamidulina	Savatyugin-Pechen
	20–26-fevral			1–8-noyabr		
1996	Zaxidov Pidenko	Zaxidov-Savatyugin Pidenko-Strujanova	Bitiyev-Xamidulina	Agzamov Seytlin	Savatyugin-Zaxidov Strujanova-Vertyan-kina	Agzamov-Pidenko
	15–25-fevral			22–27-may		
1997	Savatyugin Dayanova	Savatyugin-Zaxidov Seytlin-Dayanova	Agzamov-Seytlin	Savatyugin Seytlin	Zaxidov-Bitiev Jumabekova Dayanova	Savatyugin-Juma-bekova
	17–22-aprel			25–30-oktyabr		
1998	Savatyugin Xamidulina	Bitiev-Agzamov Xamidulina-Strujanova	Bitiyev-Xamidulina	Zaxidov Seytlin	Savatyugin-Zaxidov Seytlin-Juma-bekova	Savatyugin-Juma-bekova

	24-31 mart			7-12 iyun		
1999	Zaxidov Seytlin	Savatyugin- Zaxidov Seytlin- Jumabekova	Sava- tyugin- Juma- bekova	Sava- tyugin- Seytlin	Sava- tyugin- Zaxidov Seytlin- Juma- bekova	Sava- tyugin- Juma- bekova
	21-28 fevral			24-29 may		
2000	Zaxidov Seytlin	Savatyugin- Zaxidov Seytlin- Juma- bekova	Sava- tyugin- Juma- bekova	Zaxidov Seytlin	Sava- tyugin- Zaxidov Seytlin- Juma- bekova	Sava- tyugin- Juma- bekova
	24-30 mart			1-6 iyun		
2001	Zaxidov Seytlin	Savatyugin- Zaxidov Seytlin- Jumabekova	Zaxidov- Seytlin	Sava- tyugin Seytlin	Sava- tyugin- Zaxidov Seytlin- Juma- bekova	Sava- tyugin- Juma- bekova
	25-29 mart			3-8 iyun		
2002	Zaxidov Kate- rinich	Zakirov- Agzamov Katerinich- Seytlin	Zaxidov- Smirnova	Zakirov	Zakirov- Agzamov Juma- bekova- Seytlin	Sava- tyugin- Kate- rinich
	25-29 mart			9-14 iyun		
2003	Sava- tyugin Smir- nova	Zakirov- Bitiyev Smirnova- Asyanova	Kosimov- Kate- rinich	Zaxidov Katerinich	Sava- tyugin- Zaxidov Smirnova- Asyanova	Zaxidov - Smirnova

1989–1993-yillargacha O‘zbekiston badminton federatsiyasini Respublika “fizkultura” dispanseri bosh shifokori N.A.Muxamedjanov rais (prezident) sifatida boshqargan.

1993-yildan boshlab ushbu federatsiya faoliyatini “Sayohat” mehmonxonasi direktori U.T.Akbarov boshqargan.

1998-yildan 2003-yilgacha – Respublika o‘smirlar Oliy sport mahorati maktabi direktori B.X.Agzamov federatsiyaga rahbarlik qilgan. 2003-yilda federatsiya prezidenti etib “Kamolot” – O‘zbekiston yoshlar ijtimoiy harakati markaziy kengashi raisi B.X.Ubaydullaev saylangan.

2011-yil 26-avgustda tashkil topgan hozirgi O‘zbekiston badminton federatsiyasi Prezidenti sifatida Abduhakimov A.A. faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda badminton bilan 300 nafardan ortiq sportchilar shug‘ullanadi, ulardan 12 nafari sport ustalari, 10 nafari trenerlar, hakamlar 42 nafarni tashkil etadi.

Nazorat savollari

1. Badminton O‘zbekistonda qachon va qayerda vujudga kelgan?
2. O‘zbekistonda badminton inshootlari va badmintonni yanada rivojlantirish imkoniyatlari.
3. O‘zbekiston va xalqaro badminton federatsiyalari haqida tu-shuncha.
4. Badmintonni mustaqillikkacha va mustaqillikdan so‘ng rivoj-lanish tarixiga oid ma’lumotlarni izohlab bering.
5. O‘zbekistonda badmintonning bugungi ahvoli, ommaviy mu-sobaqalardagi o‘rni.
6. O‘zbekistonda badminton inshootlari va badmintonni yanada rivojlantirish imkoniyatlari.

IV BOB. O'YIN TEXNIKASI ASOSLARI VA UNING TASNIFI

4.1. Texnika haqida tushuncha

“Texnika” atamasi aslida yunoncha (tehnus) so‘z bo‘lib, turli sohalarda juda keng ma’noda qo‘llaniladi va o‘zbek tilida “san’at” tushunchasini anglatadi. Etimologik lug‘atdan shu narsa ma’lumki, miloddan avval 776-yildan boshlab har 4 yilda Gretsiyadagi Olimp tog‘larining etagida joylashgan Olimp qishlog‘ida Xudo Zevs sharafiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan umumyunon bayram musobaqlari ishtirokchilari 2 g‘ildirakli aravachada poyga, mushtlashish, beshkurash sporti bo‘yicha o‘z san’atlarini (texnikasini) namoyish etganlar. Qizig‘i shundaki, har bir ishtirokchi musobaqadan oldin o‘z qaddi-qomatini, tana, qo‘l, oyoq mushaklarining shaklan va mazmunan go‘zal ko‘rinishda taraqqiy etganligini namoyish etishi mazkur musobaqalarning shartlaridan biri bo‘lgan ekan.

Musobaqalardan 4 yil muqaddam ishtirokchining qaddi-qomati, mushaklarining shakli, ularning ish bajarish (qisqarish) mazmuni ma’lum dastlabki ko‘rinish va rivojlanganlik darajasiga xos bo‘lsa, 4 yil muntazam jismoniy mashqlar bilan maqsadli shug‘ullanish natijasida qayd etilgan ko‘rsatkichlar salohiyati yanada kuchayadi, qaddi-qomat yanada go‘zallahadi, mushaklarining qisqarish (bo‘shashish) kuchi va tezligi ortadi, chidamkorligi va qayishqoqligi kuchayadi, organizmning barcha ichki a’zolari funksional jihatdan shakllanadi. Ana shu o‘zgarishlar muayyan harakatni (ayniqsa, musobaqa uchun tanlangan harakatni) samarali va yuksak mahorat bilan ijro etilishiga imkon tug‘diradi. Qadimiy yunon musobaqalaridan aynan mazkur mahorat “san’at” (texnika) sifatida baholangan.

Masalaning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, ilg‘or texnika va texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilayotgan hamda uzluksiz shakllanib boradigan turli vositalar (samolyot, raketa, televizor, sovitgich, lift, traktor, avtomobil va h.k.)ning har bir

avlodi o‘zining tashqi ko‘rinishiga, shakliga, mazmuniga, muayyan o‘lchamlariga egadir. Ma’lumki, ushbu ko‘rsatkichlar shu vositalarning texnik pasportida qayd etiladi.

Ta’kidlash joizki, har bir sport turiga oid harakat malakalari ham o‘z texnik ko‘rsatkichlari, o‘lchamlari va ularni ijro etishda o‘ziga xos texnik tartibga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, sportchi muntazam shug‘ullanishi natijasida musobaqada ishtirok etadi va o‘zining texnik mahorati darajasi tufayli ma’lum o‘rinni egallaydi, texnik pasportini esa sekin-asta yangilab boradi.

Zamonaviy badminton o‘yini ham ko‘pdan-ko‘p harakat malakalaridan iborat bo‘lib, shug‘ullanuvchilardan ixtisoslashgan kuch, tezkorlik, chidamkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik sifatlarini, iroda, matonat, o‘tkir zehnlik, zukkolik, “ayyorlik” (yaxshi sport ma’nosida) va boshqa shu kabi xislatlarni shakllantirishni talab qiladi. Bugungi badmintonda g‘alabaga erishish faqat uzlusiz va maqsadli qo‘llanadigan katta yuklamali mashg‘ulotlar evaziga amalga oshirilishi mumkin. Shug‘ullanuvchilar organizmining imkoniyati ham bechegara emas, binobarin, yuklama va ish qobiliyatini tiklash (charchoqni bartaraf etish va organlarni tiklash) orqali shu organizm ish qobiliyatini, uni funksional faoliyatini muntazam shakllantirib borish zarur bo‘ladi. Mashg‘ulotlarga aynan shunday yondashuv tufayli sportchining texnik mahoratini samarali shakllantirish mumkin, shundagina turli o‘yin vaziyatlarida qo‘llanilishi zarur bo‘lgan taktik yoki strategik masalalarni hal qilish imkoniyati tug‘iladi.

4.2. Badminton texnikasi, uning tasnifi va mazmuni

Badminton o‘ynash uchun raketka, volan, sport kiyimi va maydoncha kerak bo‘ladi.

Plyaj badmtoni (u sportga oid emas)ni yetarlicha ochiq joy bo‘lsa, to‘rsiz o‘ynasa ham bo‘ladi. O‘yinni bir vaqtning o‘zida ikki nafardan besh nafargacha odam o‘ynashi mumkin. Agar o‘yinchilar soni juft bo‘lsa, bir-birlariga qarama-qarshi turgan holda raketka yordamida volanni bir-birlariga uzatishlari kerak. Bunda imkon qadar volanni yerga tushirib yubormaslikka intilish zarur. O‘yinchilar soni toq bo‘lganda esa, kengroq joylashib olib, volanni


nafaqat sherigiga, balki doira bo‘ylab ham uzatish mumkin. O‘yinchilar sonidan qat’i nazar, ular orasidagi masofa o‘rtacha uch metrdan o‘n metrgacha bo‘lishi talab etiladi. O‘yin joyini tanlashga e’tiborli bo‘lish kerak. U tekis bo‘lishi, atrofda o‘yinchilarga tan jarohati yetkazishi mumkin bo‘lgan narsalar bo‘lmasligi lozim. O‘yinni boshlashdan oldin ozgina mashq qilib – yugurib, sakrab, qo‘l va oyoqlarni aylantirib, o‘tirib-turib, badanni qizitib olgan ma’qul.

Sport badmintoni esa maxsus tayyorgarlikni va maxsus sport maydonchasi bo‘lishini talab qiladi.


Sport badmintonining mazmuni shundan iboratki, o‘yinchi raketka yordamida volanni to‘r ustidan oshirib raqibi tomonga tashlashi, bunda volan o‘zi tarafda yerga tushmasligiga, aksincha, raqib tomonda yerga tushishiga harakat qilishi zarur. Agar raqiblar ikki kishi bo‘lsa, bu o‘yin yakkalik, mabodo to‘rt kishi bo‘lsa, juftlik deb ataladi. Shuningdek, erkak-ayol juftligi xuddi shunday juftlikdagi raqibga qarshi ham o‘ynashi mumkin. Bunday o‘yin mikst deb nomlanadi. “Mikst” so‘zi inglizchadan tarjima qilinganda, “aralash” degan ma’noni anglatadi.

Raketkani ushlash usullari. Raketkani ushlashning universal shakli quyidagicha (1-rasm):

- chap qo‘l bilan raketkaning sterjenidan dastagini o‘zingizga qaratib ushlaysiz, bunda raketka kallagi gardishi polga perpendikulyar bo‘lishi kerak;
- o‘ng qo‘l bilan raketka dastagini xuddi salomlashgandek ushlaysiz va uni qo‘lni siqqandek siqasiz (2-rasm);
- dastakni qo‘l bilan shunday ushlash kerakki, bunda yon tomoni ko‘rinib tursin va turlicha holatlarda zarba berganda barmoqlarning harakatlanishiga xalaqit bermasin;
- katta barmoqning birinchi bo‘g‘ini chap tomonda – dastak keng yuzasining yon tomonida bo‘lishi zarur.



1-rasm. Raketkani ushslash texnikasi va uning kaft bilan tutashish nuqtalari.



2-rasm. Raketkani ushslashning tasviya etiladigan umumiy holatlari.

Raketka kallagi tomonlarini anglatuvchi maxsus atamalar: *ochiq* tomon va *yopiq* tomon (3-rasm).



3-rasm. Raketka kallagining tomonlari.

Agar siz raketkani to‘g‘ri ushlab turgan bo‘lsangiz hamda qo‘lingizni oldinga cho‘zganingizda raketka kallagi pol bilan

perpendekular shaklda bo'lsa, raketkaning chap tomoni *ochiq*, o'ng tomoni esa *yopiq* bo'ladi. Raketkaning ochiq tomoni bilan zarba berilganda, raketkani ushlab turgan qo'lingizni ko'targaningizda u go'yoki tanangizni ochgandek, yopiq tomon bilan zarba berilganda esa tanani yopgandek bo'ladi. Shunga mos ravishda badmintonchi atrofidagi joyni zarba chegaralariga bo'lishi mumkin (4-rasm).



4-rasm. Sportchi tanasiga nisbatan raketkaning ochiq va yopiq tomoni bilan zarba berish chegaralari.

Aralash chegaralar – bu shunday joylarki, o'yinda yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqib, volanga raketkaning qulay tomoni bilan zarba berishdan iboratdir.


Universal o'yin uchun raketkani sterjeniga juda yaqin ushslash, yoki aksincha, kaft bilan dastakning oxirini changallab turish tavsiya qilinmaydi. Oddiyroq qilib aytganda, raketka dastagini o'rtasidan xuddi u bilan qo'l berib salomlashayotgandek ushlab tursangiz hamda bu holatda raketka kallagi yuzasi polga perpendikulyar holatda bo'lsa, universal ushslash holati bo'ladi. Ayrim sportchilar to'r yaqinida o'ynayotgan paytlarida raketkani sterjeniga yaqin ushlashadi, bu esa volanga zarba berish vaqtini qisqartirish imkonini beradi.

Bugungi kunda sportchilarda universal ushslashdan tashqari yana ikki turdag'i raketka ushslash usuli mavjud: osiyocha va yevropacha. *Osiyocha* usulda raketka dastagi xuddi to'r yaqinida o'ynagandagi kabi sterjen asosiga yaqin ushlanadi. Bunday ushslash

reaksiya borasida kattagina afzallik beradi, ammo buning uchun badmintonchi yaxshi texnika va yuksak tayyorgarlikdagi jismoniy sifatlarga ega bo'lishi zarur. *Yevropacha* usul – o'yinchining panjasি racketka dastagini sterjen asosining teskari tomonidagi yon tomonidan ushlashni nazarda tutadi. Bu zarba beruvchi yelkaning oshishi hisobiga volanga beriladigan zarba kuchini orttirishda afzallik beradi, ammo volanga reaksiyani susaytiradi.

Racketka dastagini qanchalik mahkam siqib ushlash kerak? Obrazli qilib aytganda, racketka dastagini xuddi qushchani ushlab turgandek tutish tavsiya qilinadi. Ya'ni u uchib ketmasligi uchun qattiqroq siqib ushlash, o'z navbatida, siqib o'ldirib qo'ymaslik uchun bo'shroq ushlash kerak. To'g'ri, siz zarba paytida dastakni, u zarbadan keyin qo'lingizdan chiqib ketmasligi uchun, qisib ushlab olasiz. Raketkani har doim juda siqib ushlab turish tavsiya qilinmaydi.

Racketka dastagini ushlashning turli o'yinchilar va har xil o'zin holatlari uchun mo'ljallangan boshqa ko'plab variantlari ham mavjud, lekin ularning barchasi individual hisoblanadi. Turlicha o'zin holatlarida badmintonchilar ushlashni o'zgartirib turishadi (5-rasm). Volan o'yinchining chap tomonidan uchib o'tayotganda unga zarba berishdagi ushlashning o'zgarishi eng ko'p tarqalgandir. Bunda volanga bosimni oshirish uchun bosh barmoq dastakning keng yuzasida bo'ladi. Raketkani ushlashning to'g'riligini ko'rsatuvchi asosiy belgilari – jarohatning yo'qligi, o'yining qulay va samarali ekanlidir.



O'ng tarafдан



Chap tarafдан

5-rasm. Raketkani ushlash variantlari:

o'ng tomonidan zarba uchun; *chap tomonidan zarba uchun.*

Raketkani ushlashning boshqa ko'plab variantlari ham mavjud, ammo yuqorida tasvirlangan universal usul asosiy hisoblanadi.

Volanni o'yinga kiritish. Volanni o'yinga kiritish bilan bog'liq texnik element *oshirish* deb nomlanadi. Volan qoidalarda ko'rsatilgan tartibda o'yinga kiritilishi kerak. Ushbu qoidalarga ko'ra, volanga zarba berilayotgan paytda raketka kallagining gardishi uni o'yinga kiritayotgan sportchining belidan baland, raketkaning kallagi esa uning dastagidan balandda bo'lmasligi lozim. O'yin davom etishi uchun volanga zarba berilgandan keyin u raqibning zARBASINI qabul qilishning tegishli kvadratiga o'tishi zarur (yakkalik va juftlik o'yinlari uchun).

Volanni o'yinga kiritish paytida uni quyidagi asosiy usullar bilan ushlab turish tavsiya etiladi:

a) barmoqlar va volan o'rtasidagi aloqa maydonini hamda uni noto'g'ri oshirish ehtimolini kamaytirish uchun bosh va ko'rsatkich barmoqlar bilan volanning o'yinchiga yaqin patli qismidan ushlanadi; bu usuldan volanga raketkaning yopiq tomoni bilan qisqa, yassi va baland-hujumkor zarba berishda foydalaniladi (6-a-rasm);

b) bosh va ko'rsatkich barmoqlar bilan volanning patlari aylanasi bo'ylab yoki boshchasiga yaqin ushlanadi; bu usul volanga raketkaning ochiq tomoni bilan yassi, baland-olis, baland-hujumkor zarba berishda qo'llaniladi.

Badminton o'yini qoidalariga ko'ra, volanni o'yinga kiritishda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

- volanni oshirish boshlanishidan u tugallanguniga qadar zarba beruvchining ham, uni qabul qiluvchining ham oyoqlari hech bo'lmasa tovon yoki barmoq qismi bilan yerdan uzilmasligi va harakatsiz holatda bo'lishi kerak;

- boshlang'ich holatda zarba beruvchining raketkasi volanning boshchasiga tegib turishi zarur;

- zarba berilayotgan paytda volan to'lig'icha badmintonchining belidan pastda bo'lishi lozim; bel deganda eng pastki qovurg'a kesimida o'tadigan tasavvuriy chiziq tushuniladi;

- volanga zarba berish paytida badmintonchining raketkasi sterjeni past tomonga egilib turgan bo'lishi kerak;


- volanni oshirish boshlanishidan u tugallangunga qadar zarba beruvchining raketkasi faqat oldinga qarab harakatlanishi zarur.

Maydonchada qanday turish kerak? Badminton – tezkor va rang-barang o‘yin. Sportchi maydon bo‘ylab turlichä harakatlarga hamda zarba berish va ularni qaytarishlarga tayyor turishi kerak. Buning uchun o‘yinchining qulay va dinamik o‘rnashuvi, badmintonchilar tili bilan aytganda – maydondagi turishi juda muhim. Maydonchada turishning turlari juda ko‘p, ammo asosiysi quyidagi: badmintonchi to‘rga qarab tizzalari sal bukilgan, oyog‘i yelka kengligida ochilgan holatda turadi. Og‘irlik markazi har ikkala oyoqqa birdek tushadi, tovonlar maydoncha yuzasidan salgina ko‘tarilgan bo‘ladi. Raketkani ushlab turgan qo‘l shunday ko‘tarilishi kerakki, bunda raketkaning kallagi sportching boshi balandligida bo‘lishi zarur. Ikkinci qo‘l ham yarim bukilgan holatda muvozanatni saqlash uchun bel balandligida ko‘tarilgan bo‘ladi.

Maydonchada qanday harakatlanish kerak? Badmintonchining maydonchada samarali harakatlanishi ko‘plab omillarga, xususan, uning individual jismoniy holatiga, texnik tayyor-garligiga va taktik qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.



a



b

6-rasm.

Harakatlanishning asosiy usullari, bular – yon tomonga, o'zgaruvchan, bir necha tomonga qadam tashlash, turli xil yugurishlar, hamlalar va sakrashlardan iboratdir. Jarohat olmaslik hamda volanga nisbatan qulay nuqtadan zarba berish uchun dastlabki paytlarda maydoncha bo'y lab yengil, erkin harakatlanishni o'rganish kerak. Tajribali badmintonchilar maydoncha markazidan uning istalgan burchagiga ikki qadam tashlab, zaruratga qarab hamla qilgan holda siljishni hamda yana ikki qadam tashlab markazga qaytishni uddalashadi. Boshlovchi badmintonchilar bu darajaga yetish uchun uzoq vaqt tinimsiz mashq qilishlari kerak bo'ladi.

O'yinning asosiy texnik elementlari nomlari

O'yinchining turishi – o'yin paytida badmintonchi egallaydigan dastlabki gavda holati.


Oshirish – volan o'yinga kiritiladigan texnik usul.

Baland-olis oshirish – volan ko'tarilishi trayektoriyasi bo'yicha maydonchaning orqa chizig'i tomonga pastlab uchadi (7-rasm, a).

Baland hujumkor oshirish – volan baland hujumkor trayektoriya bo'yicha maydonchaning orqa chizig'i tomonga pastlab uchadi (7-b-rasm).

Yassi oshirish – volan yassi trayektoriya bo'yicha maydonchaning orqa chizig'i tomonga uchadi (7-rasm, d).

Qisqa oshirish – volan past trayektoriya bo'yicha oshirishning oldingi chizig'i tomonga uchadi (7-rasm, g).




7-rasm. Volanni oshirganda uning uchish trayektoriyasi:
a – baland-olis oshirish; b – baland hujumkor oshirish; c – yassi oshirish; d – qisqa oshirish.

Zarbalar – yuqoridan, yondan, pastdan.

Yuqoridan zarba – zarba paytida raketka ushlagan qo‘l baland ko‘tarilgan bo‘ladi (8-rasm, a).

Yondan zarba – zarba paytida raketka ushlagan qo‘l yon tomonda, gorizontalga yaqin holatda bo‘ladi (8-rasm, b).

Pastdan zarba – raketka ushlagan qo‘l zarba paytida pastda bo‘ladi (8-rasm, d).



8-rasm. Zarbalar: a – yuqoridan; b – yondan; d – pastdan.


Zarbalar volan uchishi trayektoriyasiga ko‘ra, quyidagilarga bo‘linadi: baland-olis, baland hujumkor, hujumkor, yassi hamda qisqa (qisqartirilgan).

Baland-olis zarbada volan ko‘tarilish trayektoriyasi bo‘yicha uchib, maydonchaning orqa chizig‘i tomonda raqib o‘yinchining ortiga tushadi. Qiyin vaziyatlarda vaqtadan yutish va qulay holatda turib olishga ulgurish uchun ushbu usuldan foydalaniлади.

Baland hujumkor zarbada volan raqib o‘yinchi ustidan qaytarish imkonи bo‘lmagan pastroq balandlikda uchib o‘tadi va uning ortiga tez tushadi. Hujumni tayyorlashda ushbu usul qo‘llaniladi. Qo‘l zarba uchun ko‘tarilganda pauza bilan bajariladi hamda raqibni orqa chiziq tomonga siljishga majbur qilmoqchi bo‘lganda badmintonдagi eng samarali usullardan biri sanaladi.


Badmintonchilar orasida ushbu zARBALarning boshqa nomlari ham uchraydi. Masalan, baland-olis zarbani *baland-tikka* yoki *orqa chiziq tomonga tikka* zarba, baland hujumkor zarbani esa *hujumkor tikka* zarba ham deb atashadi. Mazkur zARBALarning o‘ziga xosligi

ularning trayektoriyasida bo‘lib, zarbaning oxirida volan tik holatda uchib tushadi (9-rasm).




9-rasm. Raketkaning ochiq tomoni hamda yopiq tomoni bilan baland-olis (1) va baland hujumkor (2) zarbalar berish.

Volanga zarba berishning eng yaxshi usuli – zarba paytida volanning boshchasi raketka kallagining simli yuzasiga perpendikulyar holatda bo‘lishidir. Zarba trayektoriyasining oxirgi qismida volan tikka holatda yerga tushayotganda uning boshchasi maydoncha yuzasiga perpendikulyar holatda bo‘ladi, shu bois, raqib unga faqat yon tomondangina zarba berishi mumkin. Natijada zarbaning bir qismi volanning patlariga to‘g‘ri keladi (10-rasm). Bunday zarba nisbatan kuchsiz bo‘lib (patlar uning kuchining bir qismmini so‘ndiradi), aksariyat hollarda maydon chetiga chiqib ketadi yoki to‘rga borib tegadi.



10-rasm. Volanga yon tomondan zarba berish.

Hujumkor zarbada (smesh, yarim smesh) volan pastlama trayektoriya bo'yicha baland tezlikda juda tez uchadi (11-rasm).




11-rasm. Raketkaning ochiq tomoni hamda yopiq tomoni bilan hujumkor (smesh) zarba berish

Yassi zarbada volan masofaning katta qismini maydoncha yuzasiga parallel holatda shundoqqina to'r ustidan uchib o'tadi hamda asta-sekin pastlab borib maydonchaning o'rtasi yoki orqa qismiga tushadi. Odatda juftlik o'yinlarda yon chiziqlarga tomon yoki raqibning tanasiga zarba berish uchun qo'llaniladi (12-rasm).




12-rasm. Yassi zarba.

Qisqa (qisqartirilgan) zarbada volan pastlama trayektoriya bo'yicha uchib, maydonchaning raqib tomoniga shundoqqina to'r yaqinida tushadi (13 va 14-rasmlar).



13-rasm. Raketkaning ochiq tomoni bilan qisqartirilgan zARBalar berish.



14-rasm. Raketkaning ochiq tomoni bilan qisqartirilgan zarbalar berish.


15-16-17-rasmlarda maydonchaning turli hududlaridan zarba berilganda volanning uchish trayektoriyasi ko'rsatilgan.

"Qarama-qarshi tomonga" zarbalar – volan raqib harakatiga qarama-qarshi tomonga yo'naltiriladi.

Yondan zerbalar – o'yinchining o'ng va chap tomonidan balandlab uchib o'tayotgan volanga beriladigan zerbalar.


To 'g'ridan zerbalar – raqib tanasi tomonga zerbalar.

Raketkaning ochiq va yopiq tomoni bilan zerbalar – tananing shartli tik o'qiga nisbatan o'ng yoki chap tomondan zerbalar. Ular ham ko'tarilib boruvchi, ham pasayib boruvchi trayektoriyada berilishi mumkin.



15-rasm. Orqa va o'rta hududdan yuqoridan zarba berilganda volanning uchish trayektoriyasi:


1 – *baland-olis*; 2 – *baland hujumkor*; 3 – *qisqa (tashlama)*;
4 – *qisqa*; 5 – *hujumkor*.



16-rasm. O'rtacha balandlikda o'yinchi oldidan va yondan zarba berilganda volanning uchish trayektoriyasi:
1 – baland-olis; 2 – baland hujumkor; 3 – qisqa (tashlama);

4 – qisqa; 5 – hujumkor.

Volanni uzatish – zarba berish paytida – volan raketka kallagining simli yuzasiga tekkanidan boshlab to undan ajralgungacha bo'lgan vaqtda raketka va volan birgalikda bosib o'tadigan masofa. Shuni yodda tutish kerakki, volanni uzatishga sarflanadigan vaqt juda ham qisqa bo'lib, uni hamla yoki volanning ushlab qolinishi deb bo'lmaydi. Ammo zarbaning xarakteri va aniqligi ko'p jihatdan aynan volanni to'g'ri uzatishga bog'liq bo'ladi.



17-rasm. To'r yaqinidan zarba berilganda volanning uchish trayektoriyasi:

1 – baland-olis; 2 – baland hujumkor; 3 – yassi; 4 – maydonning yarmiga yassi; 5 – hujumkor; 6 – qisqa.

O'yinda gavda holatlari

Badmintonda bir necha gavda holatlari mavjud:

1) to'r balandligiga nisbatan gavda holatining balandligiga ko'ra: baland, o'rtal, past (18-rasm).



*18-rasm. Badmintonda mavjud gavda holatlari:
1 – baland, 2 – o'rtal, 3 – past.*

2) o'yinchilarning maydonchadagi mo'ljal olishiga qarab: o'ng tomonlama (o'ng oyoq oldinda) va chap tomonlama (chap oyoq oldinda);

3) aniq o'yin holatidan kelib chiqib: hujumkor, universal, himoyaviy (19-rasm).



19-rasm. Badmintonchilarning o'yin maydonchasidagi gavda holatining turli variantlari:

1 – universal, 2 – himoyaviy, 3 – hujumkor.

Ammo gavda holatining uchta asosiy turi muhim hisoblanadi, bular: zarba berish paytidagi gavda holatlari, zarbani qaytarish paytidagi gavda holatlari, o'yin jarayonidagi gavda holatlari. Ular orasidan esa vaziyatdan va individual o'ziga xosliklardan kelib chiqib, baland, o'rtal, past, hujumkor, himoyaviy, universal kabi turlarni ko'rsatib o'tish mumkin bo'ladi. Aksariyat hollarda o'yin jarayonida o'rtal universal gavda holati ko'proq qo'llaniladi.

Quyida gavda holatining asosiy turlariga ta’rif berib o’tamiz.

- **zarba berish paytidagi gavda holatlari**

– Raketkaning ochiq tomoni bilan zarba berishda gavda holati, bunda zarba berayotgan badmintonchi zarba berish hududining oldingi qismidan joy oladi. Raketkaning ochiq tomoni bilan zarba berishda boshlang‘ich holat barcha turlarda bir xil bo‘ladi. Chap oyoq sal oldinda, oldingi chiziqdandan 5-50 sm masofada joylashadi. Bu masofa zarba turiga (qisqa, yassi, balandolis), o‘yin turiga (yakkalik, juftlik, mikst) va sportchining shaxsiy o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. O‘ng oyoq orqada, taxminan sportchi yelkasi kengligiga teng masofada joylashadi. Oyoq kafti salgina yonga surilgan va tashqariga qaragan bo‘ladi. Volan chap qo‘l barmoqlari bilan ushlanadi, raketka ushlagan qo‘l esa pastga tushirilgan va orqaga uzatilgan. Tirsak tanaga yopishib turmasligi kerak.

– Raketkaning yopiq tomoni bilan zarba berishdagi gavda holati ko‘proq qisqa zARBalar qo‘llaniladigan juftlik va mikst o‘yinlari uchun xosdir. Odatda, bunday gavda holatidagi zarba beruvchi o‘ng oyog‘ini oldinga surgan holda zarba chizig‘iga yaqinroq siljiydi. Volan chap qo‘lda, bilak salgina yuqoriga ko‘tarilgan, raketka ushlagan qo‘l tananing old qismida bo‘ladi. Mazkur gavda holati uchun sportchining og‘irlilik markazi o‘ng oyoqqa tashlanishi xosdir. Qisqa zarbada bu narsa zarbadan keyin o‘yinga kirishish vaqtini qisqartirish imkonini beradi.

Ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda raketkaning yopiq tomoni bilan qisqa zarba berish erkaklarning yakkalik bahslarida ham tez-tez qo‘llanilmoqda.

- **zarbani qaytarish paytidagi gavda holatlari**

Badmintonagi yakkalik bahslarida ko‘proq baland va yassi oshirishlar, juftlik bahslarida esa – qisqa, kamdan-kam yassi oshirishlar amalga oshiriladi. Yakkalik o‘yinlarida sportchi tezda orqaga yugurib qaytishga tayyorgarlik ko‘radi, juftlik bahslarida esa aksincha, volanni tezroq oldingi chiziqda qaytarishga harakat qiladi. Sportchi harakatlarining bunday xususiyati ko‘p jihatdan u yoki bu zARBani qaytarish uchun nuqta tanlashni ham belgilab beradi.

– Yakkalik o‘yinlarida oshirilgan volanni qabul qilishda zARBANI qabul qilish hududining markaziga yaqinroq joylashish tavsiya etiladi. Bunda chap oyoq oldinda, o‘ng oyoq orqada, raketka kallagi oldinda sportchining boshi balandligida, chap qo‘l muvozanatni saqlashga ko‘maklashish uchun yarim bukilib ko‘krak balandligida ko‘tarilgan bo‘ladi.

– Juftlik bahslarida oshirilgan volanni qabul qilishda sportchilar to‘rga yaqin joylashadi. Oldinda turgan chap oyoqning kafti oshirishning old chizig‘idan 15-30 sm masofada bo‘ladi. Sportching og‘irlik markazi oldinga, chap oyoqqa tashlanadi, tana ham oldinga egilgan, raketkani ushlagan qo‘l to‘r tomonga salgina cho‘zilgan va boshdan salgina balandroqqa ko‘tarilgan bo‘ladi.

•maydoncha markazida joylashuv o‘yin jarayonidagi gavda holatlarining eng asosiysi hisoblanadi.

Bunday joylashuv dastlabki holat bo‘lib, sportchi o‘yin paytida maydoncha bo‘ylab harakatlarini undan boshlaydi. Gavdanning bu holati quyidagicha bo‘ladi: badmintonchining oyoqlari salgina bukilgan, yelkalar to‘rga parallel joylashgan, tana salgina oldinga egilgan, raketkani ushlagan qo‘l ko‘krak oldida. Og‘irlik markazi har ikkala oyoqqa birdek tashlanadi va ularning tovonlari salgina ko‘tarilgan bo‘ladi. Hujum zarbasini qaytarish paytida sportchi gavda holatini biroz o‘zgartiradi. Zarba paytida oyoqlar odadagidan ko‘proq bukiladi, raketkani ushlagan qo‘l belgacha tushiriladi va sportchi pastki gavda holatiga o‘tadi.


O‘yin jarayonidagi gavda holatlari doimiy bo‘lnaydi. Ular maydonchadagi vaziyat o‘zgarishiga mos tarzda o‘zgarib turadi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, o‘yin paytida sportchi hech qachon bitta holatda qotib turmaydi, balki o‘yinda yuzaga keladigan har qanday vaziyat va holatga tayyor turish va o‘z vaqtida samarali usul qo‘llash uchun turlicha badminton gavda holatlarini qo‘llagan holda doimiy harakatda bo‘ladi.

Badmintonda volanni oshirish

Oshirish – volanni o‘yinga kiritish bilan bog‘liq texnik element hisoblanadi. Volanni o‘ynash natijasi, qolaversa, partiyaning natijasi ham ko‘p jihatdan volanni to‘g‘ri va samarali oshirishga

bog'liq bo'ladi. Oshirish – badmintondag'i raqib ta'sir ko'rsata olmaydigan yagona zarba hisoblanadi. Undan ham texnik, ham taktik jihatdan to'g'ri foydalanish kerak. Mahoratli o'yinchi birinchi zarbadanoq raqibni noqulay vaziyatga tushirib qo'yishga, hatto ochko yutib olishga harakat qiladi.

Badmintondag'i volanni oshirishning asosiy turlari 20-rasmida ko'rsatilgan. Rasmdagi 3- va 4-oshirishlar yakkalik o'yinlari uchun tasvirlangan, ammo agar juftlik oshirishni qaytarish kvadrati ichiga tushirilsa, undan juftlik bahslarida ham tez-tez va samarali foydalanish mumkin.



20-rasm. Badmintondag'i volanni oshirishning asosiy turlari:

- 1 – qisqa, yoki past, 2 – baland hujumkor, 3 – yassi,*
- 4 – baland-olis.*

Har bir partiya oshirishning o'ng maydonidan volanni oshirish bilan boshlanadi. Zarba berish paytida raketka faqat oldinga harakatlanishi, volan esa diagonal bo'yicha yo'naltirilib, raqibning tegishli oshirish maydoni chegarasiga tushishi kerak. Zarba berish paytida volan oshiruvchining belidan pastda bo'lishi, raketkaning sterjeni esa pastga egilgan bo'lishi zarur. Raqib tayyor bo'lmasidan volanni oshirish mumkin emas. Raqib ma'lum o'rinni egallab, o'z maydonida qimirlamasdan turganda o'yinga tayyor hisoblanadi.



Volanni oshiruvchi va uni qabul qiluvchi o'yinchilar o'zlarining diagonal bo'yicha joylashgan, oshirishning yaqin va olis chiziqlari, markaziy va yon chiziqlari bilan chegaralangan oshirish maydonlaridan ana shu chiziqlarni bosmagan holda joy olishlari kerak.

Volanni oshirishda volanga zarba berilmasdan turib, uni oshiruvchi o'yinchi ham, qabul qiluvchi sportchi ham (shuningdek, juftlik bahslarida ularning sheriklari ham) egallagan o'rinalidan siljishlari, oyoqlarini maydonchadan uzishlari mumkin emas (oyoq kaftining bir qismining ko'tarilishi qoidabuzarlik hisoblanmaydi). Volan oshirilgandan keyin uni oshiruvchi ham, qabul qiluvchi sportchi ham, shuningdek, juftlik bahslarida ularning sheriklari ham o'z maydonchalarida, chegaralovchi chiziqlardan qat'i nazar, istalgan joyni egallashlari mumkin.

Volanni oshirishdagi xatolar

Volanni oshirish jarayonida quyidagi holatlarda xatoga yo'l qo'yilgan hisoblanadi:

- oshirish chog'ida volan zarba beruvchining belidan balandda bo'lsa (21-rasm);




21-rasm. Oshirish chog'ida volanning holati:

Noto 'g'ri

To 'g'ri

- volanga zarba berish paytida raketkaning sterjeni pastga egilmagan bo'lsa (22-rasm);



22-rasm. Volanni oshirish chog'ida raketka sterjenining holati:
a, b – noto 'g'ri, d – to 'g'ri.

- volan to'rdan uchib o'tsa ham, oshirish maydoni chegarasiga tushmagan bo'lsa;
- volan to'rdan uchib o'tmagan yoki begona predmetlarga tekkan bo'lsa (chiziqning ustiga tushgan volan maydonchaga tushgan hisoblanadi);
- oshiruvchi aldamchi harakat qilsa, bir soniyaga oshirishni to'xtatib, qabul qiluvchini qimirlashga majbur etib, keiyn zarba bergen bo'lsa;
 - oshiruvchi yoki qabul qiluvchi sportchi o'z foydasini ko'zlab, oshirish (qabul qilish)ga tayyorgarlikni ataylab cho'zib yuborsa.

Yakkalik bahslarida aksariyat zARBalar, hatto past va yassilari ham, raketkaning ochiq tomoni bilan beriladi. Oshirishni amalgaga oshirish joyi maydonchaning o'rta chizig'iga yaqinroqdan, oshirishning oldingi chizig'idan 0,1-1,0 m masofada tanlanadi.

Juftlik bahslarida oshirishning eng samarali va qulay joyi oshirishning oldingi chizig‘iga imkon qadar yaqin joylashish hisoblanadi. Oshirishning o‘zi esa, asosan raketkaning yopiq tomoni bilan amalga oshiriladi.


Yakkalik bahslarida ham, juftlik bahslarida ham odatda volan gavdani tik tutgan holatda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, juftlik bahslarida volanni oshiruvchi sportchi ko‘pincha oyog‘ining uchiga ko‘tariladi. Bu volanning uchish vaqtini qisqartirish, o‘z navbatida, raqibning zARBANI faol qaytarishga tayyorlanish vaqtini kamaytirish imkonini beradi.

Har qanday vaziyatda ham volanni zARBANI qabul qilish maydonining raqib turgan joydan uzoqroqda bo‘lgan nuqtasiga oshirishga harakat qilish kerak. Raqibning harakatlanish uchun ko‘rayotgan har qanday tayyorgarligini oldindan his qilgan holda kutilmaganda qarama-qarshi tomonga oshirish zarur. Ammo, badminton qoidalariga ko‘ra, volanni oshirishda raketka yordamida aldamchi harakatlar qilishga yo‘l qo‘ymasligini ham unutmaslik lozim.


Volanni oshirish paytida, agar raqib uni qabul qilishga hali tayyor bo‘lmasa, u chap qo‘lini kafti raqibi tomonga ochiq holatda baland ko‘taradi. Bu holatda to volanni qabul qiluvchi tomon chap qo‘lini pastga tushirmaguncha volan oshirilmaydi. Ammo, shu bilan birga, ushbu o‘yinchis musobaqa reglamenti va qoidalariga qat’iy rioya etishi, tayyorgarlik ko‘rish va volanni oshirish uchun ajratilgan vaqt chegarasidan chiqib ketmasligi zarur.

Hali volanni qabul qilishga tayyor bo‘lmagan raqibga uni xato oshirish yoki oshirishni ataylab, o‘yinda ustunlikka ega bo‘lish maqsadida cho‘zib yuborish badminton qoidalari hamda badmintonchi axloq kodeksiga zid hisoblanadi.


23-24-25-26-rasmlarda o‘yin maydonchasining volanni qabul qilish nisbatan mushkul bo‘lgan hamda o‘yin paytida o‘ng maydondan (chap maydondan – mos tarzda) volanni yo‘naltirish tavsija etiladigan nuqtalari ko‘rsatilgan.




23-rasm. O'yin maydonchasining volanni qabul qilish nisbatan mushkul bo'lgan va yakkalik bahslarida volanni pastdan oshirish tavsiya etiladigan nuqtalari.



24-rasm. O'yin maydonchasining volanni qabul qilish nisbatan mushkul bo'lgan va yakkalik bahslarida volanni baland-olis oshirish tavsiya etiladigan nuqtalari.



25-rasm. O'yin maydonchasining volanni qabul qilish nisbatan mushkul bo'lgan va jufilik bahslarida volanni pastdan oshirish tavsiya etiladigan nuqtalari.



26-rasm. O'yin maydonchasining volanni qabul qilish nisbatan mushkul bo'lgan va juftlik bahslarida volanni baland-olis oshirish tavsiya etiladigan nuqtalari.

Raketkaning ochiq tomoni bilan oshirish texnikasi

Volanni oshirish qo'lni keng kerishdan boshlanadi, bunda og'irlik markazi sportchining har ikkala oyog'iga bir xilda tushadi. Chap oyoq oldinda, volanni ushlab turgan qo'l bel balandligida bo'ladi. Shundan so'ng, yelkani o'ngga burgan holda og'irlik markazi o'ng oyoqqa olinadi, raketka ushlagan qo'l orqaga qilinadi, panja shunday ochiladiki, bunda raketka dastagining yon tomoni to'r tomonga qarab turishi kerak. Zarba berish chog'ida o'ng yelka va qo'l pastga-yuqoriga-oldinga tezligida harakatlanadi, bunda raketka dastagini ushlab turgan panja zarbagacha uning kallagidan oldinda bo'ladi. Shu paytda volanni o'zidan sal oldinda qo'yib yuborish kerak. Og'irlik markazi chap oyoqqa olinadi, raketkani ushlab turgan panja tezda to'g'rilanadi hamda raketka volanga tegishi paytida deyarli to'g'ri chiziq hosil qiladi. Volanni kuzatish oshirish tipiga mos tarzda amalga oshiriladi (27-rasm).

Bunday oshirishlarni bajarish dinamikasi soat mehanizmi prujinasini eslatadi. Bu yerda prujina vazifasini sportchining tanasi bajaradi. Dastlab soat mili yo'nali shida chapdan o'ngga qayrilishda kuch yig'iladi, so'ngra teskari tomonga qayta qayrilishda ana shu kuch zarbaga beriladi.


Raketkaning ochiq tomoni bilan oshirishlar yakkalik bahslari hamda mikst o‘yinlarida ayol raqibga yo‘naltirish uchun xosdir.



27-rasm. Raketkaning ochiq tomoni bilan oshirish.

E’tibor bergan bo‘lsangiz, raketkaning ochiq tomoni bilan turlicha oshirishlarni bajarishda gavda holati deyarli bir xil hamda oshirishni bajarishni boshlanishi ham o‘xhash. Turli oshirishlarda qo‘lni bir xilda kerish raqibni oshirishning turi borasida chalg‘itish maqsadida qo‘llaniladi. Faqat qisqa oshirishni yakunlayotganda, raketkani ushlab turgan qo‘l deyarli to‘g‘rilanganda, panja volanni yengil urib pastlab, shundoqqina to‘rning ustidan o‘tib, raqibning oshirish maydoniga oshirish chizig‘i yoniga tushishi ta’milanadi. Mazkur zARBANI amalga oshirish chog‘ida raketka vertikal emas, balki ko‘proq gorizontal holatda harakatlanishi kerak. Raqib qisqa oshirishni qabul qilishini mushkullashtirish uchun volanga zarba keskin va u qadar kuchli bo‘limgan tarzda beriladi. Volanga yetarlicha dastlabki tezlik bergan sportchi uning uchishi trayektoriyasini shunday mo‘ljallaydiki, bunda volan to‘r ustidan pastlab uchib o‘tadi, bu esa raqibni darrov hujumkor zarba berish imkoniyatidan mahrum etadi (28-rasm).

Raketkaning ochiq tomoni bilan baland-olis, baland hujumkor va yassi oshirishni bajarish qisqa oshirishdan yakuniy zarbaning kuchliligi va volanni kuzatish vaqtining ko‘proqligi bilan ajralib turadi.



28-rasm. Volanning uchish trayektoriyasi:
1 – to ‘g’ri, 2 – noto ‘g’ri.


Yuqori va yassi oshirishlarda qo‘lni keskin kerib harakatlantirish orqali ham volanga yetarlicha tezlik berish mumkin. Ammo oshirishning har turlarining bir xilda boshlanishi va kutilmaganda yakuni shunisi bilan muhimki, raqib oxirgi soniyalar-gacha qanday oshirishni kutishni bilmaydi.

Raketkaning yopiq tomoni bilan oshirish texnikasi

Raketkaning yopiq tomoni bilan oshirishlar juftlik va mikst bahslari uchun xosdir.

Raketkaning yopiq tomoni bilan oshirishni bajarish texnikasi, ayniqsa, juftlik o‘yinlarida yaxshi samara beradi. Bu holatda volanni oshirayotgan sportchi raqib orqa chiziq tomonga javob zarbasi berishi mumkinligidan qo‘rmasdan bitta holatdan ikki xil: qabul qilish imkon qadar murakkab bo‘lgan qisqa past yoki o‘z harakatlarini muvaffaqiyatli niqoblagan holda baland hujumkor oshirishni bajarishi mumkin. Bunday oshirishni bajarish paytida sportchi gavdasini tik tutadi, raketka dastagini o‘zining oldida sterjeniga yaqinroq ushlab turadi, volanni ushlab turgan qo‘lini esa to‘r tomonga cho‘zadi. Mazkur oshirishning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, oshiruvchining beli yoki qorin qismidan ozroq kerilish amalga oshiriladi, volanga kerakli uchish trayektoriyasini esa kuchli qo‘l zarbasi beradi (29-rasm).

Shunday qilib, bir xil texnikada kuchli, mashqlarda toblangan qo‘l yordamida yashirin ravishda kuchli qisqa, yassi va baland hujumkor oshirishlarni bajarish mumkin.



29-rasm. Raketkaning yopiq tomoni bilan oshirish:
1 – oshirishning boshlanishi, 2 – zarba, 3 – kuzatish.


4.3. Hujum texnikasi. Zarbalarning turlari

Badmintonda zorbalar ikkita asosiy turga bo‘linadi: to‘g‘ridan va yondan.

To‘g‘ridan beriladigan zorbalar – volanni raqibning tanasiga yo‘naltirib zarba berish. Zarbaning bu usuli, odatda, to‘r yaqinida oldingi chiziqdagi amalga oshiriladi hamda bilak va panja imkoniyatlaridan kelib chiqib bajariladi. Bunday zorbalar ko‘proq juftlik va mikst bahslarida to‘r yaqinida turgan sportchilar tomonidan amalga oshiriladi.

To‘g‘ridan beriladigan zorbalar uchun past yoki o‘rta gavda holatlari xosdir. To‘r ustidan o‘zi tomonga uchib kelayotgan volan qanchalik pastlab kelayotgan bo‘lsa, to‘g‘ridan zarba beradigan o‘yinchining gavda holati ham shunga mos tarzda past bo‘lishi zarur (30-rasm).

To‘g‘ridan beriladigan zarbaning texnik o‘ziga xosliklari – qo‘lni kerish uchun imkoniyatning cheklanganligi. Bu kamchilik kuchli panja va bilakning volan tomonga tezroq to‘g‘rilarishi hisobiga qoplanadi. To‘g‘ridan zorbalar berishda sportchining yelkasi pastga egilgan bo‘lib, aksariyat hollarda zorbani o‘zidan shunchaki itarish yo‘li bilan qaytarishga to‘g‘ri keladi. Ammo, ayrim hollarda, ozroq qo‘lni kerish uchun orqaga, o‘ngga yoki chapga salgina chekinish mumkin.



30-rasm. To‘g‘ridan beriladigan turli zorbalar joylashuv:
1 – tik gavda holati, 2 – egilgan gavda holati.

Yondan beriladigan zorbalar – o‘yinchining chap yoki o‘ng tomonidan, yoxud ustidan uchib o‘tayotgan volanga beriladigan zorbalar hisoblanadi. Ular badmintonda zorbalarning kattagina qismini tashkil qiladi.

Badmintonda barcha zorbalar raketkaning ochiq yoki yopiq tomoni bilan, yuqoridan, yondan, pastdan ko‘tariluvchi, pasayib boruvchi yoki yassi trayektoriya bo‘yicha amalga oshiriladi.

Patli va plastik volanlarga zarba berishda ayrim texnik farqlar ham mavjud. Plastik volan bilan o‘ynalganda bu holat zarba harakatining yakuniy qismida uni jiddiy nazorat qilish zaruratida namoyon bo‘ladi.

Zorbalarни bajarish texnikasi

Badmintonda zorbalarni bajarish texnikasi amalga oshirilayotgan zarba turiga bog‘liq bo‘ladi. Har qanday zorbadan ko‘zlanadigan asosiy maqsad ochko yutib olish yoki raqibni imkon qadar noqulay vaziyatga tushirib qo‘yishdan iborat bo‘ladi. Yuqoridan beriladigan zorbalar bunday maqsadlarga erishishda eng

samarali hisoblanadi. (Barcha zarba texnikalari o'ng qo'lda o'ynaydiganlar uchun berilgan Chapaqaylarga ko'zgudagi tasvir, ya'ni berilganlarning teskarisi mos keladi).


Raketkaning ochiq tomoni bilan yuqoridan beriladigan zarbalar

Raketkaning ochiq tomoni bilan yuqoridan (yuqoridan-o'ngdan) beriladigan zarbalar badmintonda kengroq tarqalgan. Sport badmintonida volan raqib tomonda maydoncha yuzasiga tezroq borib tushishiga erishish uchun, uni raqib tomonga imkon qadar tez va aylanma trayektoriyada uzatish juda muhim. Aynan yuqoridan beriladigan (yuqori trayektoriya bo'ylab, hujumkor (smesh; yarim smesh) yassi va to'r yaqiniga qisqartirilgan) raketkaning ochiq tomoni bilan amalga oshirilgan zarbalar buning uchun juda ham qulaydir. Shunisi muhimki, qayd etib o'tilgan to'rt turdag'i zarba usullarining barchasida boshlang'ich bosqich to'liq bir xil bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, ularni to'g'ri bajarsangiz, raqibingiz sizning niyattingizni payqab olishini qiyinlashtiradi. Sportchining mahorati qanchalik yuqori bo'lsa, uning xazinasidagi boshdan balanddan berilgan zarbalar shunchalik ko'pni tashkil qiladi.

Raketkaning ochiq tomoni bilan yuqoridan zarba berishda sportchining harakatlari tabiiy hamda oldinga yoki yuqoriga tosh yoxud kichkina koptokchani uloqtirish harakatiga o'xshash bo'lishi kerak. Zarba berishga tayyorlanishdan oldin, uni raqib qaytar-gandan keyin volan qaysi tomonga uchib kelishini aniqlab olishga harakat qilish zarur. Raqibning javob zARBasi yuqoridan bo'lishini aniqlagach, tezda volan uchib kelishi taxmin qilingan joyga siljish va quyidagi holatni egallash zarur (31-rasm): chap yelka to'r tomonga buriladi, raketka ushlagan o'ng qo'l bosh balandligida bo'ladi, harakatni yaxshiroq muvofiqlashtirish uchun chap qo'l ham deyarli shu darajaga ko'tariladi, oyoqlar salgina bukiladi. So'ngra bosh uzra qo'lni keskin kerish zarur, bunda qo'l kerilayotganda raketka dastagini tutib turgan panja uning kallagidan oldinda bo'lishi kerak. O'ng yelka orqaga olinib, salgina egiladi. O'ng oyoq bilan siltanib, o'z vaqtida zARBaga chiqiladi. Og'irlik markazi oldinga o'tkaziladi, o'ng yelka ham o'zi bilan

birga raketka ushlagan bilakdan bukilgan qo‘lni ham olib, oldinga siljiydi, bunda raketka dastagini ushlab turgan panja zarba berilgunga qadar uning kallagidan oldinda bo‘lishi kerak.

Badmintonchining harakatlari me’yorida bo‘sashgan bo‘ladi. Ortiqcha bosimdan qochish zarur. Volanga o‘zingizdan sal oldinroqda zarba berishingiz, so‘nggi soniyalarda esa ishga panjani ham qo‘shishingiz kerak. Zarbani amalga oshirish dinamikasi to‘g‘ri bo‘lishi uchun zarba berilayotgan paytda o‘yinchinig o‘ng oyog‘i imkon qadar volanni kutib olish nuqtasining va zarba berilganda raketkaning maydonchaga proyeksiyasiga yaqinroq, chap qo‘l esa pastga tushirilgan bo‘lishi juda muhimdir.



31-rasm. Raketkaning ochiq tomoni bilan yuqoridan zarba berganda sportchining harakat fazalari.

Bunday zarbani samarali amalga oshirishning badminton uchun ham, katta badmintonda yuqoridan zarba berish (smesh) uchun ham xos bo‘lgan yana bir siri bor. Qo‘lni kerish paytida chap qo‘l salgina ko‘tarilgan, bilakdan bukilgan, panjalar esa uchayotgan volanga yo‘nalgan bo‘lishi zarur. Bunday holatda turish qulochni yozish harakatini, demakki, shunga mos tarzda zarba dinamikasini ham kuchaytiradi, shuningdek, xuddiki sportchiga beixtiyor raketka kallagini volanga zarba berish nuqtasiga texnik jihatdan to‘g‘ri va aniq olib borish imkonini beradi; raketka kallagi o‘yin qoidasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

Yuqoridan beriladigan zarbalarda tirsakning holati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zarba paytida u yelkadan past

bo'lmasligi va sportchining tanasiga yopishib turmasligi yoki juda ham yaqin kelmasligi zarur.


Ayrim boshlovchi sportchilar o'z vaqtida to'g'r i joy tanlashga ulgurmaganliklari bois, tana orqaga harakatlanayotgan paytda yuqoridan zarba berishadi. Bu volanga zarba berish nuqtasiga noto'g'ri chiqish bilan bog'liq xatolikdir. Bunday zarba to'g'ri amalgalashirilganda, tana xuddi volanga tashlangandek oldinga qarab harakatlanishi lozim, shunning hisobiga zARBAGA qo'shimcha kuch beriladi.

Yuqoridan beriladigan barcha zARBALAR uchun ikkita maslahat. Birinchidan, sportchi boshini pastga egmasligi yoki quyi solmasligi kerak, ikkinchidan esa, to bevosita zarba berilgunga qadar volanni e'tibordan qochirmaslik zarur.

Shunday qilib, raketkaning ochiq tomoni bilan yuqoridan zarba berishning umumiy texnikasi bilan tanishib chiqdik. Mazkur zARBALAR ikkita asosiy element muhim o'ren tutadigan yakuniy bosqichi bilan farqlanadi, bular: raketka kallagining holati (32-rasm) va zarba paytida panjaning harakati. Ushbu guruhga mansub zARBALARNING barchasida tayyorgarlik bosqichida sportchining harakati o'xshash bo'lgani bois, bu narsa zARBANI niqoblash, demakki, raqibning javob harakatlariga tayyorlanishini mushkullashtirish imkonini beradi.

Baland-olis zARBADA volan raketka kallagining simli yuzasidan boshqa zarba turlarida bo'lganidan ko'ra oldinroq ajraladi hamda yuqoriga-oldinga harakatlanadi. Hujumkor zARBADA bo'lgani kabi panjaning kuchli bukilishi ro'y bermaydi (33-a-rasm).

Yuqori hujumkor zARBADA ham deyarli xuddi shunday manzarani kuzatishimiz mumkin. Ammo bu holatda volan nisbatan qiyalab uchishi kerak. Buning uchun zarba nuqtasi shunday tanlanadiki, bunda volanning raketkadan uchib chiqish burchagi baland-olis zARBADAGIDAN birmuncha kamroq bo'ladi. Volanga ko'proq uzunasiga zarba beriladi. Yakunda bu holatda ham xuddi yuqoridagi kabi panjaning kuchli bukilishi ro'y bermaydi.



32-rasm. Zarba paytida raketkaning holati:

*a – baland-olis, b – baland hujumkor,
d – smesh va to ‘r ortiga tashlash.*

Zarbalarning yana bir o‘ziga xosligi – zarboning butun kuchi imkon qadar uning boshlang‘ich paytiga sarflanishi kerak. U *keskinlik* degan tushuncha bilan izohlanadi. Kuchli keskin zarba berilganda, ayniqsa, patli volanga, o‘ziga xos tovush ham chiqadi. Bunday holatda volan katta boshlang‘ich tezlik oladi, bunda uning patlari yig‘iladi va volan juda tez raqib maydonchasidagi kerakli nuqtaga uchib boradi. Keyin zarba kuchi susayadi, patlar yana yoyiladi, volan tez va kutilmaganda, buning ustiga zarboni qabul qiluvchiga nisbatan yon tomoni bilan pastga qulaydi (badmintonchilar tili bilan aytganda – “pastga sho‘ng‘yidi”).

Hujumkor zarba (smesh) – yuqoridan beriladigan zARBalar orasida ochko yutish uchun eng samaralisi hisoblanadi. Raketka bilan volanga eng yuqori nuqtadan zarba beriladi. Zarba paytida raketkani ushlab turgan qo‘l to‘lig‘icha tik ko‘tarilgan bo‘lib, zarba oxirida u bilakka nisbatan bukilgan holatda bo‘ladi (33-rasmlar, d).




33-rasm. Yuqoridan beriladigan hujumkor zarboning yakuniy bosqichida raketkaning holati.

Sanab o‘tilgan zarbalarni amalga oshirish klassik texnika-sining umumiyligini qoidalari ana shulardan iborat. Ammo amaliyotda, ya’ni o‘yin jarayonida ushbu chizmadan chekinish holatlari va oraliq turdagи vaziyatlar ko‘plab kuzatiladi.

Masalan, sakrashdagi smesh volanga eng yuqori nuqtadan zarba berish, uning raqib maydonchasiga uchib borish vaqtini sezilarli darajada kamaytirish, anchagina aylanma, demakki, qabul qilish uchun noqulay traektoriya hosil qilish hamda uni raqib himoyasining kamroq muhofaza qilingan qismiga yo‘naltirish imkonini beradi.

Raketkaning ochiq tomoni bilan yuqoridan hujumkor zarba berishning bosqichlari 34-rasmda ko‘rsatib o‘tilgan.

Yuqoridan beriladigan qisqa zarbalarga keladigan bo‘lsak, ular, odatda, kuchli yakunni talab qilmaydi. Ammo to‘r ustiga pasayib boruvchi trayektoriya bo‘yicha beriladigan qisqa zARBalar ochko yutib olish uchun kurashda juda samaralidir. Ularni bajarish texnikasi anchayin o‘ziga xos. Zarbaning boshlanishi yuqoridan beriladigan barcha zarbalardagi kabi, lekin yakunda, timsolli qilib aytadigan bo‘lsak, sportchi “katta bolg‘a bilan bir zarba berishda juda kichkina mixni nozik yuzaga qoqishi, shu bilan birga, unga zarar yetkazmasligi ham” kerak. Panja bilan yakunlash keskin, lekin davomli emas. Raketkaning dastagini sportchi faqat zarba paytidagina siqib turadi. Volanni uzatish deyarli mavjud bo‘lmaydi.



34-rasm. Raketkaning ochiq tomoni bilan yuqoridan hujumkor zarba berishning bosqichlari.

Raketkaning yopiq tomoni bilan yuqoridan zarba berish


Raketkaning yopiq tomoni bilan yuqoridan beriladigan zarbalar (yuqoridan-chapdan), bajarish texnikasiga ko'ra, raketkaning ochiq tomoni bilan beriladigan zARBALARGA nisbatan anchagina murakkab hisoblanadi (asosan inson tanasining anatomik tuzili-shidan kelib chiqib). Ushbu zarba turi volan raqibingizning zARBASIDAN keyin yuqori trayektoriya bo'yab sizning maydon-changizning olis chap burchagi tomonga uchib kelganda qo'llaniladi. Ta'kidlash kerakki, ayrim badmintonchilar bunday holatlarda volanning tagiga yugurib kelib, uni raketkaning ochiq tomoni bilan qaytarishni afzal ko'rishadi. Bunday zarba chapdan beriladigan zARBAGA qaraganda ishonchliroq, aniqroq va kuchliroq hisoblanadi. Ammo amaliyotning ko'rsatishicha, raketkaning yopiq tomoni bilan yuqoridan beriladigan yaxshi zARBASIZ yuqori darajadagi o'yindan umid qilish mushkul. Bunday zARBANING to'rtta asosiy turi mavjud: baland-olis, baland hujumkor, hujumkor va qisqa (to'r yoniga tashlash). Yuqoridan-o'ngdan beriladigan zARBALarda bo'lgani kabi yuqoridan-chapdan beriladigan zARBALAR ham o'xshash boshlang'ich bosqichga ega bo'ladi.

Mazkur zARBANING klassik varianti sportchi maydon mazkazida turganda (35-rasm, 1-holat) tik yoki o'RTA gavda holatidan chap oyoqda volanning uchib kelishi tomonga harakatlanishidan boshlanadi (35-rasm, 2-holat). Tirsakdan bukilgan raketka ushlagan qo'l yelkani chapga burish bilan bir vaqtida keriladi, panja esa raketka dastagini ushlash usulini o'zgartiradi va uni chap tomondan zarba berishga moslashtiradi (35-rasm, 3-holat). O'yinchining og'irlik markazi chap oyoqqa o'tkaziladi.

Keyingi bosqich: yelkalarni burishning, raketkani kerishning yakunlanishi va ularni orqaga aylantirishning boshlanishi; o'ng oyoq chap oyoq atrofida qadam tashlaydi va oyoq kafti zarba amalga oshiriladigan nuqtaga qo'yiladi; o'ng qo'l tirsagi yelka-gacha va undan balandroq ko'tariladi; raketka ushlagan panja to'r tomonga uchib kelayotgan volanga qarab yuqoriga keskin harakatlanishni boshlaydi. Chap qo'l yarim bukilgan va tana muvozanatini ushlab turish uchun orqaga olingan. Sportchi to'rga nisbatan deyarli teskari holatda bo'ladi (35-rasm, 4-holat).

Zarbaning yakuni raketkani ushlab turgan panjani uchib kelayotgan volan tomonga qarab keskin tez chiqarish bilan amalga oshiriladi, bunda zarba berilganga qadar tirsak panjadan oldinda, panja esa raketkaning kallagidan oldinda bo‘lishi kerak. Raketkani ushlab turgan qo‘l yuqoriga tik ko‘tarilgan bo‘ladi. Volan raketkaning simli yuzasiga kelib tegishi bilan panja tezda yoziladi, bu esa zarba beruvchi harakatning kuchini oshiradi (35-rasm, 5-holat).

Masalan, hujumkor zarbada (smeshda) panja oxirigacha buriladi. O‘ng oyoq maydonchaga qo‘yilgandan, og‘irlilik markazi unga o‘tkazilgandan keyin darhol zarba berilsa, to‘g‘ri bo‘ladi. *Izoh: zarba berish chog‘ida qadamlar soni har bir sportchining shaxsiy jismoniy ko‘rsatkichlariga qarab belgilanadi.*



35-rasm. Raketkaning yopiq tomoni bilan yuqoridan beriladigan zarba.

Shuni yodda tutish kerakki, butun zarba nisbatan yengilashgan holatda amalga oshiriladi, bosim esa faqatgina zarba beriladigan paytning o‘zigagina xosdir.

Raketkaning yopiq tomoni bilan yuqoridan beriladigan zarbalarning turlicha trayektoriyada bo‘lishidagi farqlar zarbaning yakuniy bosqichida panjaning bukilish darajasiga va uning bilak atrofida buralishiga bog‘liq bo‘ladi. Aynan panjaning holati va harakati volanga uchishning kerakli trayektoriyasini beradi, uning


bilak atrofida buralishi esa zarbaning kuchli chiqishini ta'minlaydi. Demak, butun e'tiborni zARBANI panjada yakunlashga qaratish kerak bo'ladi.

Yuqori-olis zARBADA volan raketkaning simli yuzasiga kelib tegishi smeshdagidan ko'ra ancha oldin boshlanadi, bu yerda asosiy zARBa harakati nisbatan oldinroqdagi bosqichda yakunlanadi va yuqoriga hamda to'r tomonga oldinga yo'nalgan bo'ladi. Shu bois, zARBa berishning yakuniy bosqichida panjaning tirsakka nisbatan juda ham bukilishi sodir bo'lmaydi.

Yuqori hujumkor zARBADA ham xuddi 'shunday holatni kuzatish mumkin. Bunda volan deyarli qiyalab uchishi kerak. Shu sababli, smesh bilan solishtirganda, zARBANI yakunlashning nisbatan boshlang'ich bosqichida volanga deyarli uzunasiga zARBa beriladi hamda bu holatda ham panjaning keskin bukilishi kuzatilmaydi.

Zarbalarning har xil turlarida raketkaning holati 36-rasmda ko'rsatilgan.

Ta'riflab o'tilgan texnika qisqa (to'r yaqiniga tashlash) zARBALARDAN tashqari barcha zARBALAR uchun xosdir. Yuqoridan-o'ngdan beriladigan zARBALarda bo'lgani kabi, bular ham qo'lni qattiq kerishni va kuchli yakunni talab qilmaydi. Panja harakati nisbatan keskin, ammo qisqa bo'lib, oz vaqt davom etadi. Volanni kuzatish deyarli mavjud bo'lmaydi. Bu shunday zARBa bo'lishi kerakki, volan tezda raqib maydonchasigacha uchib borib, to'r dan minimal balandlikda uchib o'tib, darrov uning ortiga tushsin.



36-rasm. Yopiq tomon bilan yuqoridan beriladigan zARBADA raketkaning holati:

1 – hujumkor trayektoriya (smesh), 2 – baland hujumkor trayektoriya, 3 – baland-olis trayektoriya.

Yondan zARBALAR

Yondan beriladigan zARBALAR ham turli xil bo'ladi: balandolis, baland hujumkor, hujumkor, yassi va qisqa. Amaliyotning ko'rsatishicha, aksariyat hollarda yon tomondan o'ynaganda aralash zARBALAR, ya'ni: to'r ortiga yassi-hujumkor yoki yassi qisqa oshirib tashlashlar qo'llaniladi. Yon tomondan beriladigan zARBALARGA RAQIBNING hujumkor harakatlari tufayli zarurat tug'ilishi bois, volanni qaytarish uchun vaqt boshqa holatlardagidan ko'ra kamroq bo'ladi. Bundan tashqari, zamonaviy tezkor badmintonda ayrim mahoratli sportchilar (ayniqsa, juftlik bahslarida) ataylab RAQIBNING hujumkor volanlarini to'r yaqinida yassi zARBALAR bilan qabul qilishadi. Sportchi yaxshi jismoniy tayyorgarlik va yuqori texnikaga ega bo'lsa, mashqlar davomida shakllangan reaksiya hisobiga nafaqat volanni to'xtatishi, balki qo'lni deyarli kermasdan panjaning yashirin aniq harakati bilan volanni to'r ustidan oshirib, raqib uchun kutilmagan va noqulay joyga tushirishi ham mumkin.

Yon tomondan beriladigan barcha zARBALAR volanni sportchingning o'ng yoki chap tomonidan qisqa masofada qaytarish orqali amalga oshiriladi. Bunda sportchingning gavda holati – o'rtacha yoki past bo'ladi.

ZARBARNING har qanday bosqichida raketkani ushlab turgan panja bilakka nisbatan sal ko'tarilgan holatda bo'lishi zarur. Oxirgi qadamni o'ng oyoq bilan tirsakdan salgina bukilgan, uzatilgan qo'l olibligidagi zarba nuqtasiga qarab tashlash kerak. Volanga to'g'ri burchak ostida zarba berish lozim.

O'ngdan-yondan zARBANING klassik varianti o'ng tomonga qadam tashlash yoki hamla qilish bilan boshlanadi, chap yelkani to'r tomonga burib, qo'lni nisbatan faol kerish bilan xarakterlanadi hamda volan tomonga tirsak, bilak va panjani cho'zish bilan yakunlanadi. Bunda qo'lning ana shu qismlari zarba beriladigan paytga qadar raketka kallagidan oldinda turishi kerak. Chap qo'l butun tana uchun muvozanat saqlovchi vazifasini bajaradi (37-rasm).

Mashg'ulotlar jarayonining takomillashtirib borilishi, sportchilarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi yaxshilanishi, jihozlarning xarakteristikalarini o'zgarishi hamda boshqa bir qator


omillar hisobiga badmintondag'i tarkibiy elementlarni bajarish texnikasi ham rivojlanib bormoqda. Masalan, tegishli tayyor-garlikka ega bo'lgan sportchi o'ngdan-yondan *modifikatsiyalangan* zarba berishi mumkin. U *klassik* zarbadan past gavda holati, qo'lning qisqaroq kerilishi va zarba beradigan qo'l tirsagining mayatniksimon harakati bilan ajralib turadi (38-rasm).

Hujumkor kombinatsiyaga panjaning kuchli keskin harakati yakun yasaydi. Bunda panjaning bilakka nisbatan kuchli bukilishi raketka kallagiga volanga kuchli dinamik zarba berish imkonini yaratadi.



37-rasm. O'ngdan-yondan klassik zarba:

1 – o'ngga qadam tashlash, 2 – qo'lni keng kerish, 3 – zarba.




38-rasm. O'ngdan-yondan modifikatsiyalangan zarba:

1 – gavda holati, 2 – o'ngga qadam tashlash va qo'lni ozroq kerish, 3 – zarba va kuzatish.

Shuni yodda tutish kerakki, yondan zarba berganda volanni maydoncha yon chizig'inинг о'rtasidan olis bo'lman joyda qaytarish va u tanangizdan uchib o'tib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Agar siz volanni o'tkazib yuborsangiz, hujumkor zarba berish imkoniyati bo'lmasligi tayin. Bu holatda sportchi uchun ikkita yo'l qoladi: yoki raqibning hujumkor harakatlarini to'xtatish

hamda maydonchada o'zi uchun qulay joyga turib olish maqsadida volanni baland-olis trayektoriya bo'yicha qaytarish; yoxud panjaning yengil harakati bilan volanni to'r yaqiniga tashlash. Volan elka balandligida uchib kelayotganda yon tomondan zARBalar berish qulay bo'ladi, chunki bunda volanni shundoqqina to'r ustidan qaytarish oson bo'lgani bois, raqibning javob harakatlari anchagina mushkullashadi.

Chapdan-yondan beriladigan zarba uchun o'rtalik yoki past gavda holatida turish kerak (39-rasm). Raketka uning yopiq tomoni bilan zarba berishga qulay qilib ushlanadi. Chapga qayrilib, raketkani ham o'sha tomonga burish kerak. To'rga deyarli teskari bo'lguncha yelkani chapga burish zarur. Raketkani ushlagan qo'lni yelka balandligida ko'tarib, tirsakdan bukib, tirsakni esa volan kutib olinadigan taxminiy nuqta tomonga yo'naltirib turish kerak. So'ngra raketkani ushlab turgan qo'l to'g'rilanib, panja aylan-tiriladi. O'ng oyoq bilan chap tomonga qadam tashlab, u maydonchaga qo'yilganda zarba beriladi. Zarba turidan kelib chiqib, raketkani ushlab turgan qo'l volanning uchishini uzoq yoki qisqa kuzatib qo'yadi.




39-rasm. Chapdan-yondan zarba.

Yondan o'ng va chap tomondan beriladigan zARBalarni bajarish texnikasida o'xshashliklar ko'p. Asosiy farqlar zarba berish paytida tashlanadigan qadam yoki hamlaning yo'naliShida ko'rindi. Har ikki holatda ham ana shu qadamni yoki hamlani o'ng oyoqda ushlagan ma'qul. Mazkur zARBalarning boshqa barcha tarkibiy qismlari bir xil.

Pastdan beriladigan zARBalar

Pastdan beriladigan zARBalar, asosan, himoya zARBalari hisoblanadi. Badmintonchi raqibining muvaffaqiyatli hujumkor harakatlari qarshi ularni qo'llashga majbur bo'ladi. Ular: o'ngdan, chapdan va tana yuzasidan beriladi (40 va 41-rasmlar).



40-rasm. Pastdan-o 'ngdan zarba.

41-rasm. Pastdan-chapdan zarba.

Pastdan beriladigan zARBalar, yuqorida qayd etilganidek, odatda, majburiy bo'lishi bois, ular taktik vaziyatni yaxshilash uchun xizmat qiladi. Tajribali sportchi hatto qiyin vaziyatlarda ham volanning uchishiga istalgan trayektoriyani bera oladi. Ammo bu holatda, hatto tajribali badmintonchiga ham volanni yoki balandolis zarba bilan raqib maydonchasinining orqa chizig'iga, yoxud past qisqa zarba bilan to'rnинг yoniga yo'llash taktik jihatdan foydali hisoblanadi. Birinchi holatdagi zARBani berish texnikasi xuddi baland-olis zarbadagi kabi, ikkinchisi esa past oshirishga o'xshaydi. To'g'ridan pastdan zarba berilganda ba'zi hollarda volanni o'zidan shunchaki irg'itib yuborish yo'li bilan qaytarishga to'g'ri keladi. Pastdan beriladigan barcha zARBalar sportchining zarba beradigan qo'li yelkasining pastga tushgan holatida bajariladi.

To'r yaqinidagi zARBalar

To'r yaqinidagi zARBalar o'yin natijasiga katta ta'sir ko'rsatishi bois, ularni alohida bo'limda ko'rib chiqishni ma'qul topdik. Aksariyat hollarda aynan to'r yaqinidagi zARBa ochko olib keladi, juftlik va mikst bahslarida esa to'r yaqinida o'ynovchi

sportchining mahorati g'ala ba uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi.

To'r yaqinidagi aksariyat zarbalar boshqa barcha zarbalar dan ikkita muhim jihat bilan ajralib turadi, bular: gavdaning past holatda bo'lishi va yelkaning kerish harakatining bo'Imasligi. Tirsak, panja va bilak ishlaydi. Amaliyotning ko'rsatishicha, volan to'r ustidan qanchalik pastlab uchib o'tsa, uni qaytaradigan sportchining gavdasi ham shunga mos tarzda past holatda bo'lishi zarur.


Bajarilish texnikasiga ko'ra, to'r yaqinidagi zerbalar: baland-olis, baland hujumkor, hujumkor, yassi va qisqa bo'ladi (42-rasm). Ushbu barcha zerbalar uchun xos bo'lgan umumiyl jihat – vaqtning kamligi. To'r – volan uchun kurashning oldingi chizig'i bo'lib, ungacha volan orqa chiziqqa nisbatan tezroq yetib keladi. Shu bois, to'r yaqinidagi o'yin texnikasi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Baland-olis, baland hujumkor zerbalar, hattoki yassi va hujumkor (*qisqa smesh*) zerbalar ham qo'lni keng kerishsiz bajariladi. Asosiysi – panjaning kuchli va tezkor ishlashidir. Aksariyat hollarda ushbu zerbalar *uloqtirma zerbalar* deb ataladi (hujumkorlari bundan istisno).

Har doim yodda tuting, agar to'r yonida zarba berganda volan to'r yuqori qismidan salgina balandda bo'lsa, unga yuqoridan pastga qarab hujumkor zarba bergen ma'qul. Shunda raqibga bosim o'tkaziladi (43-rasm).


Qisqa zerbalar o'ziga xos bo'lib, shartli ravishda "taglik" (podstavka) atamasi bilan nomlanadi. Klassik podstavkada volan to'r ustidan pastlab uchib o'tadi va unga parallel ravishda tikkasiga maydonchaga tushadi (44-rasm). Badminton ustalari raketka kallagini shunchaki volanning tagiga qo'yishmaydi, balki ular, shu bilan birga, panjalari bilan to'rning yuqori chetiga qarab, ba'zida esa uni yoqalab gorizontal yuza bo'ylab, xuddi volanni tagidan kesgandek va uni gorizontal o'qi bo'ylab aylantiruvchi keskin harakatni ham amalga oshirishadi. Mazkur element to'g'ri bajarilganda volan aylana boshlaydi va raqibning uni qaytarishi nihoyatda mushkullashadi.

To'r yaqinidagi qisqa zarba bilan volan uni yoqalab ham yo'naltirilishi mumkin. Bunda raqib uchun kutilmaganda panja bilan yopiq harakat qilinadi va yutuqli vaziyatga erishiladi. Volan to'rnинг yuqori qismidan pastroqda turganda ushbu usuldan ko'proq foydalaniлади.




42-rasm. To'r yaqinida zarba berilganda volanning uchish trayektoriyasi:

1 – baland-olis, 2 – baland hujumkor, 3 – yassi, 4 – yassi maydonchaning yarmisiga, 5 – hujumkor, 6 – qisqa (taglikda).



43-rasm. To'r yaqinidagi zarbalar:

1 – to'g'ri, 2 – noto'g'ri: o'yinchini raketkasi va oyog'i bilan raqib hududi (maydonchasi) ga o'tib ketgan.




44-rasm. "Taglik" zarbasi berilayotganda raketka kallaginiнг to'rnинг yuqori qismidagi holati.

45 va 46-rasmlarda racketka dastagini ushlash va uni kallagining to'r yuqori qismiga nisbatan holati ko'rsatilgan.


Odatda, to'r yaqinida o'ng tomonda zarba racketkaning ochiq tomoni (45-rasm), chapda esa yopiq tomoni (46-rasm) bilan beriladi.

To'r yaqinidagi aksariyat zARBalar odatda, volan uchib kelayotgan tomonga qarab o'ng oyoq bilan hamla qilingandan keyin beriladi. Hamlaning uzunligini to'g'ri tanlay bilish kerak: volanga cho'zilishga to'g'ri kelmasligi uchun u juda qisqa bo'lmasligi zarur, ammo keyingi harakatlarni qiyinlashtiradigan darajada uzun bo'lishi ham kerak emas. Sportchi maydonchada har doim faol o'yin pozitsiyasini egallab turishi uchun bu juda muhimdir.



45-rasm. To'r yaqinida racketkaning ochiq tomoni bilan beriladigan zARBalar:


1 – volanni to'r bo'ylab o'tkazish, 2 – taglik.



46-rasm. To'r yaqinida racketkaning yopiq tomoni bilan beriladigan zARBalar:

1 – taglik, 2 – volanni to'r bo'ylab o'tkazish.

Ilojsiz vaziyatlarda sportchilar ekzotik zARBalar berishga ham majbur bo'lishadi. Ammo bunday zARBalar kam samara beradi, jarohat yetkazishi mumkin hamda odatda ular, o'yin jarayonida emas, balki mashg'ulotlarda uchraydi (47-rasm).



47-rasm. Zarbalar:
1 – *pastdan zarba*, 2 – *yondan zarba*.


Badmintonda harakatlar

Mutaxassislar badmintonda asosiysi oyoqlar ekanini ko‘p takrorlashadi. Ko‘plab badmintonchilar bu so‘zlarning naqadar to‘g‘ri ekaniga amaliyotda guvoh bo‘lishgan. Yaxshi o‘yinchisi, badminton ustasi o‘yining barcha asosiy texnik usullarini mukammal o‘zlashtirgan bo‘ladi. Buning ma’nosini shuki, sportchi volanga o‘z vaqtida chiqib, ko‘p karra mustahkamlangan mushak reflekslarining yuqori texnik darajasida unga avtomatik ravishda to‘g‘ri zarba beradi. Ammo, mabodo, oyoqlar pand berib qolsa, volanga qarab cho‘zilishga, agar unga bir amallab yetganingda ham, unga mashqlarda shakllangan odatiy usullarni qo‘llay olmasdan noqulay vaziyatdan zarba berishga, kuch, tezlik va texnika borasida raqibga ustunlikni berib qo‘yishga majbur bo‘lasiz. Aynan shu bois, badmintonda harakatlar birinchi o‘rinda turadi. Volanga yetib bora olsang – zarba berasan, yetolmasang – hamma urinishlarinig besamar ketadi. Bir latifada aytilganidek: artilleriya 18 ta sababga ko‘ra o‘q uza olmadidi, birinchi sabab – o‘qlar tugab qolgan ekan.

Maydonchada muvaffaqiyatlari harakatlanishning asosini yaxshi tayyorlangan oyoqlar tashkil etadi. Har bir mashg‘ulotdan ularni mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat qiladigan mashqlar o‘rin olishi zarur. Harakatlarni o‘yinchining jismoniy imkoniyatlari va xarakterining ruhiy tipidan (bu haqda boshqa bo‘limda so‘z yuritamiz) kelib chiqib o‘zlashtirish kerak. O‘rta va katta qadamning (hamlaning) uzunligi, vestibulyar barqarorlik, sakrash balandligi, harakat paytida gavda holati juda muhim ahamiyatga ega. Quyida umumiy qoidalarga to‘xtalib o‘tamiz.

Harakatlanish gavdaning o‘yinga oid holatidan boshlanadi. U istalgan tomonga qarab amalga oshirilishi mumkin, ammo maydonchada himoyalanmagan nuqtalar mavjudligini va aksariyat hollarda o‘sha tomonga qarab: to‘rning o‘ng va chap ustunlariga qarab oldinga; yon chiziqlarga qarab yonboshga; o‘ng va chap olis burchakka qarab orqaga harakatlanishga to‘g‘ri kelishini unutmaslik kerak. Boshqa oraliq harakatlar ham bo‘lishi mumkin, ammo yuqorida sanalgan oltita yo‘nalish asosiylari hisoblanadi.

Badmintonda maydonchada harakatlanish yettita asosiy elementdan tashkil topgan bo‘ladi (48-rasm). Bular: *oddiy qadam* (*bir qadam*), *qo‘sishimcha tashlangan qadam*, *chaparasta qadam*, *o‘zgaruvchan qadam*, *sakrash*, *hamla*, *yugurish* (yoki sakrab-sakrab qadam tashlash). Yana “qaytadigan qadam” deb nomlangan, o‘sha tartibda harakat boshlangan nuqtaga qaytishni anglatadigan bahsli tushuncha ham mavjud.



48-rasm. Maydonchada harakatlanish turlari:

1 – *qo‘sishimcha qadamlar tashlab harakatlanish*, 2 – *chaparasta qadam tashlab harakatlanish*, 3 – *o‘zgaruvchan qadam tashlab harakatlanish*, 4 – *hamla*: a – *raketkaning yopiq tomoni bilan zarba berish uchun*, b – *raketkaning ochiq tomoni bilan zarba berish uchun*; 5 – *sakrash*.

Amaliyotning ko'rsatishicha, maydonchadagi barcha harakatlар ana shu elementlarning turli kombinatsiyalari (birikmalari)dan iborat bo'ladi. Barcha harakatlardan ko'zlangan asosiy maqsad – samarali zarba berishga va tezlik bilan dastlabki o'yin holatiga qaytishga tayyorlanishdan iborat. Sportchi maydonchada harakatlanishning barcha usullarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi hamda o'yinda yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqib ularni amalda qo'llay olishi kerak. Masalan, yondan zarba berish uchun chiqishda oyoqlarning harakatlanishi – mushkul ish emas. Yon chiziq tomonda qadam tashlash yoki hamla qilish, raketka ushlagan qo'lni oldinga cho'zish kerak – bo'ldi, volanni qaytarish mumkin. Ammo volanni yon tomondan (dam o'ngdan, dam chapdan) qaytarish uchun bir yon chiziqdan ikkinchisiga borib kelish ayrimlar o'ylaganidek oson ish emas. Maydoncha bo'yab ko'ndalang harakat qilinganda oyoqlarning faoliyati imkon qadam tejamli bo'lishi zarur. Hammasi tez, ammo hovliqmasdan bajariladi. Har qanday vaziyatda ham tana holati barqaror bo'lishi kerak.

Agar zarba maydonchaning oldingi qismida hamda o'yinchining oldida amalga oshirilsa, o'ng oyoq oldinga, volan tomonga tashlanishi, mabodo zarba maydonchaning orqa tomonidan bajarilsa, o'ng oyoq orqa chiziqqa yaqinroq joylashishi lozim.

Maydonchada kombinatsiyalangan harakatlanishning usullari turlicha, u yoki bu usulni tanlash esa ko'p jihatdan sportchining individual xususiyatlariga: bo'yiga, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik holatiga, kuchiga, tezligiga, egiluvchanligiga, chidamliligiga bog'liq bo'ladi.

Tajribali sportchilar volanga qarab harakatlanishni katta qadamlar bilan boshlab, oxirida zarba berish oldidan uchib kelayotgan volanning trayektoriyasiga nisbatan tananing to'g'ri joylashuvini ta'minlash uchun mayda qadamlar bilan yakunlashni maslahat berishadi. Bu esa zarba berish paytida ham, o'yin hududining markaziga qaytish uchun harakat qilishda ham sportchi nisbatan qulay joy egallashini ta'minlaydi. Oxirida keng harakat qilinganda – xuddiki sportchi tanasining "prujinasi" cho'zilgan va kuchsizlangandek bo'ladi, zarba esa kuchsiz va noaniq chiqadi. Shu bois, juda katta hamla vaziyatdan chiqib ketish maqsadida

qo'llaniladigan, ammo uni yaxshilashga xizmat qilmaydigan majburiy harakat hisoblanadi. Xattoki, taglik usulini qo'llaganda ham, sportchida mazkur zarbani tagidan kesgandek (to'r yaqinida qo'shimcha harakat bilan) noqulay tarzda tashlash uchun harakat zaxirasi bo'lishi zarur. To'g'ri, zamонавиу badmintonda kuchli va egiluvchan panjaga ega bo'lган sportchilar hatto qiyin vaziyatlardan ham murakkab va hujumkor zarbalar bera olishadi. Ammo, har qanday vaziyatda ham, noqulay holatda berilgan zarbaning xato ketishi ehtimoli katta.

Maydonchada harakatlanishning yana bir toifasi mavjud. Ularni *aldamchi harakatlar* yoki *aldamchi qadamlar* deb atash mumkin. Mazkur harakatlardan ko'zlanadigan asosiy maqsad – raqibni chalg'itish va xato qilishga majbur etishdan iborat. Massalan, agar o'yinchi to'rnинг o'ng ustuni yaqinida taglik usulida zarba bermoqchi bo'lsa-yu, unda ozgina qo'shimcha vaqt mavjud bo'lsa, aldamchi harakat bilan zarba beruvchi oyog'ini taglik usuli bajariladigan nuqta tomonga tashlamasdan, go'yoki hujumkor zarba berishga chog'lanayotgandek biroz qisqaroq qadam tashlaydi. Agar raqib bunga aldanib qolsa, u hujumni qaytarishga tayyorlanish maqsadida to'rdan uzoqlasha boshlaydi. Bu paytda o'yinchi bermalol taglik usulida zarba berib ochko yutib oladi. Ammo juftlik bahslarida ana shunday aldamchi harakatlar raqib bilan birga sheringizni ham chalg'itib qo'ymasligi kerak. Aksariyat hollarda, havaskor va boshlovchi badmintonchilarda oldindan mashg'ulotlar paytida "pishirib olinmagan"ligi bois, ana shunday tushunmovchiliklar kelib chiqadi.

Badminton ustalari o'yin davomida ana shunday aldamchi harakatlardan ko'p bora ustalik bilan foydalanishadi hamda buning orqasidan zarur ustunlikka ega bo'lishadi. Yaqinda faxriylar o'rtasida o'tkazilgan bir musobaqada qiziqarli bir o'yinni kuzatishga to'g'ri keldi. O'yinchilardan biri amaliyotga mutlaqo zid holda ochiqdan-ochiq boshqa tomonga qarab turib va tana harakatini amalga oshirib, volanni unga qaramasdan qarama qarshi tomonga qaytarardi. U bunday zarbalarni uzoq davom etgan mashqlarda shakllantirgan va raqibini shoshirib qo'ygancha muvaffaqiyat qozona oldi.

Texnik elementlarni bajarish chog'ida maydonchada harakatlanishlar to'g'risida oldingi bobda so'z yuritildi. Taktik harakatlarning aniq variantlari o'yin strategiyasi va taktikasiga bag'ishlangan keyingi boblarda ko'rib chiqiladi.

Qisqacha umumlashmalar

Badminton o'yining mazmuni oddiy: volanning o'z maydonchangizda yerga tushishiga yo'l qo'ymaslik va uni raqibingiz maydonchasida yerga tushirishga erishish.

O'yin volanni oshirishdan boshlanadi. Oshirishning to'rtta turi mavjud, bular:

a) **baland-olis** – kuchli zarba bilan raqibning ustidan oshirib, uning maydonchasining orqa o'ng yoki chap burchagiga oshirish;

b) **baland hujumkor** – anchagina kuchli zarba bilan volan raqibning ustidan, uning qaytarish imkoniyatlari chegarasidan balandroqda tashqarisidan oshirib tashlanadi;

d) **qisqa** – raqib maydonchasining oldingi chizig'iga to'r ustidan pastlatib (to'rning yuqori qismidan 3-5 sm balandlikda) oshirish;

e) **yassi** – qaytarish qiyin bo'lgan oshirish, volan zARBANI qabul qilishning orqa chap burchagiga raqibning raketka ushlamagan qo'lining yelkasi uzra oshirib tashlanadi.

Oshirish usulini niqoblash uchun tayyorgarlik harakatlarning barchasi bir xil bo'lishiga e'tibor qaratish zarur.

Badmintonda zARBALARNING turlari juda ko'p.

Volanning borib tushish joyi va uchish trayektoriyasiga ko'ra, zARBALAR quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Baland-olis** – raqibni orqa chiziqdA ushlab turish va o'yin tempini pasaytirish uchun qo'llaniladi. Zarba harakati juda ham keskin va kuchli bo'lishi kerak. Orqa chiziqning chap tomonidan raketkaning yopiq tomoni bilan murakkab bo'lgan zarba berilganda tirsakni tezda to'g'rilash bilan bir vaqtda panjani bilak atrofida aylantirish ham zarur bo'ladi.

2. **Baland hujumkor** – volan raqib uni qaytarishi mumkin bo'lganidan sal balandroqdan uchib o'tishi uchun anchagina kuchli tarzda zarba beriladi.

3. Yassi – o‘yin tempini oshirishga xizmat qiluvchi hujumkor zarba. Ushbu zARBADA volan to‘r ustidan pastlab katta tezlikda uchib o‘tadi. Panja va bilakning keskin harakati bilan bunga erishiladi.

4. Qisqa – mushaklarning nozik sezgirligini talab qiladigan anchayin murakkab zarba. Ikki xil usulda amalga oshiriladi:
a) volan kuchli bo‘lmagan, ammo keskin zarba bilan qaytariladi;
b) raketka uchib kelayotgan volanning tagiga qo‘yiladi yoki hatto ozgina orqaga ham oshiriladi. Volan uchishi trayektoriyasining 2/3 qismi o‘z maydonchasiga to‘g‘ri kelib, so‘ngra u xuddi raqib tomonga oshib tushgandek o‘tib ketadigan, to‘r yaqinida diagonal bo‘ylab bajariladigan qisqa zarba. Yodda tuting, siz volanni qancha oldin kutib olsangiz, raqibingizda javob zarbasiga tayyorlanish uchun shuncha kam vaqt bo‘ladi.

5. Qisqartirilgan – badmintondagي eng murakkab va nozik zARBALARDAN biri bo‘lgan aldamchi zarba (qisqa zarbaga o‘xshash, ammo trayektoriyasi uzunroq). Uni bajarish chog‘ida zarba berayotganda panjani salgina bo‘shashtirish zarur bo‘ladi.

6. Nayza bilan hujum – shundoqqina to‘rning ustida, raketka kallagini uchib kelayotgan volanni qarshi olishga turli burchak ostida olib chiqish yo‘li bilan bajariladi va panjaning keskin yakunlovchi harakati bilan volan raqibning oyog‘iga yoki o‘ziga qarab yo‘naltiriladi.

7. Smesh – asosiy hujumkor zarba. Volan tepadan pastga qarab katta tezlikda harakatlanadigan qilib bajariladi. Ushbu zARBANI bajarishning klassik usulida zarba berishdan oldin orqaga egilish, so‘ngra to‘g‘rlanish, navbat bilan zarbaga oyoqlarni, tanani, qo‘llarni qo‘sish, so‘ngra harakatni panjani keskin to‘g‘rilab, uni bilakka nisbatan bukish bilan yakunlash zarur bo‘ladi.

O‘yin texnikasining asosiy qoidalarini qisqacha umumlash-tiramiz va havaskorga mahoratli badmintonchiga aylanishida asqotadigan bir qancha umumlashma tavsiyalarni keltirib o‘tamiz.

1. Raketskani to‘g‘ri ushslashni o‘rganish. Uni erkin ushslash kerak. Raketka faqat bevosita zarba berish paytida xuddi qo‘lni siqib ko‘rishgandagidek siqib ushlanadi. Barcha turdagи zARBALARNI amalga oshirishda panja ishtirok etishiga e’tibor qaratish zarur.

Klassik usuldagi zarba boshlanishi oldidan qo'l panjası halqasimon tarzda aylantiriladi, bu harakat raketka volanga tegadigan paytda tezlashadi. Bu jarayonda panja harakati bilak harakatidan ortda qolishi juda muhimdir, chunki bu narsa zarbaning keskin va kuchli chiqishini ta'minlaydi. Panjaning bunday harakati, odatda, inson uchun xos emas. Shu bois, buning uchun panjani rivojlantirib borish zarur. Quyida oddiy, ammo samarali mashq namunasini keltirib o'tamiz: raketkani ushlab turgan panja bilan havoda gorizontal va vertikal holatda sakkiz raqamini chizish.

2. Maydonchada gavdani to'g'ri tutib turish va harakatlanishga e'tibor qaratish lozim. Badmintonchi o'yin paytida doimiy harakatda bo'ladi. Tana salgina oldinga egilgan, chap oyoq esa o'ng oyoqdan oldinroqda (oyoqning yarim panjası miqdorida) bo'lishi kerak. Oyoqlar tizzadan salgina bukiladi. Badmintonchining darajasini u maydonchada gavdasini qanday tutib turishidan va harakatlanishidan bilib olsa bo'ladi. U o'yin paytida xuddi bokschilardek qo'shimcha va kombinatsiyalangan qadamlar tashlab harakatlanishi kerak. Zarba berish paytida harakatdan to'xtash zarur.

3. Sport badmintonida zarba berish paytida o'yinchining tanasi to'rga parallel holatda bo'lishi o'yin uslubining zaifligidan dalolat beradi. Burilish paytida xuddi spiralsimon prujina singari aylanadigan tana zarba paytida unga qo'shimcha kuch va'keskinlik bag'ishlash imkonini beradi hamda raketkaning volanga tegishining ayni mana shu o'yin vaziyatida kerakli yo'nalishda bo'lishini ta'minlaydi.

4. Tirsakka alohida e'tibor qaratish zarur. Zarba berish paytida tirsak bukilgan bo'lishi kerak emas, aynan tirsakning keskin to'g'rlanishi zarbaga kuch va aniqlik bag'ishlaydi.

5. Doimo volanni kuzatib turish kerak. Zarba aniq chiqishi uchun o'yinchı volan raketkasiga kelib tekkuniga qadar albatta uni kuzatib turishi zarur.

6. Zarbani amalgalama hirgandan so'ng, o'yinchı o'sha joyda to'xtab qolmasdan dastlabki holatga qaytishi yoki raqib volanni qaytarishi ehtimoli bo'lgan joyga qarab harakatlanishi kerak.

Yana bir jihatga e'tibor qaratish kerak: havaskor badmintonchilar orasida sport badmintonining texnik elementlarini

o‘rganish va rivojlantirish uchun mashg‘ulotlar emas, balki bevosita o‘yin jarayoni ma’qul, degan xato fikr mayjud.

Bunday fikr noto‘g‘ri. Bevosita o‘yin paytida raqibingiz volanni imkon qadar murakkab tarzda oshirishga harakat qiladi, shu bois, agar siz texnik ko‘nikmalarga ega bo‘lmasangiz, bunday qiyin o‘yin vaziyatlarida ularni shakllantirish deyrali imkonsiz bo‘lib qoladi. Mazkur ko‘nikmalarni maxsus mashg‘ulotlar jaryonida, mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish yo‘li bilan egallash mumkin. Shu bois, tajribali murabbiylar badminton o‘ynashga o‘rgatishning boshlang‘ich bosqichida mashg‘ulotlar jarayoniga o‘yin amaliyotini deyarli kiritishmaydi.

Nazorat savollari

1. “Texnika” haqida tushuncha, badmintonga xos o‘yin usullariga izoh bering.
2. Volansiz va volan bilan ijro etiladigan harakatlar texnikasi mo‘hiyatini ochib bering.
3. O‘yin texnikasi tasnifiga izoh bering.
4. Badmintonchiga xos holat va harakatlanishlar texnikasini gapirib bering.
5. Istalgan o‘yin usulini ijro etish texnikasiga tafsif bering.
6. O‘yin usullari texnikasining ko‘p qirraliligi va o‘zgaruvchanligi haqida tushuncha bering.
7. O‘yin texnikasini jismoniy sifatlar bilan bog‘liqligini izohlang.

V BOB. O'YIN TAKTIKASI

5.1. Taktika haqida tushuncha

Strategiya – bu sportchilarning asosiy o'yin sifatlarining haqiqiy imkoniyatlari (barqarorlik, aniqlik, chidamlilik, ruhiy barqarorlik va boshqalar)ni hisobga olgan holda g'alaba qozonish uchun o'yinni olib borish, maydonchaning o'lchamlaridan, jihozlardan, o'yin texnikasi va taktikasidan samarali foydalanish bo'yicha umumiy rejadir.


Strategiya haqida gap ketganda ikkita holatni yodda tutish zarur:

- Samarali o'yin strategiyasi – hujumkor volan strategiyasi.
- Strategiya – uzoq muddatga mo'ljallangan taktika.

Taktika – aniq bir o'yin vaziyatlarida ustunlikka ega bo'lish maqsadida o'yinning texnik usullari yig'indisidan foydalanish. Ammo faqatgina yaxshi texnikaga ishonib qolish ham yaramaydi. Umumiyoq qoida shunday – har bir zarbadan ko'zlangan ma'lum bir maqsad bo'lishi kerak. Eng yaxshi hujumkor zarba har doim ham yutuqli ochko olib kelmasligi mumkin. Yaxlit o'yin maqsadida bo'ysundirilgan turlicha texnik usullar (zarbalar va harakatlar)ning samarali ravishda almashib kelishi, har doim betartib o'yin ritmidan ko'ra yaxshiroqdir. Aynan kombinatsiyalangan o'yin – g'alaba sari eltuvchi eng maqbul yo'ldir.

Badmintonda ko'p narsa maydoncha geometriyasiga ham bog'liq bo'ladi. Shu bois, amalga oshirilayotgan zarbalar texnikasidan qat'i nazar, badmintonchining asosiy taktik vazifasi volanni raqib maydonchasingning uni qaytarish murakkab va qiyin bo'lgan qismlariga yo'naltirishdan iborat bo'lishi zarur. Juftlik bahslari uchun bunday zonalar to'qqiztani, yakkalik o'yinlarida esa oltitani tashkil etadi (49-rasm). Juftlik bahslari uchun bular orqa chiziqdagi – burchaklar va markazdagi uchta nuqta; to'r oldidagi – ustunlar yonidagi va markazdagi uchta nuqta; yon chiziqlar o'rtasidagi ikkita nuqta; markaz bo'ylab o'yinchilar o'rtasidagi va

o‘yinchi qayerda turganidan qat’i nazar, uning tanasidagi nuqta. Yakkalik o‘yinlarida noqulay qismlar maydonchaning yon chiziqlari bo‘ylab, to‘r oldida, yon chiziqlar o‘rtasida, olis va yon chiziqlar kesishgan nuqtada, raqib tanasida bo‘ladi (shartli ravishda markazda ko‘rsatilgan). Volanni aynan mana shu nuqtalarga yo‘naltirishga harakat qilish lozim.



49-rasm. Maydonchaning volanni qabul qilish qiyin bo‘lgan qismlari (qora kataklarda ko‘rsatilgan).

Sport badmintonining oltin qoidasi – volanni qaytarishga tayyor turgan o‘yinchiga o‘ynamaslik kerak. Volanni imkon qadar undan uzoqroqqa yo‘naltirib, raqibni ko‘proq harakat qilishga majbur etish va charchatishga harakat qilish zarur. Faqat birgina holatda o‘yinchining o‘ziga o‘ynash mumkin – raqib tanasining himoyalanmagan qismiga hujumkor zarba beriladi.

O‘yinning to‘g‘ri taktikasi ko‘p jihatdan yakkalik, juftlik va mikst bahslari uchun o‘xhash bo‘ladi. Ammo, shu bilan birga, o‘ziga xos farqlar ham yo‘q emas.

5.2. Yakkalik o‘yin taktikasi

Yakkalik o‘yin taktikasi (yoki o‘yinni olib borish rejasи) quyidagi prinsiplar asosiga quriladi:

- 1) raqibni maydoncha bo‘ylab murakkab harakatlarni amalga oshirib toliqishga majbur qilish;

2) baland-olis, hujumkor zarbalarini to'r yaqinidagi nafis o'yinlar, shuningdek, aldamchi harakatlar va noan'anaviy usullar bilan qorishtirgan holda raqibni xato qilishga majbur etish;

3) doimiy ravishda raqib o'yinidagi ojiz nuqtalarni kuzatib borish va ulardan imkon qadar samarali foydalanish.

Barcha badminton ustalariga quyidagi eskirmaydigan aksio-ma yaxshi ma'lum – badmintonda hujumkor uslub g'olib chiqadi, buning ma'nosi shuki:

- barcha zarbalarini imkon qadar baland nuqtadan berish kerak;

- himoyalanayotganda volanni to'r yaqinida kutib olish zarur;

- raqibga o'z o'yin uslubingizni o'tkazishga harakat qilib, uning faolligini so'ndirishga intilishingiz lozim.

Mana, yana bir nechta amaliy tavsiyalar:

- o'yin paytida o'zingiz yaxshi bajara oladigan texnik usullar va taktik kombinatsiyalardan ko'proq foydalaning;


- o'yin davomida sizga yutuqli ochkolar olib kelayotgan taktikani hech qachon o'zgartirmang; u juda oddiy – orqaga zarba va to'r yaqinidagi taglik, ammo samarali bo'lishi mumkin; oddiy o'ynashga harakat qiling, faqat raqibga ochkolarni boy berayotganda qiling o'yin taktikasini o'zgartirish maqsadga muvofiq.

O'yin taktik rejasini amalga oshirish birinchi zARBADAN – volanni oshirishdan oqilona foydalanishdan boshlanadi. Yakkalik bahslarida ko'proq baland-olis, kamroq yassi va qisqa, kamdan-kam hollarda baland hujumkor zARBALAR qo'llaniladi. Volanni birinchi zARBADAYOQ raqibni noqulay vaziyatga tushirib qo'yadigan tarzda oshirish kerak. Baland-olis zarba bu talabga to'liq javob beradi.

Baland-olis zarba yakkalik bahslarida samarali hisoblanadi, chunki uni qo'llash orqali sportchi raqibini volanni to'rdan olisda – orqa chiziq ustida qabul qilishga majbur etib, uning darhol hujumkor qaytarishni amalga oshirish imkoniyatini kamaytiradi va qiyin vaziyatga tushirib qo'yadi. Bunday zarba texnik jihatdan to'g'ri bajarilganda sportchi o'yindagi vaziyat ustidan nazoratni o'z qo'liga oladi, o'yinni tashabbuskorlik bilan boshlaydi. Taktik jihatdan raqibni olisdan o'ynashga majbur etgan ma'qul, shunda


uning hujumkor harakatlari kam samara beradi, kuchsiz va beqaror bo‘ladi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, baland-olis zARBADA uni qabul qiluvchiga quyidagilar xalaqit berishi mumkin: maydonchaning sifatsiz yoritilishi, shift va yon devorlarning noqulay bo‘yalganligi – buning oqibatida baland trayektoriya bilan uchib kelayotgan volanni ilg‘ab olish qiyinlashadi; shift tagiga yo‘naltirilgan kuchli ventilatsiya yoki sovutish-isitish tizimidan kelayotgan havo oqimi ham kutilmaganda volanning harakat trayektoriyasi o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yana bir jihat – raqibning kuchsiz javob zarbasi beradigan tomoniga yo‘naltirish zarur. Odatda, bu - chap tomondan raketkaning yopiq tomoni bilan beriladigan zarba hisoblanadi. Sportchilar tili bilan aytganda, volanni chap qo‘lga yo‘naltirish kerak.

Yana bir kichkina, ammo muhim afzallik mavjud: qabul qiluvchi o‘yinchining baland-olis zARBAGA moslashishi yassi yoki qisqa zARBAGA nisbatan qiyinroq bo‘ladi. Yakkalik bahslarida yassi va qisqa (past) zARBALAR raqibga tezkor hujumkor zarba qaytarish imkonini berishi bilan xavflidir. Ularning bitta afzalligi bor, ya’ni: raqibning o‘yin ritmini buzib yuborish uchun vaqtiga-vaqtiga bilan kutilmaganda ulardan baland-olis zARBALAR orasida foydalanish mumkin. Shu bois, bunday zARBALAR uchun ana shunday zarba berishga qulay vaqt va vaziyatni to‘g‘ri baholay bilish, raqib baland-olis zARBALARNI qaytarishga moslashib, yassi yoki qisqa zARBANI kutmayotgan paytni poylab amalga oshirish muhimdir. Barcha zARBALARNI amalga oshirishning yagona qoidasi – shoshilmaslik.




50-rasm. Baland-olis zARBAGA burchakdagI ustunlar tomoniga yo‘naltirilgan javoblar.

Baland-olis zarbaning afzal variantlari: o'ng tomondan rabiqning markaziy olis burchagiga, chap tomondan chap olis burchakka. Bunday zarbalarga to'g'ri javob qaytarish variantlari 50-51-52-rasmlarda ko'rsatib o'tilgan.




51-rasm. Baland-olis zarbaga yon chiziq ustiga yo 'naltirilgan "yarim maydon" hujumkor zarbasi bilan javob qaytarish.



52-rasm. Baland-olis zarbaga orqa chiziq burchaklariga yo 'naltirilgan baland zarba bilan javob qaytarish.


Volanni oshirgandan keyin tezda maydon markazida asosiy o'yin holatini egallash zarur (53-rasm).



53-rasm. Asosiy o'yin holati.

Maydonda bunday raqib tomonidan qaytarilgan volan uchib kelishi mumkin bo‘lgan barcha nuqtalarga nisbatan bir xil olislikdagi o‘rinni egallash o‘yinni faol davom ettirish imkonini beradi. Badminton ustalari o‘z o‘yinlarining samaradorligini oshirish maqsadida maydonchaning aynan geometrik jihatdan markazidan emas, balki taxminan old chiziqdandan bir metrcha olislikda to‘rga yaqinroq joy egallashadi. Bu esa ularga hujumkor o‘yin uslubini qo‘llash imkonini beradi.

Shunday o‘ynashga harakat qilingki, har bir zarbangiz mazmunga ega bo‘lsin, shu bilan birga, o‘z niyatizingizni oshkor ham etib qo‘ymang. Shunday vaziyatlarni yuzaga keltiringki, to‘r yaqinidagi kutilmagan o‘yin bilan g‘alabali hujumni amalga oshirish yoki ochko yutib olish mumkin bo‘lsin, shu bilan birga, raqibingizni shu ishni qilishiga imkon bermang. Uni butun o‘yin davomida to‘r va orqa chiziq o‘rtasida sarson qiling. Har doim volanni raqibingiz turgan joydan eng olis nuqtaga yo‘naltiring hamda beqaror turgan yoki harakatlanayotgan raqibingizga smesh zarbasi bering (54-rasm).



54-rasm. Raqib tanasiga hujum qilishning eng samarali nuqtalari (ajratib ko‘rsatilgan)

Raqib moslashib ulgurgani bois, smesh yordam bermaydigan joyda ko‘proq yarim smeshdan yoki to‘r yaqiniga tashlash usulidan foydalanan. Doimiy ravishda zarbalarining yo‘nalishini o‘zgartirib turing. Raqibga bosim o‘tkazish uchun uning jiddiy xatoga yo‘l qo‘yishini kutib o‘tirmang, har bir kichik xatosi va noaniq

harakatidan ham unumli foydalaning. Agar imkoningiz bo'lsa, o'yin sur'atini oshirib boring. Sizning tezkor, chaqqon va muvaffaqiyatli harakatlaringiz raqibingizni asabiy lashishga, xato qilishga, shoshilishga majbur qiladi. Raqibingiz sizning hujumkor harakatingizga noaniq javob qaytarganda, volanni to'r yaqiniga urib tushirishga yoki taglik usulini qo'llashga tayyor turing. Afsuski, hatto eng mahoratlari badmintonchilar ham juda oddiy va o'zlar uchun yutuqli bo'lib turgan vaziyatlarda xatoga yo'l qo'yishlari mumkin. O'yin vaziyatini o'zingiz uchun yutuq keltiradigan tomonga o'zgartirishga ishonchingiz komil bo'limasa, volanni o'yinda tutib turishga harakat qiling.

Hujum, himoya va qarshi hujum

Badmintonda o'yinni olib borishning uchta asosiy taktik usuli mavjud, bular: *hujum, himoya va qarshi hujum*. Samaradorligi jihatidan hujum har doim ustun turadi. Himoya – tashabbus-korlikning yo'qligi, raqib xato qilishini passiv ravishda kutib turish, sur'atni pasaytirish va buning oqibatida, o'ziga ishonch va istiqbolning yo'qolishi hisoblanadi. Ammo majburiy bo'lsa-da, to'g'ri tanlangan himoya – qarshi hujumga tayyorgarlikdir. Juda murakkab taktik element hisoblangan qarshi hujum har doim yaxshi natija beradi. Masalan, raqibingiz tashabbusni qo'lga olib, zarba ketidan zarba yo'llab hujumga o'tayapti, siz esa faqatgina volanni to'r yaqinidan olisroqqa qaytarish bilan bandsiz. Hatto, mana shunday vaziyatda ham qarshi hujumga o'tish mumkin. Tavakkal qilib, volanni panja harakati bilan to'r ustidan pastlatib yon tomonagi ustunlardan biri yoniga tushirish uchun balanddan va to'r yaqinida kutib olishga urinib ko'ring. Urinish muvaffaqiyatli chiqqanda, bu narsa raqibingizni shoshirib qo'yishi tayin.

Vaqt va trayektoriya juda katta ahamiyatga ega. O'yindagi ustunlik aksariyat hollarda volan raqib maydonchasidagi o'zi yo'naltirilgan joyga qanchalik tez borib tushishiga bog'liq bo'ladi. Bu jarayonda uning uchish trayektoriyasi optimal darajada bo'lishi zarur. Volan uchishining tezligi uning trayektoriyasiga qanchalik mos bo'lsa, raqibning uni qaytarish imkoniyati ham shunchalik qiyinlashadi.

Oldingi hududdagi o'yin taglik usuliga, to'r bo'ylab o'tkazishga va urib tushirishga asoslanadi. Mazkur texnik elementlarning barchasini bajarishda to'r yaqiniga tez va to'g'ri chiqib borishni o'rganish juda muhimdir. O'yinchi volanni juda ham pastga tushib ketishiga yo'l qo'ymasdan, to'rning yuqori qismi atrofida qaytarishga harakat qilishi lozim. Urib tushirishda smesh – qisqa, deyarli qo'lni kermasdan amalga oshiriladi. Agar raqibingiz to'r yaqinida bo'lsa, volanni yassi usulda chiziq bo'ylab yoki baland hujumkor zarba bilan uning ustidan oshirib, diagonal bo'yicha oshiring. Aksincha, u orqa chiziqdha ushlanib qolganda esa, taglik usulidan foydalaning yoki volanni to'r bo'ylab undan olisdagi ustun tomonga yo'naltiring. Agar vaqt yetarli bo'lsa, o'z harakatlaringizni niqoblang. Ko'proq qarshi yurish qiling.

O'rta hududdagi o'yin asosan hujumkor variantlar asosiga quriladi. Agar sportchi volanni o'rta hududda qaytarsa, demak, raqibi qandaydir xatoga yo'l qo'ygan. Bu vaziyatdan to'liq foydalanib qolish kerak, faqat shoshilmaslik va betartib harakat qilmaslik zarur. Volan yuqorilab kelganda, yaxshisi qaytarish qiyin bo'lgan nuqtalarga smesh usulida zarba berish kerak. Yassi oshirishda esa chiziq bo'ylab keskin javob qaytaring. Mabodo, raqibingiz hujum qilsa, panja bilan to'r ustunlariga yo'naltirish yaxshi samara beradi.

Orqa hududdagi o'yin volan bilan o'ynash vaqtining kattagina qismini oladi, chunki raqibning baland-olis oshirishlarini aynan orqa chiziqdan qaytarishga to'g'ri keladi. Yana bir gap – pozitsiyaviy ustunlikka ega bo'lish uchun raqiblar bir-birlarini asosan orqa chiziqdha ushlab turishga harakat qilishadi. Bunday holatda raqibning himoyasini bo'shashtirish hamda tezkor va samarali hujum uchun payt poylash maqsadida baland-olis zarbalarini to'r yaqiniga tezkor qisqa oshirishlar bilan aralashtirib olib borish taktik jihatdan to'g'ri usul hisoblanadi. Orqa chiziqdandan zarba berilgach, darhol va albatta o'z o'yin hududingizning markaziga qaytishni unutmang.

Kombinatsiyalangan o'yin. Badmintonda ko'pincha volanga yaxshi zarba beradigan o'yinchi emas, balki o'zi uchun yutuqli bo'lgan vaziyatlarni yarata oladigan sportchi g'alaba qozonadi. Malakali sportchi har doim o'yinni o'zining ayrim, hatto ular

muvaffaqiyatli bo'lsa ham, zarbalari hisobiga emas, balki ularni to'g'ri va bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish asosiga quradi. Xususan, yuqori malakali sportchilarda har doim turli-tuman o'yin vaziyatlarida g'alabaga olib keladigan taktik va texnik usullarning samarali va o'yinlarda sinalgan kombinatsiyalari mavjud bo'ladi.

O'yinning taktik shaklini to'g'ri yaratish uchun raqibning jismoniy holatini ham e'tiborga olish zarur. Agar u baland bo'yli bo'lsa, ko'proq egilishga majbur eting; past bo'yli bo'lsa – yoki volanni baland hujumkor zarba bilan uning ustidan oshirib tashlang, yoxud uning yetishi qiyin bo'lgan chiziqlar tomonga oshiring. Baquvvat raqibga qarshi chapga-o'ngga, oldinga-orqaga, yon tomonlarga tez-tez harakatlanishga asoslangan usulga o'yin olib borsangiz, u tezda charchab qoladi. Tezkor raqibni sust harakatlar bilan, sustkashini esa aksincha, tezkor usulda o'ynab holdan toydirish mumkin. Agar raqibingiz maydonchada o'zini qulay sezayotgan bo'lsa, tez-tez o'yin ritmiga o'zgartirish kiritib turing.

Agar mag'lub bo'layotgan bo'lsangiz, volanni oshirishda shoshilmang, o'yin jarayonida betartib harakat qilmang. Tinchlanib, vaziyatga sovuqqonlik bilan baho bering. G'alaba qozonayotgan bo'lsangiz, sur'atni bo'shashtirmang, hujumkor o'yin bilan ochkolar jamg'arishda davom eting.


5.3. Juftlik o'yin taktikasi

Juftlik badminton jamoaviy o'yindir. Uning yakkalik bahslardan farqi shundaki, texnik jihatdan juft bo'lib o'ynash oson, taktik tomonidan esa mushkul. Sportchilar juft holda o'z o'yin maydonchalarining deyarli butun hududini nazorat qila olishadi hamda to'g'ri joylashsalar, har qanday volanni qaytarishlari mumkin. Shu bois, juftlik bahslarida (shu jumladan, mikstda ham) g'alabani individual mahorat emas, balki juftlikdagi sheriklarning muvofiq holdagi kombinatsiyalashgan o'yinlari keltiradi. To'g'ri, bunda o'ziga xos texnik va taktik elementlar mavjud, bular: qo'lni qisqa kerib o'ynash mahorati; "raketka prinsipi" asosida va asosan soat miliga qarshi yo'nalishda harakatlanish; bahsli, ammo sherigi

uchun qulay zARBANI unga qoldirish; zarba oldidan taktik tin olishni o'z vaqtida amalga oshirish qobiliyati.

Juftlik o'yining oltin qoidasi – "raketka prinsipi" hisoblanadi (55-rasm). Uning mohiyati nimadan iborat? Katta badminton raketkasini ko'z oldingizga keltiring: sheriklardan biri uning kallagi, ikkinchisi esa – dastagi. Ana shunday raketkani o'yin maydonchasida chizamiz. Bunda uning sterjeni maydonchaning geometrik markazida bo'lishi kerak. Raketka gorizontal yuza bo'ylab aylanadi. O'zlarini shartli ravishda raketkaning kallagi va dastagi deb tasavvur qilgan sheriklar raketka sterjeni markazi atrofida tegishli aylanishni amalga oshirishlari zarur, ammo sterjen bo'ylab bir vaqtda bir-birlari tomonga harakat qilmasliklari kerak. Agar sportchilardan biri biror bir sababga ko'ra (volan tomonga yurib, volandan qochish uchun, o'rnini o'zgartirayotib) sherigi tomonga surilsa, unisi shartli sterjen bo'yicha xavfsiz masofani saqlash uchun boshqa tomonga qadam tashlashi lozim. Bu esa ko'plab salbiy vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi, ya'ni sheriklar: bitta volanga chiqib borishadi va jarohat olishadi; raketkalarini sindirib qo'yishadi; maydonchaning bitta tomoniga o'tib olib, uning boshqa tomonini bo'sh qoldirishadi; aldamchi harakat va qadamlar bilan raqibni emas, balki bir-birlarini aldab qo'yishadi. "Raketka prinsipi"ga amal qiling, shunda sizning o'yiningiz yutuqli va nisbatan xavfsiz bo'ladi. Ayrim badmintonchilar va murabbiylar ushbu qoidani "kompas qoidasi" deb ham atashadi. Bunda sheriklar kompas milining qarama-qarshi tomonlarida turishibdi, deb tasavvur qilish kerak.

Mutaxassislar sportchilarga (o'ng qo'lda o'ynaydiganlarga) o'yin paytida maydonchada harakatlarni muvofiqlashtirish hamda zARBALAR berish, harakatlanish uchun qulay va samarali pozitsiyalarni yaratish maqsadida asosan soat miliga qarama-qarshi tomonga qarab harakatlanishni maslahat berishadi. Darvoqe, bunday harakatlarni amalga oshirish o'ngaqaylar uchun fiziologik jihatdan oson.



55-rasm. Juftlik o'yin paytida o'yinchining maydonchada "raketka prinsipi" asosida harakatlanishi.

Volansiz o'ynash


Juftlik bahslarida sheriklarning birga o'ynash mashqini olganliklari juda muhim ahamiyatga ega. Agar ular doimiy ravishda birga o'ynashsa, bir-birlarining kuchli va ojiz tomonlarini bilishsa, bir-birlarini so'zsiz tushunishsa, juda yaxshi. Agar bular mayjud bo'lmasa, o'yin paytida bir-birini tushunish yoki aksincha, tushunmaslik muhim ahamiyat kasb etadi. Qoidaga ko'ra, ochko o'ynalayotgan paytda gaplashish mumkin emas. Ammo badminton maydonchasida muloqotga kirishishning ma'lum bir usullari mayjud. Raqibning har bir zarbasidan keyin, sheriklar yuzaga kelgan vaziyatga darhol baho bergan holda, uchib kelayotgan volanni kim qaytarishini tanlashlari zarur. Bir qarorga kelgach, sheriklardan biri volan tomonga yuradi, ikkinchisi ham bir joyda to'xtab qolmaydi. U "raketka prinsipi"ga amal qilgan holda raqibning navbatdagi zarbasini qaytarish hamda ehtimoliy hujumi hududini himoya qilish uchun maydonchadagi bo'sh joyga tomon harakatlanadi. U ushbu ishni imkon qadar tezroq bajarishi kerak. Juftlik bahslarida badmintonchining volansiz harakat qilish qobiliyati, boshqacha aytganda, o'z shergini muhofaza qilgan holda maydonchada harakatlanishi, o'zining ma'lum bir xatti-harakatlari bilan raqiblariga bosim o'tkazishi hamda kerakli vaziyat

yuzaga kelishi bilan volanga kuchli va kerakli zARBANI berishi juda muhimdir.


Juftlik bahslarida sheriklarning joylashuvi

Juftlik bahslarida sheriklarning joylashuvi tanlangan taktika-ga bog'liq bo'lib, uch turga bo'linadi: parallel (yonma-yon); old-orqa (bir-birining ortida); oraliq (56 va 57-rasmlar).

Zamonaviy badminton o'yini kombinatsiyalangan usuldan foydalanishga asoslangan bo'lib, bunda sheriklarning joylashuvi maydonchadagi vaziyatga bog'liq bo'ladi. Agar juftlik faol hujumkor o'yin usulini tanlangan bo'lsa, old-orqa joylashuv (bir-birining ortida) eng yaxshi usul sanaladi. Himoyalanayotganda esa sheriklar odatda bir-birlarining yonidan (parallel) joy olishlari zarur. O'yin amaliyotida esa oraliq uslub ko'proq uchraydi. Bu holda maydonchada ma'lum bir o'rinni egallash uchun harakat qilganda: "raketka prinsipi"ga amal qilish; maydon markaziga nisbatan simmetrik joylashgan holda harakatlanayotgan o'yinchilar o'rtasida masofaga rioxha etish muhim ahamiyatga ega. Bir-biriga nisbatan to'g'ri harakat qila olish qobiliyati juftlikning birga o'ynash mashqini qanchalik egallaganini ko'rsatib beradi. Agar volan raqib tomonda yuqorida bo'lsa, himoyada yonma-yon turib olishga harakat qiling. Agar volan yuqorida siz tomonda bo'lsa – hujumkor old-orqa pozitsiyasini egallang.



56-rasm. O'yinchilarning maydondag'i old-orqa (chapda) va parallel (o'ngda) joylashuvi hamda bunday joylashuvdag'i zaif nuqtalar (kul rangda ajratib ko'rsatilgan).




57-rasm. Sportchining maydonchadagi o'yinli (oraliq) joylashuvi.

Sportchining shaxsiy o'yin hududi

Badmintonda har bir sportchining shaxsiy o'yin hududi muhim ahamiyatga ega. Bu o'yinchilarning atrofidagi individual makon bo'lib, uning butun jismoniy, texnik va taktik elementlari, usullari va imkoniyatlari yig'indisidan tashkil topadi. Boshqacha qilib *mas'uliyat* yoki *javobgarlik hududi* deb ham ataladigan mazkur o'yin hududi, qoidaga ko'ra, sportchi atrofidagi, hududida badmintonchi volan bilan samarali muomala qila oladigan shartli doiradan iborat. Mazkur hududning radiusi geometrik jihatdan umumiy ko'rinishda quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi: o'yinchining qadam tashlashi+hamla yoki hujum+tuning raketka ushlagan qo'lining oldinga cho'zilgandagi uzunligi. Yuqori malakaga ega sportchilarda o'yin hududi radiusi salkam 3 metrni tashkil qiladi (58-rasm, a), bu esa badmintonchi o'z o'yin maydonchasining istalgan nuqtasida volanni ustalik bilan qaytara olishini anglatadi. Bundan tashqari, mahoratli badmintonchilar o'z maydonchasi tomon uchib kelayotgan volandan har doim bir qadam masofada bo'lish uchun doimiy ravishda harakatlanib turishadi.

Ma'lum bir malakaga erishgan havaskor badmintonchi uchun esa javobgarlik hududi bir yarim ikki metrni tashkil qiladi (58-rasm, b).




58-rasm. Mahoratli badmintonchining (a) hamda havaskorning (b) yakkalik bahslaridagi o'yin hududi.

Shuni yodda tutish kerakki, volan bilan o'ynash jarayonida sportchining javobgarlik hududi u bilan birga harakatlanib turadi, shuningdek, o'yndagi vaziyatga qarab o'zgarib boradi. Masalan, sportchi charchab qolsa, uning shaxsiy o'yin hududi kichrayadi. Shu bilan birga, har doim ham sportchining shaxsiy o'yin hududi to'g'ri doira shaklini aks ettirmaydi. Aytaylik, uning chap tomon zarbasi kuchsiz bo'lsa, shu tomondagi o'yin hududi radiusi ham kamroq bo'ladi. Yoki sportchi maydonchada oldinga yaxshi harakatlangani holda orqaga bu ishni u qadar yaxshi bajara olmasa, tabiiyki, uning o'yin hududi konfiguratsiyasi old tomondan kattaroq bo'ladi.

Juftlik bahslari va mikstlarda bu juda muhim, chunki bu yerda sheriklarning shaxsiy o'yin hududi bir-birining o'rmini bosmasligi, balki bir-birini to'ldirishi hamda asossiz ravishda bir-birining ustiga chiqib ketmasligi zarur. Shaxsiy o'yin hududlaridan to'g'ri foydalanish badminton maydonchasida o'yinchilarga quyidagilarga imkon beradi: maydonchaning katta qismini nazoratda ushlab turish; bir-biriga samarali va xavfsiz o'ynashda xalaqit qilmaslik; yutuqqa olib keluvchi hujumkor o'yin uslubini asosli ravishda qo'llash. Aynan mana shu jihatlar har bir juftlikning o'yin uslubi va taktikasini, joylashuv o'rnnini belgilab berishi kerak (59-rasm).

Havaskor sportda ko'pincha ikki nafar juda yaxshi tayyor-garlikka ega bo'lgan juftlikning individual texnika, taktika va jismoniy jihatdan kuchsizroq raqiblarga aynan birga o'ynashda

uyg'unlik yetishmasligi sabab yutqazib qo'yish holatlarini kuzatish mumkin. Bu nima degani? Buning ma'nosi shuki, kuchli sportchilar o'zlarining shaxsiy ustunliklariga ishongan holda individual xususiyatlarini namoyon etishadi va juftlik o'yin o'rniga doimiy ravishda bir-birlariga xalaqt qilgan holda yakkalik o'yinini olib borishadi. Bunday raqiblarga qarshi o'ynaganda volanni ko'proq ular o'rtasidagi bahsli hududlarga yo'naltirishga harakat qilinsa kifoya. Oqibatda, ular xatolarga yo'l qo'yishni, bir-birlarining o'yin hududlariga kirib ketishni, bahslashishni boshlashadi va buning natijasida, o'z o'yinlari sifati keksin tushib ketishiga sababchi bo'lishadi.




59-rasm. Juftlik bahslarda sheriklarning maydonchada joylashuvi:

a – to 'g'ri joylashuv – sheriklarning o'yin imkoniyatlaridan yuqori darajada samarali foydalaniladi; b – noto 'g'ri joylashuv – shaxsiy o'yin hududlarining xato qo'llanilishi (bir-birining ustiga chiqib ketishi) oqibatida sheriklarning imkoniyatlari kamaygan.

Bunday xatolarning ko'p uchraydigan turlaridan biri – o'yinchilar parallel joylashganda volan o'rta chiziq bo'ylab baland uchirib oshirilganda, o'ng tomonda turgan sportchi uni qaytarishga bor kuchi bilan harakat qilib, chap yelkasi bilan yonboshlab tushadi. Bu vaqtda u asossiz ravishda o'z sherigiga yaqinlashib keladi va uni maydonchaning chap tomondagi chorak qismida siqib qo'yadi hamda odatda, volanni u qadar muvaffaqiyatli qaytara

olmaganidan keyin inersiya bilan sherigi tomonga yaqinlashishda davom etadi va maydonchaning o'ng tomonini to'liq himoyasiz qoldiradi (60-rasm). Shuni yodda tutish kerakki, chap tomonda turgan sportchi ham o'zi uchun qulay tarzda uchib kelayotgan volanni o'tkazib yuborishni har doim ham istamaydi. Bunday harakatlar deyarli har doim o'yining to'g'ri uslubini buzib yuboradi hamda ko'p hollarda raketkaning sinishi va sportchilarning jarohat olishlariga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda "o'ng qo'l" qoidasini yodda tutish kerak. Mazkur qoidaga ko'ra, sportchilar parallel joylashganda (agar sheriklar o'ngaqay bo'lishsa) bahsli volanni deyarli har doim u o'zidan o'ng tomonda uchib kelayotganda qaytarish qulay va samaralidir.




60-rasm. Juftlik bahslarida sherikning noto'g'ri harakati. 1-raqamli sportchining maydonchaning o'ng tomonidagi xato harakati 2-raqamli sportchini qulay holatdan siqib chiqarmoqda va o'z maydonchalarining o'ng tomonini raqiblarning samarali qarshi hujumlari uchun ochib bermoqda. Bu holatda ularning shaxsiy o'yin hududlari deyarli qo'shilib ketgan.

Oshirish. Juftlik o'yinda volanni oshirish barcha taktik tuzilmalarning asosi hisoblanadi. Qoidalarga ko'ra, juftlik bahslarida oshirish hududi uzunligi nisbatan cheklangan, u yakkalik o'yindidan 0,76 sm ga qisqaroq. Bu esa volanni qabul qilib oluvchi sportchiga samarali hujumkor zarba berish (smesh) va aksariyat hollarda darrov ochko yutib olish imkoniyatini beradi. Shu bois, erkaklarning juftlik bahslarida baland oshirishlar juda kam

qo'llaniladi. Ayollar juftligida esa, u javob hujumkor zarbalarining nisbatan kuchsizligi bois, ko'proq ishlataladi. Darvoqe, mikst bahslarida ayol raqib tomonga volanni aynan yuqoridan oshirilishining sababi ham shunda.


Juftlik o'yinining asosini *qisqa pastlab oshirish* tashkil etadi. U raqibning hujumkor harakatlarni amalgalash oshirish imkoniyatini bir qadar cheklaydi (61-rasm). Volanni bunday usulda oshirish texnik jihatdan to'g'ri bajarilganda, oshiruvchi sportchi oxirida oldinga qarab qisqa qadam tashlashi, darrov to'r yaqinida faol o'yin holatini egallashi hamda raqiblarning oldingi hududdagi barcha javob harakatlarini muvaffaqiyat bilan to'sishi mumkin bo'ladi. Ammo, to'r yaqinida turganda volanni oshirayotgan sportchi har doim ham tikkadan yo'llangan keskin javob zARBASINI qaytara olmaydi, shu bois, u o'zini chetga olib, ushbu zARBANI qaytarishni imkoniyat va vaqtli ko'proq bo'lgan sherigiga qoldirgani ma'qul.



61-rasm. Pastlab oshirilgan volanning yo'naliishi:
a – o'ng maydonchadan oshirilganda; b – chap maydonchadan oshirilganda.

Agar 80 foiz holatda volanni pastlab qisqa oshirish usulidan foydalanilsa, qolgan 20 foizi teng ravishda yuqori hujumkor va

yassi oshirishlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ular vaqtı-vaqtı bilan pastlab oshirishning o‘rniga qo‘llanilib turishi zarur. Bunday o‘yin uslubi raqibni doimiy ravishda bosim ostida ushlab turish imkonini beradi. Mabodo u salgina bo‘sashsa va maydonchada noto‘g‘ri o‘rin egallaguday bo‘lsa, volanni oshirish usulining kutilmaganda o‘zgartirilishi uni shoshirib qo‘yadi va ochko yutib olish mumkin bo‘ladi. Yon chiziqdigan yaqin burchagidan volanni yassi oshirish bajarilishi juda ham samarali hisoblanadi (62-rasm).




62-rasm. Yassi oshirish.

Yon chiziqdandan yassi oshirishlar qachon samaraliroq bo‘ladi? Qachonki, u bunday zarbalarini qabul qilishda yetarlicha tajribaga ega emasligini bilsangiz yutuq siz tomonda bo‘ladi. Raqibingiz panjasini yoyishga ulgurmeydi, oqibatda volan qo‘lning tabiiy harakati yo‘nalishida uchib ketadi. Bunday vaziyat volanni oshiruvchiga javob zarbasini berish uchun oldindan tayyor turish, hamda yoki smesh, yoxud to‘r bo‘ylab zARBANI amalga oshirish imkonini yaratadi. Yon chiziqdandan bajarilgan yassi oshirishni qabul qilish jarayonida yuzaga kelgan joylashuv oqibatida raqiblarin-gizga bunday zARBALARNI qaytarish qiyinchilik tug‘diradi. Ammo tajribali raqiblarga qarshi o‘yin paytida to‘g‘ri chiziq bo‘ylab yassi oshirish uni bajarayotgan tomon uchun murakkablikni yuzaga keltirishi mumkin, chunki o‘z maydonchasining deyarli barcha hududini bitta sportchi – oshiruvchining sherigi himoya qilishga majbur bo‘lib qoladi.

Juftlik bahslarida *baland hujumkor oshirishni* yaxshisi raqib maydonchasining olis burchaklari tomonga yo‘naltirib bajargan ma’qul. Ayniqsa, raqib qisqa oshirishni qabul qilishga tayyorlanib turganda bu usul yaxshi samara beradi (63-rasm).

Bunday oshirishni bajarayotganda volanning uchish balandligini juda aniqlik bilan nazorat qilish nihoyatda muhim. Agar volan juda balandlab uchsa, qabul qiluvchi tomonda uni qaytarishga tayyorlanish uchun yetarlicha vaqt bo'ladi. Mabodo, pastroq trayektoriya bilan uchsa, hujumkor javobga ro'baro' kelasiz.



63-rasm. Baland hujumkor oshirish.

Oshirish bajarilgandan keyin ustunlik birinchi bo'lib vaziyatni murakkablashtira olgan, g'alaba keltiruvchi hujumkor zarbani muvaffaqiyatlari tayyorlab o'z vaqtida amalga oshirgan yoki to'r yaqiniga qaytarish mushkul bo'lgan oshirib tashlashni bajargan sportchi tomonda bo'ladi.


Mabodo volan oshirilgandan keyin aynan oshiruvchi tomon ustunlikni qo'lga kirtsqa, ular o'yin tempini tushirmasligi va himoyaviy o'yin uslubiga o'tib olmasligi kerak. Raqibni himoyalanishga majbur etib, u qulay vaziyatni egallashiga yo'l qo'ymasdan, aksincha, o'zi hujumga zo'r berishi kerak.

Oshirilgan volanni qabul qilishda qabul qiluvchi sportchingning asosiy turish holati – baland hujumkor, sheriigi uchun esa – past yoki o'rtacha.


Agar oshirish yaxshi amalgaga oshirilmasa, volanni qabul qilayotgan o'yinchi – u hatto to'rdan salgina balanddan uchib kelayotgan bo'lsa ham, qaytarishi zarur. Yodda tuting – volanni qabul qilishdagi birinchi zarba shu oshirish natijasida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy badminton ustalari "o'qdek" hujum qilib, to'r ustidan bir necha santimetr balandlikda uchib o'tayotgan volanni ham urib tushirishni eplashadi. Bunday zarba qo'lni

kermasdan, qisqa va kuchli beriladi. Zarba berish paytida to'rga tegib ketmaslik uchun raketka kallagi ma'lum darajada oldinga emas, balki to'r bo'yab yo'naltiriladi. Shu bilan birga, agar volan qulay tarzda uchib kelsa, uni oshiruvchining tanasiga qarab qaytargan ma'qul. Mabodo, volan noqulay tarzda uchib kelsa yoki to'r chetidan pastroqqa tushib ketsa, uni raqib maydonchasining oldingi hududidagi bo'sh joylarga yo'naltirish zarur. Faqat ayrim hollardagina orqaga oshirish mumkin. "O'qdek" zarba berishda ikkita qoida mavjud, bular: birinchidan – volanni to'r ustida trayektoriyasining yuqori nuqtasida qaytarish uchun unga tezroq chiqib borish zarur; ikkinchidan – volan to'r ustidan qanchalik pastlab uchib o'tayotgan bo'lsa, unga mos ravishda sportchi ham pastroq engashishi kerak. Bu zarba berish imkoniyatini anchagini yaxshilaydi.


"O'qdek" hujum ko'proq markazdan amalga oshiriladi, chunki bunda raqibda uni qaytarish imkoniyati kamroq bo'ladi. Juftlik bahslarida volanni qabul qilishda uni yo'naltirishning ko'plab turlicha variantlari mavjud. Ularning ayrimlari 64-65-66-rasmarda ko'rsatilgan.



64-rasm. Juftlik bahslarida qisqa oshirishga volanni maydonchaning to'r ustuni tagidagi yaqin burchagiga yo'naltirib javob qaytarish.



65-rasm. Jufilik bahslarida qisqa oshirishga volanni “o’qdek” zarba bilan oshiruvchining tanasiga yoki maydonchaning yon chiziqlari tomonga “yarim maydoncha” tarzida yo’naltirib javob qaytarish.



66-rasm. Jufilik bahslarida qisqa oshirishga volanni maydonchaning orqa chizig‘i burchaklariga yo’naltirib javob qaytarish.

Volanni oshirishni va uni qaytarishni tashkil etish jarayonida doimiy ravishda harakatga tayyor turish kerak. Ammo sheriklarning maydonchadagi joylashuvi va harakatlari ularga samarali o‘ynashga xalaqit bermasligi lozim.

Maydonchada to‘g‘ri joylashish ma’lum bir o‘yin vaziyatiga bog‘liq bo‘ladi. Umumiy qoidalar esa quyidagicha: old-orqa (yoki unga yaqin) joylashuvda hujum qilish; parallel joylashuvda himoyalanish oson. Boshlovchi badmintonchilar har doim oldindan sherigi bilan kelishib olib, har kim maydonchadagi o‘z qismini

yakkalik o'yini tartibida himoya qilsa, yutish oson bo'ladi, deb o'ylashadi. Bu – xato fikr! Tajribali raqiblar o'yining dastlabki daqiqalaridan oq vaziyatni anglab yetishadi hamda nisbatan kuchsizroq raqibni tanlab, o'shangan yo'naltirilgan uslubda o'yinni davom ettirishadi. Ikki tomonlama bosim ostida va sheringining qo'llab-quvvatlashisiz qolgan sportchi tezda charchaydi hamda xatolarga yo'l qo'yadi, mag'lubiyatga uchray boshlaydi.

Juftlik o'rtasidagi asosiy taktik vazifa sheriklardan har birining nisbatan kuchli tomonlaridan imkon qadar samarali foydalanish hamda kuchsiz jihatlarini yopishdan iborat hisoblanadi. Masalan, agar sportchi to'r yaqinida yaxshi o'ynay olmasa, to'r yaqiniga ko'proq bu borada o'yini qovushadigan o'yinchi chiqib borishi kerak. Hujumkor zarbani berish huquqini bu ishni yaxshi uddalaydigan sherikka qoldirgan ma'qul. Yaxshi bekxendga (raketkaning yopiq tomoni bilan chapdan beriladigan zarbaga) ega bo'limgan badmintonchi volanni qaytarishni sherigiga qo'yib berishi yoxud volanga yugurib chiqib, uni o'ng tomonidan raketkaning ochiq tomonida beriladigan smesh zarba bilan qaytarishi zarur.

Harakatdagi raqibga hujum qilish har doim afzal hisoblanadi. Volanni bevosita uning o'ziga yo'naltirishga harakat qiling.

Raqiblar maydonchada parallel joylashganda volanni ularning o'rtasiga yo'naltirish, old-orqa joylashuvda esa yon chiziqlar tomonga hujumga o'tish maqsadga muvofiqdir. To'r yaqinidagi sportchi raketkasini baland ko'tarib turishi (bu volanga tezda zarba berish imkonini yaratadi), ammo orqasida turgan sherigiga xalaqit qilmasligi zarur.

To'r yaqinida ham, orqa chiziqdagi ham birdek yaxshi o'ynay oladigan mahoratlari badmintonchilar old-orqa joylashuv uslubini ma'qul ko'rishadi.

Usta badmintonchilar raqibning harakatlarini boshqarishga intilishadi. Masalan, hujumga yaxshi o'tadigan raqibni doimiy ravishda to'r yaqiniga kelishga majbur etish, to'r yaqinida yaxshi o'ynaydigan, ammo orqa chiziqdagi zarba berishda kuchsizini esa to'rdan uzoqroqda ushlab turish kerak.

Imkon qadar har bir himoyaviy zarba hujumkor yo'nalishga ega bo'lishi kerak. Doimiy ravishda volanni yon chiziqlar yaqiniga

maydoncha yarmiga yo'naltiring. Bu raqiblaringizning birga o'ynash mashqini qanchalik egallaganliklarini ko'rsatib beradi. Juftlik bahslarida volanni to'r yaqiniga kuchsiz tashlashlarning samarasi kam bo'ladi. Hujumga zo'r berayotgan paytda, agar raqiblaringiz sizning zarbalarining ustalik bilan qaytarishayotgan bo'lsa, ba'zi-ba'zida kutilmaganda o'yin ritmini taglik yoki qisqa zarba bilan o'zgartirish foydadan xoli bo'lmaydi. Juftlik o'yinlarida yon chiziqlar bo'ylab yoki raqibning tanasiga qarab yo'naltiriladigan yassi zARBalar samarali hisoblanadi. U himoyadan hujumga o'tishda tayyorlangan zarba sifatida ham, raqibni markazdan yon tomonga qarab silishga majbur qilish uchun ham qo'llaniladi.

Demak, juftlik bahslarining asosiy elementlari: pastlab oshirish, hujumkor zarba, to'r yaqinidagi kombinatsiya, sheriklarining o'rin almashuvi.

Yana bir muhim jihatni yodda tutish kerak: to'r yaqinida o'ynaydigan sportchi faqatgina o'zidan oldindagi volanni qaytarishga harakat qilishi lozim. Agar buning imkoni bo'lmasa, volanni orqadagi sheri giga qoldirgani ma'qulroq. Bu jarayonda to'r yaqinidagi sportchi shunday joy egallashi kerakki (engashish, cho'kkalash, racketkasini zarba yo'nalishidan chetga olish), u sheri giga samarali zARBani amalga oshirishga xalaqit bermasin.

Mahoratli badmintonchilarning juftlikdagi o'yinining texnikasini kuzatish juda ham qiziq. Mana ulardan biri.

Volanga chiqib borishda sportchi racketkasini yuqori holatda, taxminan yuzi darajasida tutib turishga harakat qiladi. Chap tomon dan zARBalarni ham, odatda, u racketkani yuqorida ushlab turib bajaradi. Bunda oldiniga tirsak oxirigacha yuqoriga harakatlanadi, faqat shundan so'nggina bilak va panjaning keskin harakati boshlanadi. Chapdan smesh, chapdan qisqa hamda orqaga baland tikka zarba shu holatda bajariladi. Chap tomon dan kelayotgan volan chapga egilib qaytariladi. Raketka zARBaga deyarli parallel harakatlanadi, volan bosh ortida kutib olinadi.

Smeshni qaytarishda racketka quyidagi uchta holatdan birida turishi mumkin: pastda, yonda, yonboshda. Birinchi holatda volan orqaga tikka holatda yoki to'r yaqiniga qisqa zarba bilan qaytariladi. Ikkinci holatda esa volan taxminan to'r balandligi darajasida yonboshdan kutib olinadi va orqaga tikka, to'r yaqiniga

qisqa, eng asosiysi, tezkorlik bilan bajariladigan raqibning o'ziga qaratilgan yassi zarba bilan yo'naltiriladi. Ushbu usul taglik usuliga o'xshab ketadi. Volan yonboshdan taxminan maydoncha o'rtasida qabul qilinadi. To'r yaqiniga qisqa zarba yengil amalga oshiriladi, bu esa amalda taglik usulining aynan o'zidir. Smeshda volanni raketkani yuqoridan tutib qaytarish uchun o'yinchi cho'kkalab o'tiradi (bunda tanasi tik holatda bo'ladi) hamda volan yassi zarba bilan raqibning tanasiga yo'naltiriladi yoki uni aylanib o'tadigan zarba yoxud to'r yaqiniga qisqa taglik zarbasi beriladi. Raketkani orqaga og'dirish hisobiga volanni orqaga tikka qaytarish ham mumkin.

O'yin vaqtida sportchilar turli yo'nalishdagi smeshlarni amalga oshirishadi, ya'ni: to'g'riga, diagonal bo'ylab chapga va o'ngga, yon chiziqlar yaqiniga "yarim maydoncha"ga. To'g'riga smeshni amalga oshirishda raketka xuddi badmintonchilarda bo'lgani kabi orqadan harakatlanadi (simli yuzasi to'rga perpendikulyar bo'ladi) hamda zarba berish oldidan simli yuzasi to'r tomonga buriladi. Raketka simli yuzasining burilishi hisobiga bunday holatdan chapga va o'ngga yarim qiyalamda smeshlar amalga oshirilishi mumkin (bu juftlik bahslarida juda muhim), ammo ular yon chiziqlar yaqiniga, taxminan chiziq o'rtasiga (to'g'ri va diagonal smeshlar orqa chiziq yaqiniga) yo'naltiriladi.

Qisqartma zARBalar kaltalatib berilishi mumkin. Bu jarayonda sportchi smesh, qisqartma va orqaga tikka zARBalarni yashirin bajarishi zarur.

Zarbaning maqsadidan kelib chiqib, raketkani ushslash usuli ham o'zgarib turadi. Masalan, chap tomonidan zARBani amalga oshirishda bosh barmoq raketka dastagining ingichka yonbosh tomonida emas, balki keng yonboshida bo'ladi. Juftlik bahslarida orqa chiziqda emas, balki oldinda yoki yon tomonda turgan sherik raketka dastagining oxirini qo'lidan chiqarib sterjenga yaqinroq ushlaydi. Bunda raketka taxminan yuz balandligi darajasida gorizontal holatda tutib turiladi. Raketkani bu usulda ushslash oldindan qo'lni kermasdan zARBalarni tezkor qaytarish imkoniyatini beradi.

Bo‘lim yakunida havaskorlarning juftlik bahslari haqida ham ikki og‘iz so‘z yuritamiz. Aksariyat hollarda havaskorlar juftligidagi o‘yinchilardan biri qo‘li yetadigan barcha volanlarni qaytarish imkonini beradigan joyga o‘rnashishga harakat qilayotganini ko‘rish mumkin. U juftlik o‘yinlarida raqiblar har doim kuchsiz badmintonchi tomonga o‘ynashga harakat qilishlarini unutib qo‘yadi. Sherigining qaytarishi uchun qulay va samarali bo‘lgan volanga qarab intilmaslik juftlikdagi o‘yinchining mahorati va tajribasi ortib borayotganini ko‘rsatuvchi birlamchi belgilardan hisoblanadi.

5.4. Aralash juftliklar (mikst)ning o‘yin taktikasi

Aralash juftliklar (mikst)da ham juftlik o‘yini taktikasini bemalol qo‘llasa bo‘ladi. Qolaversa, agar sheriklar (erkak sportchi ham, ayol o‘yinchi ham) bir xil texnik mahoratga va jismoniy holatga ega bo‘lishsa, ular to‘liq bir-biriga mos tushadi. Ammo bunaqasi juda kam uchraydi. Badminton tarixida ham erkak, ham ayol sportchi bir-birini to‘ldirib, juftlik badmintoni o‘ynagan atigi bir nechta ingliz va Osiyo mikst juftliklari bo‘lgan xolos.

Amaliyotda aralash juftliklar bahsida har doim ham ayol sherik raqibning hujumkor bosimiga erkak badmintonchi bilan birdek bosh berib tura olmaydi. Shu bois, mikstning klassik variantida ayol badmintonchi oldingi chiziqdagi, erkak sherigi esa orqa tomonda o‘ynaydi. O‘yinchilarning bunday joylashuvining asosiy sababi shundaki, mikstda, hatto juftliklardagidan ham ko‘ra ko‘proq hujumkor o‘yin uslubi qo‘llaniladi. To‘g‘ri, juftlikda bo‘lgani kabi mikstda ham g‘alabaga har ikkala sherikning o‘zaro kelishgan holda, harakatlarni muvofiqlashtirib o‘yin olib borishi natijasida erishiladi. Ammo mikstning ayrim o‘ziga xosliklari ham yo‘q emas. Erkak badmintonchi mumkin qadar hujum qilar ekan, sherigining o‘yinning borishini ochko keltiradigan zarba bilan yakunlashiga sharoit yaratib berishi kerak. Aralash juftliklarda, odatda, aynan ayol badmintonchi hal qiluvchi o‘yinchi vazifasini bajaradi. To‘r yaqinida o‘yinning borishini nazorat qilar ekan, u o‘zining aniq va tezkor harakatlari bilan mikstga taalluqli eng murakkab va mushkul taktik vazifalarni hal qiladi.

Badmintonchi ayol qisqa oshirishni mukammal egallagan bo'lishi, kuchli zARBalardan qo'rqmasligi, volanni ushlab qolishlarda samarali o'ynashi, sherigini o'z vaqtida himoya qila olishi zarur. Aralash juftliklar bahsini kuzatganda, ba'zida badmintonchi ayol erkak sheriGiga nisbatan ko'proq xatoga yo'l qo'yayotgandek tuyuladi. Aslida bunday emas. Odatda, erkak badmintonchining noto'g'ri harakatlari va xatolari oqibatida ayol sheriGi ham xatolarga yo'l qo'yadi.

Aralash juftliklar bahsida volanni oshirishda ham erkaklarga va ayollarga taalluqli o'ziga xosliklar mavjud.

Ayol badmintonchi volanni erkak raqib tomonga qisqa zarba bilan pastlatib yo'naltirgani ma'qul, shunda hujumkor javob qaytarilishining oldi olinadi. Volanni oshirgandan keyin ayol sportchi to'r yaqiniga qaytib faol o'yin holatini egallashi lozim. Ayol raqibga esa volanni baland hujumkor, past va yassi zARBalar bilan oshirsa ham bo'ladi, faqat bu holatda oshiruvchi old hududda hujumkor javob bo'lishi mumkinligini nazarda tutib, shunga mos holatni egallashi kerak bo'ladi.

Erkak badmintonchi ham volanni qisqa va pastlama zarba bilan oshiradi, faqat u oshirishdan keyin maydonchaning orqa qismida qulay holatni egallah uchun tezda orqaga qaytishi kerak bo'ladi. Bu paytda ayol sheriGi salgina yon tomondan undan oldinroqdan to'r yaqinidagi o'yinga tayyor holatni egallab turadi. Mutaxassislar volanni ayol raqibga yo'naltirib oshirishda turli usullarni navbatli bilan qo'llashni maslahat berishadi.


Volanni qabul qilib olishda ayol badmintonchi, odatda, oshirishni qabul qilish maydonining markazida o'ziga qulay holatni egallaydi hamda volanni raqiblar uchun noqulay tarzda qaytarishga harakat qiladi va shundan so'ng to'r yaqinida o'yinni nazorat qilib boradi.

Volan o'yinga kiritilgandan keyin qaysi juftlik birinchi bo'lib hujumkor o'yin ko'rsata boshlasa, o'shalar ustunlikka ega bo'ladi. Mikstda raqiblar maydonchada parallel holatda joy egallagan bo'lishsa, aynan ayol badmintonchi kuchsiz nuqta hisoblanadi va o'yinni unga yo'naltirgan holda qurish tavsiya etiladi. Old-orqa joylashuvda esa erkak badmintonchi o'ngdan

chapga butun kenglikni yopa olmaydi va chiziqlarga yo'naltirilgan hujumkor zarbalarini qaytarishi qiyin bo'ladi.

Yodda tuting: yuqoridan pastga o'ynayotganlar hujum qilayotgan, pastdan yuqoriga o'ynayotganlar esa himoyalayotgan bo'lishadi. Mikstda uchta asosiy hujumkor zarba mavjud, bular: smesh, yarim smesh va raqibning tanasiga yo'naltirilgan keskin yassi zarba. Mazkur zarbalarini amalga oshirish texnikasi hamda raqibning javob uchun tayyorlanishiga kam vaqt qoldirish maqsadida volanni ertaroq va balandroqdan qabul qila olish mahorati juda katta ahamiyatga ega. Mikstda raqibning joylashgan o'rni va harakatiga qarab, volanning uchish yo'nalishini oldindan taxmin qila olish ham muhim. Ma'lum bir sababga ko'ra, raqib jamoadagi ayol badmintonchi orqa chiziqdan joy egallagan bo'lsa, o'yinni unga yo'naltirigan holda qurishga hamda uni shu joyda ko'proq vaqt ushlab turishga harakat qiling. Shunda ochko yutib olishingiz osonroq bo'ladi.


Shuni yodda tutingki, to'r yaqinida o'ynayotgan ayol badmintonchi faqat o'zining oldidagi volanni qaytarishi kerak. Agar buning iloji bo'lmasa, yaxshisi volanni sherigiga qoldirgani ma'qul. Mazkur holatning chizmasi 67-rasmda berilgan.



67-rasm. Mikst bahslarida raqibning zarbalarini qaytarish (uzuq chiziqlar o'yinchining to'r yaqinidagi noto'g'ri harakatlanishini bildiradi).

Aralash juftliklar bahsida quyidagilardan imkon qadar to‘laroq foydalanishga intilish zarurligini har doim hisobga olish kerak: erkakning zARBalari kuchi va tezligi hamda maydonchadagi harakatidan; ayolning zARBalari tezligi va aniqligi hamda to‘r yaqinidagi harakatlaridan. Oldingi chiziqdagi o‘yinchi – ayol badmintonchi sherigini asossiz ravishda to‘r tomonga harakatlanishlardan ozod qilishi, uning hujumlarini tayyorlashi hamda zarurat bo‘lganda ana shu hujumlarni yakunlashi lozim. Orqa chiziqdagi o‘yinchi – erkak badmintonchi faol himoyalanishi bilan birga, qulay vaziyat yuzaga kelishi bilan ochko yutib olish uchun, kuchli hujum uyushtirishi yoxud sheriGiga volanni to‘r yaqinida urib tushirishi uchun imkoniyat yaratib berishi kerak. Shuni yodda tutingki, agar orqa chiziqdagi erkak badmintonchi muvaffaqiyatsiz o‘ynab qo‘ysa, raqibning hujumkor javobi to‘r yaqinidagi ayol badmintonchiga yo‘naltiriladi va u ushbU hujumni qaytarishga ojizlik qilishi mumkin. Mikstdagi biz qayd etib o‘tgan klassik joylashuv uslubi ayol badmintonchi butun o‘yin davomida to‘r yaqinida turib o‘ziga qulay volan kelib qolishini kutishi kerakligini anglatmaydi, albatta. Aralash juftlikda ayol badmintonchi butun o‘yin davomida doimiy ravishda harakatda bo‘lib turishi kerak. Eng asosiysi, uning harakatlari hududi faqatgina to‘r yaqinidan iborat bo‘lmay, balki maydonchaning butun oldingi, ba’zida esa o‘rta chiziqnI qamrab oladi. Bu holat 68-rasmda keltirilgan (nuqtalar bilan shtrixlangan).

Bunday joylashuv ayol badmintonchiga maydonchada to‘g‘-ri yo‘nalish tanlashga, tez uchib kelayotgan volanni samarali qaytarishga ulgurishga, zarurat bo‘lganda o‘z vaqtida sheriGiga yordamga borishga, volan asosan orqadagi o‘yinchiga yo‘naltirilib uzoq davom etadigan o‘yin jarayonlarida hushyorlikni yo‘qotmaslikka imkon beradi. Shu bilan birga, sportchilarning maydonchadagi javobgarlik hududlari ko‘p jihatdan ularning jismoniy imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Agar ayol badmintonchi yetaricha o‘yin ko‘nikmasiga ega bo‘lmasa, u holda uning o‘yin hududi anchagina qisqarib, asosan to‘r yaqini bilan cheklanadi. Bu holatda u to‘r yaqinidagi ustun yonida volanni qaytarayotgan paytda sheriGiga qarama-qarshi ustun atrofidagi hududni nazorat qilib turishiga to‘g‘ri keladi. Bu 69-rasmda o‘q chiziq bilan ko‘rsatilgan.



68-rasm. Ayol badmintonchining harakatlanish hududi:

*Chapda – mahoratli badmintonchilar o'ynaganda;
O'ngda – havaskorlar o'ynaganda.*

Erkak badmintonchi to'r yaqiniga borganida, ayol sherigi unga yordam berish uchun orqaga – o'rtalı hududga qaytishi kerak. Bu yerda u o'zi tomonga yo'naltirilgan volanni qaytarib, yana to'r yaqiniga qaytishga harakat qiladi. Bunday harakati bilan u sherigiga o'yinni muvaffaqiyatli davom ettirish uchun yana qulay joyni egallashiga imkoniyat yaratadi.

Do'stona bir-birini tushunish va uyg'un taktik harakatlari – aralash juftliklar o'yini muvaffaqiyatining kalitidir.

5.5. O'yin rejasini tuzish chizmasi

Badminton o'yini taktikasida sportchilarning jismoniy, texnik va ruhiy sifatlarining samarali uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalaning yechimi bo'lg'usi o'yinning g'alabaga qaratilgan rejasining to'g'ri ishlab (tuzib) chiqilishi orqali topiladi. Ko'p hollarda jismoniy va texnik imkoniyatlari yuqori bo'lgan sportchilar ham o'yin davomida aynan taktik-ruhiy holatlarda to'g'ri harakat qila olmaslik oqibatida hisobni boy berishlari mumkin. O'yinni g'alabaga olib boradigan rejasini tuzishning ma'lum bir umumiyl qoidalari (usulublari) mavjud bo'lib, ulardan badmintonchining barcha o'yin sifatlarini uyg'unlashtirish, ayniqsa, uning ruhiy barqarorligini ta'minlash uchun foydalanish mumkin. Bayonning oddiy va tushunarli bo'lishi uchun, har bir ochko uchun kechadigan o'yinni uchta asosiy davrga bo'lamiz.

Birinchi davr volanni oshirish yoki uni qabul qilishdan boshlanadi. Mazkur davrning asosiy vazifasi – volanni oshirish yoki uni qaytarishni samarali amalga oshirish va shunga mos tarzagi tegishli o‘yin kayfiyatini yuzaga keltirishdan iborat. Volanga birinchi zarba berilgandanoq o‘yinda nazoratni o‘z qo‘lingizga olishga harakat qiling. Odatda, bu vaqtida aksariyat o‘yinchildar beqaror bo‘lishadi, chunki ular ko‘proq volanni ilk oshirish yoki qaytarishdayoq ochko ishlab olishni o‘ylashadi. Yaxshi bajarilgan aniq zarba volanni qabul qilishda ochko yutib olinishiga xizmat qilishi mumkin; ammo o‘yining boshidanoq butun diqqatni aynan ochkoga qaratish ham to‘g‘ri emas. O‘zingizni o‘yinni to‘g‘ri tashkil qilishga chog‘lang, shunda o‘yiningizning barqarorligi oshadi. Shu bilan birga, sizda yuzaga keladigan imkoniyatlarga ham ijodiy yondoshing va shunda o‘yin samaradorligi ham yuqori bo‘ladi. Eng asosiysi – volanni oshirish yoki uni qabul qilish muvaffaqiyatli yakunlanmasa, bundan tushkunlikka tushmaslik kerak. O‘tgan narsani unuting va yuzaga keladigan bo‘lg‘usi vaziyatlarni o‘z foydangizga hal qilish haqida o‘ylang.

Ikkinci davrning ahamiyati ham kam emas. Bu – hujumga tayyorlanishdir. Agar volan oshirilganda yoki u qaytarilganda tomonlardan birortasi ochko yutib olmasa, o‘yin zarbalar almasinuvi tarzida davom etadi. Bu jarayonda tomonlar o‘zlarining texnik-jismoniy imkoniyatlaridan to‘laroq foydalangan holda g‘alaba keltiruvchi hujum uchun imkoniyat yaratishga harakat qilishadi. Zerbalar almashinuvi jarayonida ham aynan tezroq ochko yutib olishni istagan o‘yinchilar qulay bo‘lmagan vaziyatlardan foydalanishga urinish hisobiga ko‘proq xatoga yo‘l qo‘yishadi. Mazkur oraqliqdagi asosiy vazifa g‘alaba keltiruvchi hujum uchun qulay vaziyat yuzaga kelishini kutish va uni yaratishga harakat qilishdan iborat bo‘lishi zarur. Zerbalar almashinuvi jarayonida vaziyatni o‘z nazoratingizga olishga faoliik bilan harakat qiling. Bu jarayonda sportchi o‘zini ruhiy jihatdan ochko keltiruvchi zorbani berguncha necha marta va qancha vaqt zerbalar almashinib turish zarur bo‘lsa, shunga chog‘lashi zarur. Yuzaga kelayotgan vaziyatlarga to‘g‘ri va oqilonqa baho berish – ulardan samarali foydalanish va natija chiqarishning muhim omillaridan biridir.

Tezkor zarbałar almashinuvi paytida maydonchada to‘g‘ri joylashuvni saqlab qolish imkonini beradigan o‘yin ketma-ketligini saqlab turishga intilish kerak. Shu bilan birga, raqibga o‘z maydonchangizdagи yaxshi himoyalanmagan hududlarga hujum uyushtirish imkoniyatini berib qo‘ymaslik ham kerak. Eng asosiysi, samarali va natijador hujum uchun imkoniyat tug‘ildimi – ikkilanib o‘tirmang, jozibali oshirishlar bilan o‘yinga qiziqarli tus berishni o‘ylamasdan, tez va shiddatli hujumga o‘ting va bitta faol zarba bilan vaziyatni o‘z foydangizga hal qiling.

Uchinchi bosqich shuncha urinishlarga qaramay volan hali ham o‘yinda bo‘lgan vaziyatda boshlanadi. Ruhiy jihatdan bu eng qiyin bosqich. Shunga urinish va harakatlar go‘yo havoga uchgandek tuyuladi. Aslida bunday emas. Hech ham kayfiyatni tushirmang, aynan shu davrda, hatto eng usta badmintonchilar ham oddiy va kutilmagan xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Bamaylixotir ikkinchi davrga qayting va raqibingiz ham sizdan kam charchamaganini yodda tuting. Zarbalar almashinuvini kuchaytirib boring va o‘ylagan o‘yin rejangizni amalga oshirishga harakatdan to‘xtamang. Odatda, aynan mana shunday o‘yin taktikasi oxir-oqibat g‘alaba keltiradi.

Nazorat savollari

1. “Taktika” haqida tushuncha. O‘yin taktikasi tasnifi.
2. Taktikaning vositalari.
3. Hujumda ijro etiladigan individual taktik harakatlar.
4. Himoyada ijro etiladigan individual taktik harakatlar.
5. O‘yin taktikasini jismoniy sifatlar bilan bog‘liqligi.

VI BOB. O'YIN QOIDALARI VA MUSOBAQALARINI TASHKIL QILISH

6.1. O'yin maydoni, racketka va badminton volan

Maydoncha. Butun maydon to'r bilan ikki qismga (o'yin maydonlariga) ajratiladi. Har bir qism (o'yin maydoni) quyidagi elementlarga ega bo'ladi (69-rasm):

- bo'yiga:


oldingi hudud – to'r va volanni oshirishning oldingi chizig'i orasidagi joy;

o'rta hudud – volanni oshirishning oldingi chizig'i bilan maydonchaning qolgan qismini ikkiga bo'lib turadigan shartli chiziq orasidagi joy;

orqa hudud – maydonchaning orqa chizig'igacha qolgan joy.

- eniga:


maydoncha yarmining chap va o'ng qismlari – o'yinchini to'rga qarab turganda maydoncha yarmining o'rta chizig'idan chap va o'ng tomondagi joy;




69-rasm. O'yin maydonchasi hududlarining nomlanishi.

Badminton maydonchalari yakkalik, juftlik o'yinlari uchun mo'ljallangan hamda kombinatsiyalangan bo'ladi. Aksariyat hollarda o'yin uchun kombinatsiyalangan maydon tanlanadi. Chunki unda ham yakkalik, ham juftlik bahslarini kuzatish

mumkin. Bunday maydonning umumiyligi o'lcamlari va uning tarkibiy qismlarining nomlari 70- va 71-rasmarda berilgan.



70-rasm. Kombinatsiyalangan badminton maydonchasining o'lcamlari.



71-rasm. Kombinatsiyalangan maydonning asosiy tarkibiy qismlari.

Izoh: badminton maydonchasi barcha chiziqlar 40 mm qalinlikda chiziladi.


To'r. Badminton maydonchasi o'rtasidan uni teng ikkiga bo'lib turadigan, eni 760 mm bo'lgan to'r tortiladi. To'r maydonchaning ikki tomonidagi maxsus ustunchalarga tortib bog'lanadi. To'rning tepe qismi kengligi 75 mm bo'lgan oq lenta bilan tamg'alangan bo'ladi. Ushbu lenta yetarlicha o'lcamdagagi va mustahkamlikdagi trosga qotirilib, ikki tomonidagi ustunlar bilan bir xil balandlikda bo'lishi kerak. Ustunlar bilan to'rning oxiri orasida tirqishlar bo'lmasligi kerak. Zarurat bo'lsa, to'rning chetlari ustunga bog'lab chiqiladi. Poldan to'rning yuqori qismigacha

bo'lgan balandlik: ustunlar oldida – 1550 mm (juftlik o'yinlar uchun yon chiziqlardan balandlik), markazda esa – 1524 mm bo'lishi zarur. To'r teshiklarining o'lchami esa 15 mm dan 20 mm gacha bo'ladi. Odatda, to'r to'q rangli bo'ladi. Chunki shunda yorqin rangli volan ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Badminton o'yinining asosiy qurorollari raketka va volan.

Raketkalar. Raketkaning muhim texnik elementini *o'yin yoki zarba qashqasi* tashkil qiladi. Kallagi klassik shaklda bo'lgan raketkalarda – u raketka kallagining simli yuzasi markazidagi doirasimon joy bo'lib, tuzilishidagi o'ziga xosliklarga ko'ra, volanga eng samarali zarbalar berish imkonini yaratadi. Kallagi izometrik shaklda bo'lgan raketkalarda o'yin qashqasi biroz kattaroq bo'lib, klassik raketka bilan solishtirganda, u raketka kallagi gardishining yuqori qismiga qarab kengaygan bo'ladi.

Klassik yog'och raketka quyidagi qismlardan tashkil topgan bo'ladi: kallak qismi, yelka, bo'yin, sterjen, dastak (72-rasm).



72-rasm. Klassik yog'och raketka.

Raketkaning kallagi gardish hamda to'r shaklidagi simlardan iborat bo'ladi.

Zamonaviy sintetik raketkalar nisbatan mukammal tuzilishga ega bo'lib, ularning tarkibiy qismlari quyidagicha nomlanadi: kallak, sterjen, dastak (73-rasm).



73-rasm. Zamonaviy sintetik raketka:

1 – kallak, 2 – sterjen, 3 – dastak.

Izoh: kul rangda o'yin qashqasi ko'rsatilgan.


Odatda, kallak qismi ikki xil bo'lgan raketkalar tayyorlanadi. Ularning birinchesida kallak klassik ko'rinishga ega bo'lsa, ikkinchesida u izometrik shaklda bo'ladi (74-rasm).



74-rasm. Raketka kallak qismlarining turlari.

Raketkaning bu ikki turi orasidagi farq shundaki, klassik raketkaning tuzilishidagi o'ziga xosliklar uning yordamida nisbatan aniq va kuchli zARBalar berish imkonini yaratса, izometrik raketkada o'yin qashqasining kattaroq ekani bois, zARBalar berish chog'ida volanni yaxshiroq nazorat qilish mumkin bo'ladi.

Raketka kallagining boshqacha tuzilishga ega tajribaviy namunalari ham mavjud, ammo ular o'yin amaliyotida juda kam ishlataladi (75-rasm).



75-rasm. Raketka kallagining tajribaviy namunalari.

Raketkalar uch xil: professional, yarim professional va havaskorlar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Professional raketkalar havaskorlar uchun mo'ljallanganlariga qaraganda yaxshiroq o'yin sifatlariga egaligi bilan ajralib turadi. Ular, odatda, qattiqroq, mustahkamroq, ko'proq kuch talab qiladigan bo'lib, buralish paytidagi qattiqligi bilan ham farq qiladi. O'yinchining sportchi sifatidagi mahorati qanchalik yuqori bo'lsa, u shuncha qattiqroq raketkada o'ynaydi. O'yin paytida volanning nazorat qilishga aynan raketka sterjenining buralishdagi qattiqligi hisobiga erishiladi. Mazkur holat volanning to'g'ri uchishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, raketkaning markazi

bilan zarba berilmaganda sterjenning buralishi yuz beradi. Agar u qattiq bo'lmasa, mana shu buralish oqibatida volanning uchish yo'nalishi o'zgarib ketadi. Boshqacha aytganda, volan o'yinchi yo'naltirgan tomonga emas, balki (uning uchun kutilmagan holatda) boshqa tomonga – maydon chetiga yoki to'rga borib tushadi. Raketkaning o'yinchidan qanday kuch talab qilishi ham juda muhim ahamiyatga ega. Raketkaning zarba kuchi boshqa jihatlar bilan birga aynan mana shu xususiyatga qarab belgilanadi. Mazkur ko'rsatkich raketkaning og'irligi va balansiga, ya'ni ana shu og'irlik gardish yaqiniga jamlanganmi yoxud dastak yaqiniga ekaniga bog'liq bo'ladi. Agar balans raketka gardishi yaqiniga jamlangan bo'lsa, zarba kuchli chiqadi, ammo uni nazorat qilish qiyinroq bo'ladi. Hujumkor o'yinni xush ko'radigan badmintonchilar raketkaning balans kallakka yo'naltirilgan turlarini tanlashadi. Himoyaviy va to'r yaqinidagi o'yin tarafдорлари esa balans dastakka yo'naltirilgan raketkadan foydalanishni ma'qul ko'rishadi. Universal o'yinchilar esa aksariyat hollarda o'rta yo'lни tanlaydilar.

Raketkaning zarba beriladigan yuzasi yassi bo'lib, gardishga tortilgan va ayrim joylarida o'zaro to'qilgan kesishuvchi sim to'rdan iborat. Simli yuzanining zichligi bir xil bo'lishi shart, ya'ni: uning markazida chetki qismlaridan ko'ra kamroq bo'lishi mumkin emas.

Raketkaning o'lchamlari quyidagicha: umumiyligi 680 mm dan, umumiyligi kengligi esa 230 mm dan oshmasligi lozim. Raketka kallagining uzunligi 290 mm dan oshiq bo'lmasligi zarur. Sim tortilgan yuzanining uzunligi 280 mm dan, eniga esa 220 mm dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Raketkada ulangan predmetlar va bo'rtiq joylar bo'lmasligi kerak. Albatta, yejilish va tebranishni cheklash yoki vaznni taqsimlash, yoxud xavfsizlik maqsadida raketka dastagini badmintonching qo'liga bog'lashga mo'ljallangan tasma bundan mustasno. Shu bilan birga, bunday ulangan predmetlar va bo'rtiqlarning o'lchamlari ulardan ko'zlangan maqsadlarga to'la mos kelishi zarur. Shuningdek, raketkada o'yinchi uning shaklini o'zgartirishi uchun xizmat qiladigan moslamalar ham bo'lmasligi kerak.

Ortiqcha bosimning yoki bo‘g‘imlar jarohatlanishining oldini olishda raketkaning xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun u imkon qadar yengil bo‘lishi zarur. Raketkaning eng yaxshi zamonaviy modellari yetarlicha elastiklikka ega bo‘lgan holda 100 grammdan oshmaydigan vaznga ega. Ammo savdoda yog‘och yoki metalldan yasalgan og‘ir, beso‘naqay raketkalar ham uchrab turadi. Ular odatda plyaj badmintoni uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Agar mana shunday raketkada sport badmintoni o‘ynalsa, sportchi bo‘g‘imlarini jarohatlab olishi hech gap emas.

Professional va yarim professional raketka ishlab chiqatuvchi taniqli firmalarning mahsulotlarida raketka nimadan yasalganini, uning vaznni, balansini hamda simlarining tavsiya etiladigan tortilish kuchini aks ettirgan maxsus tamg‘a bo‘lishiga e’tiboringizni qaratmoqchimiz.

Raketka kallagining sterjen bilan ulangan joyi uning muhim qismlaridan biri hisoblanadi (76-rasm).




76-rasm. Raketka kallagining sterjen bilan ulangan joyi:

- 1 – raketka sterjeni va kallagining troyniksimon ulanishi, zarba kuchi troynikda sekinlashadi va uning kuchini kamaytiradi;
- 2 – raketka sterjeni va kallagining troyniksimsiz ulanishi, zarba kuchi raketka kallagiga bir tekisda taqsimlanadi va uning kuchini oshiradi.

Shuni yodda tutish kerakki, troyniksimon ulanish, odatda, raketkani og‘irroq qilib qo‘yadi va o‘yin qashqasining dinamik xususiyatlarini yomonlashtirib yuboradi.

Raketka sterjeni ham juda katta ahamiyatga ega. Uning konfiguratsiyasi raketkaning o‘yindagi ko‘rsatkichlariga, xususan, uning dinamik xususiyatlarini (kuchini, egiluvchanligini, urishga qulayligini, volanni nazorat qilishni) yaxshilash maqsadida zarba

kuchini raketka dastagidan kallagiga kuzatishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi (77 rasm).



77-rasm. Raketka sterjenining turlichay konfiguratsiyalari:

1 – tekis klassik sterjen namunasi;

2 – kesimi o'zgartirilgan sterjen.

Volanlar. Volanlar uch turga bo'linadi: patli, plastik (to'liq sintetik) va aralash. Volan kallak va patli qismdan tashkil topgan bo'ladi. Professional musobaqa va turnirlar patli volanlarda o'ynaladi. Ularda kallakka ulangan 16 ta pat bo'ladi. Volanning og'irligi 4,74 grammdan 5,50 grammgacha bo'lib, uning o'lchamlari 78-rasmida keltirilgan.



78-rasm. Volanning umumiy ko'rinishi va o'lchamlari.


Plastik volanlar, uchish xususiyatiga ko'ra, patli volanlardan ma'lum darajada farq qiladi va asosan havaskorlar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Shu bilan birga, plastik volanlarning o'yinga yaroqlilik xususiyati patli volanlarga nisbatan uzoqroq saqlanib qoladi. Po'kak kallakli aralash volanlar, uchish xususiyatiga ko'ra, patli volanlarga yaqin turadi. Plastik kallakli volan modellari boshlovchi badmintonchilarga tavsija etiladi. Garchi ularning uchish xususiyatlari yomonroq bo'lsa-da, boshlovchilarga ko'proq xizmat qiladi, chunki ular noaniq zarbala (masalan, raketka gardishi bilan urishlarga) chidamliroq bo'ladi.

Bir xil modeldag'i sifatli plastik volanlar uchish xususiyatiga ko'ra farqlanadi va atrof-muhitning ma'lum bir haroratlarida ishlatiladi. Buni volanning kallagidagi aylana tasmaning rangidan farqlab olsa bo'ladi. Qizil tasma – eng tez uchar volan, sovuq havoda o'ynashga mo'ljallangan, moviy – o'rtacha tezlikka ega bo'lib, me'yordagi harorat uchun, yashil – tezligi past volan, issiq havoga mo'ljallangan. Sport zallarida odatda moviy yoki yashil tasmali, ya'ni o'rtacha va past tezlikka ega volanda o'ynaladi.

Plastik volanlarning patlari ham turli rangda bo'lishi mumkin. Lekin odatga ko'ra ular yoki oq, yoxud sariq rangli bo'ladi.

Volanlarni sinab ko'rish uchun baland-olis zarba usulidan foydalaniadi, bunda raketkaning volanga uriladigan nuqtasi maydonchaning orqa chizig'ida bo'lishi kerak. Bunday zarbadan keyin volan maydonchaning yon chizig'iga parallel ravishda chiqish trayektoriyasida harakatlanishi zarur. Maydonchaning qarama-qarshi tomonidagi orqa chiziqdandan 990 mm dan 550 mm gacha bo'lgan oraliqda yerga tushgan volanlar qoniqarli, deb hisoblanadi.

Simlar. Simlar qalinligiga ko'ra farqlanadi (79-rasm). Badminton simlari 0,66 mm dan 0,85 mm gacha bo'ladi. Sim qanchalik ingichka bo'lsa, u shunchalik sezuvchan va unda o'ynash mos ravishda qulayroq hisoblanadi. Ammo, o'z navbatida, ingichka sim tez uziladi. Shu bois, agar siz ingichka simli raketkada o'ynashni ma'qul ko'rsangiz, raketkangizni tez-tez taranglashtirib turishin-gizga to'g'ri keladi.



79-rasm. Ko‘p qatlamlı sintetik badminton simining tuzilishi.

O‘rtacha darajaga chiqqan havaskorlarga simining qalnligi 0,7 mm dan 0,8 mm gacha bo‘lgan raketkalarni tavsiya qilish mumkin.

Yaxshilab, mo‘tadil qattiq tortilgan simlar (10-12 kg) o‘yinchining texnik imkoniyatlarini oshirib, bo‘g‘imlarga ortiqcha bosim tushish xavfini qisman kamaytiradi. Sport jihozlari ishlab chiqaruvchi taniqli firmalarning mahsuloti bo‘lgan raketkalarning asosiy modellar qatorida simlarni tarang tortishning me’yor ko‘rsatilgan tamg‘a bo‘ladi. Ana shu me’yor buzilsa, raketkaning gardishi deformatsiyalanib, u sinishi mumkin. Simlar dumaloq shaklga ega bo‘lib, har safar tarang tortilganda bir-birining ustida harakatlanishi mumkinligini ham yodda tutish lozim. Buning oldini olish uchun, odatda, dastlabki davrda ular traferat yordamida maxsus bo‘yoq bilan qotirib chiqiladi. U ma’lum bir sport kompaniyasining ramzini bildiradi.

Kiyim. Kiyim birinchi galda qulay – katta ham, kichik ham bo‘lmasligi, aynan sizning o‘lchamingizga mos kelishi kerak. Futbolka (badmintonka) hamda ichki short (agar u ham bo‘lsa) paxta tolali matodan tikilgan bo‘lishi tavsiya etiladi. Iloji bo‘lsa, oyoq kiyim (krossovka)ning ham maxsus badminton uchun mo‘ljallanganini xarid qilish kerak. Bunday krossovkalarda badmintonchining o‘ziga xos harakatlarida bosim tushadigan qismlari mustahkam bo‘ladi. Maxsus poyafzal nisbatan ancha qulay va jarohatdan saqlovchi bo‘ladi. Asosiysi – kiyim badminton o‘ynashga xalaqit bermasligi kerak.

6.2. O‘yin qoidalari haqida

Quyida badminton o‘yining asosiy qoidalari va hakamlar uchun tavsiyalarni keltirib o‘tishni lozim topdik.

Mazkur qoidalar B.I.Saxnov, I.F. Fedorishev, M.M.Polevshikov, A.V.Petruninlardan iborat mamlakat (Rossiya) toifasidagi hakamlar jamoasi tomonidan 2006 yil may oyida BWF (ilgarigi IBF)ning umumiy yig'ilishida amaliyotga kiritilgan "Badminton o'yini qoidalari" asosida tayyorlangan.

2-jadval

Asosiy tushunchalar

O'yinchi	Badminton o'ynovchi har qanday inson.
Match	Raqiblar tomonidan bir-biriga qarshi yakka tartibda yoki juftlikda o'tkazildigan asosiy badminton musobaqasi.
Yakkalik bahsi	Ikki nafar raqib bir-biriga qarshi kurashadigan match.
Juftlik bahsi	Har bir tomondan ikki nafardan sportchilar juftligi bir-biriga qarshi bellashadigan match.
Oshiruvchi tomon	Volanni oshirishni bajaruvchi tomon.
Qabul qiluvchi tomon	Oshirilgan volanni qaytaruvchi tomon.
O'yin	Volan oshirilgandan boshlanib, to u o'yindan chiqib ketguncha davom etuvchi zarbalar ketma-ketligi.
Zarba	Raketkaning volanga yo'naltirilgan harakati.

1. Kort (maydoncha) va jihozlar

1.1. Yakkalik va juftlik bahslari uchun mo'ljallangan kort (maydoncha) qalinligi 40 mm bo'lgan chiziqlar bilan belgilangan to'g'ri burchakli bo'lishi kerak.

1.2. Chiziqlar oson farqlanadigan, oq yoki sariq rangda bo'l-gani ma'qul.

1.3. Barcha chiziqlar o'zları chegaralarini belgilaydigan o'yin maydonining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

1.4. To'r tortiladigan ustunlar kort yuzasidan 1,55 sm balandlikda, to'rni 1.10-bandda ko'rsatilganidek tarang tortib turish va egilib ketmaslik uchun yetarlicha mustahkam bo'lishi kerak. Ustunlarning tayanchlari o'yin maydonida bo'lmasisligi lozim.

1.5. Ustunlar, yakkalik yoki juftlik o'yinlari o'tkazilishidan qat'i nazar, juftlik bahslari uchun mo'ljallangan yon chiziqlarga o'rnatiladi.

1.6. To'r to'q rangli nafis va pishiq ipdan bir xil qalinlikda, teshiklari 15x15 mm dan 20x20 mm gacha qilib tayyorlanadi.

1.7. Bo'yiga to'rnинг uzunligi 0,76 m eniga esa 6,1 m dan kam bo'lmasligi kerak.

1.8. To'rnинг yuqori qismidan eni 75 mm bo'lgan va ikkiga buklangan hamda ichidan chilvir o'tgan oq rangli tasma tortiladi.

1.9. Tasma to'rnini ustunlarga tarang tortib turish uchun yetarli darajada uzunlikka va pishiqlikka ega bo'lishi zarur.

1.10. To'rnинг yuqori qismi kort markazida uning yuzasidan 1,524 m juftlik bahslari uchun yon chiziqlardan 1,55 m balandlikda bo'lishi kerak.

1.11. To'rnинг yon qismi va ustun oralig'ida bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Imkoniyat bo'lsa to'rnini ustunga to'liq bog'lab chiqish lozim.

1.12. Agar kortda bir vaqtning o'zida ham juftlik, ham yakkalik o'yinlari uchun chiziqlar tortib chiqishning imkoni bo'lmasa, faqat yakkalik bahslari uchun chiziq tortish mumkin. Kortning orqa chiziqlari volanni oshirishning orqa chiziqlari bo'ladi, eni 40 mm bo'lgan ustunlar yoki mato tasmalar, ularning o'rnini bosuvchi materiallar to'rda yon chiziqlar ustiga tik holatda joylashtiriladi.

1.13. Hakamlar minorasi kort (maydoncha) o'rtasida to'rnинг davomi sifatida o'rnatiladi. Bunda hakam ustundan 0,5-1 metr masofada bo'lishi zarur. Minoran o'rindig'ining balandligi yerdan 1,55 metrdan kam, 1,70 metrdan ortiq bo'lmasligi kerak.

2. Volan.

2.1. Volan tabiiy va (yoki) sintetik materiallardan tayyorlanadi. Qanday materialdan tayyorlanganidan qat'i nazar, volanning uchish xarakteristikalari nafis charm qoplangan po'kaksimon kallakli patli tabiiy volanniki bilan deyarli bir xil bo'lishi kerak.

2.2. Patli volan.

2.2.1. Kallakka qotirilgan 16 ta pati bo'lishi zarur.

2.2.2. Patning uchidan kallakkacha bo'lgan uzunlik bir xilda, ya'ni 62 mm dan 70 mm gacha bo'lishi kerak.

2.2.3. Patlarning oxiri diametri 58-68 mm bo‘lgan doira tashkil qilishi lozim.

2.2.4. Patlar ip yoki boshqa mos keladigan material bilan mustahkamlab qotiriladi.

2.2.5. Kallakning diametri 25-28 mm, pastida yarim shar shaklida bo‘ladi.

2.2.6. Volanning vazni 4,74-5,50 g bo‘lishi kerak.

2.3. Patsiz volan.

2.3.1. Tabiiy patlar patsimon sintetik materiallar bilan almashtiriladi.

2.3.2. Volanning kallagi, o‘lchamlari va vazni 2.2.2, 2.2.3,

2.2.5 va 2.2.6-bandlarda keltirilgan talablarga mos kelishi zarur. Sintetik materiallarning zichligi va xarakteristikalarini tabiiy materiallardan farq qilishi bois, qayd etilgan o‘lchamlardan 10 foizgacha farq bo‘lishi mumkin.

3. Volanning tezligini tekshirish

3.1. Volanni tekshirish uchun kortning (maydonchaning) orqa chizig‘idan yon chiziqli parallel tarzda oldinga pastlab to‘g‘ri zarba beriladi.

3.2. O‘yin uchun yaroqli volan kortning qarama-qarshi tomonidagi orqa chiziqdan 530 mm dan kam, 990 mm dan ortiq bo‘limgan masofaga tushishi kerak.

4. Raketka.

4.1. Raketskating o‘lchamlari uzunasiga 680 mm dan, eniga esa 230 mm dan oshmasligi zarur. Raketka 4.1.1-4.1.5-bandlarda ta’riflangan asosiy qismlardan iborat bo‘ladi.

4.1.1. Dastak – o‘yinchilari raketskani ushlab turishi uchun mo‘ljallangan maxsus qismi.

4.1.2. Raketskating simli yuzasi volanga zarba berish uchun mo‘ljallangan qismidir.

4.1.3. Kallak simli yuzani ushlab turadi.

4.1.4. Sterjen kallakni dastak bilan bog‘laydi.

4.1.5. O‘tkazgich (agar mavjud bo‘lsa) sterjenni kallak bilan bog‘laydi.

4.2. Simli yuza

4.2.1. Yuzasi yassi bo‘lishi, o‘zaro kesishadigan va kesishgan joyida chatishadigan simlardan tashkil topishi kerak; u bir xil, markazida ham boshqa joylaridagi kabi bo‘lishi zarur.

4.2.2. Simlarning uzunligi raketka kallagining bo‘yiga 280 mm dan, eniga esa 220 mm dan oshmasligi kerak, ammo simlar ayrim hollarda, quyidagi shartlar bilan, o‘tkazgich sohasiga ham uzayishi mumkin:

4.2.2.1. Mazkur oraliq eniga 35 mm dan oshmasligi;

4.2.2.2. Simli yuzaning umumiyligi 330 mm dan ortib ketmasligi kerak.

4.3. Raketka.

4.3.1. Raketkada simlarning yejilishi yoki uzilishining oldini olish, tebranishni kamaytirish, balansni o‘zgartirish, dastakni o‘yinchining qo‘liga mahkamlash uchun mo‘ljallangan hamda me’yoridagi o‘lcham va joylashuvga ega bo‘lgan maxsus qismlardan boshqa ortiqcha o‘rnatma va chiqib turuvchi predmetlardan xoli bo‘lishi zarur.

4.3.2. O‘yinchi raketkaning tuzilishini o‘zgartirishi uchun xizmat qiladigan har qanday moslamalar bo‘lmasligi kerak.

5. Kiyim-bosh.

Milliy badminton federatsiyalari badminton o‘ynash uchun zarur bo‘ladigan volan, raketka, kiyim-boshlardan foydalanish masalalarini hal qiladi. Bunday tartibga solish federatsiyaning tashabbusi bilan ham, istalgan manfaatdor tomonning, jumladan, hakamlar, sportchilar, badminton jihozlari ishlab chiqaruvchilar, hududiy federatsiyalar yoki ularning a’zolarining taklifiga binoan ham amalga oshirilishi mumkin.

6. Qur’a tashlash.

6.1. O‘yin boshlanishi oldidan qur’a tashlanadi; qur’ada yutgan tomon 6.1.1 va 6.1.2-bandlarda ko‘rsatilganlardan birini tanlaydi, ya’ni:

6.1.1. Volanni oshirish yoki uni qabul qilish;

6.1.2. O‘yinni kortning qaysi tomonida olib borish.

6.2. Qur’ani boy bergen tomon esa qolganini tanlaydi.

6.3. Sportchilarga o‘yin boshlanishi oldidan chigalyozdi mashqlari uchun 2 daqiqa vaqt beriladi.

7. Hisob.

7.1. O‘yin tomonlardan biri uchta geymdan ikkitasi yutgunga qadar davom etadi.

7.2. Birinchi bo‘lib 21 ochko jamg‘argan sportchi geymni yutgan hisoblanadi (7.4 va 7.5-bandlarda ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno).

7.3. Zarbalar almashinuvini yutgan tomonga ochko beriladi. Raqibi xatoga yo‘l qo‘ygan yoki volan raqibi maydonchasida kort yuzasiga tushib o‘yindan chiqib ketgan holatlarda sportchi zorbalar almashinuvini yutgan hisoblanadi.

7.4. Hisob “20:20” bo‘lganda, birinchi bo‘lib ikki ochkolik ustunlikka erishgan tomon g‘alaba qozongan tomon geymni yutadi.

7.5. Hisob “29:29” bo‘lganda 30-ochkoni qo‘lga kiritgan sportchi geymni yutgan hisoblanadi.

7.6. Geymni yutgan sportchi keyingi geymni volanni oshirish bilan boshlab beradi.

8. Tomonlarni almashish.

8.1. Sportchilar quyidagi hollarda maydonchada tomonlarni almashadilar:

8.1.1. birinchi geym tugagandan keyin;

8.1.2. ikkinchi geym yakunlangandan so‘ng (agar uchinchi geym ham o‘tkazilsa);

8.1.3. uchinchi geymda sportchilardan biri 11 ochkø to‘plagandan keyin.

8.2. Agar tomonlarni almashish o‘z vaqtida amalga oshirilmagan bo‘lsa, bu narsa aniqlanishi bilan, volan o‘yindan chiqqach, tomonlar almashiladi. Bunda amaldagi hisob saqlanib qoladi.

9. Oshirish.

9.1. Oshirish to‘g‘ri bajarilganda:

9.1.1. Volanni oshiruvchi va uni qabul qiluvchi sportchilar bunga tayyor bo‘lishsa, tomonlardan birortasi oshirishni keragidan ortiq cho‘zib yubormasligi zarur; oshirish paytida raketka oldinga harakatni boshlagandan keyin (9.2-band) yo‘l qo‘yiladigan to‘xtalish xato (folt) hisoblanadi;

9.1.2. volanni oshiruvchi ham, uni qabul qiluvchi ham o‘zaro diagonal joylashgan oshirish maydonlarida, bu maydonlarni chegaralab turuvchi chiziqlarni bosmasdan turishlari kerak;

9.1.3. volanni oshirish uchun harakat boshlangandan (9.2-band) to volan oshirilgunga qadar (9.3-band) uni oshiruvchining ham, qabul qiluvchining ham har ikkala oyog'i yerdan uzilmasligi zarur;

9.1.4. oshiruvchining raketkasi dastlab volanning kallagiga tegishi kerak;

9.1.5. raketka bilan zarba berish paytida volan to‘lig‘icha sportchining belidan pastda turishi kerak; oshiruvchining eng pastki qovurg‘asidan o‘tgan tasavvurdagi aylana chiziq bel hisoblanadi;

9.1.6. volanga zarba berish paytida oshiruvchining raketkasining sterjeni pastga qarab turishi shart;

9.1.7. volanni oshirish uchun harakat boshlangandan (9.2-band) oshirish yakunlangunga qadar (9.3-band) oshiruvchining raketkasi faqat oldinga qarab harakatlanishi zarur;

9.1.8. volan oshiruvchining raketkasidan boshlab to to‘rning ustidan oshib o‘tgunicha ko‘tarilib boruvchi chiziq bo‘yicha harakatlanishi kerak, toki mabodo u qaytarilmaydigan bo‘lsa, oshirishning tegishli maydoniga tushishi kerak (boshqacha aytganda, uni chegaralovchi chiziqlar ichiga yoki ularning ustiga);

9.1.9. oshiruvchi volanni urishda xato qilmasligi kerak.

9.2. Sportchilar maydonchada o‘z o‘rinlarini egallaganlaridan keyin, volanni oshiruvchining raketkasining oldinga qarab boshlangan birinchi harakati oshirishning boshlanishi hisoblanadi.

9.3. Oshirish boshlangandan keyin (9.2-band) volanga oshiruvchining raketkasi bilan zarba berilsa yoki u xatoga yo‘l qo‘ysa, oshirish amalga oshirilgan hisoblanadi.

9.4. Qabul qiluvchi tomon tayyor bo‘limguncha volanni oshirish mumkin emas, ammo u oshirilgan volanni qaytarishga harakat qilsa, qabul qilishga tayyor hisoblanadi.

9.5. Juftlik bahslarida volanni oshirish vaqtida (9.2 va 9.3-bandlar) oshiruvchi va qabul qiluvchi o‘yinchilarning sheriklari maydonchaning o‘z tomonlarida istalgan joyni egallashlari mumkin, faqat oshiruvchi yoki qabul qiluvchiga qarama-qarshi tomonni to‘sib qo‘ymasliklari kerak.

10. Yakkalik bahslari.

10.1. Volanni oshirish va uni qabul qilish:

10.1.1. oshiruvchida ochko bo'lmaganda yoki juft ochkoga ega bo'lganda, o'yinchilar volanni o'z maydonchalarining o'ng tomonidan oshirishlari (qabul qilishlari) kerak;

10.1.2. oshiruvchida toq sonli ochko bo'lganda, o'yinchilar volanni o'z maydonchalarining chap tomonidan oshirishlari (qabul qilishlari) kerak;

10.2. O'yin tartibi va kortdag'i joylashuv:

O'yin jarayonida volan oshiruvchi va qabul qiluvchi tomonidan, to u o'yindan chiqib ketmaguncha navbat bilan qaytarilishi zarur (15-band).

10.3. Hisob va oshirish.

10.3.1. Agar oshiruvchi o'yinni yutsa, unga ochko beriladi (7.3-band). Shundan so'ng u yana, faqat bu safar maydonchasining boshqa tomonidan, volanni oshiradi.

10.3.2. Agar oshirishni qabul qiluvchi tomon yutib olsa (7.3-band), unga ochko beriladi va u yangi oshiruvchiga aylanadi.

11. Juftlik bahslari.

11.1. Volanni oshirish va uni qabul qilish.

11.1.1. oshiruvchi tomonda ochko bo'lmaganda yoki juft ochkoga ega bo'lsa, ular volanni o'zlarining oshirish maydonining o'ng tomonidan oshirishadi;

11.1.2. oshiruvchi tomonda toq ochkoga ega bo'lsa, ular volanni o'zlarining oshirish maydonining chap tomonidan oshirishadi;

11.1.3. qabul qiluvchi tomonning oxirgi volanni oshirgan o'yinchisi o'sha – o'zi volanni oshirgan maydonchada qoladi; sherigi esa qo'shni maydonchadan joy oladi;

11.1.4. o'yinchilar o'zlarini volanni oshirganda ochko yutgulariga qadar joylarini almashtirishlari mumkin emas;

11.1.5. volanni qaysi tomon oshirayotganidan qat'i nazar, u oshiruvchi tomonning ochkosiga mos keladigan maydonchadan oshirilishi shart, 12-bandda qayd etilgan holatlar bundan mustasno;

11.2. Volanni qaytarish ketma-ketlig'i va kortda joylashuv.

O'yin jarayonida oshirilgan volanni uni qabul qiluvchi tomondagi o'yinchilarning istalgan biri qaytarishi mumkin; o'z navbatida qarama-qarshi tomon ham o'z maydonchasidagi istalgan

joydan uni qaytaradi, shu tarzda volan o'yindan chiqmaguncha davom etadi (15-band).

11.3. Ochkolar hisobi.

11.3.1. agar volanni oshirgan tomon o'yinni yutib olsa (7.3-band), unga ochko beriladi va u endi maydonchasining boshqa tomonidan oshiradi;

11.3.2. agar volanni qabul qilgan tomon o'yinni yutib olsa (7.3-band), unga ochko beriladi va u oshiruvchi tomonga aylanadi.

11.4. Oshirishning ketma-ketligi.

Har qanday o'yinda oshirish hуquqi ketma-ket quyidagicha o'tadi:

11.4.1. o'yinni oshirishning o'ng maydonidan boshlagan birinchi oshiruvchidan;

11.4.2. birinchi qabul qiluvchining shеригига; volanni oshirish oshirish maydonining chap tomonidan bajarilishi kerak;

11.4.3. birinchi oshirgan o'yinchining shеригига;

11.4.4. birinchi qabul qilgan o'yinchiga;

11.4.5. birinchi oshirgan o'yinchiga va shu tarzda.

11.5. Biror bir o'yinchи volanni navbatdan tashqari oshirishi, navbatsiz qabul qilishi yoki bitta geymda ikkita oshirishni ketma-ket qabul qilishi mumkin emas. 12-bandda qayd etilgan holatlar bundan mustasno.

11.6. Geymni yutib olgan tomonning istalgan bir o'yinchisi keyingi geymda birinchi bo'lib volanni oshirishi, shuningdek, yutqazgan tomonning istalgan sportchisi birinchi bo'lib volanni qabul qilishi mumkin.

12. Oshirish maydoni xatolari.

12.1. Quyidagi holatlarda oshirish maydoni xatosiga yo'l qo'yilgan hisoblanadi:

12.1.1. sportchi volanni navbatsiz oshirsa yoki qabul qilsa;

12.1.2. sportchi volanni tegishli oshirish maydonchasidan oshirmasa yoki qabul qilmasa.

12.2. Agar oshirish maydonchasi borasida xatoga yo'l qo'yilsa, u to'g'rlanmaydi va geym o'yinchilarning joylashuvini o'zgartirgan holda davom ettiriladi.

13. Qoida buzilishi.

Quyidagi holatlarda qoida buzilgan (folt) hisoblanadi:

- 13.1. volan qoidalarga rioya etmasdan oshirilsa (9.1-band).
- 13.2. Oshirish paytida volan:
- 13.2.1. to'rga tegib, unga ilinib qolsa;
- 13.2.2. to'r dan uchib o'tib, unga osilib qolsa;
- 13.2.3. qabul qiluvchi o'yinchining sherigi tomonidan qaytarilsa.
- 13.3. O'yin paytida volan:
- 13.3.1. kortdan tashqariga tushsa;
- 13.3.2. to'r teshigidan yoki uning ostidan uchib o'tsa;
- 13.3.3. to'r dan o'tmasa;
- 13.3.4. zalning shiftiga yoki devorlariga tegsa;
- 13.3.5. o'yinchining tanasiga yoki kiyimiga tegsa;
- 13.3.6. kort tashqarisida turgan istalgan narsa yoki shaxsga tegsa;

(agar zarurat bo'lqa, musobaqa o'tkazilayotgan inshootning tuzilishidan kelib chiqib, tashkilotchilar volan to'siqqa tegishi bilan bog'liq alohida shartlarni ham belgilashlari mumkin)

13.3.7. raketkada ushlab olingan yoki tutib qoltingan va shundan keyin zarba berish chog'ida otib yuborilgan bo'lqa;

13.3.8. volan bitta o'yinchining ketma-ket ikkita zarba bilan qaytarilsa. Ammo bitta zarba paytida volan raketkaning ham kallagiga, ham simli yuzasiga tegsa, xato hisoblanmaydi;

13.3.9. o'yinchining sherigi tomonidan ketma-ket qaytarilsa;

13.3.10. o'yinchining raketkasiga tegib, raqib maydonchasi tomonga harakatni davom ettirmasa.

13.4. O'yin paytida sportchi:

13.4.1. to'r yoki ustunlarga raketkasi, tanasi yoki kiyimi bilan tegsa;

13.4.2. raketkasi yoki tanasi to'r ustidan raqib tomonga o'tib ketsa; ammo zarbaning boshlanishi va raketka bilan volanning bir-lamchi uchrashuvi o'z maydonchasida bo'lga bo'lqa, zarba beruvchi volanni raketkasi bilan to'rning qarama-qarshi tomonigacha o'tkazib qo'yishi mumkin;

13.4.3. raketkasi yoki tanasi to'r ostidan raqib tomonga o'tib ketib, unga xalaqit qilsa yoki uni chalg'itsa;

13.4.4. to‘ming ustida turgan volanga zarba berish chog‘ida raqibiga xalaqit qilsa, ya’ni uni raketkasi yoki tanasi bilan to‘sib qolsa;

13.4.5. har qanday harakatlar, masalan, imo-ishoralar yoki qichqiriqlar bilan raqibni chalg‘itsa.

13.5. 16-bandda qayt etilgan qoidabuzarliklarni sodir etsa.

14. “Bahsli” holat.

14.1. “Bahsli” holat minoradagi hakam tomonidan e’lon qilinadi.

14.2. “Bahsli” holat e’lon qilinishi oldidan “To‘xta” degan komanda beriladi.

14.3. “Bahsli” holat quyidagi vaziyatlarda yuzaga keladi:

14.3.1. volanni qabul qiluvchi tomon qabul qilishga tayyor bo‘imasidan oshiruvchi oshirishni bajarsa (9.5-band);

14.3.2. volanni oshirish paytida oshiruvchi ham, qabul qiluvchi ham qoidani buzishsa;

14.3.3. o‘yin paytida volan:

14.3.3.1. to‘rga ilinib, uning yuqori qismida osilib qolsa;

14.3.3.2. to‘rdan uchib o‘tayotib unga osilib qolsa;

14.3.3.3. volanga shikast yetsa va uning kallagi boshqa qismidan to‘liq ajralib ketsa.

14.3.4. Minoradagi hakamning fikricha, o‘yin to‘xtatilgan yoki sportchi raqibining murabbiysi tomonidan chalg‘itilgan bo‘lsa.

14.3.5. Yon hakam vaziyatni ko‘rmay qolgan bo‘lsa, minoradagi hakam esa qaror qabul qila olmasa.

14.3.6. Har qanday noaniq va tushunarsiz holatda.

14.4. “Bahsli” holat e’lon qilinganda volanni oxirgi oshirish bilan boshlangan o‘yin vaziyati hisobga olinmaydi va volanni oshirgan sportchi oshirishni takroran bajaradi.

15. Volan o‘yindan tashqarida.

Quyidagi holatlarda volan o‘yindan tashqarida hisoblanadi:

15.1. to‘rga yoki ustunga urilib, zarbani amalga oshirgan o‘yinchi tomonda kortga tusha boshlasa;

15.2. kort yuzasiga kelib tushsa (maydoncha chegaralarini belgilovchi chiziqlar ichida yoki ulardan tashqarida);

15.3. "bahsli" holat, "to'xta" komandasasi yoki qoidabuzarlik (folt) e'lon qilinsa.

16. O'yining uzluksizligi, sportga xos bo'limgan xattiharakat, jazolash

16.1. O'yin birinchi oshirish amalga oshirilgandan boshlab to match yakunlangunga qadar davom etishi kerak. 16.2 va 16.3-bandlarda ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.

16.2. Tanaffuslar:

Barcha matchlarda tanaffuslarga quyidagi tartibda ruxsat berilishi kerak:

16.2.1. har bir geymda tomonlardan birining ochkolari 11 ga yetganida 60 soniyadan ko'p bo'limgan vaqtga;

16.2.2. birinchi va ikkinchi hamda ikkinchi va uchinchi geymlar oraliq'ida 120 soniyadan ortiq bo'limgan vaqtga;

(*badminton matchlari televide niye orqali namoyish etilsa, Bosh hakam o'yin boshlanishi oldidan 16.2-bandda qayd etilgan tanaffuslar majburiy va aniq belgilangan vaqtdan iborat bo'lishi to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.*)

16.3. O'yinni vaqtincha to'xtatish:

16.3.1. o'yinchilarga bog'liq bo'limgan vaziyatlar yuzaga kelganda, minoradagi hakam qancha ma'qul topsa, shuncha vaqtga o'yinni to'xtatib turishi mumkin;

16.3.2. alohida vaziyatlarda Bosh hakam o'yinni to'xtatishi mumkin;

16.3.3. agar o'yin vaqtincha to'xtatilsa, u to'xtatilgungacha yuzaga kelgan hisob saqlanib qolinishi va o'yin ana shu hisobdan davom ettirilishi kerak.

16.4. O'yindagi to'xtalishlar:

16.4.1. O'yin hech qachon sportchiga nafasini rostlab olish, kuch toplash yoki maslahat olish uchun imkon berish maqsadida to'xtatilishi mumkin emas.

16.5. Maslahaatlar va o'yinchilarning kortdan chetga chiqishi:

16.5.1. O'yin paytida faqat volan o'yindan tashqari holatda (15-band) bo'lgandagina sportchi maslahat olishi mumkin;

16.5.2. sportchilardan birortasi o'yin davomida minoradagi hakamning ruxsatsiz kortni tark etishi mumkin emas. 16.2-bandda qayd etilgan tanaffuslar bundan mustasno.

16.6. O‘yinchi quvidagilarga haqli emas:

16.6.1. ataylab o‘yinda to‘xtalish yoki to‘xtab turishlarni yuzaga keltirishga;

16.6.2. volanning uchishi tezligini o‘zgartirish maqsadida ataylab uning shaklini o‘zgartirishga;

16.6.3. o‘zini nafsoniyatga tegadigan tarzda tutishga;

16.6.4. boshqa sportchiga xos bo‘lmagan xatti-harakatlarni sodir etishga.

16.7. Qoidabuzarliklarning oldini olish:

16.7.1. minoradagi hakam quvidagilar vositasida 16.4, 16.5 va 16.6-bandlarda qayd etilgan qoidabuzarliklarning oldini olishi kerak:

16.7.1.1. qoidabuzarga sariq kartochka ko‘rsatib, ogohlan-tirish berish;

16.7.1.2. agar o‘yinchi qizil kartochka ko‘rsatib ogohlanti-rligan bo‘lsa, qoidabuzarga “folt” e‘lon qilish. Ikki marta shu tarzda qoida buzilishi “doimiy qoidabuzarlik” deb baholanadi.

16.7.2. o‘yinchi tomonidan jiddiy xatti-harakat, doimiy qoi-dabuzarlik yoki 16.2-bandning buzilishi sodir etilganda, ikkinchi qizil kartochkani ko‘rsatish bilan birga, bu haqda Bosh hakamga xabar berish. Bosh hakam sportchini ushbu matchni davom ettirishdan mahrum etish va unga 0:21, 0:21 hisoblarida mag‘lu-biyat yozish huquqiga ega.

6.3. Hakamlar apparati tuzilmasi

17.1. Bosh hakam har bir match tarkibiy qismi bo‘lgan turnir yoki boshqa musobaqaning o‘tkazilishi uchun to‘liq javobgar hisoblanadi.

17.2. Minoradagi hakam, agar u tayinlangan bo‘lsa, mazkur matchning o‘tkazilishi, kortning holati va uning atrofidagi vaziyat uchun javobgar sanaladi. Minoradagi hakam Bosh hakamga bo‘ysunadi.

17.3. Agar volanni oshiruvchi tomonidan uni oshirish payti-da qoidabuzarliklar sodir etilsa (9-band), hakam ana shu qoidabuzarlikni qayd etadi.

17.4. Yon hakam volan maydoncha chegaralarini belgilab beruvchi chiziq hududiga tushdimi yoki undan tashqarigami, shuni aniqlab beradi.

17.5. Barcha hakamlarning qarorlari ana shu hakamlar javobgar bo‘lgan o‘yin holatlari bo‘yicha yakuniy hisoblanadi. Agar minoradagi hakam yon hakam xatoga yo‘l qo‘ydi, deb topsa, uning qarorini bekor qilishi mumkin.

17.6. Minoradagi hakam quyidagilarga majbur:

17.6.1. o‘yin qoidalariga rioya etish va ularni hayotga tatbiq qilishga, shu jumladan, “bahsli” holat, qoidabuzarlik va foltni, agar ular sodir etilsa, aniqlash;

17.6.2. bahsli holatlar yuzaga kelganda keyingi oshirish-gacha ular yuzasidan qaror chiqarish;

17.6.3. matchning borishi to‘g‘risida sportchilar va tomoshabinlarni aniq va baland ovozda xabardor qilib borish;

17.6.4. Bosh hakam bilan maslahatlashgan holda oshirish joyidagi va yon hakamlarni tayinlash yoki chetlashtirish;

17.6.5. tayinlanmagan hakamlarning vakolatida bo‘lgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish;

17.6.6. kortdagи hakamlardan birortasi yuzaga kelgan vaziyat bo‘yicha qaror chiqarishga imkonsiz bo‘lib qolganda, o‘z qarorini qabul qilish yoki “bahsli” holat e’lon qilish;

17.6.7. Bosh hakamga 16-bandga taalluqli har qanday holatlar yuzasidan xabar berish;

17.6.8. faqat o‘yin qoidalariga taalluqli masalalarda qonoat-lantirilmagan barcha apellyatsiyalarni Bosh hakamga yetkazish. (Mazkur apellyatsiyalar volanni keyingi oshirish amalga oshiril-guncha yoki o‘yining oxiri bo‘lsa, apellyatsiya berayotgan tomon kortdan chiqib ketmasidan kiritilishi kerak).

Minoradagi hakamlar uchun atamalar

Mazkur ilovada minoradagi hakam o‘yin davomida ishlataladigan standart atamalar keltirib o‘tilgan.

1. O‘yinchilar ni tanishtirish:

1.1. Xonimlar va janoblar:

1.1.1. Mening o‘ng tomonimda (o‘yinchining (o‘yinchilar-ning) ismi sharifi, ular vakil bo‘lgan hudud nomi aytildi), chap

tomonimda esa (o'yinchining (o'yinchilarning) ismi sharifi, ular vakil bo'lgan hudud nomi aytildi);

1.1.2. Mening o'ng tomonimda (hudud, jamoa nomi aytildi) vakili (vakillari) bo'lmish (o'yinchining (o'yinchilarning) ismi sharifi aytildi), chap tomonimda esa (hudud, jamoa nomi aytildi) vakili (vakillari) bo'lmish (o'yinchining (o'yinchilarning) ismi sharifi aytildi);

1.1.3. Oshiruvchi (o'yinchining ismi sharifi yoki hudud, jamoa nomi aytildi), qabul qiluvchi (o'yinchining ismi sharifi yoki hudud, jamoa nomi aytildi).

2. Matchning boshlanishi, hisobni e'lon qilish, tanaffuslar, geymlarning yakunlanishi:

2.1. Nol-nol o'ynanglar.

2.2. Oshirish ... tomonga o'tadi.

2.3. Bir daqiqa tanaffus.

2.4. Kort ... (raqami aytildi) 20 soniya, 20 soniya.

2.5. ... geym-poynt (masalan, 20 geym-poynt 6, 29 geym-poynt 28).

2.6. ... match-poynt (masalan, 20 match-poynt 8, 29 match-poynt 28).

2.7. ... geym-poynt – geym-poynt (masalan, 29 geym-poynt – 28 geym-poynt).

2.8. Geym.

2.9. Birinchi geymni (jamoaviy bahslarda davlat/jamoa nomi aytildi) ... hisobida yutdi.

2.10. Kort ... (raqami aytildi) 2 daqiqa tanaffus.

2.11. Ikkinci geym.

2.12. Ikkinci geymni (jamoaviy bahslarda davlat/jamoa nomi aytildi) ... hisobida yutdi.

2.13. Matchdagi hisob 1:1 (bir-u bir).

2.14. Uchinchi hal qiluvchi geym.

3. Umumiy ko'rinishdagi e'lonlar:

3.1. O'z maydoningizni egallang.

3.2. Siz tayyormisiz?

3.3. Siz volanni oshirishda nishonga ura olmadingiz.

3.4. Qabul qiluvchi tayyor emas.

3.5. Siz oshirishni qabul qilishga urindingiz.

3.6. Siz yon chiziqdagi hakamga bosim o'tkazmasligingiz kerak.

3.7. Iltimos, yonimga keling.

3.8. Volanga hech narsa qilmadimi?

3.9. Volanni sinab ko'ring.

3.10. Volanni almashtiring.

3.11. Volanni almashtirmang.

3.12. "Bahsli" holat.

3.13. Tomonlarning almashinuvi.

3.14. Siz joylaringizni almashmadingiz.

3.15. Siz noto'g'ri oshirish maydonidan oshirdingiz.

3.16. Siz navbatsiz oshirdingiz.

3.17. Siz navbatsiz qabul qildingiz.

3.18. Volanning shaklini o'zgartirmang.

3.19. Volan sizga tegdi.

3.20. To'rga tegildi.

3.21. Siz noto'g'ri maydonda turibsiz.

3.22. Siz raqibingizni chalg'itdingiz.

3.23. Sizning murabbiyingiz raqibingizni chalg'itdi.

3.24. Ikkita zarba.

3.25. Siz volanni ottingiz (otish).

3.26. Siz raqib tomonga o'tib ketdingiz.

3.27. Siz raqibingizga xalaqit qildingiz.

3.28. Siz (o'yinni davom ettirishni) rad etasizmi?

3.29. Qabul qiluvchida folt.

3.30. Oshirishda folt e'lon qilinadi.

3.31. O'yinni davom ettiramiz.

3.32. O'yin to'xtailadi.

3.33. (familiyasi aytildi) sportga xos bo'limgan xattiharakat uchun ogohlantiriladi.

3.34. (familiyasi aytildi)ga sportga xos bo'limgan xattiharakat uchun folt e'lon qilinadi.

3.35. To'xta.

3.36. Folt.

3.37. Aut.

3.38. Yon hakam! Sizning qaroringiz?

3.39. Oshirish joyidagi hakam! Sizning qaroringiz?

3.40. O'zgarish – maydon .

3.41. O'zgarish – aut.

3.42. Kort (maydoncha)ni arting.

4. Matchning tugashi:

4.1. Matchni (o'yinchining (o'yinchilarning) familiyasi ismi; jamoaning nomi aytildi) ... hisobida yutdi.

4.2. Matchni (o'yinchining (o'yinchilarning) familiyasi ismi; jamoaning nomi aytildi) ... hisobida yutdi – o'yinni davom ettirish rad etildi.

4.3. Matchni (o'yinchining (o'yinchilarning) familiyasi ismi; jamoaning nomi aytildi) ... hisobida yutdi – ushbu matchda o'yindan chetlatish.

Kortdagи hakamlarga tavsiyalar

1. Kirish

1.1. Kortdagи hakamlar uchun tavsiyalar BWF tomonidan uning Nizomi talablari asosida barcha mamlakatlarda badminton o'yinini boshqarish uslublarini bir xil standartga keltirish maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur tavsiyalardan maqsad minoradagi hakamlarga matchning borishini boshqarish masalalarida yordam berishdan iborat. Toki ular o'yinni qat'iyat va adolat bilan, ammo o'yinchilarni ortiqcha tergamasdan va ulardan ayb izlamasdan, shu bilan birga, o'yin qoidalariga rioxha etgan holda boshqarib borsinlar. Shuningdek, tavsiyalar oshirish joyi va yon tomondagи hakamlarga ham o'z vazifalarini to'g'ri ado etishlarida yordam beradi.

1.3. Barcha hakamlar o'yin aslida o'yinchilar uchun mavjud bo'lishini yodda tutishlari zarur.

2. Kortdagи hakamlar va ularning qarorlari

2.1. Minoradagi hakam Bosh hakamga (17.2-band), Bosh hakam bo'limganda esa, musobaqa tashkilotchisiga bo'ysunadi va uning rahbarligi ostida ish olib boradi.

2.2. Volanni oshirish maydonidagi hakam Bosh hakam tomonidan tayinlanadi, ammo minoradagi hakam tomonidan Bosh hakam bilan maslahatlashgan holda chetlatilishi (almashtirilishi) mumkin (17.6.4-band).

2.3. Yon chiziqdagi hakamlar Bosh hakam tomonidan tayinlanadi, ammo minoradagi hakam tomonidan Bosh hakam bilan maslahatlashgan holda chetlatilishi (almashtirilishi) mumkin (17.6.4-band).

2.4. Barcha hakamlarning qarorlari ana shu hakamlar javobgar bo‘lgan o‘yin holatlari bo‘yicha yakuniy hisoblanadi. Agar minoradagi hakam yon hakam xatoga yo‘l qo‘ydi, deb topsa, uning qarorini bekor qilishi va o‘zining shaxsiy qarorini qabul qilishi mumkin (17.5-band). Agar minoradagi hakam yon chiziqdagi hakamni chetlashtirish kerak, deb hisoblasa, u mazkur masalada Bosh hakamga murojaat qilishi kerak (17.6.4-band, 2.3-tavsiyalar).

2.5. Kortdagи hakamlardan birortasi yuzaga kelgan va o‘zлari mas’ul bo‘lgan vaziyat bo‘yicha qaror chiqarishga imkonsiz bo‘lib qolganda, minoradagi hakam o‘z qarorini qabul qilish yoki “bahsli” holat e’lon qilishga haqli (17.6.6-band).

2.6. Minoradagi hakam mazkur matchning o‘tkazilishi, kortning holati va uning atrofidagi vaziyat uchun javobgar sanaladi. Minoradagi hakamning vakolati u match boshlanishi oldidan kortga chiqqan paytdan boshlanib, o‘yin tugagach kortdan chiqib ketgan vaqtgacha davom etadi (17.2-band).

3. Minoradagi hakamlar uchun tavsiyalar

3.1. Minoradagi (shuningdek, volanni oshirish maydonidagi) hakamlarning kiyim-boshi.

Agar musobaqa tashkilotchilari tomonidan bir xil kiyim-bosh nazarda tutilmagan bo‘lsa, minoradagi (volanni oshirish maydonidagi) hakamlar quyidagi tavsiyalarga amal qilishlari lozim:

3.1.1. **Kiyimning tepe qismi:** erkaklar va ayollar uchun to‘q ko‘k (qoragacha) rangdagi pidjak (ayollarda kofta); yorqin va bir tusli (oq, yorqin ko‘k) ko‘ylak (ayollar uchun bluzka); to‘q rangli, imkon qadar bir tusli rasmiy uslubdagi sipo bo‘yinbog‘.

3.1.2. **Kiyimning past qismi:** erkaklar va ayollar uchun kul rangning istalgan tusidagi shim (ayollarda yubka).

3.1.3. **Poyafzal:** erkaklar va ayollar uchun tuflи, asosiysi, ayollar tuflisining poshnasi kortni bosib ezmasligi kerak.

3.1.4. Minoradagi (volanni oshirish maydonidagi) hakamda quyidagilar bo‘lishi kerak:

- ishlatish uchun qulay bo‘lgan, o‘yin paytida tasma bilan hakamning bo‘yniga osib qo‘yiladigan sekundomer;
- o‘yin bayonnomasi uchun qisqichli planshet;
- avtoruchka (qalam), shu jumladan, zaxirasi ham.

3.1.5. Hakamlar ozoda tashqi ko‘rinishga ega bo‘lishlari kerak.

3.2. O‘yin boshlanishi oldidan minoradagi hakam quyidagilarni bajarishi kerak:

3.2.1. Bosh hakamdan o‘yin bayonnomasini olish (3-Ilova);

3.2.2. ochkolarni hisoblagichning ishlashini tekshirish;

3.2.3. ustunlar yoki ularning o‘rnini bosuvchi tasmalarning to‘g‘ri joylashganini tekshirish (1.5-band);

3.2.4. to‘rning balandligini hamda uning chetlari bilan ustunlar orasida bo‘shliq yo‘qligini tekshirish;

3.2.5. volan to‘sqliarga (zalning tuzilishi elementlaridan kelib chiqib) tegib qolganda qo‘srimcha shartlar mavjud yoki yo‘qligiga aniqlik kiritish;

3.2.6. volanni oshirish joyidagi va yon chiziqlardagi hakamlar o‘z o‘rnini egallaganiga va ular o‘zlarining vazifalarini bilishlariga ishonch hosil qilish (tavsiyalarning 5 va 6-qismlari);

3.2.7. o‘yinni o‘tkazish paytida to‘xtalishlar bo‘lmasligi uchun yetarli miqdorda sinab ko‘rilgan volanlar tayyorlab qo‘yilishini ta’minalash (qoidalarning 3-bandı);

(*minoradagi hakam 3.2.1, 3.2.2, 3.2.3, 3.2.4 va 3.2.7-bandlardagi vazifalarni, agar tayinlangan bo‘lsa, volanni oshirish joyidagi hakamga yuklashi mumkin*);

3.2.8. o‘yinchilarning kiyimlari yozuvlar va reklamalarga oid talablarga mosligini tekshirish, nomutanosibliklar aniqlangan-da, ularni bartaraf etish. Qoidalarga muvofiq kelmaslik (yoki shunga yaqin) holatlar yuzasidan o‘yin boshlanishi oldidan Bosh hakam yohud rasmiy vakil bilan maslahatlashib olish zarur;

3.2.9. qur’a tashlash adolatli o‘tkazilganligiga, qur’ani yutgan va yutqazgan tomonlar o‘z tanlovini to‘g‘ri amalgaloshirganiga ishonch hosil qilish (qoidalarning 6-bandı). Volanni oshirish va maydon bo‘yicha tanlovni bayonnomada aks ettirish.

3.2.10. o‘yinchilar bilan tanishish, o‘yinni volanni oshirishning o‘ng maydonidan boshlaydigan sportchilarning ismi shariflarini (juftlik bahslarida) bayonnomaga kiritib qo‘yish. Bunday qaydlarni har bir geym boshlanishi oldidan kiritish (agar o‘yin davomida volanni oshirish maydonchasi borasida xatoga yo‘l qo‘yilgani uchun ushbu joylashuv o‘zgartirilsa (12.2-band), qayd-larga tegishli o‘zgartirishlar kiritib borish.

3.3. O‘yin boshlanishi oldidan minoradagi hakam tegishli iboralardan foydalangan holda qatnashchilarni (1-Hovaning 1-band), quyida keltirilgan shakl asosida o‘zida o‘ngda kim va chapda kim ekanini aytib tanishtiradi: A, B, D, E – o‘yinchilarning ismlari, K, L, M, N – mamlakat (jamoa) nomi.

Yakkalik bahslari

Shaxsiy birinchilik

“Xonimlar va janoblar, mening o‘ng tomonimda A, K; chap tomonimda esa B, L. A volanni oshiradi. Hisob nol-nol, o‘yinni boshlang”.

Jamoaviy musobaqalar

“Xonimlar va janoblar, mening o‘ng tomonimda K ning vakili A; chap tomonimda esa L ning vakili B. Volanni K oshiradi. Hisob nol-nol, o‘yinni boshlang”.

Juftlik bahslari

Shaxsiy birinchilik

“Xonimlar va janoblar, mening o‘ng tomonimda A, K va B, L; chap tomonimda esa D, M va E, N. Volanni B D ga oshiradi. Hisob nol-nol, o‘yinni boshlang”.

Agar juftlik bahslarida sheriklar bitta mamlakat (jamoa) a’zolari bo‘lishsa, mamlakat (jamoa) nomi ikkala sportchining ismi sharifidan keyin aytildi. Masalan: K ning vakillari A va B.

Jamoaviy musobaqalar

“Xonimlar va janoblar, mening o‘ng tomonimda K ning vakillari A va B; chap tomonimda esa L ning vakili D va E. Volanni K ning vakili A L ning vakili D ga oshiradi. Hisob nol-nol, o‘yinni boshlang”.

O‘yin “o‘yinni boshlang” degan komanda bilan boshlanadi.

3.4. O‘yin vaqtida minoradagi hakam quyidagilarni bajarishi kerak:

3.4.1. ortiqcha so‘zlarni ishlatmay, 1-Ilovada keltirilgan standart atamalardan foydalanish;

3.4.2. hisobni yozib va e’lon qilib borish; har doim birinchi bo‘lib volanni oshirayotgan tomonning ochkolarini aytish;

3.4.3. agar oshirish joyida hakam tayinlangan bo‘lsa, minoradagi hakam asosiy e’tiborini volanni qabul qiluvchiga qaratishi kerak; zarurat tug‘ilsa, minoradagi hakam ham oshirishdagi xatoni e’lon qilishi mumkin;

3.4.4. imkon qadar, ochkolarni hisolagichning ko‘rsatkichlarini kuzatib borish;

3.4.5. Bosh hakam bilan maslahatlashish zarur bo‘lganda, o‘ng qo‘lini boshi uzra baland ko‘tarish;

3.4.6. volanni oshirgan o‘yinchilari mana shu oshirishda yutqazganida va oshirish huquqini ham boy berganda (10.3.2, 11.3.2-bandlar), oldin “Oshirish o‘tadi” deb, so‘ngra hisobni oshirish o‘tgan o‘yinchidan boshlab e’lon qilish; zarurat bo‘lsa, bu jarayonda yangi oshiruvchini va oshirishning to‘g‘ri maydon-chasini qo‘li bilan ko‘rsatish.

3.4.7. Quyidagi hollarda minoradagi hakam tomonidan “O‘yinni boshlanglar” degan komanda beriladi:

3.4.7.1. match yoki geymni boshlash, yoxud tomonlar joy almashganidan keyin o‘yinni davom ettirish uchun;

3.4.7.2. to‘xtatilgan o‘yinni davom ettirish uchun;

3.4.7.3. o‘yinchilardan o‘yinni davom ettirishni talab qilish uchun.

3.4.8. Minoradagi hakam tomonidan “To‘xtang” komandasini kutilmagan vaziyatlar tufayli o‘yinni istalgan vaqtga har qanday to‘xtatish zarurati yuzaga kelganda beriladi.

3.4.9. Quyidagi holatlardan boshqa vaziyatlarda minoradagi hakam tomonidan “Folt” komandasini e’lon qilinadi:

3.4.9.1. volanni oshirish joyidagi hakam “folt”ni e’lon qilganda (qoidalarning 13.1-band). Bu holatda minoradagi hakam “Oshirish folti e’lon qilinadi” deyishi kerak.

Volanni qabul qiluvchining xatosini minoradagi hakam “Qabul qiluvchida folt” deb e’lon qiladi;

3.4.9.2. Qoidalarning 13.3.1-bandida qayd etilgan xatoga yo‘l qo‘yilganda va ushbu xato uchun yon chiziqdagi hakamning tegishli qichqirig‘i yoki signali nazarda tutilganda (tavsiyalarning 6.2-band);

3.4.9.3. qoidalarning 13.2.1, 13.2.2, 13.2.3 yoki 13.3.3-bandlarida qayd etilgan xatolarga yo‘l qo‘yilganda va ular faqat o‘yinchilar yoki tomoshabinlarga aniq bo‘lishi uchun e’lon qilinishi zarur bo‘lganda.

3.4.10. Har bir geym davomida tomonlardan birining ochkolar 11 taga yetganda, “Oshirishning o‘tishi”ni e’lon qiladi (agar zarurat bo‘lsa), oxirgi o‘yin jarayoni tugashi bilan qarsaklarga e’tibor qilmasdan, darhol hisobni e’lon qiladi (bu bilan 16.2.1-bandda nazarda tutilgan tanaffusning boshlangani bildiriladi), shundan so‘ng “1 daqiqa tanaffus” deydi. Har bir tanaffus paytida volanni oshirish joyidagi hakam, agar u tayinlangan bo‘lsa, kort artib tozalanishini ta’minalashi kerak.

3.4.11. Tomonlardan birining ochkolari 11 taga yetishi munosabati bilan geymlarda e’lon qilingan tanaffuslar (16.2.1-band) paytida tanaffusning 40 soniyasi o‘tgandan keyin “Kort... (raqamini aytadi) 20 soniya, 20 soniya” deb e’lon qiladi.

3.4.11.1. Birinchi va ikkinchi geymlar vaqtida hamda uchinchi geymdagi tanaffuslar paytida o‘yinchilar maydonlarini almashganda, kortning har ikki tomoniga 2 nafardan ortiq bo‘limgan odam chiqishi mumkin. Ammo minoradagi hakam “20 soniya” deb e’lon qilganidan keyin ular kortdan chiqib ketishlari shart.

3.4.11.2. Tanaffusdan keyin o‘yinni davom ettirish uchun oldin hisobni aytib, keyin “O‘yinni boshlanglar” deb komanda beradi.

3.4.11.3. Agar o‘yinchilar 16.2.1-band bo‘yicha tanaffus talab qilishmasa, mazkur geymda o‘yin tanaffussiz davom ettirilishi mumkin.

3.4.11.4. Har bir geymda tomonlardan birining ochkolari 20 taga yetganda, “geym-poynt” (yoki agar mavjud bo‘lsa “match-poynt”) e’lon qiladi.

3.4.11.5. Har bir geymda tomonlardan birining ochkolari 29 taga yetganda, “geym-poynt” (yoki agar mavjud bo’lsa “match-poynt”) e’lon qiladi.

3.4.12. Har bir geym yakunida oxirgi o‘yin jarayoni tugashi bilan qarsaklarga e’tibor qilmasdan “Geym” deb e’lon qiladi hamda bu bilan 16.2.2-bandda nazarda tutilgan tanaffusning boshlangani bildiriladi.

3.4.12.1. Birinchi geym tugaganidan keyin quyidagilarni e’lon qiladi:

“Birinchi geymni (o‘yinchining (o‘yinchilarning) familiyasini; jamoaviy bahslarda esa jamoaning nomini aytadi) hisobida yutdi”.

3.4.12.2. Ikkinci geym tugaganidan keyin quyidagilarni e’lon qiladi:

“Ikkinci geymni (o‘yinchining (o‘yinchilarning) familiyasini; jamoaviy bahslarda esa jamoaning nomini aytadi) hisobida yutdi. O‘yindagi hisob 1:1 (bir-u bir)”.

3.4.12.3. Birinchi va ikkinchi geymlar tugaganidan keyin hisobni aytgach, “Kort... (raqamini aytadi), 2 daqqa tanaffus” deb e’lon qiladi.

3.4.12.4. har bir geym yakunida volanni oshirish joyidagi hakam, agar u tayinlangan bo’lsa, tanaffus belgisini (nazarda tutilganini) to’r markaziga o’rnatishi hamda kort artib tozalanishini ta’minlashi kerak.

3.4.12.5. Birinchi va ikkinchi geym o’rtasidagi hamda ikkinchi va uchinchi geym o’rtasidagi tanaffuslar paytida (16.2.2-band) 100 soniya o’tganidan keyin “Kort... (raqamini aytadi) 20 soniya, 20 soniya” deb e’lon qiladi.

3.4.12.6. Geymlar o’rtasidagi tanaffuslar paytida (16.2.2-band) o‘yinchilar maydonlarini almashganda kortning har ikki tomoniga 2 nafardan ortiq bo’lmagan odam chiqishi mumkin. Ammo minoradagi hakam “20 soniya” deb e’lon qiliganidan keyin ular kortdan chiqib ketishlari shart.

3.4.12.7. Ikkinci geym boshlanishida “Ikkinci geym, hisob nol-nol, o‘yinni boshlanglar”;

Agar uchinchi geym ham o’tkazilsa, “Hal qiluvchi uchinchi geym, hisob nol-nol, o‘yinni boshlanglar” deb e’lon qiladi.

3.4.12.8. Uchinchi geymda yoki bir geymli o'yinda tomonlardan birining ochkosi 11 taga yetganida (8-13-band) oldin hisobni, keyin esa "Bir daqqa tanaffus, tomonlar joy almashishadi" deb e'lon qiladi. Tanaffusdan keyin o'yinni davom ettirish uchun oldin hisobni aytib, keyin "O'yinni boshlanglar" deydi.

3.4.13. Match yakunlanganidan keyin quyidagilarni bajarishi kerak:

3.4.13.1. "Matchda (o'yinchining (o'yinchilarning) familiyasini; jamoaviy bahslarda esa jamoanining nomini aytadi) hisobida yutdi", deb geymlar bo'yicha va yakuniy hisobni e'lon qiladi.

3.4.13.2. Darhol to'ldirilgan bayonnomani Bosh hakamga topshiradi.

Yon chiziqdagi hakamlikning o'ziga xos xususiyatlari

3.5.1. Volan kort ichida yoki undan tashqariga qanchalik olisga tushishidan qat'i nazar, minoradagi hakam har doim yon chiziqdagi hakamga qarashi kerak: mazkur vaziyat bo'yicha qaror chiqarish yon hakamning zimmasida bo'ladi. Tavsiyalarning 3.5.2-bandi bundan mustasno.

3.5.2. Agar minoradagi hakam yon chiziqdagi hakam noto'g'ri qaror qabul qildi, deb hisoblasa yoki tavsiyalarning 5.4-bandiga asosan bu haqda volanni oshirish joyidagi hakam xabar bersa, minoradagi hakam quyidagilarni e'lon qilishi shart:

3.5.2.1. agar volan maydon ichiga tushgan bo'lsa, "o'zgarish: maydon";

3.5.2.2. agar volan maydondan tashqariga tushgan bo'lsa, "o'zgarish: aut".

3.5.3. Yon chiziqqa hakam tayinlanmagan bo'lsa yoki yon chiziqdagi hakam ko'rmay qolganda, minoradagi hakam quyidagilarni e'lon qilishi kerak:

3.5.3.1. agar volan maydon chizig'idan tashqariga tushgan bo'lsa, hisobni aytishdan oldin "aut";

3.5.3.2. agar volan maydon ichiga tushgan bo'lsa, hisobni;

3.5.3.3. agar uning o'zi ham vaziyatni ko'rmay qolgan bo'lsa, "bahsli" holat.

3.6. Match davomida quyidagi vaziyatlarni kuzatib borishi va ularni bilishi kerak:

3.6.1. To‘rning tagidan o‘tib raqibiga xalaqit qilgan yoki uni chalg‘itgan, yoxud raketkasini raqib tomonga o‘tkazgan sportchi tegishliligi bo‘yicha qoidalarning 13.4.2 yoki 13.4.3-bandı talablarini buzgan hisoblanadi.

3.6.2. Qo‘shni kortdan volan kelib tushganda, darrov “bahsli” holat e’lon qilinmasligi kerak. Minoradagi hakamning fikriga ko‘ra, bunday vaziyatda quyidagi hollarda “bahsli” holat e’lon qilinmaydi:

3.6.2.1. o‘yinchilar qo‘shni kortdan kelib tushgan volanni sezmagan bo‘lsa;

3.6.2.2. u o‘yinchilarga xalaqit qilmagan yoki ularni chal-g‘itmagan bo‘lsa.

3.6.3. Sportchining volanni urmoqchi bo‘layotgan o‘z sheri-giga qarab qichqirishi raqibni chalg‘ituvchi holat sifatida baholan-masligi kerak. Shu bilan birga, raqibga qaratib aytilgan “Urma！”, “Xato” kabi qichqiriqlar chalg‘ituvchi holatlar sifatida qaraladi.

3.6.4. O‘yinchining kortdan chiqishi:

3.6.4.1. o‘yinchilar minoradagi hakamning ruxsatisiz kortni tark etishi mumkin emas (16.5.2-band);

3.6.4.2. o‘yinchilarga faqat tanaffuslar paytida suv ichish va boshqa maqsadda kortdan chiqishga ruxsat beriladi (16.2-band). Agar o‘yin biror bir sabab bilan to‘xtatilgan bo‘lsa, o‘yinchilarga qo‘llarini artish va boshqa maqsadda kortdan chiqishga ruxsat beriladi, faqat bu narsa o‘yinni davom ettirishga xalaqit bermasligi kerak. Agar kortni artib tozalash zarur bo‘lsa, o‘yinchilar bu paytda kortda bo‘lishlari zarur.

3.6.4.3. Qoidani buzgan har qanday tomonga kortni faqat minoradagi hakamning roziligi bilangina tark etish mumkinligini (16.5.2-band) eslatib o‘tish, agar zarur bo‘lsa, 16.7-bandni qo‘llash zarur. Ammo o‘yin paytida kort yonida raketkani almashtirishga ruxsat beriladi.

3.6.5. O‘yindagi to‘xtalish va ushlanishlar:

O‘yinchilar ataylab o‘yinning to‘xtalishi va ushlanib qolishini keltirib chiqarishmayotganiga ishonch hosil qilish zarur (16.4-band). Kort atrofidagi har qanday keraksiz harakatlarning oldi olinishi kerak. Zarurat bo‘lsa, 16.7-band qo‘llaniladi.

3.6.6. Kortdan tashqaridan keladigan maslahatlar:

3.6.6.1. o‘yin davom etayotgan paytda sportchilarga har qanday shaklda maslahat olishga ruxsat berilmaydi (16.5.1-band);

3.6.6.2. quyidagilar ta’milanishi kerak:

- o‘yin paytida murabbiylar kort yonida emas, balki o‘zlar uchun ajratilgan maxsus joyda o‘tirishlari. Ruxsat etilgan tanaffuslar (16.2-band) bundan mustasno;

- murabbiylar raqib sportchilarni chalg‘itmasligi va o‘yinga xalaqit qilmasligi.

3.6.6.3. Agar minoradagi hakamning fikriga ko‘ra, jamoalardan birining murabbiysi tomonidan o‘yinga xalaqit berilgan yoxud raqib o‘yinchisi chalg‘itilgan bo‘lsa, “bahsli” holat tayilanishi kerak – qoidalarning 14.3.4-bandi. Darhol Bosh hakamni chaqirish kerak. U ushbu murabbiyga ogohlantirish berishi mumkin.

3.6.6.4. Agar bunday holat yana takrorlansa, Bosh hakam ushbu murabbiydan zalni tark etishni talab qilishi mumkin.

3.6.7. Volanni almashtirish:

3.6.7.1. O‘yin paytida volanni almashtirish asosli bo‘lishi kerak. O‘yinchilar volanni almashtirishni istashganda, minoradagi hakam rostdan ham volan yaroqsiz holga kelib qolganiga ishonch hosil qilganidan keyingina, uni almashtirishga ruxsat berishi mumkin.

3.6.7.2. tezligi yoki uchishi o‘zgargan volan almashtirilishi zarur.

3.6.8. O‘yin paytidagi jarohat yoki kasallik:

3.6.8.1. O‘yin paytidagi jarohat va kasallik holatlari e’tibor va g‘amxo‘rlikni talab etadi. Minoradagi hakam muammoning qanchalik jiddiyligiga darhol aniqlik kiritishi kerak.

3.6.8.2. Shifokor (hamshira, feldsher), Bosh hakam va jarohat olgan o‘yinchining murabbiyiga kortga chiqishga ruxsat beriladi. Shifokor sportchini ko‘zdan kechirib, unga jarohat yoki kasallikning qanchalik jiddiyligi to‘g‘risida xabar berishi kerak. Agar jarohat, yoki kasallik qon oqishi bilan bog‘liq bo‘lsa, toki qon to‘xtatilmaguncha yoxud jarohat tegishli tarzda himoya qilinmangua qadar o‘yin to‘xtatib turiladi.

3.6.8.3. Bosh hakam minoradagi hakamga sportchi o‘yinni davom ettira olishi uchun qancha vaqt kerak bo‘lishini aytishi zarur. Minoradagi hakam vaqtini e’tiborga olishi kerak.

3.6.8.4. Minoradagi hakam raqib noqulay vaziyatga tushirib qo‘yilmaganiga ishonch hosil qilishi va tegishliligi bo‘yicha 16.4, 16.5, 16.6.1 hamda 16.7-bandni qo‘llashi zarur.

3.6.8.5. Zarurat bo‘lsa, jarohat, kasallik yoki boshqa kutilmagan vaziyat sodir bo‘lganda, o‘yinchidan “o‘yinni davom ettirishdan bosh tortasizmi?” deb so‘rash kerak. Agar o‘yinchi shunday qarorga kelgan bo‘lsa: “... (o‘yinchining familiyasini aytadi) o‘yinni davom ettirishdan bosh tortdi” deb, keyin esa “O‘yinda (o‘yinchining familiyasini aytadi) g‘olib chiqdi” deya e’lon qiladi.

3.7. O‘yindagi to‘xtalishlar:

Agar o‘yinni to‘xtatib turish zarurati paydo bo‘lsa, “To‘xtang, o‘yin to‘xtatiladi” deb e’lon qilinadi va volanni oshiruvchining, uni qabul qiluvchining ochkolari, oshirishning to‘g‘ri maydoni va tomonlar qayd qilib qo‘yiladi. O‘yin davom ettiriladigan bo‘lganda esa tanaffusning davomiyligini, o‘yinchilar to‘g‘ri joy egallahganini belgilash, “Tayyormisizlar?” deb so‘rash, hisobni e’lon qilish va “O‘yinni boshlang” deb komanda berish kerak.

3.8. Sportga xos bo‘lмаган xatti-harakatlar:

3.8.1. Bosh hakamga har bir ana shunday holatlar va ular yuzasidan ko‘rilgan choralarini yetkazib boriladi;

3.8.2. Geymlar orasidagi sportga xos bo‘lмаган xatti-harakatlar ham xuddi geym paytidagi kabi jazolanadi. Minoradagi hakam, tavsiyalarning tegishliligi bo‘yicha 3.8.3, 3.8.5-bandlaridan foydalanib, navbatdagi geym boshanishi oldidan ogohlantirish haqida e’lon qiladi. Shundan so‘ng, agar zarurat bo‘lsa: “Oshirishning o‘tishi” deb, so‘ngra hisobni e’lon qiladi.

3.8.3. Agar minoradagi hakam qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ygan tomonga ogohlantirish berish uchun 16.4, 16.5 yoki 16.6-bandlarni qo‘llashiga to‘g‘ri kelsa (16.7.1.1-band), aybdor o‘yinchiga murojaat qilib: “Yonimga keling” deydi va o‘ng qo‘li bilan qizil kartochkani boshi uzra baland ko‘tarib: “... (o‘yinchining familiyasini aytadi), sportga xos bo‘lмаган xatti-harakat uchun folt” deb e’lon qiladi.

3.8.4. Agar minoradagi hakam qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ygan uchun bungacha ogohlantirilgan tomonga ogohlantirish berish uchun 16.4, 16.5 yoki 16.6-bandlarni qo‘llashiga to‘g‘ri kelsa (16.7.1.2-band), aybdor o‘yinchiga murojaat qilib: “Yonimga keling” deydi va o‘ng qo‘li bilan qizil kartochkani boshi uzra baland ko‘tarib: “... (o‘yinchining familiyasini aytadi), sportga xos bo‘limgan xatti-harakat uchun folt” deb e’lon qiladi.

3.8.5. Agar minoradagi hakam 16.4, 16.5 yoki 16.6-bandlarni jiddiy yoki doimiy yoxud 16.2-bandni buzganlik uchun o‘yinchiga ogohlantirish bermoqchi bo‘lsa, qoidabuzarni jazolagan (16.7.1.2-band) va Bosh hakamga qoidabuzarni o‘yindan chetlatish uchun darhol murojaat qilgan holda, aybdor o‘yinchiga murojaat qilib: “Yonimga keling” deydi va o‘ng qo‘li bilan qizil kartochkani boshi uzra baland ko‘tarib: “... (o‘yinchining familiyasini aytadi), sportga xos bo‘limgan xatti-harakat uchun folt” deb e’lon qiladi va Bosh hakamni chaqiradi.

3.8.6. Bosh hakam qoidabuzar sportchini o‘yindan chetlatish to‘g‘risida qaror qabul qilsa, minoradagi hakamga qora kartochka beriladi. Minoradagi hakam aybdor o‘yinchiga murojaat qilib: “Yonimga keling” deydi va o‘ng qo‘li bilan qora kartochkani boshi uzra baland ko‘tarib: “... (o‘yinchining familiyasini aytadi), sportga xos bo‘limgan xatti-harakat uchun o‘yindan chetlashtiriladi” deb e’lon qiladi.

4. Minoradagi hakamga umumiy maslahatlar

4.1. Badminton o‘yini qoidalarini nafaqat bilish, balki tushunish ham kerak.

4.2. E’lonlarni aniq va dadil aytинг, ammo xatoga yo‘l qo‘ysangiz, buni tan olib uzr so‘rang va uni to‘g‘rilang.

4.3. Barcha e’lonlarni, shu jumladan, hisobni ham shunchalik aniq va baland ovozda aytингki, o‘yinchilarga ham, tomoshabinlarga ham aniq eshitilsin.

4.4. Qoidalar buzilganligi borasida ikkilansangiz, “folt” e’lon qilishga shoshilmang.

4.5. Tomoshabinlar o‘zlarining e’tirozlari bilan o‘yinning borishiga ta’sir ko‘rsatmasligi uchun, ularning fikrlariga qulog solmang.

4.6. Kortingizdagи boshqa hakamlarning qarorlarini tan oлган holda, ularning faoliyatini asoslab boring hamda ular uchun ishchanlik muhitini yarating.

5. Volanni oshirish joyidagi hakamlar uchun tavsiyalar

5.1. Volanni oshirish joyidagi hakam iloji bo‘lsa, minoradagi hakamning qarama-qarshisida past stulda o‘tirishi kerak.

5.2. Volanni oshirish joyidagi hakam oshiruvchi tomonidan oshirish to‘g‘ri bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi (9.1-band). Agar qoidabuzarlik sodir etilsa, u baland ovozda “Folt” deb e‘lon qilishi hamda qoidabuzarlik turini ko‘rsatish uchun qabul qilingan qo‘l signallaridan foydalanishi kerak.

5.3. Qabul qilingan qo‘l signallari:

5.4. Agar volanni oshirish joyidagi hakamning fikricha, yon chiziqdagi hakam o‘zi turgan yon chiziq borasida noto‘g‘ri qaror qabul qilgan bo‘lsa, volanni oshirish joyidagi hakam o‘ng qo‘lini boshi uzra baland ko‘tarib “O‘zgarish” deb e‘lon qilishi kerak.

5.5. Birinchi va ikkinchi, ikkinchi va uchinchi geymlar o‘rtasidagi tanaffuslar paytida volanni oshirish joyidagi hakam ikki daqiqalik tanaffus haqidagi maxsus belgini to‘rga ilib qo‘yadi (to‘rning tagiga o‘rnatadi); kort artib tozalanishini hamda volanlar yetishmasligi sababli o‘yinda to‘xtalishlar bo‘lmasligini ta‘minlaydi.

5.6. Tanaffusning boshqa paytida volanni oshirish joyidagi hakam minoradagi hakamning yonida turishi kerak.

5.7. Minoradagi hakam volanni oshirish joyidagi hakamning zimmasiga boshqa vazifalarni ham yuklashi mumkin. Faqat o‘yin boshlanishi oldidan bu haqda o‘yinchilar xabardor qilingan bo‘lishlari shart.

6. Yon chiziqdagi hakamlar uchun tavsiyalar

6.1. Yon chiziqdagi hakam kortning yon tomonlari va oxirida o‘z chizig‘ining davomida, imkon qadar, minoradagi hakamga qarama-qarshi tomonda stulda o‘tirishi kerak.

6.2. Yon chiziqdagi hakam o‘ziga topshirilgan chiziqlar bo‘yicha mas‘ul hisoblanadi. Minoradagi hakam yon chiziqdagi

hakam xatoga yo‘l qo‘ydi, deb topib, uning qarorini o‘zgartirgan holatlar bundan mustasno.

6.2.1. Agar volan kortdan tashqariga tushsa, o‘yinchilar va tomoshabinlarga eshitiladigan qilib, aniq va baland ovozda “aut” deb e’lon qiladi hamda bir vaqtning o‘zida ikkala qo‘lini yon tomonga yoyib, minoradagi hakamga ko‘rinarli tarzda signal beradi.

6.2.2. Agar volan kort hududiga tushsa, yon chiziqdagi hakam hech narsa demaydi, faqat o‘ng qo‘li bilan chiziqnini ko‘rsatadi.

6.3. Agar siz volan qayerga tushganini ko‘rmay qolgan bo‘lsangiz, bu haqda har ikkala qo‘lingizni ko‘zingizga ko‘tarib, minoradagi hakamga xabar bering.

6.4. Volan kort yuzasiga tushmaguncha hech qanday signal va komandalar bermang.

6.5. Minoradagi hakamning qarorini kutmasdan, har doim faqat o‘z komandalarini (aut, volan maydonda, ko‘rmadim) berish kerak, masalan, volan o‘yinchiga tekkanda.

Badminton bo‘yicha o‘yin bayonnomasi

(2006 yil 10 iyulda yangilangan)

Har bir o‘yinda minoradagi hakam o‘yin bayonnomasini yuritadi. Unda o‘yining borishi, tomonlar qo‘lga kiritgan ochkolar soni aks ettirib boriladi.

Bayonnomani yuritishda ochkolar har bir o‘yin jarayonidan keyin ketma-ketlikda qayd etiladi.

Ochkolar ikkitalik qator (har bir sportchi uchun bitta qator)ning maxsus kataklariga yoziladi. Tik kataklar juftligida ochkonni faqat bitta katakka yozish mumkin. Har bir tik kataklar juftligi bitta o‘yin jarayonini anglatadi. Bu tomonlarning qaysi biri o‘yin jarayonini yutganini hamda volanni oshirish huquqi kimdaligini aniqlash uchun (chunki o‘yining boshlanishini mustasno qilganda, qolgan vaqtda ochkosi oldinda bo‘lgan o‘yinchi har doim volanni oshiruvchi bo‘ladi) bayonnomani o‘qishni osonlashtiradi.

Agar o‘yin hisobini yuritish jarayonida ikkitalik qatorlardan biri to‘lib qolsa, hisobni keyingi ikkitalik qatorga yozishda davom etish mumkin.

Ochkolarni aks ettiruvchi raqamlar aniq va tartibli qilib yozib borilishi kerak. Shuni yodda tutingki, o‘yin bayonnomasi minora-dagi hakamga o‘yin jarayonini yaxshi boshqarishda va murakkab hamda kutilmagan vaziyatlarda o‘yin tizginini qo‘ldan chiqarib yubormaslikda yordam beradi. Xatoga yo‘l qo‘yish ehtimolini imkon qadar kamaytirish maqsadida bayonnomma aniq yuritilishi kerak, shuningdek, u Bosh hakamga appelyatsiya berilgan holatlarda o‘yinni o‘qish va qaror chiqarishda yordam berishi zarur.

Badminton o‘yini bayonnomasini yuritish bo‘yicha Yo‘riqnama

O‘yin boshlanishidan oldin

Bosh hakamdan o‘yin bayonnomasini olgach, unga quyida-gilarni kiritish kerak (agar kompyuterda yoki kotib tomonidan to‘ldirilmagan bo‘lsa):

- o‘yining razryadini – masalan, ayollar yakkaligi (AYa), erkaklar juftligi (EJ), aralash juftlik (AJ) va boshqalar;
- kort (maydoncha) raqamini;
- qatorlarga o‘yin ishtirokchilarining hamda minoradagi va volanni oshirish joyidagi hakamlarning ismi shariflarini.

Qur‘a tashlash o‘tkazilganidan keyin quyidagilar qayd etiladi (yoziladi):

1. P va R – oshiruvchi va qabul qiluvchi, yakkalik o‘yinlarida faqat oshiruvchini yozing.
2. L va Pr – minoradagi hakamdan chap va o‘ng tomonda.
3. O – har bir geym boshlanishida oshiruvchi va qabul qiluvchi o‘yinchi familiyasi qarshisiga.
4. O‘yining boshlangan vaqt – “O‘yinni boshlanglar” komandasidan keyin.

O‘yin vaqtida

1. O‘yin jarayoni tugulanidan keyin, avval hisobni bayon-nomaga yozing, so‘ngra uni e’lon qiling.
2. Agar qabul qiluvchi tomon ochkoni yutib olsa, “oshirish-ning o‘tishi”ni e’lon qiling va uning qatoridagi keyingi bo‘sh katakka yangi hisobni yozib qo‘ying (oxirgi to‘ldirilgan katak har doim oshiruvchi tomonda bo‘ladi).

3. Hisob 20:20 bo‘lganda tik qatorning hamma kataklari ustidan diagonal chiziq torting (chizing).

4. Agar o‘yin paytida quyida keltirilgan vaziyat yuzaga kelsa, tegishli o‘yinchining qatoridagi keyingi bo‘sh katakka tegishli belgilarni qo‘yish kerak.

3-jadval

Vaziyat	Belgi/alifboden foydalaniladi
Ogohlantirish (qoidabuzarlik uchun)	PR
Folt (qoidabuzarlik uchun)	F
Bosh hakamning kortga chaqirilishi	GL
O‘yindagi to‘xtalish	ST
Jarohat	T
Bosh hakamdan diskvalifikatsiya	Diskvalifikatsiya
Murabbiyning chetlashtirilishi	Udaleniye trenera

5. Yuqorida qayd etilgan vaziyatlarning tafsilotlarini bayon-nomaning ostiga yozing. Agar joy yetarli bo‘lmasa, “Orqa tomonga qarang” deb belgi qo‘yib, bayon-nomaning orqasiga yozish mumkin.

Geymning yakuni

1. Geym hisobini yozing va uni ochkolardan qiyshiq chiziq bilan ajratib qo‘ying.

2. Bayon-nomaning yuqori qismiga geymdagi to‘liq hisobni yozing.

3. Har bir geym boshlanishida oshiruvchi va qabul qiluvchi o‘yinchi familiyasi qarshisiga O belgisini qo‘ying.

4. Keyingi geym uchun P va R ni qayd qiling.

Matchning yakuni

1. Yakunlangan geymning hisobini yozing va belgilab qo‘ying.

2. Match yakunlangan vaqtini qayd eting.

3. Bayon-nomaning yuqori qismidagi kataklarga oxirgi (ikkinchi yoki uchinchi) geymdagi hisobni yozing.

4. Bayonnomaning yuqori qismida g‘olib chiqqan o‘yinchining (o‘yinchilarning) ismi sharifini (ismi shariflarini) belgilab qo‘ying.

Match yakunlanganidan keyin

1. Matchning davomiyligini hisoblang va yozib qo‘ying.
2. To‘ldirilgin bayonnomani imzolang.
3. Bayonnomaga bosh hakamga ham imzo qo‘ydirib, kobilbiyatga topshiring.

Badmintonchi Kodeksi

Badminton o‘yining rasmiy qoidalaridan tashqari badmintonchining axloq kodeksi ham mavjud. U o‘yinchilarning kortdagi o‘zaro munosabatlarining umum qabul qilingan tartibi bo‘lib, o‘yin davomida odobsizlik holatlari ro‘y berishining oldini olishga, do‘stona munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, hakamsiz o‘tkaziladigan havaskorlik bahslarida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, o‘yin boshanishi oldidan raqiblar o‘zaro tanishadilar: bir-birlarining qo‘llarini siqib o‘z ismi shariflarini aytishadi. O‘yin davomida begona gap-so‘zlar va xatti-harakatlarga chalg‘imaydilar, qo‘pol va odobsiz so‘zlarni ishlatmaydilar. Oshirish raqibga o‘tganda, volanni uning qo‘liga qulay tarzda tashlab berishga harakat qilishadi. Har qanday bahsli vaziyatlarda nizoni ochkonи qayta o‘ynash bilan hal qilishga intiladilar. Hakamlar bo‘limgan o‘yinda hisobni volanni oshiruvchi o‘yinchi o‘zining oshirishini bajarishdan oldin baland ovozda e’lon qiladi. Match yakunlanganidan keyin uning ishtirokchilari sheriklari va raqiblariga yaxshi o‘yin ko‘rsatishgani uchun minnatdorchilik bildirishadi hamda uchrashuvni qo‘lni siqib xayrashish bilan yakunlashadi.

O‘yindagi bahsli holatlar

O‘yinda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ayrim bahsli vaziyatlar va badmintonchilarning maydonchadagi xatti-harakatlari.

Agar o‘yin paytida volan to‘rga tegib raqib tomonga o‘tsa, oshirish to‘g‘ri bajarilgan hisoblanadi. Agar volan chegara chizig‘i

tashqarisidan to‘rni kesib o‘tsa hamda maydoncha ichiga tushsa, xato hisoblanmaydi.

Agar o‘yinchi to‘rdan yuqorida turgan volanga har qanday zarba berayotgan bo‘lsa, raqib raketkasi bilan blok qo‘ymasligi kerak. U faqat yuzini to‘sish uchun raketkasini ko‘tarishi mumkin, faqat bunda u raqibiga xalaqit bermasligi zarur.

Volanni oshirish paytida qabul qiluvchi o‘yinchi hali volanni qabul qilishga tayyor bo‘lmasa, chap qo‘lini kaftini ochgan holda raqib tomonga qaratib baland ko‘taradi. Bu vaziyatda to qabul qiluvchi chap qo‘lini pastga tushirmaguncha oshirish bajarilmaydi. Ammo, shu bilan birga, u musobaqalar tartibi va qoidalari ni buzmasligi hamda volanni oshirishga tayyorlanish va uni oshirish uchun ajratilgan vaqt dan ortiq ushlab turmasligi kerak.

6.4. Musobaqalarni o‘tkazish chizmasi. Aylanma tartibdagи musobaqalar

Musobaqalarni aylanma tartibda o‘tkazishning mohiyati shundaki, unda har bir sportchi boshqa barcha badmintonchilar bilan navbatma-navbat o‘ynab chiqadi. Eng ko‘p g‘alabaga erishgan ishtirokchi musobaqa g‘olibi bo‘ladi.

Agar ishtirokchilar soni juda ko‘p bo‘lsa, ular bir nechta guruhlarga bo‘linadi. Guruhlarga bo‘lish kuchlilarni bo‘lib chiqish yo‘li bilan qur‘a tashlash orqali amalga oshiriladi. Har bir guruhda o‘yinlar aylanma tartibda o‘tkaziladi. Shundan so‘ng guruhlarning g‘oliblari yana o‘zaro aylanma tartibda o‘ynab, o‘zaro o‘rinnlarni aniqlashadi.

Aylanma tartibdagи musobaqalarda olingan o‘rin yutilgan uchrashuvlar soniga qarab aniqlanadi.

Agar ishtirokchilardan ikki nafari bir xil yutuqlar soniga ega bo‘lsa, o‘zaro uchrashuvda g‘alaba qozongan sportchi yuqoriroq o‘rinni egallaydi.

Agar uch va undan ortiq ishtirokchi bir xil yutuqlar soniga ega bo‘lsa, ular o‘rtasida o‘rinnlar mazkur ishtirokchilarning barcha uchrashuvlardagi yutuqlari va mag‘lubiyatlarining eng yaxshi farqiga qarab taqsimlanadi.

Agar shundan keyin ham ikki nafar ishtirokchi teng kelib qolsa, o‘zaro uchrashuvda g‘alaba qozongan sportchi yuqoriroq o‘rinni egallaydi.

Agar uch va undan ortiq ishtirokchi bir xil yutuqlar soniga ega hamda barcha uchrashuvlardagi yutuqlari va mag‘lubiyatlari ham teng bo‘lsa, mana shu ishtirokchilarning o‘zaro uchrashuvlarida yutuqlari va mag‘lubiyatlari soni eng yaxshi farqqa ega bo‘lgan sportchiga ustunlik beriladi.

Agar shundan keyin ham ikki nafar ishtirokchi teng kelib qolsa, o‘zaro uchrashuvda g‘alaba qozongan sportchi yuqoriroq o‘rinni egallaydi.

Agar barcha hisob-kitoblardan keyin uch va undan ortiq ishtirokchi bir xil natijaga ega bo‘lib qolsa, ular o‘rtasida o‘rinlar qur‘a tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Jamoaviy bahslarda ikkita jamoada g‘alabalar soni bir xil bo‘lib qolsa, o‘zaro uchrashuvda g‘alaba qozongan jamoa yuqoriroq o‘rinni egallaydi.

Agar uch yoki undan ortiq jamoalarda yutuqli o‘yinlar soni bir xil bo‘lsa, ular o‘rtasida o‘rinlar mazkur jamoalarning barcha uchrashuvlardagi yutuqlari va mag‘lubiyatlarining eng yaxshi farqiga qarab taqsimlanadi. Agar shundan keyin ham ikki jamoa teng kelib qolsa, ular o‘rtasidagi o‘zaro uchrashuvda g‘alaba qozongan jamoa yuqoriroq o‘rinni egallaydi.

4-jadval

Aylanma tartibdagisi musobaqaning namunaviy jadvali

F.I.O								Jami	O‘rin

Chiqib ketish tartibidagi musobaqalar

Yakkalik va juftlik bahslarida musobaqalarni chiqib ketish tartibida o'tkazishning mohiyati shundan iboratki, o'yinchi (jamoa) birinchi mag'lubiyatdan keyin musobaqani tark etadi. Natijada birorta ham uchrashuvda mag'lubiyatga uchramagan ishtirokchi g'olib bo'ladi. Jamoaviy bahslarda o'yin g'olibi aniqlanishi bilan match to'xtatiladi.

Ishtirokchilar o'yin jadvaliga kuchli badmintonchilar (reyting yoki boshqa ko'rsatkich bo'yicha) ro'yxati asosida kiritiladi. Imkon qadar ikki kuchli ishtirokchi qur'a tashlash paytida jadvalning turli qismlariga tushishiga harakat qilish kerak.

Agar musobaqada ishtirok etishni istovchilar soni turnirning asosiy jadvalidagi o'rnlardan ko'p bo'lsa, kvalifikatsiya turnirini o'tkazish tavsiya qilinadi. Bu holatda musobaqa to'g'risidagi Nizom yoki tashkiliy qo'mitaning qarori bilan kvalifikatsiya turnirida qatnashishga ruxsat beriladigan ishtirokchilar soni belgilanadi. Kvalifikatsiya turniri jadvali ham asosiy musobaqa jadvali kabi shakllantiriladi. Agar kvalifikatsiya turniri ishtirokchilarning jadvalda joylashuvi qur'a tashlash yo'li bilan aniqlanadigan bo'lsa, bitta tashkilot vakillarini tarqatib yuborish zarur bo'lmaydi. Kvalifikatsiya turnirida asosiy turnirda qatnashish huquqini qo'lga kiritadigan ishtirokchilar soni asosiy turnir ishtirokchilarining sakkizdan biridan oshmasligi zarur. Agar buning iloji bo'lmasa, turnirni ikki bosqichda o'tkazish tavsiya qilinadi, ya'ni: dastlabki bosqichda ishtirokchilarning oldindan belgilangan soni aniqlab olinadi; asosiy bosqichda esa kuchli ishtirokchilar safiga kvalifikatsiya bosqichidan o'tgan qatnashchilar qo'shiladi.

Agar asosiy yoki kvalifikatsiya turnirida bo'sh joylar soni ishtirokchilar sonidan ortiq bo'lsa, bo'sh joy qur'a tashlash yo'li bilan to'ldiriladi.

Aralash tartibda o'tkaziladigan musobaqalar

Musobaqalarni aralash tartibda o'tkazishning mohiyati shundan iboratki, dastlab ishtirokchilar, masalan, ikki yoki uchta turni chiqib ketish tartibida o'tkazishadi, keyin esa har bir turda yutqazgan va yutgan ishtirokchilardan alohida guruhlar tuziladi. Ushbu tuzilgan sakkizliklar (to'rtliklar) aylanma tartibida tegishli

o'rirlarning (jumladan, sovrinli o'rirlarning ham) egalarini aniqlashadi.

Kichik guruhlarda aylanma tartibida musobaqalarni o'tkazib, keyin ana shu kichik guruhlar g'oliblari (yoki birinchi va ikkinchi o'rirlar sohiblari) o'rtasida chiqib ketish tartibida musobaqalarning final bosqichi o'tkazilib, turnirdagi yakuniy o'rirlar taqsimlanadi.

Aylanma tartibdagi (shu jumladan, kichik guruhlarda) musobaqalarda Bosh hakam kasallik/jarohat yoki boshqa kutilmagan va bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat tufayli musobaqani tark etayotgan ishtirokchini boshqasi bilan almashtirishga ruxsat berishi mumkin. Buning uchun ushbu ishtirokchi hali birinchi uchrashuvini boshlamagan bo'lishi kerak, agar uchrashuv boshlangan bo'lsa, almashtirishning imkonini bo'lmaydi.

6.5. Musobaqa turlari va uni tashkil qilish

5-jadval

Qatnashuvchilarning soni juft (8 kishi) bo'lgan musobaqa jadvali

1-kun	2-kun	3-kun	4-kun	5-kun	6-kun	7-kun
1-2	1-3	1-4	1-5	1-6	1-7	1-8
8-3	2-4	3-5	4-6	5-7	6-8	7-2
7-4	8-5	2-6	3-7	4-8	5-2	6-3
6-5	7-6	8-7	2-8	3-2	4-3	5-4


6-jadval

Qatnashuvchilarning soni toq (9 kishi) bo'lgan musobaqa jadvali

1-kun	2-kun	3-kun	4-kun	5-kun	6-kun	7-kun	8-kun	9-kun
1-2	1-3	1-4	1-5	1-6	1-7	1-8	1-9	1-0
0-3	2-4	3-5	4-6	5-7	6-8	7-9	8-0	9-2
9-4	0-5	2-6	3-7	4-8	5-9	6-0	7-2	8-3
8-5	9-6	0-7	2-8	3-9	4-0	5-2	6-3	7-4
7-6	8-7	9-8	0-9	2-0	3-2	4-3	5-4	6-5


7-jadval

8 qatnashchi uchun davra jadvali




8-jadval

12 qatnashchi uchun davra jadvali




11 qatnashchi uchun davra jadvali



12 qatnashchi uchun davra jadvali

(ikkinchchi usul)



4 tadan 64 tagacha qatnashchi uchun davra jadvali

Qatnashchilarning umumiy soni	2-davradan boshlab o‘ynaydigan o‘yinchilar soni			Qatnashchilarning umumiy soni	2-davradan boshlab o‘ynaydigan o‘yinchilar soni		
	Hamma o‘yinchilar	Shu jumladan	Yugoridan		Hamma o‘yinchilar	Shu jumladan	Pastdan
4	4	-	-	-	35	6	29
5	2	3	1	2	36	8	28
6	4	2	1	1	37	10	27
7	6	1	-	1	38	12	26
8	8	-	-	-	39	14	25
9	2	7	3	4	40	16	24
10	4	6	3	3	41	18	23
11	6	5	2	3	42	20	22
12	8	4	2	2	43	22	21
13	10	3	1	2	44	24	20
14	12	2	1	1	45	26	19
15	14	1	-	1	46	28	18
16	16	-	-	-	47	30	17
17	2	15	7	8	48	32	16
18	4	14	7	7	49	34	15
19	6	13	6	7	50	36	14
20	8	12	6	6	51	38	13
21	10	11	5	6	52	40	12
22	12	10	5	5	53	42	11
23	14	9	4	5	54	44	10
24	16	8	4	4	55	46	9
25	18	7	3	4	56	48	8
26	20	6	3	3	57	50	7

11-jadval davomi

27	22	5	2	3	58	52	6	3	3
28	24	4	2	2	59	54	5	2	3
29	26	3	1	2	60	56	4	2	2
30	28	2	1	1	61	58	3	1	2
31	30	1	-	1	62	60	2	1	1
32	32	-	-	-	63	62	1	-	1
33	2	31	15	16	64	64	-	-	-
34	4	30	15	15	-	-	-	-	-

Qatnashchilar soni 8, 16, 32 va 64 lardan kam bo‘ladigan hollarda bo‘sh joylarni aniqlash uchun 9-jadvaldan foydalanishni tavsiya etamiz. Bu jadvalda qatnashchilar soni 5, 9, 17 va 33 tadan bo‘lgan musobaqalar uchun bo‘sh joylar berilgan. Masalan, musobaqalarda 61 kishi qatnashadi deylik, demak, uchta o‘rinni bo‘sh qoldirmoq kerak. Jadvalga muvofiq bular birinchi uchta – 2;63 va 34 raqamlaridir.

12-jadval

Qantash-chilar soni	Jadval quyidagiicha qatnash-chilarga mo‘ljallab tuzilgan	Bo‘sh raqamlar
33	64	2,63,34,31,18,47,50,15,10,55,42,23, 26,39,58,7,5,59,38,27,22,43,54,11, 14,51,46,19,30,35,62
17	32	2,31,18,15,10,23,26,7,6,27,22, 11,14,19,30
9	16	15,10,7,6,11,14,
5	8	2,7,6,

Jadvaldagagi bo‘sh joylarga qo‘srimcha qatnashchilar kiritish zarur bo‘lib qolgan hollarda ular pastki bo‘sh joylardan boshlab yoziladi. Yangi kiritilayotgan qatnashchilardan birinchisi eng quyi bo‘sh joyga, ikkinchisi esa uning tepasidagi va hokazo yoziladi.

Masalan, 12 qatnashchi uchun tuzilgan jadvalga yangi kiritilayotgan qatnashchilarining birinchisi 7-, ikkinchisi 10-, uchinchisi 15- va to'rtinchisi 2-raqamga yoziladi.

Yutqazganlarni chiqarib yuborish yo'li bilan o'tkaziladigan musobaqalarda umumiy uchrashuvlar soni qatnashchilar sonidan bitta kam bo'ladi.

Musobaqalarni shu tarzda o'tkazish uchun zarur bo'ladigan kunlar soni, agar har bir qatnashchi bir kunda bir marta o'ynasa, qatnashchilarining umumiy soniga mos ikkining daraja ko'rsatkichiga yoki, agar qatnashchilar soni ikkini biror darajaga ko'targanda hosil bo'ladigan songa teng kelmasa, ikkining eng yaqin yuqori daraja ko'rsatkichiga barobar bo'ladi. Masalan, qatnashchilar soni 16 ga teng bo'lganda ham, 11 ga teng bo'lganda ham, musobaqalarni o'tkazish uchun to'rt kun (2^4) kerak bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Maydon, ustun, raketka o'lchamlari va volanning og'irligi.
2. O'yin usullarini ijro etishdagi xatolar.
3. Hisobni olib borilishi, geym va setlar oralig'ida beriladigan tanaffuslar.
4. Hakamlarning vazifalari.
5. Musobaqa Nizomi va uni tashkil qilish tartibi.
6. Musobaqani tashkil qilish tizimlari: aylanma, chiqib ketish va aralash tizimlar mohiyati.

VII BOB. O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH USLUBIYATI

7.1. O'rgatishning umumiy asosları

Sport amaliyotida dastlabki o'rgatish jarayoni ko'p yillik sport trenirovkasining fundamental bosqichi bo'lib, ushbu bosqichda o'rgatish uslublari va vositalaridan to'g'ri foydalanish keyingi bosqichlarda sport mahoratini samarali shakllanishiga imkon yaratadi.

Dastlabki o'rgatish jarayonini rejalashtirish va tashkil qilishda bolaning ontogenetik hamda biopsixologik xususiyatlari e'tiborga olinishi zarur. Boshqacha qilib aytganda, dastlabki o'rgatish jarayonida o'tkaziladigan mashg'ulotlar yuklamalari shug'ullanuvchi bolalarning jismoniy va funksional imkoniyatlariga qarab me'yorlanishi va qo'llanilishi lozim. Ma'lumki, harakat (yuklama) hajmi va shiddati inson salomatligi, uning jismoniy va funksional shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Lekin barcha harakat turlari, jumladan, sport to'garaklarida ijro etiladigan jismoniy va texnik-taktik mashqlar hajmi hamda shiddati shug'ullanuvchining funksional imkoniyatlariga mos kelishi yoki hiyolgina yuqori bo'lishi lozim. Chunki biologiya fanida azaldan o'z isbotini topgan qonuniyatlarga ko'ra, ontogenetik taraqqiyotning muayyan bosqichlarida bajariladigan kundalik jismoniy yuklamaning (nagruzka) yalpi ta'sir "kuchi" organizmning funksional imkoniyatlaridan doimo yuqori bo'lsa, shu organizmda (organlar, mushaklar, tomirlar, hujayralar, to'qimalar, yurak, o'pka, taloq, jigar va h.k.) zo'riqish yoki tez toliqish alomatlari paydo bo'ladi. Bunday salbiy "izlar" odamning, ayniqsa, bolaning odatiy funksional faoliyatini izdan chiqaradi, kayfiyatni tushiradi, uyquni buzadi, piravordida ish qobiliyatini susaytiradi va uni to'liq tiklanishiga to'sqinlik qiladi. Agar shunday yuklamalar ustunligi bola faoliyatida surunkali qaytarilib tursa, organizmning nafaqat normal o'sishiga ta'sir etishi mumkin, balki ushbu yuklamalar ustunligi turli funksional "obyekt"larda lokal yoki global patologik

asoratlar paydo bo‘lishiga olib kelishi ehtimoldan holi emas. Aksincha, kundalik yoki yalpi mashg‘ulot yuklamalari hajmi va shiddati funksional imkoniyatdan past bo‘lsa, jismoniy sifatlarning shakllanishi susayadi, ish qobiliyati kuchaymaydi. Binobarin, kundalik yoki yalpi yuklamalar, shu jumladan, jismoniy tarbiya darslari va trenirovka mashg‘ulotlariga oid yuklamalarni bolalarning yoshi, jinsi, jismoniy va funksional imkoniyatlariga qarab “to‘lqinsimon” prinsipda oshirib borish darkor. Demak, bolalar sportiga oid mashg‘ulotlarni tashkil qilishda pedagogik va tibbiy nazoratga asoslanish sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash jarayonining ajralmas qismidir. Shunday ekan, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar (jismoniy tarbiya darsi, trenirovka mashg‘uloti, sport musobaqalari) mazmunini maqsadli rejalashtirish va boshqarish har bir mutaxassis (o‘quituvchi, murabbiy, tashkilotchi, uslubchi, yo‘riqchi) va rahbar shaxsga katta mas’uliyat yuklashi, ular jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik va sport masalalariga oid bilimlarni o‘zlashtirishlari, muvofiq kasbiy-pedagogik malaka va ko‘nikmalarni puxta egallashlari zarurligi isbot talab qilmaydi.

Alovida e’tibor qaratish muhimki, bolalar sportini samarali tashkil qilish, ko‘p yillik sport trenirovkasi jarayonida shug‘ullanuvchilar sog‘ligi va ularning sport mahoratini shakllantirib borish ustuvor jihatdan jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlariga bog‘liqdir.

Jismoniy tayyorgarlik va uning salohiyatini ifoda etuvchi kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik kabi sifatlar ilmiy obyekt sifatida azaldan ko‘pdan-ko‘p tadqiqotchi olimlar diqqatini jalg qilib kelgan. Ularning tadqiqotlarida jismoniy sifatlarning mohiyati, mazmuni, ularni jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa jarayonlardagi ahamiyati va rivojlantirish muammolari atroficha yoritilgan.

Ushbu muammolarni turli yoshdagi o‘quvchi yoshlar va bolalar sporti misolida o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar natijalari ham talaygina ilmiy nashrlarda o‘z ifodasini topgan.

Ta’kidlash joizki, jismoniy tarbiya va sport turlari nazariyasi va uslubiyati bo‘yicha nashr etilgan darslik hamda qo‘llanmalarda

jismoniy tayyorgarlik tushunchasi – bu muayyan kasbiy faoliyat yoki sport turida ma'lum jarayon samaradorligini belgilab berish darajasida shakllangan tayyorgarlik – ish qobiliyati, harakat sifatlari, malakalari va ko'nikmalarining integral ifodasini anglatadi.

Sport amaliyotida (kasbiy amaliyotda ham) jismoniy tayyorgarlik, odatda, ikki bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lган – umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik turlariga bo'linadi.

Hayot davomida inson sog'lig'i, uning aqliy va jismoniy faolligi, ko'p yillik sport trenirovkasi davomida sport mahoratining shakllanib borishi, ustuvor jihatdan shu ikki tayyorgarlik turlari mazmuni va darajasi bilan belgilanadi.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida qo'yiladigan asosiy maqsad – sog'liqni mustahkamlash hamda yuqori sport natijalariga erishish avvalambor yoshlikdan boshlab umumiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish muhimligiga e'tibor qaratadi. Aksariyat olimlarning ta'kidlashicha, muayyan sport turi bo'yicha muntazam o'tkazib boriladigan hamda hajm, shiddat va mazmun jihatdan to'g'ri tashkil qilingan mashg'ulotlar bolalar va o'smirlar organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Lekin umumiy jismoniy tayyorgarlikka asoslangan va tor doirada ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlar salbiy oqibatlarga olib kelishi kuzatilgan. Binobarin, dastlabki o'rgatish bosqichida jismoniy va texnik-taktik mashqlar nisbatini to'g'ri rejalashtirish – bolalar sport mahoratini samarali shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

7.2. Dastlabki o'rgatish va uning mohiyati

Sport malakalariga dastlabki o'rgatish jarayoni ko'p yillik sport tayyorgarligi tizimining poydevori bo'lib hisoblanadi. Dastlabki o'rgatish o'z tashkiliy, uslubiy, ilmiy va moddiy-texnika nuqtayi nazaridan qanchalik puxta asoslangan hamda sifatli bo'lsa, shunchalik sport o'rinnbosarlarini tayyorlash yo'li qisqaroq va osonroq bo'ladi. Ammo bu, albatta, mutaxassisning bilimiga, kasbiy ko'nikma va malakalariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun mutaxassislarini tayyorlashga mo'ljallangan o'quv dasaturining eng e'tiborli va asosiy bo'limlaridan biri boshlang'ich o'rgatish uslubiyati (texnologiyasi) bo'lib hisoblanadi. Musobaqa

jarayonida samarali natijaga erishishning asosiy shart-sharoitlaridan biri – bu badmintonchining texnik tayyorgarligi, taktik mahorati takomillashgan darajada bo‘lishidir. Demak, o‘rgatish jarayonining dastlabki va asosiy maqsadi – bu o‘yin texnikasini mukammal o‘zlashtirishdir.

Harakat – (o‘yin) malakalari – to‘pni uzatish, qabul qilish (himoya), to‘pni o‘yinga kiritish, zarba berish, to‘sinq qo‘yish – belgilangan bosqichlarda, ma’lum uslublar va vositalar yordamida o‘zlashtiriladi, mukammallashtiriladi, takomillashtiriladi. Mazkur jarayon pedagogik, biopsixologik va biomexanik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi.

O‘rgatish jarayoni – bu pedagogik jarayon bo‘lib, trener-o‘qituvchidan katta mahorat, kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Lekin shunday bo‘lsa-da, harakatni (o‘yin malakasini) ijro etish texnikasiga o‘rgatish boshqa ahamiyatli sabablarga ham bog‘liqdir: bolaning faolligi, mashg‘ulotlarning soni, sifati, davom etish muddati, yordamchi texnik uskunalar, mashg‘ulot o‘tkaziladigan joyning shart-sharoitlari, bolaning qiziqishi, harakat “boyligi”, tajribasi va hokazo.

Shuni ham aytish zarurki, harakat texnikasini o‘zlashtirish muddati bolaning oilaviy sharoitiga, uning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatiga hamda ruhiy holatiga ham bog‘liqdir.

Yuqorida keltirilgan ma’lumot va o‘rgatish jarayonida e’tiborga olinadigan omillar ma’lum uslubiy tartibda asoslangan rejulashtiruv hujjatlaridan joy olishi kerak. Bundan tashqari, bolaning ichki «sirlisi» imkoniyatlarini hamda mavjud omillarni aniqlash tanlov dasturi va mashqlari yordamida amalga oshirilishi zarur. Olingan natijalar o‘rgatish uslublarini, bosqichlarini va texnologiyasini qo‘llashda tayanch omil bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Dastlabki o‘rgatish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi va bu bosqichlarni har biri o‘ziga xos uslub va vositalarni o‘z ichiga oladi.

Umumiyo rivojlantiruvchi mashqlar o‘yinchida jismoniy barkamollik va o‘yinchilarning zarur bo‘lgan harakat ko‘nikmalari va malakalarini sayqallash uchun qo‘llaniлади.

Barcha mashqlar o‘z yo‘nalishiga mos ravishda birlashgan holda mashq qilishning maxsus tayyorgarligi asosiy qismlarini

tashkil etadi: umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik, o‘yin tayyorgarligi. Har bir tayyorgarlik turida o‘zining yetakchi omillari borki, ular yordamida ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Shu bilan birga, barcha turdagи tayyorgarliklar bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Misol uchun agar o‘quvchi jismoniy yaxshi tayyorlanmagan bo‘lsa, u hujumda zarba berish texnik mashqini yaxshi bajara olmaydi. Bunday holda o‘quvchini jismoniy tomondan chiniqtirish, zarba berish usulini ko‘p marta takrorlashdan ko‘ra foydaliroqdir.

7.3. Dastlabki o‘rgatish jarayonining bosqichlari va uslublari

Birinchi bosqich – o‘rganiladigan harakat texnikasi bilan tanishish. Bunda, aytib berish, ko‘rsatish va tushuntirish uslublari qo‘llaniladi. O‘qituvchi shaxsan ko‘rsatish bilan birga ko‘rgazmali qurollardan foydalanadi, bular: kinofilm, tasviriy film, sxema, maydon maketi va hokazo.

Namoyishni tushuntirishlar bilan qo‘sib olib borish kerak. O‘qituvchilarning dastlabki urinislari o‘quvchilarda birlamchi harakat sezgisini shakllantiradi.

Ikkinci bosqich – texnikani soddalashtirilgan (oddiylashti-
rilgan) holatda o‘rganish. Mazkur o‘rganish bosqichida muvaf-
faqiyat ko‘p holatlarda yondoshtiruvchi mashqlarning to‘g‘ri
tanlanganligiga bog‘liqdir. Ular o‘zining tuzilishi shakliga ko‘ra,
o‘rganilayotgan harakat texnikasiga yaqin va o‘quvchilar bajara
oladigan bo‘lishi kerak. Murakkab tuzilishga ega bo‘lgan harakat
(hujum zarbasi) uni tashkil qiluvchi asosiy zvenolarga (qismlarga)
ajratib beriladi. Bu bosqichda boshqarish uslublaridan foydala-
niladi (buyurish, ko‘rsatma berish, ko‘rish va eshitish, ko‘rib
ilg‘ash, texnik vositalar va hokazo) hamda ko‘rgazmali harakat
(o‘qituvchining bevosita yordami, yordamchi jihozlarni qo‘llash),
axborot (to‘pga bo‘lgan zarba kuchi, tushish aniqligi, yoruglik yoki
ovozni belgilash) kabi uslublar alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Uchinchi bosqich – texnikani murakkablashtirilgan sharoitda
o‘rgatish. Bunda quyidagilar qo‘llaniladi: takroriy usul, harakatni
murakkab sharoitlarda bajartirish, o‘yin va baholash uslubi,
qo‘shma uslub, “davra aylana” mashqlari. Takrorlash uslubi bu

bosqichda eng asosiyidir. Ko‘p marotaba takrorlashgina malakani shakllantiradi. Małaka hosil qilish uchun takrorlash turli sharoitlarda mashq bajarishni (harakat sharoitini o‘zgartirishni, asta-sekin murakkablashishni) taqozo etadi. Hattoki charchaganda ham mashqlar bajartiriladi, qo‘shma va o‘yin uslublari bir vaqtini o‘zida texnikani sayqallashtirishga hamda maxsus jismoniy sifatlarni o‘stirish masalalarini hal qilishga hamda texnik-taktik tayyorgarlik va o‘yin mahoratini takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

To‘rtinchı bosqich – harakatni o‘yin jarayonida mustahkamlashni ko‘zda tutadi. Bunda bajarilgan harakatlarni talqin qilish uslubi (rasmlar, jadvallar, o‘quv filmlari, tasviriy filmlar), o‘yin jarayonida texnik-taktik, maxsus tayyorgarlik topshiriqlari, o‘yin va “bellashish” usullari qo‘llanadi.

Tayyorgarlik va o‘quv o‘yinlarida har bir usulni (malakani) o‘rganish, uni takomillashtirish va mukammallashtirish ko‘zda tutiladi. Malakani mustahkamlashning eng yuqori vositasi – bu musobaqalashishdir.

O‘qitish (o‘rgatish)da faol uslublar katta imkoniyatlarga egadir. Ularning orasida – muammoli o‘qitish (muammoli vazifalarni qo‘yish) va o‘zining o‘zlashtirishini baholash uslubi alohida ahamiyatga ega. Muammoli vazifalarni qo‘yish, uning yechimini qidiruvchi holatni, vaziyatni vujudga keltiradi, o‘zini baholash esa harakatlanish faoliyatini yana ham faollashtirishga olib keladi, bu o‘quvchi qiziqishini yana ham orttiradi hamda ijodiy fikrlashga o‘rgatadi.

7.4. O‘rgatish vositalari va trenirovka

Badmintonda ham boshqa sport turlari kabi o‘rgatishning asosiy vositasi jismoniy mashqlar hisoblanadi. Ular juda turlitumandir. Shuning uchun ular ma’lum bir o‘rgatish bosqichidagi qo‘ylgan vazifalarni hal etishdagi o‘rni bo‘yicha turkumlanadi. Bunday turkumlanishga badmintonchilarning musobaqa faoliyati asos qilib olingan. Shunga bog‘liq holda mashqlar ikki katta guruhga ajratiladi: asosiy yoki musobaqa va yordamchi yoki trenirovka.

Musobaqa mashqlari badmintonga xos bo'lgan ixtisos-lashtirilgan mashqlardir. Bunda texnik usullar va taktik harakatlar musobaqa sharoitidagi o'yin holatlariga mos holda bajariladi.

Trenirovka mashqlari asosiy malakalarni egallahshni yengil-lashtirish, tezlashtirish va ularni qo'llash samaradorligi, ishonch-lilagini ta'minlashga qaratilgandir. Ular maxsus va umumrivoj-lantiruvchi mashqlardan tashkil topadi.

Maxsus mashqlar ikki guruhgaga bo'linadi: tayyorgarlik mashqlari; yaqinlashtiruvchi mashqlar. Tayyorgarlik mashqlaridan asosan maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalashda foydalaniladi. Yaqinlashtiruvchi mashqlardan aniq texnik harakatlarni egallahsga qaratilgan jarayonda foydalaniladi.

Umumrivojlantruvchi mashqlardan asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalash hamda zarur jismoniy harakat ko'nikma va malakalarini takomillashtirishda foydalaniladi.

Barcha mashqlar o'zining yo'naliishiga qarab trenirovkalarning tarkibiy qismiga kiritiladi. Bu tayyorgarliklar quyidagilardir: umumi jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik va integral (yaxlit o'yin). Har bir tayyorgarlik turining o'ziga xos yetakchi vositalari mavjud bo'lib, ular yordamida maxsus vazifalar yechiladi. Shu bilan birga, bir tayyorgarlik turiga oid bo'lgan mashqlar boshqa tayyorgarlik turidagi mashqlar bilan yaqindan bog'langan bo'ladi. Masalan, shug'ullanuvchida tezkorlik-kuch sifati zarur darajada rivojlanmagan bo'lsa, u hujum zarbasi berish texnikasini bajara olmaydi. Bu holda tezkorlik-kuch sifatini rivojlantirishga oid mashqlarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki hujum zarbasini takrorlash hajmini oshirish bu holda samara bermaydi.

Badminton harakatlarini o'rgatishda vositalarning samarasini ko'p hollarda ularni qo'llash uslublariga bevosita bog'liq bo'ladi. Uslublar qo'yilgan vazifa, shug'ullanuvchilarining tayyorgarlik darajasi, aniq shart-sharoitlarga bog'liq holda tanlanadi va qo'llanadi.

Qo'yilgan vazifaga bog'liq ravishda aynan bir vositani turli uslublarda qo'llab, undan turlicha foydalanish mumkin. Bundan tashqari, har bir tayyorgarlik turida vazifalar va turlarning ketma-ketligi ham ma'lum mantiqiy bog'liqlikka egadir.

Bir tayyorgarlik turidagi vazifalar sifat jihatidan o‘zgarib, keyingi tayyorgarlik turiga zamin yaratadi. Masalan, tayyorgarlik mashqlari o‘rganilayotgan texnik usulning umumiy tuzilishini ifoda etadi. Yondashtiruvchi mashqlar maxsus jismoniy tayyorgarlikdan texnik tayyorgarlikka o‘tishda ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ma’lum darajadagi murakkablik asosida qurilgan texnik mashqlar taktik ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu asosda keyinchalik yakka tartibdagi taktik harakatlar o‘rganiladi.

Badmintondagи asosiy harakatlanish – bu yurish, yugurish, yonga qadam tashlab yugurish, orqa bilan, qadam tashlab to‘xtash, sakrashdan iboratdir. Ko‘p hollarda harakatlanishlar qiyin emas deb izohlanib, ularga yetarli e’tibor berilmaydi. Bu esa noto‘g‘ri fikrdir. Chunki o‘yinchining turli harakatlarni bajarishi uchun holat va joy tanlashi bajariladigan harakatning samarasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Shuning uchun harakatlanishlarni o‘rgatishga katta e’tibor qaratish zarur.

Umumrivojlantiruvchi mashqlar. Bunga yugurishlar va harakatli o‘yinlar kiradi: to‘g‘ri yo‘nalishda yugurishlar, tizzani yuqoriga ko‘tarib yugurish, sakrab-sakrab yugurishlar, boldirni orqaga siltab yugurishlar, orqa tomon bilan yugurishlar, yo‘nalishni o‘zgartirib yugurishlardan foydalaniladi. Mashqlarni bajarish vaqtida qo‘llar tirsak qismidan bukilgan ‘bo‘lib, harakatlanishga faol yordam berishi kerak. Depsinishdan so‘ng oyoqlarning to‘g‘rilanishiga erishish zarur. “Kun va tun”, “Raqamlarni chaqirish”, “Olib ketishga intil” va boshqa shu kabi harakatli o‘yinlardan foydalaniladi.

Tayyorlov mashqlari. Tayyorlov mashqlari o‘zining ta’siriga qarab diqqat va javob harakat reaksiyalarining tezkorligi va ayrim harakatlar tezkorligini rivojlantiruvchi mashqlarga ajratiladi. Birinchi guruhdagi mashqlarga eshitish va ko‘rish signallari bo‘yicha harakatlanish mashqlari kiradi. Mashqlarni berishda «oddiydan – murakkabga» tamoyiliga rioya qilish kerak. Masalan, trenerning signaliga asosan, tezlikni o‘zgartirmasdan harakat yo‘nalishini o‘zgartirgan holda harakatlanish yoki aksincha bajarish mumkin. Mashqni o‘zlashtirish darajasiga qarab, ular turli usulda qo‘sib olib boriladi.

Namunaviy mashqlar

1. Qisqa masofalarga turlicha dastlabki holatlardan yugurish: start chizig‘iga orqa bilan cho‘qqayib qo‘llarga tayanib yotgan holda. Harakatning boshlanishi bo‘lib trenerning to‘pni yuqoriga tashlashi, qo‘lini yon tomonga, yuqoriga ko‘tarishi va hokazo harakatlari xizmat qiladi.

2. 10-20 metrli oraliqlarga maksimal sur’atda yugurish; «archa», «mokisimon yugurish» lar.

3. Ko‘rish va eshitish signallariga javoban tezlikni o‘zgartirib yugurishlar. Masalan, sekin yugurish: signal bo‘yicha – tezlashish, to‘p yuqoriga tashlanganda – sekin yugurish, to‘p ilib olinganda – to‘xtash, to‘p yerga urilganda – tezlanish.

4. Ko‘rish va eshitish signallariga javoban harakat yo‘nalishini o‘zgartirib yugurishlar. Masalan, o‘rtacha sur’atda yugurish: keskin signal – yo‘nalishga qarshi yugurish, ikkita signal – yo‘nalish bo‘yicha yugurish, chapak – chapga yugurish va shu kabilar.

Umumrivojlantiruvchi mashqlar

1. Qo‘llarni oldinga, yonga, yuqoriga qilib qo‘l panjalarini bukib-yozish.

2. Badminton (rezinka) to‘plarini ezish.

3. Devorga kaft va barmoqlar bilan tiralgan holda itarilishlar.

4. Qo‘llarga yotib tayangan holda bukib-yozishlar.

5. Basketbol, futbol to‘plarini yerga urib olib yurishlar.

6. Basketbol, futbol to‘plarini bir qo‘l bilan devor tomon irg‘itish.

7. To‘ldirma to‘plarni turli holatlardan: ko‘krak oldidan, bosh orqasidan, pastdan-yondan irg‘itishlar.

Trenirovka va musobaqa mashqlarini qo‘llash tartibi. Sportchilarni musobaqlarda ishtirok etish faoliyati ularni muayyan sport turiga xos bo‘lgan harakat malakalarini maromiga yetkazib bajarishlarini taqozo etadi. Harakat malakalarini ijro etish texnikasi qanchalik takomillashgan bo‘lsa, musobaqada g‘alabaga erishish imkoniyati shunchalik keng bo‘ladi.

G‘alabaga erishish – bu musobaqaning asosiy maqsadidir. Lekin bunday maqsad cho‘qqisini zabit etish imkonи faqat o‘rgatish va texnik tayyorgarlik jarayonlarining samarasiga bog‘liq.

O‘rgatish va umuman, sport tayyorgarligi jarayoni sport o‘yinlari turlarida o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, sport o‘yinlariiga o‘rgatishni zamonaviy nazariy va uslubiy asoslariga tayangan holda amalga oshirilishi zarur. O‘rgatish jarayoni va texnik tayyorgarlik – bu ko‘p yillik pedagogik faoliyat bo‘lib, ma’lum harakatni yoki harakatlar majmuasini texnik jihatdan ma’lum maqsadli tartibda, vaziyatga muvofiq, barqaror, mukammal va samarali ijro etilishini ta’minlovchi murakkab jarayondir. Mazkur jarayon sport tayyorgarligini asosiy va ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi.

O‘rgatish jarayoni va texnik tayyorgarlikning asosiy vazifasi – o‘yin texnikasining biomexanik qonuniyatlarini o‘zlashtirish, harakat yoki harakatlar majmuasini har qanday vaziyatlarda mahorat bilan barqaror va samarali ijro etish imkonini yaratishdan iboratdir.

Yangi harakat texnikasini o‘rganish va o‘zlashtirish mavjud harakat tajribasiga asoslanadi.

Harakat yoki harakatlar majmuasining texnikasini o‘zlash-tirish shug‘ullanuvchida kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni yetarli darajada rivojlantirilishini taqozo etadi. Bu sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarilish tartibi va yo‘nalishi o‘rgatiladigan (o‘zlashtiriladigan) o‘yin malakasining texnikasiga “hamohang” bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Harakatlar texnikasiga o‘rgatish jarayonida quyidagi uslubiy tavsiyalarga rioya qilish lozim:

birinchidan, ma’lum harakat texnikasini qaytadan o‘rgatish holiga chek qo‘yish maqsadida o‘rgatish jarayonini boshlanishidayoq to‘g‘ridan-to‘g‘ri harakat texnikasini eng samarali nusxasini o‘rgatish zarur.

ikkinchidan, o‘rgatish jarayonida nazariy mashg‘ulotlarga alohida e’tibor berilishi zarur, toki o‘rganuvchi o‘rgatilayotgan harakat texnikasini ijro etish tartibini “ipidan ignasi”gacha fikran

to‘liq anglasin, xotirada yaxshi eslab qolsin va tafakkurida to‘g‘ri “bajara” olsin.

uchinchidan, o‘rgatish jarayonida o‘rganuvchi o‘rgatilayotgan harakat texnikasini har xil vaziyatda, har xil tezlikda aniq va maqsadga muvofiq bajarilish imkonini ta‘minlovchi yetarli darajada rivojlangan jismoniy sifatlar poydevorini yaratish zarur. Chunki o‘rganuvchi jismonan zaif bo‘lsa, o‘rgatilayotgan harakat texnikasi xatolar bilan ijro etiladi, samara bo‘lmaydi, o‘rgatuv yo‘nalishini maqsadga muvofiq tomonga burish imkoni chegaralaniadi, hatto yo‘qoladi.

O‘rgatish va takomillashtirish jarayoni o‘z navbatida quyidagi didaktik tartibda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- harakat texnikasini ijro etish tartibi haqida ilk bor tushuncha hosil qilish va o‘rganuvchini ruhiy jihatdan mazkur harakat texnikasini o‘zlashtirishga tayyorlash;

- harakat texnikasiga o‘rgatish jarayonida boshlang‘ich konnikma va malakalarni hosil qilish, tarbiyalash. O‘zlashtirishni sekin-asta murakkablashtirish;

- harakat texnikasini to‘liq va mukammal bajarish. Ortiqcha harakatlardan xalos bo‘lish;

- harakat texnikasini barqaror, aniq va tez bajarish;

- harakat texnikasini turli o‘zgaruvchan vaziyatlarda maqsadga muvofiq bajarish;

- “chuqurlashtirilgan” – murakkablashtirilgan tarzda o‘rgatish va takomillashtirish jarayoni;

- o‘rgatilgan malakalar texnikasining mukammalligini ta‘minlash, saqlash va ularni ijro usullarini kengaytirish, "boyitish" va takomillashtirish.

O‘rgatish va takomillashtirish vazifalarini amalga joriy etish ixtisoslashtirilgan vositalar (mashqlar) yordamida amalga oshiriladi. Aslida “vositalar” keng ma’noga ega bo‘lib, ularning turlari xilma-xildir. Asosiyлari, tabiiyki, yondoshtiruvchi mashqlar, texnikaga oid mashqlar (yoki asosiy mashqlar) va ikki tomonlama badminton o‘yini bo‘lib hisoblanadi. Lekin masalani muvaffaqiyatli va samarali hal etish uchun o‘rgatish va takomillashtirish jarayonida tayyorlov mashqlari va taktikaga oid mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqliр. Boshqacha qilib aytganda,

jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi va taktikaga oid mashqlarni texnikaga o'rgatish jarayonida qo'llab borish, o'yin jarayonida badmintonchida o'z texnik imkoniyatidan foydalanish darajasini orttiradi. Demak, texnik tayyorgarlik jismoniy va taktik tayyorgarlik bilan uzviy va chambarchas bog'liq ravishda amalga oshirilishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan vositalar ma'lum uslublar asosida qo'llaniladi. Uslublar – bu o'rgatish texnologiyasining qurolidir.

Uslublar shartli ravishda 3 turga bo'linadi: tushuntirish, ko'rgazmali va amaliy.

Texnik tayyorgarlik jarayonida shug'ullanuvchilarning yoshiga, imkoniyatlariga, o'rgatish bosqichiga qarab u yoki bu uslublarni ustunligi mavjud bo'lishi mumkin.

Tushuntirishga oid uslublar o'z ichiga so'zlab berish, suhbat, ko'rsatma, tahlil va muhokama kabilarni oladi.

13-jadval

O'rgatish bosqichlari, uslublari va vositalari

O'rgatish bosqichlari va ularning nomi	O'rgatish uslublari	O'rgatish vositalari
1-bosqich: O'rgatilayotgan malaka (harakat) haqida tushuncha hosil qilish.	Tushuntirish-tahlil qilish, ko'rsatish-izoh berish.	So'z, suhbat, muloqot, munozara, rasmlar, andozalar, videofilmlar.
2-bosqich: Malakalarga oddiy sharoitda o'rgatish (yakka tartibda qo'shimcha vazifalarsiz)	Qismlarga bo'lib, element va fazalarga bo'lib o'rgatish, malakani to'liq holda o'rgatish, xatalarni tuzatish,	Tayyorlov-yondoshtiruvchi, yo'naltiruvchi turdosh taqlidiy va asosiy texnik mashqlar.

	rag'batlan-tirish, qaytarish.	
3-bosqich: Malakalarga murakkablashtirilgan sharoitda o'rgatish (vaziyatl vazifalar berish, juftlikda, uchlikda va h.)	Malakalarni to'liq holda o'rgatish, tezlik va aniqlikni kuchaytirib o'rgatish, turli yo'nalishdagi harakatlardan so'ng ijro etish, produktiv qaytarish asosida o'rgatish, o'zaro tahlil va baholash asosida o'rgatish.	1-2-bosqichlardagi barcha vositalar, umumiy va maxsus mashqlar katta tezlik va aniqlikda qo'llaniladi, juftlik, uchlikda qo'llaniladigan mashqlar, trenajyor va texnik vositalar.
4-bosqich: O'rgatishni davom ettirish, takomillash-tirish va mukammalashtirish.	Barcha uslublar.	Barcha vositalar va jamoa o'yinlari.

O'quv muassasalarida badminton

Badminton – o'quvchilar va talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun juda qulay va mos sport turi hisoblanadi. Uning imkoniyatlari shu qadar kengki, bolalar 5-8 yoshdan boshlab badminton o'ynashni o'rganishlari, kattalar esa hatto 80 yoshgacha ushbu o'yinni bemalol o'ynashlari, o'quvchilar 11 yoshdan boshlab xalqaro musobaqalarda ishtirot etishlari ham mumkin bo'ladi. Badminton nogironlarga ham tavsiya qilinadi. Raketa va volan bolalarni o'yin shaklida jismoniy tarbiya va sport

bilan doimiy ravishda shug‘ullanishga jalg etish, ularni asosiy harakat ko‘nikmalari (yurish, yugurish, sakrash, zarbalar berish, o‘tirib turish, hamla qilish va boshqalar)ni faol egallashga o‘rgatish uchun qo‘l keladi; vestibulyar apparat va sog‘lijni mustahkamlashga yordam beradi. Badminton kuchli jismoniy reaksiyani rivojlantiradi, fikrlash qobiliyatini oshiradi, vaznning me’yorlashuviga yordam beradi.

Badminton katta miqdordagi moliyaviy harajatlarni talab qilmaydi, bugungi kunda mamlakatimizdagi o‘quv muassasalarida mavjud sharoit va imkoniyatlar uni tashkil qilish uchun yetarli hisoblanadi. Badminton maydonchasi uchun istalgan maktab, kollej yoki oliy o‘quv yurtining sport zalida joy bo‘ladi. O‘rgatish jarayoni to‘g‘ri tashkil etilsa, maxsus tip asosida qurilgan maktab sport zalida bir vaqtning o‘zida 20 nafardan ortiq bola badminton bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘ladi.

Badminton – oilaviy o‘yin. Shu bois, nafaqat professional badmintonchilar yoki o‘quvchilar, talabalar, balki oilalar o‘rtasida ham bemalol musobaqalar tashkil etish mumkin. Shu ma’noda badminton “Otam, onam va men – sportchilar oilasi” shiori ostida o‘tkaziladigan musobaqalar ruhiga juda ham mos keladi.

Ayrimlar badmintonning ikkita kamchiligi bor, deyishadi, ya’ni: birinchidan, shamol bo‘layotganda ko‘chada o‘ynab bo‘lmaydi, chunki shamol volanni uchirib ketadi, ikkinchidan, bir qo‘lda o‘ynash kerakligi (boshqacha aytganda, assimetrik rivojlanish). Birinchi e’tirozga nisbatan shuni aytish mumkinki, butun dunyoda millionlab badminton ishqibozlari ochiq havoda miriqib o‘ynashadi, hatto turli-tuman musobaqalar ham tashkil etishadi. Assimetrik rivojlanish borasidagi fikrga nisbatan aytmoqchi bo‘lganimiz, aksariyat sport turlarida (masalan, gandbol, futbol, basketbol, voleybol) ham ana shu kamchilik mavjud. Ammo zamонавиу坏mintonda raketka ushlamaydigan qo‘l ham harakatda faol ishtirok etadi. U muvozanatni saqlovchi vazifasini bajaradi, oshirishda volanni o‘yinga kiritib beradi, u to‘g‘ri rivojlantirilmasa, yaxshi o‘ynashning imkoni yo‘q.

Mashg‘ulotlar jarayonida ikki qo‘lda badminton o‘ynash

Bugungi kunda badmintonda mashg‘ulotlar jarayoniga har ikkala qo‘lda raketka tutgan holda mashqlar bajarish ham kiritilmoqda. Bu mashqlar zarba berishga mo‘ljallanmagan qo‘lni me‘yorida rivojlantirish bilan birga, diqqat-e‘tiborni juda yaxshi rivojlantiradi, o‘ng va chap tomonlama reaksiyani oshiradi hamda univesal o‘yinchi tipini shakllantiradi. Ammo ushbu uslubga qarshi chiqadiganlar, bu narsa badminton ustalarini tayyorlash jarayoni natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, deb hisoblashadi. Lekin mazkur uslub har tomonlama rivojlangan havaskor sportchini tarbiyalashga aslo xalaqit bermaydi.

Maktablar, kollejlar va oliy o‘quv yurtlaridagi mashg‘ulotlar ikki xil ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin, ya’ni: 1) jismoniy tarbiya darslarida badminton asoslarini o‘rganish; 2) o‘quv yurtlarining sport zallarida badminton o‘rgatishga mo‘ljallangan maxsus seksiyalarni tashkil qilish. Ish to‘g‘ri tashkil etilsa, bir necha yil ichida umumta’lim muassasalarida ommaviy razryad-larga ega yaxshi sportchilarni tarbiyalash mumkin bo‘ladi. O‘quv muassasalarida badmintonni o‘rganishni uch bosqichga bo‘lish mumkin.

Birinchi bosqich – tayyorgarlik – u 2–4-sinf o‘quvchilarini qamrab oladi. Uning vazifalari quyidagilardan iborat: badminton o‘yini haqida umumiyl tushuncha berish va tanishtirish; to‘g‘ri harakatlanih (yurish, yugurish, sakrash, o‘tirib turish va boshqalar) texnikasini o‘zlashtirish; sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya mashqlarini o‘rgatish; sport o‘yinlarida xavfsizlik texnikasi bilan tanishish. Mazkur bosqichda quyidagilar mashg‘ulotlarning asosiy vositalari hisoblanadi: umumiy jismoniy va yengil atletika mashqlari, koptok, volan, raketka va arg‘imchoq bilan bajariladigan harakatli o‘yinlar; bolalarga badminton o‘yinin eng oddiy elementlarini o‘rgatishga mo‘ljallangan o‘yinlar. Yuklamalarning hajmi katta va serharakat bo‘lmasi ligi kerak. Bu yoshdagi bolalar bir xil harakatlardan tez charchashadi va zerikishadi. Mashqlar tez-tez o‘zgartirib, almashtirib turilganda, mushaklarning turli guruhlariga tushadigan bosimga asoslanganda o‘rgatish ancha samarali kechadi. Mashg‘ulotlar bo‘laklarga bo‘linib, yuklamalar va dam olishlar tez-tez almashtirilib olib boriladi.

Harakatli o'yinlar, o'z ichiga yugurish, sakrash, koptok uloqtirish kabilarni olgan estafetalar, akrobatika elementlari mashg'ulotlarning asosini tashkil etadi. Bunday mashqlar mashg'ulotlarning hayajonliligini oshiradi, shu bilan birga, bolaning har tomonlama rivojlanishi masalalarini hal qiladi. Umumiy mashg'ulotlar vaqtining bir qismini badminton texnikasi asoslarini o'rgatishga ajratish kerak. Bunda bir vaqtning o'zida jismoniy xususiyat va sifatlarni texnik tayyorlash hamda rivojlantirish masalalari ham amalga oshiriladi.

O'rgatishni eng oddiy va sodda elementlardan boshlash kerak. Bu jarayonda o'z tavsifiga ko'ra badmintonga yaqin turadigan boshqa ommaviy sport turlari elementlaridan ham keng foydalanish tavsiya etiladi. Mashg'ulotlar shug'ullanuvchilarning individual jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda guruhlarda olib boriladi.

Eng ko'p tarqalgan o'rgatuvchi mashqlarga quyidagilar kiradi:

- racketkaning ochiq va yopiq tomoni bilan volanda jonglyorlik mashqlarini bajarish;
- volanni to'r ustidan oshirib bir-biriga tashlash, juftliklarni almashib yoki navbatma-navbat juft bo'lib racketka yordamida volanni to'r ustidan oshirib tashlash; volanni yerga •tushirib yuborgan juftlik orqada yoki yon tomonda navbat kutib turgan o'quvchilar bilan joy almashishadi.

Umumiy jismoniy, mashg'ulotga oid, maxsus, taktik, imitaatsiyaga asoslangan va boshqa ko'plab mashqlar mavjudki, tajribali murabbiy ular orasidan o'quvchilarning turli guruhlarining yoshiga, imkoniyat va qobiliyatiga mosini tanlab olib, mashg'ulotlarni olib borishi mumkin.

Ikkinci bosqich – ixtisoslashuv – maktablarning o'rta va yuqori sinflari hamda kollej o'quvchilari uchun. Oliy o'quv yurtlarining badminton bilan tanish bo'lmagan, ammo yetarlicha umumiy jismoniy tayyorgarlikka ega talabalari bilan ham mashg'ulotlarni shu bosqichdan boshlash mumkin.

Ikkinci bosqichda umumiy jismoniy tayyorgarlikka har bir o'quvchining individual imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, maxsus jismoniy tayyorgarlik ham qo'shiladi. Bu

bosqichda shug‘ullanuvchilarni bir nechta (kamida ikkita) guruhga: qobiliyatililar va orqada qolayotganlar guruhlariga bo‘lish kerak. Ular bilan parallel ravishda mashg‘ulot olib borish vaqtida o‘quv-mashg‘ulot jarayonining turli uslublaridan foydalanish lozim. Birinchi guruhda badminton texnikasi va taktikasini o‘zlashtirish bo‘yicha mashg‘ulotlarga va shunga mos tarzda yuklamalarni oshirib borishga e’tibor qaratiladi. Bu guruhdagi o‘quvchilarga badminton o‘yini sirlarini yanada chuqurroq o‘rganishlari va sport razryadlari olishlari uchun maxsus sport maktablariga qatnashni tavsiya etish mumkin. Ikkinchi guruhda esa asosiy e’tiborni umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlariga qaratgan holda, badminton o‘yinining umumiy prinsiplarini o‘rgatib borish tavsiya etiladi.

Maktablar va kollejlarda yo‘lga qo‘yiladigan sport faoliyatining ushbu ikkinchi bosqichini yaxshiroq o‘zlashtirishda mazkur kitobning bob va bo‘limlari yaxshi yordamchi va maslahatchi bo‘lishi mumkin.

Uchinchi bosqich – *takomillashtirish*. Bu bosqichda chuqurlashtirilgan mashg‘ulotlar asosida usta sportchilar tayyorlanadi. U ko‘proq jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlari, oliy o‘quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlari hamda sport kollejlari va badmintonga ixtisoslashtirilgan sport maktablari uchun xosdir. Mazkur bosqichda mashg‘ulotlar malakali murabbiy qo‘l ostida individual reja asosida olib boriladi.

Mashg‘ulotlar kompleks xarakterga egaligi va turli mashqlar hamda harakatli o‘yinlardan tuzilishi bois, badminton bilan shug‘ullanish jarayonida bolalar albatta xavfsizlik qoidalariga rioya etishlari shart. Xavfsizlik qoidalari, odatda, boshqa sport turlaridagi kabi o‘xshashdir.

Badminton bilan shug‘ullanishda asosiy qoidalari:

- Yoningizda begona buyumlar bo‘lmisin.
- Sirpanmaydigan poyafzal kiying.
- Polda axlat bo‘lsa, shug‘ullanmang.
- Mashg‘ulotni boshlashdan oldin maydonchada begona buyumlar va notekisliklar yo‘qligiga ishonch hosil qiling.

- To‘r, ustun va maydonchadagi sheriklaringiz bilan to‘qnashib ketmaslik uchun harakatlanish tezligingizni e’tiborga oling.
 - Maydoncha ho‘l bo‘lganda o‘ynamang.
 - Mashqlarni bajarish paytida to‘qnashib ketmaslik uchun sheriklaringizni kuzatib boring.
 - O‘yin qoidalariga qat’iy rioxha eting – bu jarohatlarning oldini oladi.
 - O‘yin oldidan chigalyozdi mashqlarni bajarishga erinmang, yo‘qsa o‘yin paytida jarohat olib qolish hech gap emas.
 - Mashg‘ulot, o‘yin va musobaqalar paytida o‘zingiz ishtirok etmayotgan maydonchaga chiqmang.
 - Mashg‘ulot va o‘yin uchun yuzasi tekis maydonchalarni tanlang (ayniqsa, mustaqil ravishda hovli va ko‘chada shug‘ullanganda).
 - Mashg‘ulot va o‘yin uchun faqat yaroqli jihozlardan foydalaning. To‘r ustunlarga yaxshilab tortilgan va bog‘langan, ustunlarning o‘zi ham mustahkam bo‘lishi kerak.
 - Jihoz va buyumlarda mavjud har qanday nosozlik va yaroqsizlik holatlari to‘g‘risida darhol o‘qituvchi yoki murabbiyga xabar bering.
 - Volan va racketka bilan mashqlar bajarishda ehtiyojkor bo‘ling. Yoningizda boshqalar ham shug‘ullanayotganini doim yodda tuting. Boshqa o‘yinchining volanini urmang. Raketskadan faqat o‘yin maqsadida foydalaning.
 - Raketskani qo‘lingizdan chiqib ketmaydigan darajada mahkam ushlang.
 - Murabbiyning so‘zi qonun ekanini unutmang.

O'rgatish jarayonida qo'llaniladigan umumiy va maxsus pedagogik prinsiplar

T/r	O'rgatish prinsiplari	Prinsiplarni qo'llash xususiyatlari va uslubiy ko'rsatmalar
1.	Ilmiylik	O'rgatishda bolalar yoshi, jinsi, jismoniy va psixofunksional imkoniyatlari e'tiborga olinib, mashqlar me'yoranadi. Natija testlar yordamida ilmiy tahlil qilinadi.
2.	Onglilik va faollik	O'rgatilayotgan malaka (harakat)lar ongli tasavvur etilishi zarur, o'rgatishda bolalar faolligiga minlanishi lozim.
3.	Muntazamlik va uzviy bog'liqlik	Bosqichma-bosqich o'zlashtiruv, takomillashuv va mukammallashuv ta'minlanadi
4.	Mutanosiblik va muvofiqlik	Mashqlar murakkablik va yuklama salohiyati (hajmi, shiddati, yo'nalishi, takrorlanishi va muddati) jihatlaridan shug'ullanuvchi imkoniyatiga mos bo'lishi darkor.
5.	Mukammallik	Texnik jihatdan to'g'ri o'zlashtirilgan malakalar takomillashuv asosida turg'un va barqaror daramaga ko'tariladi.
6.	Uzluksizlik	Yildan-yilga o'rgatish va takomillashtirish jarayoni murakkablashib borishi darkor, uzilishlarga yo'l qo'yish salbiy natjalarga olib keladi.
7.	"Yengilidan og'iriga"	O'zlashtirishga loyiq yengil yuklamalar progressiv yo'nalishda, lekin "to'lqinsimon" shaklda kuchaytirib borilishi kerak.
8.	"O'tilgani-dan o'tilmaganiga"	Shug'ullanuvchi o'zlashtirgan (unga tanish bo'lган) mashqlardan yangi mashqlarga o'tish, o'rgatish samaradorligini oshiradi.
9.	"Oddiydan murakkabga"	Eng oddiy mashqlarni o'rgatish va takomillashtirish davomida ular sekin-asta murakkablashtirib borilishi lozim.

10.	Umumiy va maxsus tayyorgarlik birligi	O'rgatish va takomillashtirish jarayonida jismoniy texnik-taktik va psixofunksional tayyorgarlik birligi, ularni o'zaro bog'liqligi ta'minlanishi zarur.
-----	---------------------------------------	--

Nazorat savollari

1. O'rgatish jarayonining mohiyati va qisqacha mazmuni nimalardan iborat?
2. Dastlabki o'rgatish jarayoni qanday ahamiyatga ega?
3. O'rgatish bosqichlari qanday nomlanadi, ushbu bosqichlarda qanday uslub va vositalardan foydalaniladi?
4. “O'rgatish” va “trenirovka” qanday mantiqiy farqlar bilan izohланади?
5. Texnik usullarga o'rgatishda qanday anjom, moslama va texnik vositalardan foydalanish mumkin? Misollar keltiring.
6. Texnik-taktik mahorat darajasi qanday baholanadi?

VIII BOB. O'YIN TAKTIKASIGA O'RGATISH USLUBIYATI

Texnik malakalarga o'rgatish bosqichlari, uslublari va mashqlarni qo'llash tartibi o'yin taktikasi o'rgatish jarayonida ham saqlanib qoladi. Harakat texnikasiga o'rgatishda tayyorlov, yondoshtiruvchi, yo'naltiruvchi, taqlidiy mashqlar o'yin usullarini ongli o'zlashtirishga qaratilgan bo'lsa, taktikaga o'rgatishda shu mashqlar mazkur usullarni o'zgaruvchan vaziyaitlarga mos va foyda keltiruvchi turini tanlab, o'z vaqtida qo'llash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilishi lozim. Taktika – bu vaziyatni oldindan payqash, uni tahlil qilish, raqib rejasi va ijro etadigan harakatini oldindan bilish (bashorat qilish), o'z imkoniyatlarini raqib imkoniyatlari bilan solishtirish, chalg'itish hamda hiylalar asosida eng maqbul qaror qabul qilish va uni samarali ijro etish bilan bog'liqdir. Bunday qobiliyat – erta yoshlikdan boshlab diqqat, xotira, idrok, ong, tafakkur, hissiyot, iroda va boshqa shu kabi ruhiy xislatlarni shakllantirib borish asosida sayqal topishi mumkin. Demak, o'yin taktikasiga o'rgatish real vaziyatlarni yaratish asosida dastlabki tayyorgarlik bosqichidan boshlab elementar taktik vazifalar doirasida amalga oshirilishi darkor.

O'yin taktikasiga dastlabki o'rgatish jarayonida yosh badmintonchilar bilan ko'proq vaziyatli vazifalarga bog'liq nazarriy-uslubiy mashg'ulotlarga urg'u berish, ularda texnik usullarni o'zgaruvchan vaziyatlarga mos ravishda ijro etish ko'nikmalarini "charhlab" boradi. Bunday mashg'ulotlarda quyidagi andozalardan foydalanish mumkin.

3-andozada keltirilgan taktik jarayonlar nazarriy-uslubiy mashg'ulotlarda ham, amaliy mashg'ulotlarda ham sun'iy vaziyatlarni yaratish va modellashtirilgan mazmun asosida amalga oshirilishi lozim.

O'rgatish va takomillashtirish jarayonlarida, umuman, trenirovka mashg'ulotlari davomida taktik qibiliyatlar, taktik malakalar, taktik xislatlar va taktik vaziyatlar didaktik tartibda

“oddiydan-murakkabga” prinsipi asosida shakllantirilishi tavsiya etiladi. Lekin nazariy mashg’ulotlarda avval murakkab vaziyatlar to’liq holda tahlil qilinadi va o’zlashtiriladi, so’ng ularning oddiy komponentlari va elementlari o’zlashtiriladi. Murakkab vaziyatlar komponentlari va elementlari mukammal o’zlashtirilgandan keyingina, ular uzviy tartibda amaliy mashg’ulotlarda mashq qilinadi. Demak, ushbu andozaga muvofiq mashg’ulotlarda dastavval (avval kort maketida, so’ng kortning o’zida) turli sun’iy vaziyatlar yaratiladi va ularni qiyosiy tahlil qilishga o’rgatiladi. Keyin quyidagi taktik jarayonlar o’zlashtirilishi tavsiya etiladi:

3-andoza



- o’z imkoniyatini tahlil qilish va baholash;
- raqib imkoniyatini tahlil qilish va baholash;
- u va bu imkoniyatlarni taqqoslash, ustuvorlik va kamchiliklarni aniqlash;
- raqib maydoni va uni joylashishi hamda holatini baholash;

- raqib rejası va bo‘lajak harakatini bashorat qilish;
- raqibni asil va chalg‘ituvchi harakatlarını payqashga intilish;
- o‘z harakatini rejalashtirish va vaziyatga mos usulni tanlash;
- raqib harakati chalg‘ituvchi bo‘lsa, boshqa mos usulni tanlash;
- pirovard reja tuzish;
- rejani ijro etish;
- pirovard natijaga erishish.

Qayd etilgan taktik jarayonlarning maxsus modellashtirilgan mashg‘ulotlarda amalga oshirilishi, ularni o‘zlashtirish samaradorligini ta’minlaydi.

Nazorat savollari

1. Yakka taktik harakatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Taktik harakatlar qanday mazmundan iborat?
3. Taktik harakatlarga qanday, qaysi tartibda va qanday vositalar asosida o‘rgatiladi?
4. Hujumda qo‘llaniladigan taktik harakatlarga o‘rgatish qanday tashkil etiladi?
5. Himoyada qo‘llaniladigan taktik harakatlarga o‘rgatish qanday tashkil etiladi?

IX BOB. BADMINTONCHILAR TAYYORLASHDA TANLOVNING O'RNI

Tanlov deb, muayyan soha yoki faoliyatda yuksak natijalarga erisha olish imkoniyatlari mavjud kishilarni saralab olish jarayoniga aytildi.

Badmintonda “sport tanlovi” – bu kelajakda sport takomillashuvi, jumladan, musobaqalar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan katta yuklamalarga bardosh bera oladigan va aynan shu jarayonlarda yuqori natijalarga erisha oladigan istiqbolli bolalarni izlab topishga imkon yaratadigan usul, uslub va test-mashqlari majmuasini qo‘llash jarayonidir.

Sport tanlovi ko‘p yillik sport tayyorgarligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, sport malakalarini o‘zlashtirishning dastlabki bosqichidan boshlab eng yuqori bosqichida, ya’ni milliy terma jamoalari faoliyatida ham amalga oshiriladi. “Tanlov” tushunchasi o‘z ichiga “munosiblik”, ya’ni insonni bir sohaga (ma’lum faoliyatga) iste’dodi bo‘yicha yarashi yoki yaramasligi masalasini kiritadi. Bu degan so‘z, inson nafaqat o‘z imkoniyatlari (qaddiqomati, jismoniy sifatlari, ruhiy xususiyatlari va h.k.) bilan muayyan faoliyatga (kasbga, ishga, sportga va h.k.) mos kelishi kerak, balki aynan shu faoliyat mazkur inson mijoziga munosib bo‘lishi maqsadga muvofiqdir (emotsiya, aktivatsiya, motivatsiya masalalari). “Tanlov” atamasi o‘z tarkibiga yana sportga oid “chamalov” tushunchasini kiritadi.

Chamalash bog‘chalarda, maktablarda va sport maktablarining boshlang‘ich guruhlarida amalga oshirilishi mumkin. To‘g‘ri chamalash murabbiyining iste’dodiga, uning bilimi va tajribasiga bog‘liq. Bolaning nasliga, turmush tarzi ko‘rsatkichlariga qarab chamalash ham e’tiborli ahamiyatga ega.

Sport tanlovi – ko‘p yillik pedagogik jarayondir. Ko‘p yillik sport tayyorgarligi tizimi, o‘z mohiyati va maqsadiga binoan, ko‘p yillik sport tanlovini o‘z ichiga oladi va mazkur jarayonni 4 bosqichda amalga oshirishni taqozo etadi:

1. Dastlabki tanlov – (7-14 yosh).
2. Sportchilarni o‘yin ixtisosligiga (funksiyasiga) saralovchi maxsus tanlov (15-17 yosh).
3. Yuqori jamoalarga tanlov (18-20 yosh).
4. Terma jamoalarga tanlov.

Bolalarni dastlabki tanlovga tayyorlash mактаб шароитида jismoniy tarbiya o‘qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi, o‘quvchilar dastur asosida va baholovchi mashqlar, harakatli xalq o‘yinlari yordamida saralanishi mumkin. Mazkur saralovchi vositalar aynan badminton o‘yining mohiyatiga nihoyatda yaqin bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bunday vositalar tavsiya qilingan adabiyotlarda keng yoritilgan. Dastlabki tanlovga tayyorlash jarayonida o‘quvchilar muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tib turishlari shart. Bu tadbir qanchalik sifatli va samarali amalga oshirilsa, shunchalik sport maktablarida uyuştiriladigan tanlovning sifat darajasi yuqori bo‘ladi.

Dastlabki tanlov. Mazkur tadbir quyidagi tartibda olib boriladi:

I bosqich. Targ‘ibot-tashviqot ishlarini uyuştirib, suhbat, ma’ruzalar o‘tkazish, badminton musobaqalari haqida filmlar namoyish qilish orqali bolalarni badmintonga qiziqtirish va jalb qilish. Ko‘rgazmali musobaqalar uyuştirish, taniqli sportchilar ishtirokida suhbatlar o‘tkazish.


II bosqich. Baholovchi mashqlar, harakatli va xalq o‘yinlari yordamida dastlabki tanlov – qabul o‘tkazish (qaddi-qomat ko‘rsatkichlari, jismoniy sifatlarning rivojlanganligini apparatlar yordamida aniqlash va hokazo).

III bosqich. Boshlang‘ich tayyorgarlik 1 yillik o‘rgatish davrida bolalarni maxsus sifatlari, texnik-taktik malakalari, qobiliyatlarini va imkoniyatlarini baholash. Ularni nasliy xislatlarini o‘rganish. Texnik va taktik tayyorgarlik bo‘yicha tanlov o‘tkazish. 4-andozada bolalarni badmintonga jalb qilish va ko‘p yillik tanlov bosqichlari aks ettirilgan.

Badminton bilan shug‘ullanishga munosibligi. BO‘SMga qabul qilish mutaxassis-murabbiy uchun o‘ta mas’uliyatli tadbirdir. Bu tadbirni amalga oshirishda hamma ko‘rsatkichlarni bir-biriga taqqoslay bilish, badminton o‘yining mohiyatiga yaqin

Ko'rsatkichga ega bo'lgan bolalarni farqlay olish, sport turiga zarur qobiliyatlarini ajrata bilish katta ahamiyatga egadir. Shu bilan bir qatorda, tanlov natijalariga ko'ra qabul qilish haqida uzil-kesil xulosaga kelish o'rinsiz, mavjud ko'rsatkichlarni e'tiborga olgan holda saralovni davom ettirish darkor.

4-andoza



Uzlucksiz tarlov (saralov) va o'yin funksiyalarini (ixtisoslarini) belgilash. Yuqori malakali badmintonchilarni tayyorlashda mazkur bosqich tadbirlari hal qiluvchi ahamiyatga loyiq. Albatta,

uzluksiz tanlov-saralov hamda bolalarni muayyan o‘yin ixtisosliklariga munosibligini aniqlash ko‘p yillik sport tayyorgarligini barcha bosqichlarida amalga oshirib boriladi. Bu masala, ayniqsa, o‘quv-trenirovka va takomillashtiruv guruhlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Badminton bilan shug‘ullanishga tanlov asosida qabul qilish jarayonini kuchaytirish maqsadida, mavjud tanlov vositalariga qo‘srimcha qilib tanlangan sport turi xususiyatini “e’tiborga” olgan yoki maxsus ixtisoslashtirilgan xalq harakatli o‘yinlaridan foydalanish, tanlovnı yanada “toza”, maqsadli amalga oshirish imkonini yaratib beradi. Bu borada M.A. Qurbonovaning ilmiy tadqiqotlari tafsiringa sazovordir. Jumladan, muallif badminton to‘garaklariga nafaqat tanlov o‘tkazish va bu jarayonda milliy harakatli o‘yinlardan unumli foydalanish, balki dastlabki tayyorgarlik jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantirish va texnik-taktik ko‘nikmalarni shakllantirishga mo‘ljallangan harakatli o‘yinlardan foydalanish yosh sportchilar tayyorlash sur’atini jadallashtirishi mumkin ekanligi isbotlab bergen.

Ta’kidlash lozimki, ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish natijasida shu narsa ko‘zga tashlanadiki, to‘garaklarda tanlov o‘tkazish, tanlov mashqlari hamda dastlabki tayyorgarlik jarayonlarini ilmiy asoslash va tashkil qilish muammolari stol badmintoni misolida tadqiqot obyekti sifatida umuman o‘rganilmagan. Qizig‘i shundaki, ushbu mavzu sobiq ittifoq davrida ham mutaxassis olimlar tomonidan jiddiy tadqiqot ostiga olinmagan. Hatto “kichik” badminton bo‘yicha 90-yillargacha joriy etilib kelingan BO‘SM dasturida tanlov me’yoriy mashqlari va bir tayyorgarlik bosqichidan (guruhidan) navbatdagi tayyorgarlik bosqichiga (guruhiba) ko‘chiruvchi me’yoriy test mashqlari deyarli o‘z aksini topmagan. Ayrim dasturlarda, masalan, yugurib kelib balandga sakrash (8-9 yoshli qizlar – 100 sm, shu yoshdagisi o‘g‘il bolalar – 112 sm), to‘ldirma volanni uloqtirish (8-9 yoshli qizlar – 1 kg li volanni 7 m ga, shu yoshdagisi o‘g‘il bolalar – 10 m ga), turnikda osilib, oyoqlarni 90° burchak shaklida ushlab turish kabi nazorat mashqlari keltirilgan. Ammo shu mashqlarni ijro etish usuli, tartibi va shartlari yoritib berilmagan. Ta’kidlanishicha, bunday mashqlar umumiyligi jismoniy tayyorgarlikni baholashga mo‘ljallangan. Lekin

maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlashga qaratilgan me'yoriy test mashqlari umuman qayd etilmagan.

Boz ustiga, so'nggi yillarda rossiyalik mutaxassis olimlar tomonidan chop etilgan ayrim ilmiy maqolalarda ham muhokama etilayotgan mavzu chetlab o'tilgan.

Ayrim mualliflar o'z tadqiqotlarida, ayni vaqtida BO'SM dasturlarida tayyorgarlik turlari bo'yicha keltirilgan kunlik, haftalik va yillik yuklamalar soati qiz va o'g'il bolalar uchun alohida farqlanmaganligini ta'kidlaydilar. Ularning ma'lumotlariga binoan, 8-10 yoshli badmintonchi qiz va o'g'il bolalarning jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari (bo'y, vazni, O'TS) bo'yicha unchalik keskin farq qilmasa-da, jismoniy tayyorgarligi (60 m va 300 m ga yugurish, kuch, joydan turib sakrash va h.k.) bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi. Jumladan, jismoniy rivojlanish bo'yicha, masalan, qizlarning bo'yi 8 yoshda 125 - 130 sm , 9 yoshda 131 - 143 sm , 10 yoshda 140 - 145 sm deb qabul qilingan. O'g'il bolalarda esa bu ko'rsatkichlar muvofiq ravishda: 128 - 134 sm ; 134 - 141 sm ; 141 - 147 sm . O'TS muvofiq ravishda $1,47$ - $1,60\text{ l}$; $1,55$ - $1,85\text{ l}$; $1,71$ - $2,10\text{ l}$ va $1,51$ - $1,72\text{ l}$; $1,65$ - $1,95\text{ l}$; $1,81$ - $2,20\text{ l}$.

Ko'rinish turibdiki, 8 yoshdagi o'g'il va qiz bolalarda bu ko'rsatkichlar deyarli keskin farq qilmagan. Ammo jismoniy tayyorgarlik bo'yicha keltirilgan ko'rsatkichlar ancha katta farq bilan ifodalanadi. Chunonchi, 300 m ga yugurish 8 yoshli qizlarda – 90 - 82 s ; 9 yosh – 82 - 76 s ; 10 yosh – 73 - 68 s . O'g'il bolalarda: 8 yosh – 85 - 76 s ; 9 yosh – 78 - 68 s ; 10 yosh – 68 - 60 s . Joydan turib uzunlikka sakrash muvofiq ravishda; 128 - 136 sm ; 134 - 142 sm ; 147 - 157 sm va 140 - 148 sm ; 146 - 154 sm ; 161 - 171 sm .

Qayd etilgan ko'rsatkichlar asosida alohida e'tiborni tanlov va tayyorgarlik turlari (jismoniy, texnik-taktik) bo'yicha bolalar sporti amaliyotida foydalani layotgan me'yoriy mashqlarning jiddiy ilmiy sinovdan o'tkazilishiga qaratish darkor. Yana bir muammoga jiddiy ahamiyat berish lozim, chunki tanlov va tayyorgarlik jarayonlarida standart test mashqlaridan foydalananish odad tusiga kirib qolgan. Ma'lumki, sport bilan shug'ullanish istagini bildirgan har bir bola genetik jihatdan o'ziga xos jismoniy, funksional va psixologik xususiyatlari bilan farqlanadi. Ayrim bolalarning mazkur xususiyatlari, harakat qobiliyatları, jismoniy sifatlari va boshqa

individual imkoniyatlari tanlov hamda dastlabki tayyorgarlik jarayonlarida tezda ko‘zga tashlanmaydi. Bunday qobiliyat va imkoniyatlarni shunchaki standart test mashqlari yordamida aniqlab olish ancha qiyin kechadi. Shuning uchun ham, qator mutaxassis-olimlarning fikriga ko‘ra, tanlov va tayyorgarlik jarayonlarini samarali tashkil qilish uchun tanlangan sport turlariga xos maxsus harakatli o‘yinlardan foydalanish zarurligi tavsiya etiladi. Lekin bunday harakatli o‘yinlarni tanlash va amalga joriy etishda ularning mazmuni, qoidalari va muddatini tanlangan sport turi xususiyatiga maksimal moslashtirish yoki yaqinlashtirish darkor bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Tanlov tushunchasi nimani anglatadi?
2. Tanlovning qanday turlari mavjud va ularning mazmuni nimadan iborat?
3. Tanlovda qo‘llaniladigan uslub va testlardan misol keltiring va ulardan qanday foydalilanadi?
4. Badmintonga qabul qilish tartibi qanday amalga oshiriladi?

X BOB. BADMINTON BO‘YICHA O‘TKAZILADIGAN DARS MAZMUNI VA UNI O‘TKAZISH TARTIBI

10.1. Darsning tuzilishi va mazmuni

Badminton bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar 3 qismidan tashkil topadi (o‘quv-trenirovka guruhlari misolida).

1 qism – tayyorlov 20-25 daqiqa teng bo‘lib, o‘z ichiga sinfni tashkil etish (saflanish, navbatchi o‘quvchini trenerga davomat haqida axborot berishi, dars vazifalari bilan tanishtirish), saf mashqlari, umumiy va maxsus mashqlarni kiritadi. Mashg‘ulotning tayyorlov qismida beriladigan mashqlar shu darsni maqsad vazifalarini yechishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Tayyorlov mashqlari tana muvozanatini saqlash, qaddi-qomatni shakllantirish, yurish, yugurish, sakrash, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlarini tarbiyalashga mo‘ljallanadi. Mashg‘ulotning tayyorlov qismi o‘quvchilar organizmini «qizitish» va uni funksional jihatdan shu darsning asosiy qismiga tayyorlashdan iborat. Mashg‘ulotning ushbu qismini o‘tkazish shiddati dastlab sekin-asta oshirilib, shu qismni o‘rtasidan yana sekinlashtirilishi kerak.

Asosiy qism 80-90 daqiqa davom etadi. Mazkur qismda mashg‘ultni asosiy maqsad va vazifalari yechiladi. Texnik-taktik malakalar o‘zlashtiriladi. Buning uchun o‘rganiladigan o‘yin malakalariga oid taqlid va to‘p bilan bajariladigan mashqlar qo‘llaniladi. Malakalarga o‘rgatish va ularni shakllantirish yakka tartibda, juftlikda yoki kichik guruhlar va barcha o‘quvchilar ishtirokida amalga oshiriladi. Bu qismda o‘rgatish jarayoni sekin, takomillashtirish jarayoni esa katta tezlikda kechishi lozim.

Yakuniy qism – 15-20 daqiqa davom etadi. Bu qismning maqsadi o‘ta sekin ijro etiladigan mushaklarni bo‘shashtiruvchi va taranglashtiruvchi mashqlar hamda milliy harakatli o‘yinlar yordamida charchoqni bartaraf etish, organizmning funksiyalari va ish qobiliyatini tiklashga qaratiladi.

Mashg‘ulot davomida jismoniy sifatlarni tarbiyalash, harakat (texnik-taktik) malakalari texnikasiga o‘rgatish va ularni takomillashtirish turli pedagogik uslublar yordamida amalga oshiriladi. Bu uslublar quyidagilardan iborat:

- tushuntirish;
- ko‘rsatish (namoyish etish);
- muayyan malakani qismlargacha bo‘lib o‘rgatish;
- malakani to‘liq holda sekin va katta tezlikda o‘rgatish;
- qaytarish;
- o‘yin uslubi;
- musobaqa uslubi va hokazo.

O‘rgatish jarayonida, bundan tashqari, rag‘batlantirish va jazolash, ishontirish kabi usullar ham o‘rin oladi.

Har bir uslubni qo‘llashda o‘ziga xos zamonaviy texnik va texnologik vositalar, harakatli o‘yinlar, an‘anaviy va noan‘anaviy mashqlar qo‘llaniladi.

Badminton bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar yakunida, aksariyat hollarda, o‘quv o‘yini o‘tkaziladi. Bunday o‘yinlarni o‘tkazish davomida o‘yin qoidalarini o‘zlashtirishga va hakamlik qilish sirlarini o‘rgatishga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘rgatish va takomillashtirish jarayonida beriladigan vazifalar, shu jumladan, qo‘llaniladigan mashqlar «oddiydan murakkabga», «o‘tilganidan o‘tilmaganiga» va «yengilidan og‘iriga» (yuklama jihatidan) kabi didaktik tamoyillarga asosan qo‘llanilishi shart.

10.2. Darsni rejorashtirish va o‘tkazish tartibi

Mashg‘ulotning sifati va samaradorligi nafaqat o‘qituvchi-trenerning mahorati hamda tajribasiga, balki uni mashg‘ulotga qanday tayyorgarlik ko‘rishiga ham bog‘liqdir.

Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish quyidagi tadbirlarni amalga oshirishdan iborat:

- mashg‘ulot jarayonini loyihalash (rejorashtirish);
- mashg‘ulotni samarali va sifatli o‘tkazish modelini ishlab chiqish;

- mashg‘ulotning foydali zichligini ta’minlash imkoniyatlarini aniqlash;
 - shug‘ullanuvchilar tarkibidan yordamchilar tayinlash;
 - tayyorlangan va tasdiqlangan mashg‘ulot bayonnomasini ko‘rib chiqish, agar zaruriyat bo‘lsa, o‘zgartirish kiritish (mashg‘ulot bayonnomasi shakli 15-jadvalda berilgan);
 - shug‘ullanuvchilar tomonidan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash (baholash) mezonlarini ko‘rib chiqish;
 - mashg‘ulot o‘tkazish joyi, foydalilaniladigan asbob, anjom va uskunalar tayyorligini ko‘zdan kechirish;
 - mashg‘ulotdan so‘ng navbatdagi dars qanday fandan ekanligini aniqlash;
 - trenerning tashqi qiyofasi va sport kiyimiga e’tibor berishi;
 - muayyan mashg‘ulotda ishtirok etadigan shug‘ullanuvchilarning jismoniy va funksional imkoniyatlarini e’tiborga olish.

Bundan tashqari, trener quyidagi rejalashtiruv hujjatlari bilan qurollangan bo‘lishi shart:

- ta’lim standarti va klassifikatori;
- o‘quv dasturi bo‘limlari bo‘yicha yillik o‘quv soatlarining taqsimlanish rejasi;
- yillik mashg‘ulotlar reja-jadvali;
- o‘quv materiallarini taqsimlanish jadvali;
- mashg‘ulot mavzulari aks ettirilgan chorak ish rejasi;
- mashg‘ulot bayonnomasi;
- guruh jurnalni.

Mashg‘ulotni yuqori saviyada o‘tkazish, mashg‘ulot davomida o‘quvchilar faolligini ta’minlash, beriladigan vazifa, ko‘rsatma va mashqlar ijrosiga ularni ongli yondoshishlariga erishish, mashg‘ulotlarga mehr va hurmat uyg‘otish trenerning nafaqat kasbiy mahoratiga, balki uning shaxsi va insoniy fazilatlariga ham bevosita bog‘liqdir.

NAMUNAVIY MASHG'ULOT BAYONNOMASI SHAKLI

"TASDIQLAYMAN"
BO'SM (klub) direktorining
O'I bo'yicha muovini

" " 2017 yil

Dastlabki tayyorgarlik guruhi uchun
3-sonli mashg'ulot bayonnomasi

Mashg'ulot vazifalari:

1. _____
2. _____
3. _____

Mashg'ulot o'tkazish joyi: _____

Anjomlar: _____

Mashg'ulot qismlari	Mashg'ulot mazmuni	Mashqlarni miqdorlash	Tashkiliy va uslubiy ko'rsatmalar

Nazorat savollari

1. Mashg'ulotning maqsadi va vazifalarini so'zlab bering.
2. Mashg'ulot qanday qismlardan iborat va ularni mazmunini tushuntiring.
3. Mashg'ulot qismlarining o'zaro bog'liqligi nimalar bilan ifodalanadi?
4. Mashg'ulot bayonnomasi qanday mazmunga ega va u qanday tuziladi?
5. Mashg'ulot qanday rejalashtiriladi va o'tkaziladi?

XI BOB. BADMINTONCHILAR JISMONIY TAYYORGARLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

11.1. Jismoniy tayyorgarlikning umumiy asoslari

Zamonaviy badminton amaliyotida qayd etilayotgan ustuvor xususiyatlardan biri – yuklamalar hajmi va shiddatining borgan sari o’sib borayotganligi, uzoq muddat davom etadigan (aksariyat 3-5 soat) musobaqa uchrashuvlarida raqobatning kuchayishi bilan ifodalanadi. Yuksak jismoniy va ruhiy faollik bilan kechadigan bunday jarayonlarda badmintonchining organizmi ko‘pincha funksional imkoniyatlar chegarasida faoliyat ko‘rsatadi.

Tezkorlik-kuch, aerob va anaerob chidamkorlik sifatlarini talab qiluvchi va texnik-taktik harakatlar keskin o‘zgaruvchan vaziyatlarda ijro etiladigan bunday musobaqalarda qaysi sportchi o‘z qobiiliyatini sifati va samaradorligi jihatidan qanchalik uzoq vaqt saqlay olsa yoki uni oshira olish “kuchi”ga ega bo‘lsa, unga muvaffaqiyat shunchalik “kulib” boqishi muqarrar. Boshqacha qilib aytganda, ish qobiliyatining sifat va samaradorlik darajasini ko‘p yoki kam vaqt davomida saqlanishi umumiy va maxsus chidamkorlik sifatlarining turlari (tezkorlik, kuch, tezkor-kuchga bo‘lgan chidamkorlik, sakrashga bo‘lgan chidamkorlik, texnik-taktik chidamkorlik va hokazo) qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Ma’lumki, ish qobiliyati haqida gap ketganda, ayniqsa, uning sifati va samaradorligiga tegishli bo‘lsa, masalaning mohiyati va pirovard “mag‘izi” boshqa jismoniy sifatlarning shakllangan yoki shakllanmaganligiga borib taqaladi. Ya’ni samarali natijaga mos umumiy va maxsus chidamkorlik, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik sifatlarini o‘zida mujassam qilgan bo‘ladi. Ushbu sifatlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi va ularning yuksak darajadagi integral natijasi mahoratning muayyan taqdirini belgilab beradi.

Jismoniy tayyorgarlik – tayyorgarlik turlaridan biri bo‘lib, badmintonchining organizmini rivojlantirish, uning jismoniy sifat va qobiliyatlarini takomillashtirshga hamda o‘yin faoliyatini samarali amalga oshirilishini ta’minlovchi mustahkam poydevor yaratishga qaratilgandir.

Zamonaviy badminton shug‘ullanuvchilardan nihoyatda katta kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlarini talab qiluvchi sport o‘yinlari turiga mansubdir. O‘yining mohiyati o‘yinchи harakatining turli yo‘nalish va o‘zgaruvchan vaziyatda o‘ta tezkor, aniq hamda qisqa vaqt ichida ijro etilishi bilan ta’riflanadi. Badmintonchining har bir o‘yin davomida ko‘pdan-ko‘p zarba berishi va volan kiritishi, yugurishi, to‘xtashi, burilishi, egilishi va boshqa harakatlarni yuqori tezlikda ijro etishi katta jismoniy kuch, o‘ta chaqqonlik, mustahkam chidamkorlik va ruhiy uyg‘unlikni talab qiladi. Binobarin, ushbu yuklama ta’siri shug‘ullanuvchi organizmining funksional jihatdan mukammal shakllangan bo‘lishini taqozo etadi.

Bugungi badmintonchi bo‘yi jihatdan 185-195 sm va undan yuqori uzunlikka ega bo‘lib, harakatchan, tezkor, sakrovchan, ziyrak, zukko, tez fikrlovchi, o‘tkir zehnli, maydonda ro‘y beradigan vaziyatni tez fahmlab, “foydali” javob qaytara oladigan ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi kerak. Sportchilarning yoshiga, tayyorgarligiga, malakasiga hamda sport trenirovkasi davriga va vazifalariga qarab, jismoniy tayyorgarlikni mazmuni, hajmi va shiddati turlicha bo‘ladi.

11.2. Jismoniy tayyorgarlikning vazifalari va mazmuni

Jismoniy tayyorgarlikning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Sog‘liqni mustahkamlash.
2. Hayotiy zarur harakat malakalarini takomillashtirish (yurish, chopish, sakrash va h.k.).
3. Harakat sifatlarini rivojlantirish.
4. Harakat malakalari hajmini oshirish va ularning ijroiyligi chegarasini kengaytirish.
5. Organizmning o‘yin davomida ishtirok etuvchi organ, bo‘lim va mushak guruqlarining funksiyalarini shakllantirish.

6. O‘yin malakalarini samarali o‘zlashtirishni ta’minlovchi maxsus sifatlarni rivojlantirish.

Jismoniy tayyorgarlik umumiy (UJT) va maxsus (MJT) jismoniy tayyorgarlikka bo‘linadi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik sport trenirovkasini muhim vazifalaridan biri sifatida shug‘ullanuvchilarning to‘laqonli jismoniy taraqqiyotini va har tomonlama jismoniy tayyorgarligini ta’minlashga qaratiladi. UJT hayotiy zarur harakat malakalarini takomillashtirishga va asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayondir. Maqsadi – MJTning poydevori bo‘lgan UJT bazasini yaratishdir.

Vazifalari – asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish, organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish, harakat malakalarining hajmi va ijroiylarini chegarasini kengaytirish, sog‘liqni mustahkamlash, tiklanish jarayonini faollashtirish, organizmning tashqi va ichki salbiy ta’sirlarga bo‘lgan bardoshini oshirishdan iborat.

Umumiy jismoniy sifatlarga kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik kiradi.

UJT – jismoniy sifatlarni alohida yoki birlashtirishda rivojlantiruvchi o‘ziga xos jismoniy mashqlardan iborat.

UJTni amalga oshirish jarayonida har xil sport uskunalaridan, anjomlardan, trenajyorlardan va tabiat omillaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sport trenirovkasining ayrim bosqich va davrlarida UJT mashqlari va mashg‘ulotlarining hajmi, shiddati, yo‘nalish va tuzilishi o‘ziga xosligi bilan farqlanadi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik – tanlangan sport turida yuqori natijalarga erishish maqsadida shu sport turida asosiy va hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayondir.

Vazifalari:

- badmintonga xos maxsus harakat sifatlari va qobiliyatlarini (tezkorlik, kuch, chaqqonlik, maxsus chidamlilik va hokazo) rivojlantirish;
- o‘yin texnikasini o‘zlashtirishda zarur bo‘lgan qobiliyatlarni rivojlantirish;

• o‘yin taktikasini o‘zlashtirishda zarur bo‘lgan qobiliyatlarni rivojlantirish.

MJT sport trenirovkasing barcha bosqich va davrlarida hajm va shiddat jihatidan munosib me’yorda qo‘llaniladi.

11.3. Jismoniy tayyorgarlikning vositalari va uslublari

Jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarni yechishda turli vositalar: tayyorgarlik mashqlari, harakatli va sport o‘yinlari, o‘quv o‘yinlari va musobaqalardan foydalanish mumkin. Shug‘ullanuvchilarning individual xususiyatlariga mashqlarning moslab qo‘llanilishi asosiy shartlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Shug‘ullanuvchilar uchun beriladigan jismoniy mashqlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) tana, qo‘l, oyoq mushaklarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi kuch va tezkorlik-kuch mashqlari;
- b) chidamlilik sifatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi (tezkorlik-chidamlilik, tezkorlik-kuch chidamliligi) mashqlar;
- d) harakatlanish tezkorligiga ta’sir etuvchi mashqlar;
- e) chaqqonlik sifatiga ta’sir etuvchi mashqlar;
- f) egiluvchanlik sifatiga ta’sir etuvchi mashqlar.

Bu mashqlardan foydalanish texnik va taktik usullarni bajarish sifatiga to‘g‘ridan- to‘g‘ri ta’sir etadi.

Jismoniy tayyorgarlikda qo‘llaniladigan uslublar. Shug‘ullanuvchilar uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni tarbiyalashda quyidagi uslublardan foydalaniladi:

1. Bazaviy chidamlilikni tarbiyalash uchun bir tekis uzoq muddatli yugurish.
2. Maxsus chidamlilikni tarbiyalashda o‘zgaruvchan yo‘nalishdagi ishlarni bajarish.
3. Takroriy mashq usuli. Bu usul tezkorlik, kuch va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishda qo‘llanilib, bunda dam olish oraliqlari organizmning to‘liq tiklanishiga imkoniyat yaratishi zarur.
4. Oraliq uslub. Bu uslub asosan tezkorlik va kuch, chidamlilikni tarbiyalashda qo‘llaniladi. Bunda ish va dam olish qat’iy ravishda tartiblashtiriladi. Dam olish oralig‘i, odatda, katta bo‘lmaydi.

5. Almashinuvchi mashq usullari. Bu usulning muhim tomoni – mashqning borishiga qarab ta’siri bir maqsadga qaratilgan holda o‘zgarishidir. Bunga turli hollarda turlicha yo‘l bilan yuklama (harakat tezligi, ish hajmi, muddati va h.k.)ning ayrim ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri o‘zlashtirish (harakat usulini naybatlash-tirish, shuningdek, dam olish oraliqlari va faoliyatning tashqi sharoitlarini o‘zgartirish) yo‘li bilan erishiladi. Bunda organizmning funksional imkoniyatlariiga odatdagidek bo‘lmagan, ja’ni tobora kattaroq talablar qo‘yiladi va bu bilan ularning rivojlanishi uchun imkoniyatlari yaratiladi. Shu bilan birga, harakat shakli va sharoitini yangilab turish tufayli o‘zlashtirilgan malakalarning mazmuni va shiddatiga o‘zgartirishlar kiritiladi.

Shug‘ullanuvchilarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash uchun berilayotgan mashqlar ularning yosh xususiyatlariga va jismoniy sifatlarning qulay davrlariga qarab tanlanishi hamda rivojlan-tirilishi juda muhim hisoblanadi.

11.4. Jismoniy sifatlarni tarbiyalash

11.4.1. Ish qobiliyati, charchash, tiklanish va jismoniy imkoniyatlarni oshirish

Faoliyat turlarining xususiyatiga qarab chарchoqning bir necha turlari mavjuddir. Bular aqliy, sensor (his-tuyg‘u organlariga tu-shadigan yuklama bilan bog‘liq) emotsiyonal va jismoniy charchoqdan iborat. Sport sohasi uchun mushak faoliyati tufayli hosil bo‘lgan jismoniy charchoq ko‘proq ahamiyatga ega.

Odam o‘z faoliyatida belgilangan yuklama shiddatini qachon-gacha saqlay olishini ko‘rsatadigan vaqt chidamlilikning asosiy o‘lchovidir. Chidamlilik bevosita va bilvosita usullar bilan o‘lchanadi. Bevosita o‘lchash usulida tekshirilayotganlarga biror bir top-shiriqni bajarish (masalan, berilgan tezlikda yugurish) tavsiya eti-ladi va ish qancha vaqtgacha berilgan shiddatda bajarilishi (tezlik pasaya boshlagunga qadar) aniqlanadi.

Kishining harakat faoliyati xilma-xildir; chарchoqning xarak-teri va mexanizmlari ham turli hollarda turlicha bo‘ladi. Sportda umumiy charchoq ko‘proq uchrab turadi.

Shakl jihatdan bir xil bo'lgan mashqlarni turli shiddatda bajarish mumkin, shunga muvofiq, bu mashqlarni bajarishga sarflanadigan vaqt chegarasi bir necha sekunddan bir necha soatgacha bo'ladi. Bu hollarda charchash mexanizmlari ham turlicha bo'ladi. Shuning uchun jismoniy mashqlar shiddatiga ko'ra ham turkumlanadi.

Aerob imkoniyatlarni oshirish uslubiyati. Trenirovka jarayonida organizmning aerob imkoniyatlariiga ta'sir etish orqali uch vazifa hal etiladi:

- 1) kislorod iste'mol qilishning maksimal darajasini oshirish;
- 2) shu darajani uzoq vaqtgacha saqlab turish qobiliyatini rivojlantirish;
- 3) nafas olish jarayonlarining maksimal miqdorgacha tezroq yetishini ta'minlash.

Aerob imkoniyatlarni oshirishda bir me'yorda mashq qilish usulidan, shuningdek, takroriy va o'zgaruvchan mashq usullaridan foydalilaniladi. Bir me'yorda to'xtovsiz mashq qilish umumiy chidamlilikni tarbiyalashning dastlabki bosqichlarida, ayniqsa, keng qo'llaniladi.

Aerob imkoniyatlarni oshirishda, garchi birinchi qarashda tushunarsiz bo'lib ko'rinsa ham, qisqa muddatli dam olish oraliqlariga bo'lingan takrorlash tarzida bajarilayotgan ishlari (oraliqli takroriy va o'zgaruvchan mashq usullari) ko'proq samara beradi. Qisqa vaqt ichida shiddatli faoliyat natijasida hosil bo'ladigan anaerob parchalanish mahsulotlari nafas olish jarayonlarining kuchli stimulyatori bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun bunday ish bajargandan so'ng dastlabki 10-90 soniya ichida kislorod iste'mol qilish ortadi, yurak ishining ba'zi bir ko'rsatkichlari ham oshib boradi – haydalayotgan qon hajmi ortadi. Agar qayta yuklama bu ko'rsatkichlar ancha yuqori bo'lib turgan vaqtida bajarilsa, mashqni takrorlagan sari kislorod iste'mol qilish ortib boradi. Chegara darajadagi miqdorga yetgach, u shu darajada barqaror bo'lib qoladiki, ishning oxirigacha qayta pasaymaydi. Ish va dam olishning ma'lum bir nisbatida organizmning kislorodga bo'lgan talabi bilan kislorod iste'mol qilish o'rtasida muvozanat hosil bo'lishi mumkin.

Aerob imkoniyatlarni oshirish uchun takroriy va takroriy-o'zgaruvchan mashq usullaridan foydalanganda, asosiy vazifa ishlash bilan dam olishning eng yaxshi variantini tanlashdan iborat. Taxminan quyidagi xarakteristikalarini ko'rsatish mumkin:

1. Ishning shiddati maksimal ko'rsatkichning taxminan 75-85% darajasida bo'lishi kerak. Tomir urushi daqiqasiga 130 tadan kam bo'lishiga olib keladigan past shiddatli yuklamalar aerob imkoniyatlarning sezilarli ortishiga olib kelmaydi.

2. Dam olish oraliqlari shunday bo'lishi kerakki, keyingi bajariladigan ishlar oldingi ishdan keyin ro'y bergan qulay o'zgarishlar holatida sodir bo'lsin. Dam olish oralig'i 3-4 daqiqadan oshmasligi kerak, chunki bu vaqtga kelib, mushaklarning ish jarayonida kengaygan qon tomirlari qisqarib ulguradi, natijada, takroriy ishning dastlabki daqiqalarida qon aylanishi ancha qiyinlashadi.

3. Dam olish oraliqlarini unchalik tez bajarilmaydigan ishlar (lo'killab yugurish, yurish va boshqalar) bilan to'ldirish tavsiya etiladi. Buning bir qator afzalliklari bor: dam olishdan ish holatiga va aksincha, ish holatidan dam olish holatiga o'tish osonlashadi, tiklanish jarayonlari birmuncha tezlashadi va hokazo.

4. Takrorlashlar soni shug'ullanuvchilarning barqaror holatni tutib turish, ya'ni kislorod iste'mol qilish yetaricha yuksak darajada bo'lган sharoitda ishlash imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Charchoq paydo bo'la boshlashi bilan kislorod iste'mol qilish darajasi pasayadi. Odatda, bu pasayish ishni to'xtatish uchun signal bo'lib xizmat qiladi.

Anaerob imkoniyatlarni oshirish uslubiyati. Anaerob imkoniyatlarni oshirishda ikki vazifani hal qilish kerak:

1) fosfokreatin mexanizmining funksional imkoniyatlarini oshirish;

2) glikolitik mexanizmni takomillashtirish. Vosita sifatida, odatda, tegishli shiddatli siklik mashqlardan foydalaniadi.

Kreatinfosfat mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan yuklamalar quyidagi xarakteristikalar bilan farqlanadi:

1. Ishning shiddati chegara darajasidagi tezlikka yaqin, maksimal tezlikning 95% igacha.

2. Dam olish taxminan 2-3 daqiqaga teng bo‘lishi kerak. Biroq mushaklardagi kreatinfosfat zaxiralari juda kam bo‘lganligi uchun, mashq 3-4 marta takrorlanganidan keyin fosfokreatin mexanizmining imkoniyatlari tugaydi.

Shuning uchun mashg‘ulotlarda rejalashtiriladigan ish hajmini har birida 4-5 ta takrorlanish bo‘ladigan bir necha seriya-larga bo‘lib yuborish maqsadga muvofiqdir. Seriyalar oralig‘idagi dam olish vaqt 7-10 daqiqa bo‘lishi mumkin.

3. Takrorlashlar soni shug‘ullanuvchilarning tayyor ekanlik darajasiga qarab belgilanadi.

Glikolitik mexanizmni takomillashtirishda yuklamalar quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

1. Ishning shiddati mashq uchun tanlangan masofaning uzunligi bilan belgilanadi. Siljish tezligi mazkur masofadagi chegara tezlikka yaqin (chegara tezlikning 90-95%) bo‘lishi kerak.

2. Dam olish oraliqlari glikolitik jarayonlar dinamikasi bilan belgilanadi. Dam olish oraliqlarini sekin-asta kamayib boradigan qilish kerak. Masalan, 1- va 2- takrorlash oralig‘ida 5-8 daqiqa, 2- va 3- sida 3-4 daqiqa, 3- va 4- sida esa 2-3 daqiqa.

3. Bunday holda dam olish oraliqlarini boshqa ish turlari bilan to‘ldirish kerak emas. Faqat batamom harakatsiz qolinmasa bas.

4. Dam olish oraliqlari kamayib boruvchi faoliyatda takrorlashlar soni, charchoq tez ortib borgani sababli, uncha ko‘p bo‘lmaydi (3-4 tadan ko‘p emas). Seriyalar oralig‘idagi dam olish vaqtı kamida 15-20 daqiqa bo‘lishi kerak.

Sport bilan endigina shug‘ullana boshlaganlar va kichik razryadli sportchilar, odatda, bir mashg‘ulotda ko‘pi bilan 2-3 seriya bajarishlari mumkin.

Shunday qilib, trenirovka jarayonida chidamlilikning xilmoxil tomonlariga ko‘proq ta’sir etish izchilligi quyidagicha bo‘lishi kerak: dastlab nafas olish imkoniyatlarini, so‘ngra glikolitik imkoniyatlarni va nihoyat, kreatinfosfat reaksiyasi energiyasidan foydalanish qobiliyati bilan belgilanadigan imkoniyatlarni oshirishga e’tibor beriladi.

Chidamlilik umumiy va maxsus bo‘ladi. Umumiy chidamlilik – bu uzoq vaqt mo‘tadil sur’at bilan bajariladigan ishdagi chidamlilik bo‘lib, u barcha mushak apparatlarining funksiyalarini

o‘zida qamrab oladi. Lekin bu ta’rif hozirgi paytda birmuncha eskirgan. Bu o‘rinda gap faoliyatning muayyan sur’ati haqida emas, balki mushakning har qanday holatidagi faoliyat haqida borishi kerak. Binobarin, buni mushaklar ishi oxirgi imkoniyat darajasida (ya‘ni uzoq vaqt) bajariladigan faoliyat deb tushunmaslik lozim, balki ishga layoqatning eng yuqori darajasini, mashg‘ulotlarda bajarilayotgan ishni butun vaqt davomida saqlay olishdir.

Maxsus chidamlilik sportchining maxsus yuklamalarni o‘z ixtisosligi talablari bo‘yicha uzoq vaqt davomida samarali bajara olish qobiliyatidir.

11.4.2. Chidamlilikni tarbiyalash

1. 15-20 soniya davomida sakrashlar. Birinchi urinishda maksimal darajada ko‘p sakrash. Ikkinci urinishda maksimal darajada balandroq sakrash. 4-5-seriyalarda 1-1,5 daqiqa davomida to‘xtovsiz sakrash. Ushbu mashqni arg‘amchilar bilan ham bajarish mumkin.

2. Pastki turish holatidan 1-1,5 daqiqa davomida turli yo‘nalishlarda harakatlanishlar. 3-4-seriyalarda 2-5 kg og‘irliklar bilan.

3. Hujum zarbasi va to‘sinqni taqlid qilib, orqa zonalarda do‘mbaloq oshishni navbatlashtirib bajarish. Har bir texnik usulni 10 marotabadan.

4. Turli harakatlanishlar bilan estafetalar o‘tkazish.

5. Turli yo‘nalish va masofalarga “mokkisimon yugurishlar”.

6. 2x2, 3x3, 4x4 tarkibda o‘quv o‘yinlari.

11.4.3. Tezkorlikni tarbiyalash

Tezkorlik deb, muayyan faoliyatni qisqa muddat ichida ijro etilishiga aytildi. Tezkorlik namoyon bo‘lishining uchta asosiy shakllari mavjuddir:

1. Harakat reaksiyalarining latent (yashirin) vaqtisi.

2. Ayrim harakatlar tezligi (tashqi qarshilik kichik bo‘lganda).

3. Harakatlar chastotasi.

Tezkorlik namoyon bo'lishining shakllari bir-biriga nisbatan bog'liq emas.

Ko'rsatib o'tilgan uchta shaklning birgalikda kelishi tezkorlik namoyon bo'lishining barcha hollarini belgilaydi. Biroq murakkab-koordinatsion yaxlit harakatlardagi tezlik faqat tezkorlik darajasiga emas, balki boshqa sabablarga ham bog'liq. Shuning uchun yaxlit harakat tezligi kishining tezkorligini faqat bilvosita ifodalaydi.

Kishining tezlik qobiliyatları umuman o'ziga xos bo'ladi. Faqat bir-biriga o'xshash harakatlardagina tezkorlik to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita bir-biriga ko'chishi mumkin.

Tezkorlikning fiziologik va bioximik asoslari. Reaksiyaning latent vaqtı beshta tarkibiy qismidan iborat:

1) retseptorda qo'zg'alishning paydo bo'lishi;

2) qo'zg'alishni markaziy nerv sistemasiga uzatish;

3) qo'zg'alishning nerv yo'llari bo'ylab o'tib borishi va effektor signal hosil bo'lishi;

4) signalning markaziy nerv sistemasidan mushakka o'tkazilishi;

5) mushakning qo'zg'alishi va unda mexanik faollikning paydo bo'lishi.

Maksimal tezlikda bajariladigan harakatlar fizilogik xususiyatlarga ko'ra sustroq harakatlardan farq qiladi. Bular orasidagi eng muhim farq shundan iboratki, harakatlarni maksimal tezlikda bajarish davomida sensor bog'lanishlar hosil bo'lishi qiyinlashadi: reflektor yoy impulslarni tashib ulgurolmaydi. Tezlik juda katta bo'lganida harakatlarni yetarlicha aniqlik bilan bajarishning qiyinligi mana shu bilan bog'liqdir.

Oddiy reaksiya tezkorligini tarbiyalash. Harakatlantiruvchi reaksiya tezligi ta'sirga javob berishning latent vaqtı bilan belgilanadi. Reaksiyalar oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy reaksiya oldindan ma'lum bo'lgan signalga ilgaridan ma'lum bo'lgan harakat bilan javob berishdir.

Tezkorlikning juda ko'p o'tishi (boshqa biror harakatga o'tishi) oddiy reaksiyalar uchun xarakterlidir: ayrim vaziyatlarda tezda biror qarorga keluvchi kishilar boshqa sharoitlarda ham

tezroq biror fikrga keladilar. Tez bajariladigan xilma-xil mashqlar bilan shug‘ullanish oddiy reaksiya tezkorligini yaxshilaydi.

Harakatlantiruvchi reaksiya tezkorligini anchagina yaxshilash g‘oyat murakkab vazifadir.

Oddiy reaksiya tezkorligini tarbiyalashda bir necha usullardan foydalilaniladi. Bulardan eng ko‘p tarqalgani to‘satdan paydo bo‘ladigan signalga yoki tevarak-atrofdagi vaziyatning o‘zgari-shiga javoban mumkin qadar tezroq reaksiya ko‘rsatish usulidir. Bu usul yangi shug‘ullanuvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda tez orada ijobjiy natijalar ko‘rsatadi. Afsuski, shundan keyin reaksiya tezkorligi stabillashib qoladi va uning yaxshilanishi ancha qiyin bo‘ladi.

Reaksiya tezkorligi katta ahamiyatga ega bo‘lgan hollarda uni takomillashtirish uchun maxsus usullardan foydalilaniladi. Bu usullardan biri – reaksiya tezkorligini yengillashtirilgan sharoitlarda va uni keyingi harakat tezligini ayrim-ayrim takomillashtirishdan iboratdir.

Reaksiyaning latent vaqtি reaksiya ko‘rsatishdan oldingi ratsional xatti-harakat hisobiga birmuncha yaxshilanishi mumkin. Jumladan, diqqatning yo‘nalishi ahamiyatga ega bo‘ladi: agar diqqat bajarilajak harakatga qaratilgan bo‘lsa (reaksiyaning motor tipi), u holda reaksiya ko‘rsatish vaqtি diqqat signalni idrok qilishga (reaksiyaning sensor tipi) qaratilganligidan ko‘ra kamroq bo‘ladi. Mushaklar bir oz kuchlanganda ham reaksiya tezkorligi ortadi. Reaksiya tezkorligi, shuningdek, signalni kutish vaqtiga ham bog‘-liq: dastlabki va ijro jamoalari orasidagi optimal vaqt 1,5 soniyaga yaqindir.

Murakkab reaksiya tezkorligini tarbiyalash. Murakkab reaksiyaning ikki xili, ya’ni harakatdagi obyektga bo‘ladigan reaksiya va tanlash reaksiyasi ustida to‘xtalib o‘tamiz.

Harakatdagi obyektga bo‘ladigan reaksiyada volan qabul qiluvchi o‘yinchining harakatlarini ko‘rib chiqaylik. Bu holda o‘yinchi quyidagilarni bajarishi kerak: 1) volanni ko‘rish; 2) volanning yo‘nalishini va uning uchish tezligini baholash; 3) bajariladigan amal rejasini tanlash; 4) bu rejani ro‘yobga chiqara boshlash. Mazkur holda reaksiyaning yashirin davri mana shu to‘rt elementdan tashkil topadi. Harakatdagi obyekt to‘satdan paydo bo‘lganda,

bu obyektga reaksiya ko'rsatish 0,25 soniyadan 1 soniyagacha vaqtini oladi. Bu vaqtning asosiy qismi birinchi elementga, ya'ni volanni tez ko'rib olishga sarf bo'lishi tajribalarda kuzatilgan. Sensor fazaning o'ziga juda kam – 0,05 soniya vaqt ketadi. Shunday qilib, harakat qilayotgan volanni ko'ra bilish asosiy ahamiyatga ega. Aynan mana shu qobiliyatni o'stirishga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun harakatdagi buyumga reaksiya ko'rsatishga doir mashqlardan foydalilaniladi; trenirovka talablari harakatdagi buyumning tezligini oshirish, obyektning to'satdan paydo bo'lishi, sportchi bilan buyum o'rtasidagi masofani qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi. Kichik volan (badminton volani) bilan bajariladigan harakatlari o'yinlar juda foydalidir. Obyekt (jumladan, o'yindagi volan) siljiy boshlaguncha ko'rib qolangan bo'lsa, reaksiya vaqtি ancha kamayadi. Bunda volanga zarb berayotgan o'yinchining harakatlariga binoan volanning yo'nalishini va uchish tezligini aniqlay bilish katta ahamiyatga ega.

Harakatdagi obyektga reaksiya ko'rsatishning aniqligi shu reaksiya tezligini o'stirish bilan parallel ravishda takomillashtirib boriladi. Faqat dastlabki bir necha mashg'ulotnigina reaksiya aniqligini rivojlantirishga maxsus ajratish kerak. Bunda shug'ullanuvchilarga harakatdagi obyektdan ildamroq harakat qilish zarurligini tushuntirish lozim.

Tanlash reaksiyasi raqib xatti-harakatlarining yoki tevarak-atrofdagi sharoitning o'zgarishiga muvofiq ravishda, mumkin bo'lgan harakatlantiruvchi javoblardan keragini tanlab olish bilan bog'liq. Tanlash reaksiyasining murakkabligi sharoitning o'zgarish imkoniyatlari rang-barangligiga, chunonchi, raqibning xilma-xil harakat qilishiga bog'liq. Badmintonchilarning murakkab reaksiyasiga bo'lgan talab nihoyatda katta.

"Murakkab reaksiyani tarbiyalashda" oddiydan murakkabga degan pedagogik tamoyilga rioya qilinib, sharoitning mumkin bo'lgan o'zgarishlari soni asta-sekin oshirib boriladi. Masalan, dastlab oldindan kelishib olingen zarbga javoban qanday himoyalanish kerakligi o'rgatiladi; keyinchalik shug'ullanuvchiga ehtimol tutilgan ikki xil usuldan biriga, so'ng uch xildan biriga, to'rt xildan biriga va hokazo javob berish tavsiya qilinadi. Asta-sekin bu mashq haqiqiy sharoitga yaqinlashtirib boriladi.

Harakat tezkorligini tarbiyalash uslubiyati. Harakat tezkorligini tarbiyalash jarayonida organizmning harakat faoliyati xilma-xil turlaridagi (bevosita amaliy va sport faoliyatidagi) tezlik xarakteristikasini belgilovchi funksional imkoniyatlarni har tomonlama oshirib borish zarur. Shug‘ullanuvchi biror-bir faoliyatda namoyon qilishi mumkin bo‘lgan maksimal tezlik shu kishida faqat tezkorlik qanchalik rivojlanganligiga emas, balki bir qator boshqa omillarga – dinamik kuch, chaqqonlik, texnikaning egallanganligi darajasi va boshqalarga bog‘liq. Shuning uchun harakat tezligini tarbiyalash boshqa jismoniy sifatlarni tarbiyalash hamda texnikani takomillashtirish bilan mustahkam bog‘liq holda olib borilishi kerak.

Maksimal tezlikda bajarish mumkin bo‘lgan mashqlardan (bularni, odatda, tezkor mashqlar deb ataydilar) tezkorlikni tarbiyalash vositasi sifatida foydalaniladi. Ular quyidagi talablarni qondirishi kerak:

1) texnika mashqni juda tez bajarishga imkon beradigan darajada bo‘lishi kerak;

2) mashqlarni bajarish vaqtida asosiy irodaviy zo‘riqish mashqni bajarish usuliga emas, balki ularni bajarish tezligiga qaratilishi uchun mumkin darajada yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lishi kerak;

3) mashqlarning davomiyligi ularni bajarish oxirida charhash tufayli tezlikning kamayib ketishiga olib kelmasligi kerak.

Tezkorlikni tarbiyalash usullari ichida takroriy mashq usuli keng qo‘llaniladi. Bundagi asosiy tendensiya – mashg‘ulotda o‘z maksimal tezligini oshirib borishga intilishdir. Usulning barcha xususiyatlari (masofaning uzunligi, bajarish shiddati, dam olish oraliqlari, takrorlash soni va boshqalar) shunga bo‘ysundirilgan. Masofaning uzunligi (yoki mashqning qancha davom etishi) har galgi mashq bajarish oxirida siljish tezligi (ishning shiddati) kamaymaydigan qilib tanlanadi. Harakatlar maksimal tezlikda bajariladi; shug‘ullanuvchilar har safar o‘zлari uchun eng yaxshi natija ko‘rsatishga intiladilar. Mashq bajarish gallari o‘rtasidagi dam olish oraliqlari kuchning nisbatan to‘la tiklanishini ta’minlaydigan darajada katta bo‘lishi lozim. Harakatlar tezligi

takrorlashlar o‘rtasida sezilarli darajada kamayib borishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Tez bajariladigan mashqlar takrorlanganda, to‘la tiklanish uchun dam olish oraliqlari yetarli bo‘lmaganligi sababli, charchash nisbatan tez boshlanadi, tashqi tomondan bu tezlikning pasayganligida ifodalanadi. Tezlikning pasayishi mazkur mashg‘ulotda tezkorlikni tarbiyalashni to‘xtatish uchun birinchi signal bo‘lib xizmat qiladi: bundan keyin mashqni takrorlash faqat chidam-lilikning o‘sishiga yordam beradi, xolos.

Tezkorlikning namoyon bo‘lishi uchun mashg‘ulotlarda o‘yin va ayniqsa, musobaqa usulidan foydalanish katta ahamiyatga ega. Musobaqalar, odatda, ko‘tarinki ruh paydo qiladi, kishini anchagina zo‘r berishga majbur etadi – bu esa ko‘p hollarda sport natijalarining yaxshilanishiga olib keladi.

Yangi shug‘ullanuvchilar bilan ishlashning asosiy vazifasi sportchini biror-bir alohida mashqni bajarishga ixtisoslashtirmay, balki boshqa vositalarni qo‘llab va ularni ko‘p jihatdan o‘zgartira borib, nisbatan yuqori natijalarga erishishdan iboratdir. Bunda tezkorlik mashqlaridan standart holda emas, balki o‘zgaruvchan sharoit va shakkarda foydalanish kerak. Jumladan, harakatli o‘yinlar va sport o‘yinlari, ochiq joyda bajariladigan mashq va hokazolar ayniqsa foydalidir.

Biror-bir harakatda asosan ikki yo‘l bilan tezlikni oshirish mumkin:

- 1) maksimal tezlikni oshirish hisobiga;
- 2) maksimal kuchni oshirish hisobiga.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, maksimal tezlikni sezilarli oshirish juda ham qiyin, kuch imkoniyatlarini oshirish esa birmuncha yengil hal qilinadi. Shuning uchun amalda tezlik darajasini oshirish uchun kuch oshiradigan mashqlardan keng foydalaniladi. Harakat vaqtida yengish lozim bo‘lgan qarshilik qancha ko‘p bo‘lsa, bu mashqlarning samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Harakatlar tezligini oshirishga qaratilgan kuchni oshirish tayyorgarligi jarayonida ikki asosiy vazifa hal qilinadi:

- 1) maksimal mushak kuchi darajasini (kuch qobiliyatlarining o‘zini) oshirish;

2) tezkor harakatlar sharoitida eng ko‘p kuch namoyon qilish qobiliyatini (tezkorlik-kuch qobiliyatlarini) tarbiyalash.

Tezkorlik-kuch mashqlarini kuch mashqlarining o‘ziga asoslanib, ular bilan birgalikda qo‘llash kerak.

Tezkorlik sifatini rivojlantirishda foydalilaniladigan namunaviy mashqlar:

1. Ko‘rish signaliga ko‘ra, turli dastlabki holatlardan (turib, o‘tirib, yotib) tezlanib yugurishlar.
2. Harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirib yugurishlar.
3. Ayrim harakat usullarini tez o‘zgartirib taqlid qilish.
4. Bir turdag‘i harakatdan boshqa turdag‘i harakatlarga tez o‘tish.
5. Tezkorlikni talab etuvchi estafetalar.

11.4.4. Kuch sifatini tarbiyalash

Tashqi qarshiliklarni mushak kuchi yordamida yengish yoki unga qarshi turish kuch sifatini ta’riflaydi. Mushaklar kuchi quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- 1) o‘z uzunliklarini o‘zgartirmay (statik, izometrik);
- 2) o‘z uzunliklarini qisqartirib (qarshiliklarni yenguvchi, miometrik);
- 3) uzayib (yon beruvchi, pliometrik).

Qarshiliklarni yenguvchi va ularga yon beruvchi mushak kuchlari birgalikda “dinamik rejim” deb ham yuritiladi. Kuch sifatini taqqoslashda quyidagi kuch turlari farqlanadi:

1. Nisbiy kuch. Nisbiy kuch deganda o‘z vaznining bir kilogrammiga to‘g‘ri keladigan kuch miqdori tushuniladi.
2. Absolyut kuch. Biror bir harakatda o‘z og‘irligidan qat’i nazar namoyon qilingan kuch tushuniladi.
3. Tezkor kuch (portlovchi kuch). Qisqa vaqt ichida katta miqdordagi kuchning namoyon qilinishi tushuniladi.

Qarshiligi oshirilgan mashqlar kuchni rivojlantirishda asosiy vosita bo‘lib hisoblanadi. Bu vositalar ikki guruhga bo‘linadi:

1. Tashqi qarshiliklarni yengish bilan bajariladigan mashqlar. Odatda, tashqi qarshilik sifatida quyidagilardan foydalilaniladi:

buyumlarning og‘irligi; sherikning qarshiligi; elastik buyumlarning qarshiligi; tashqi muhit qarshiligi.

2. O‘z vazni og‘irligini yengib bajariladigan mashqlar.

Og‘irlik ko‘tarib bajariladigan mashqlar juda qulay bo‘lib, ular yordamida ham kichik, ham katta mushak guruhlariga ta’sir ko‘rsatish mumkin. Bu mashqlarni me’yorlash ham oson. Og‘irlik ko‘tarib bajariladigan mashqlarda dastlabki holat yetakchi rolni o‘ynaganligi sababli, bunga alohida e’tibor qaratish zarur bo‘ladi.

Cho‘ziluvchan va elastik buyumlar (prujinali espanderlar, rezinka) bilan bajariladigan mashqlarda harakatning oxiriga borib zo‘riqishning ortib borishi xarakterlidir.

O‘z gavda og‘irligini yengish mashqlari, odatda, osilish va tayanish holatlarida amalga oshiriladi.

Kuch mashqlariningyuqorida keltirilgan tasnifi bilan bir qatorda, ularning saralab ta’sir etish darajasiga (umumiyl va nisbatan ma’lum bir joyga ta’sir etishiga) ko‘ra, shuningdek, mushaklarning ishlash rejimiga ko‘ra, statik va dinamik, kuchlilik va tezkorlik-kuch, qarshiliklarni yenguvchi va yon beruvchi mashqlarga bo‘linishini ham e’tiborga olish kerak.

Agar shug‘ullanuvchining kuchiga muntazam ravishda zo‘r berilmasa, mushak kuchi o‘smay qolishi, hatto kamayib ketishi ham mumkin.

Maksimal darajada zo‘r berishni turli yo‘llar bilan hosil qilish mumkin:

1. Chegaraga yaqin bo‘lmagan og‘irliklarni (qarshiliklarni) yengishni chegara darajasida ko‘p marotaba takrorlash.

2. Tashqi qarshilikni chegara darajagacha oshirish (dinamik va statik faoliyatlarda).

3. Qarshiliklarni chegara darajadagi tezlik bilan yengish.

Kuch sifatini rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlar:

1. Kaft va panjalarni sherikning qarshilagini yengib (yoki gantellar bilan) bukib-yozish mashqlari.

2. Turli og‘irlikdagisi to‘ldirma volanlarni irg‘itish. Asosiy e’tibor qo‘l harakatlariga qaratiladi.

3. Qo‘llarga tayanib yotgan holda ularni bukib-yozish, yer-dan uzib chapak chalish mashqlari.

4. Amortizatorli jihozlarni cho‘zish bilan boradigan tuzilishi bo‘yicha texnik usullarga o‘xshash mashqlarni bajarish.

5. Og‘irliklar (shtanga lappagi, gantellar, qum to‘ldirilgan qopchalar) bilan gavdaning aylanma harakatli mashqlari.

6. Shtangani ko‘krakka ko‘tarib o‘tirib-turish mashqlari.

7. Shtangani yelkaga olib sakrashlar. Og‘irlik maksimal 50% hajmida.

8. Arg‘amchi bilan sakrashlar.

9. Joydan va yugurib kelib, yuqoriga ilib qo‘yilgan pred-metga qo‘l tekkizish yoki olish.

10. Bir va ikki oyoqda uzunlikka sakrashlar.

11. To‘siqlar ustidan ko‘p sakrashlar.

12. Chuqurlikka sakrashlar.

11.4.5. Chaqqonlikni tarbiyalash

Chaqqonlik bir qancha ko‘rsatkichlar bilan aniqlanishi sababli yagona ta’rifga ega emas.

Har qanday harakat biror bir aniq vazifani hal qilishga qaratilgan bo‘ladi: mumkin qadar balandroq sakrash, volanga zarba berish, volanni uzatish va boshqalar. Harakat vazifasining murakkabligi ketma-ket bajariladigan harakatlarning uyg‘unligi bilan belgilanadi. Harakatlarning koordinatsion murakkabligi chaqqonlikning birinchi mezoni hisoblanadi.

Agar harakat yetarli darajada aniq bo‘lsa, harakat vazifasi bajariladi. Harakatning aniqligi chaqqonlikning ikkinchi o‘lchovi hisoblanadi.

Agar shug‘ullanuvchi o‘zi uchun yangi harakatlarni tezda bajara olsa, ushbu harakatlarni o‘zlashtirib olishga ko‘proq vaqt ketkazgan shug‘ullanuvchiga nisbatan chaqqonroq hisoblanadi. Shuning uchun harakatlarni o‘zlashtirib olishga sarflanadigan vaqt chaqqonlik ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lishi mumkin. Yuqorida-gilarni hisobga olib, chaqqonlikni yangi harakatlarni tezda o‘zlash-tirib olish, harakat faoliyatini to‘satdan o‘zgarayotgan sharoit

talablariga muvofiq ravishda tezda qayta qurish qobiliyati deb atash mumkin bo‘ladi.

Chaqqonlikni tarbiyalash koordinatsion jihatdan murakkab harakatlarni o‘zlashtirib olish, harakat faoliyatini to‘satdan o‘zgargan sharoit talablariga muvofiq ravishda qayta qurish qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. Bunda muvozanatni saqlash, galma-gal zo‘r berish va bo‘shashtirish harakatlarini tanlab takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Chaqqonlikni tarbiyalashning asosiy yo‘li yangi xilma-xil harakat ko‘nikma va malakalarini o‘rganib olishdir. Bu harakat zahiralarining ortib borishi va harakat analizatorining funksional imkoniyatlariga samarali ta’sir etadi. Yangi harakatlarga o‘rgatishning uzlusiz bo‘lishi tavsiya etiladi. Chunki shug‘ullanuvchilarni yangi harakatlarga muntazam o‘rgatib borilmasa, harakatlarga o‘rganish qobiliyati pasayib ketadi.

Harakat faoliyatini tez va maqsadga muvofiq ravishda qayta qurish qobiliyati sifatidagi chaqqonlikni tarbiyalash uchun to‘satdan o‘zgargan sharoitdagi ta’sirlarga darhol javob berish bilan bog‘liq bo‘lgan mashqlar qo‘llaniladi. Chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar nisbatan tez charchashga olib keladi. Ayni paytda esa bu mashqlarning bajarilishi mushaklarning niroyatda aniq sezib turishini talab etadi va charchash sodir bo‘lganda kam samara beradi. Shuning uchun chaqqonlikni tarbiyalashda darm olish oraliqlari to‘liq tiklanish uchun yetarli bo‘lishi lozim.

Badmintonda muvozanatni saqlash va uni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratiladi.

Muvozanat deganda, gavdani turg‘un bir holatda saqlash qobiliyati tushuniladi. Badmintonda muvozanatni saqlash statik (deyarli harakatsiz muvozanat) va dinamik (harakat vaqtidagi muvozanat) bo‘lishi mumkin. Muvozanat funksiyasi qanchalik takomillashgan bo‘lsa, u muvozanatni shunchalik tez tiklab oladi, unda tebranish amplitudasi shunchalik kichik bo‘ladi.

Muvozanat saqlashni ikkita asosiy yo‘l bilan tarbiyalash mumkin. Birinchisi, muvozanatni saqlash mashqlarini qo‘llash, ya’ni muvozanat saqlashni qiyinlashtiradigan sharoitlardagi mashqlar va holatlar. Ikkinci yo‘l muvozanat (vestibulyar va harakat muavozanati) yo‘qolmasligini ta’minlovchi analizatorlarni

tanlab takomillashtirishga asoslangan. Vestibulyar funksiyani takomillashtirish uchun to‘g‘ri chiziqli va burchakli tezlanishlar bilan bajariladigan mashqlardan foydalaniladi.

Chaqqonlik sifatini rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlar

1. Bir va ko‘p marotaba oldinga va orqaga do‘mbaloq oshishlar. Xuddi shu mashq ayrim texnik usullarni bajargandan so‘ng.
2. Turgan joydan va yugurib kelib 180° , 270° , 380° ga buri‘ib bir va ko‘p marotaba sakrashlar. Burilishlar bilan turli texnik harakatlarni bajarish.
3. Turli buyumlar orasidan va ustidan o‘tib harakatlanishlar.
4. Gimnastika ko‘prikchasidan depsinib havoda turli harakatlarni bajarib sakrashlar.
5. To‘sıqlar osha estafetalar.
6. Turli signal va ta’sirlarga belgilangan harakatlar bilan javob berish. Signallar va ta’sirlar sekin-asta ko‘paytirib boriladi.

11.4.6. Egiluvchanlikni tarbiyalash

Egiluvchanlik deganda tayanch-harakat apparatining morfo-funksional xususiyatlari tushunilib, bu xususiyatlar shu apparatning zvenolari harakatchanligini belgilaydi. Harakatlarning maksimal amplitudasi egiluvchanlikning mezoni bo‘lib xizmat qiladi. Amplituda burchak o‘lchovlarda yoki chiziqli o‘lchovlarda ifodalanadi. Egiluvchanlikning ikki turi farqlanadi: faol va sust egiluvchanlik.

Faol egiluvchanlik kishining o‘z mushaklari kuch berishi hisobiga namoyon bo‘ladi. Sust egiluvchanlik gavdaning harakatlanayotgan qismiga tashqi kuchlar, og‘irlik kuchi, sherikning qarshiligi va shu kabi kuchlardan foydalanganda namoyon bo‘ladi.

Egiluvchanlik mushak va to‘qimalarning elastikligiga bog‘liq bo‘ladi. Mushaklarning elastiklik xususiyatlari ko‘p darajada markaziy nerv tizimining ta’sirida o‘zgarishi mumkin.

Egiluvchanlikning namoyon bo‘lishi muhitning tashqi haroratiga ham bog‘liq bo‘ladi. Egiluvchanlik charchash ta’sirida sezilarli o‘zgaradi, jumladan, faol egiluvchanlik ko‘rsatkichlari kamyadi, sust egiluvchanlik ko‘rsatkichlari ortib boradi.

Egiluvchanlikni tarbiyalash uchun harakat amplitudasi oshirilgan (cho‘ziluvchanlikni oshiradigan) mashqlardan foydalaniladi. Harakatlarda biror bo‘g‘indagi harakatchanlikning ortishi shu bo‘g‘indan o‘tadigan mushaklarning qisqarishi hisobiga ro‘y beradi. Harakatlar bajarilish xarakteriga ko‘ra bir-birlaridan farq qiladi: bir fazali mashqlar va prujinasimon mashqlar; silkinish va ma’lum holatlarni qayd qilib turish; og‘irliklar bilan ishlash mashqlari. Cho‘ziluvchanlikni oshiradigan mashqlarni seriyalar bilan har birini bir necha marta takrorlab bajarish tavsiya etiladi. Bunda seriyadan seriyaga o‘tgan sari harakat amplitudasi orttirib boriladi. Har bir mashg‘ulotda cho‘ziluvchanlik mashqlarini ozgina og‘riq paydo bo‘lguncha bajarish lozim. Egiluvchanlik mashqlari mustaqil bajarish uchun topshiriq sifatida berilishi mumkin. Egiluvchanlik mashqlari tayyorgarlik qismida, asosiy qismning oxirida va boshqa mashqlar oralig‘ida bajariladi.

Egiluvchanlikni rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlar

1. Sherikning qarshiligini yengib bajariladigan cho‘zilish mashqlari.
2. Gimnastika halqalarida tebranishlar va aylanma harakatlar.
3. Rezina va prujinali amortizatorlar qarshiligini yengib bajariladigan aylanma (qo‘l va oyoqlar uchun) harakatlar.
4. Oldinga va orqaga ketma-ket engashishlar (og‘irliklar bilan ham bajariladi).
5. Predmet ustiga (gimnastik devorchaga) oyoqlarni yuqori ko‘tarib qo‘ygan holda ushlab turish. Oyoqlar holati navbatlashtirib turiladi.

Nazorat savollari

1. Jismoniy tayyorgarlikning umumiy asoslari va mohiyati nimalar bilan ifodalanadi?
2. Jismoniy tayyorgarlik zamonaviy badmintonda qanday ahamiyatga ega?
3. Jismoniy sifatlар mohiyati va mazmuni nimalar bilan ifodalanadi?
4. Jismoniy sifatlарни tarbiyalash uslubлari va vositalari haqida bat afsil tushunchalar bering.

XII BOB. O'YIN STRATEGIYASI

Sport o'yinlari amaliyotida strategiya va taktika turli o'zgaruvchan musobaqa vaziyatlarida raqibga qarshi qo'llaniladigan har bir texnik-taktik malakani yuksak samara bilan ijro etish va foydali natija ko'rsatishga qaratilgan uzoq hamda qisqa muddatli rejalgarda asoslanadi.

Strategiya va taktika sportchining intellektual-ruhiy imkoniyatlari bilan belgilanadi. Jumladan, xotira, diqqat, idrok, tafakkur, ong, hissiyat, ko'rish doirasining chuqurligi, oldindan bashorat qilish, vaziyat va raqib harakatlarini payqash, tahlil qilish va ayni vaqtida to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatları qanchalik shakllangan bo'lsa, shunchalik sportchiga muvaffaqiyat "kulib boqadi". Lekin buning o'zi yetarli bo'lmaydi. Sportchi o'zining bo'lajak raqibga xos sir-asrорlarni bilishi, u haqidagi barcha ma'lumotlar bilan qurollangan bo'lishi darkor. Bundan tashqari, sportchi musobaqa qaysi joyda yoki mamlakatda o'tkaziladi, shu mamlakatning iqlim sharoitlari – harorati, havo namligi, atmosfera bosimi, dengiz sathidan qancha balandlikda joylashganligi, kun-tun bioritmi va hokazo omillardan ogoh bo'lishi, musobaqa yoki musobaqalarda muvaffaqiyatlari ishtirok etish uchun maqsadli strategik va taktik reja tuzish imkoniyatini yaratadi. Bo'lajak raqib va bo'lajak musobaqa o'tkazish joyi haqidagi ma'lumotlarni toplash "sport razvedkasining" faoliyati asosida amalga oshiriladi. "Qo'lga kiritilgan mahfiy" ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish va shunga asosan bo'lajak musobaqa yoki musobaqalar modelini ishlab chiqish hamda uni o'quv-mashg'ulotlar jarayoniga joriy etish ishlab chiqiladigan strategik va taktik rejalarning samaradorlik koeffitsiyentini yanada oshiradi (5-andoza).

Har bir uchrashuv yoki musobaqalar siklida ishtirok etish muvofiq strategik va taktik vazifalar asosida amalga oshiriladi.

Strategik vazifalar turli miqyos va xususiyatlar bilan ifodalanadi. Ushbu vazifalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh: ko'p sonli musobaqalar siklida ishtirok

etish bilan bog'liq vazifalar, ikkinchi guruh: kam sonli va qisqa muddatli musobaqalar yoki turnirlarda ishtirok etish bilan bog'liq vazifalar; uchinchi guruh: alohida musobaqa uchrashuvida ishtirok etish bilan bog'liq vazifalar.

Musobaqalar sikliga va alohida musobaqa uchrashuvlariga tayyorgarlik ko'rishda shu musobaqalar, musobaqalar ishtirokchilari (sportchilar), musobaqalarni o'tkazish joylari, bo'lajak raqiblar haqida to'plangan ma'lumotlarga asoslangan mashg'ulotlar modellari ishlab chiqiladi va shunga muvofiq jismoniy, ruhiy va texnik-taktik imkoniyatlar "charhlanadi", kontrmodellar loyihasiga muayyan strategik va taktik imkoniyatlar sinov mashqlarida mukammallashtiriladi. Mazkur jarayonni tashkil qilishda quyidagi prinsiplarga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi: istiqbolga qaratilgan keng qamrovli prinsip, faollik prinsipi, serqirrali harakat prinsipi, o'zgaruvchanlik prinsipi, favqulodda harakatlanish prinsipi, o'zaro hamkorlik prinsipi – just o'yinlar uchun. Strategik va taktik harakatlar samaradorligini oshirish uchun qayd etilgan prinsiplarga quyidagi xulqiy harakatlarni ham qo'shimcha qilish mumkin: raqibni chalg'itish, raqibni ruhiy ta'qib qilish, o'z kamchiligini oshkor qilmaslik (6-andoza).

Istiqbolga qaratilgan keng qamrovli prinsip asosan strategik faoliyatga mansub bo'lib, o'z tarkibiga boshqa prinsiplarni, mashg'ulot, musobaqalar, musobaqa o'tkazish joylari va sportchining o'z imkoniyatlari bilan bog'liq vaziyatlarni kiritadi. Mazkur prinsip asosida to'plangan "razvedka" materiallari, tahlil qilinadi, tabaqalashtiriladi va shunga binoan qisqa va uzoq muddatli strategik modellar loyihasi ishlab chiqiladi. Boshqa prinsiplar doirasida tuzilgan strategik va taktik rejalar yuqorida qayd etilgan bosh istiqbol prinsipiiga bo'ysunadi. Musobaqa yoki musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish mashg'ulotlari aynan ushbu modellar va strategik-taktik rejalar asosida tashkil etilishi maksimal foydali natijaga erishish imkoniyatini yaratadi.

Faollik prinsipi o'yinchini "razminka" va uchrashuv davomida faol xatti-harakat ko'rsatishi bilan ifodalanadi. Harakat qanchalik faol, serqirrali, o'zgaruvchan va chalg'ituvchan bo'lsa, bunday harakat raqibga shunchalik tahdidli vaziyat tug'diradi, uning ishonchiga putur yetkazadi. Lekin faollik prinsipini

qo'llashda ortiqcha kuch sarflamaslik tavsiya etiladi. Faol harakatlar asosan imo-ishora, taqlid va chalg'ituvchi elementlardan iborat bo'lishi darkor.

Favqulotda harakatlanish prinsipi tinch holatdan keskin harakatga o'tish, "yolg'on" harakatdan tezda kutilmagan harakatga ko'chish bilan ifodalanadi. Harakat reaksiyasi raqib uchun qanchalik kutilmagan bo'lsa, shu harakatning unumдорligi shunchalik yuksak bo'ladi.

Serqirrali harakat prinsipi – bu harakatni sermazmunligi, ko'p yo'nalishliligi va o'zgaruvchanligi bilan farqlanadi. Agar harakat stereotip (bir hil) mazmunda, standart tezlikda va bir xil yo'nalishda namoyish etilaversa, raqib buni tezda payqab oladi va bunday harakatlarga aks chora topib oladi.

O'zgaruvchanlik prinsipi. Badminton musobaqalarida o'yin usullarini ijro etish keskin o'zgaruvchan vaziyatlarda kechadi. Binobarin, harakatlarni ijro etish doirasi qanchalik tor bo'lsa va ular faqat bir xil yo'nalishli standart mazmunda bajarilaversa, raqib shunchalik tez shu harakatlarni payqab oladi va unga qarshi unumli taktika qo'llash imkoniyati kengayadi. Demak, texnik-taktik harakatlar tezlanish, kuchlanish va koordinatsion jihatdan o'ta o'zgaruvchan bo'lishi darkor. O'yinda ushbu prinsipdan maqsadli foydalanish taktik-strategik rejani yuksak samaradorlik bilan ijro etishga zamin yaratadi.


Favqulodda harakatlanish prinsipi raqibga nisbatan kutilmagan vaziyatni yaratish, uni shoshirib qo'yish, vaziyatni tahlil qilish va foydali qaror qabul qilishga to'sqinlik qiladi.

Mazkur prinsipdan unumli foydalanish ochkoli natijaga olib keluvchi ustuvor omillardan biridir.


O'zaro hamkorlik prinsipi juftlik o'yinlarga tegishli bo'lib, unda o'yinchilar o'z vazifalari va harakat funksiyalarini o'zaro tushungan holda hamjihat o'yin ko'rsatish asosida rejalashtirilgan foydali natijaga erishishga qaratiladi.

Yuqorida qayd etilgan prinsiplarda unumli foydalanish imkoniyati faqatgina "sport razvedkasi" (sportchi yoki trenerning o'zları ham "razvedkachi" sifatida ma'lumot yig'ishi mumkin) tomonidan to'plangan ma'lumotlar yaxshi o'zlashtirilsagina va ularga amal qilingandagina yaratilishi mumkin.

5-andoza



6-andoza



Nazorat savollari

1. Strategiya va taktika tushunchalari haqida qanday tasavvurga egasiz?
2. Badminton misolida strategiya va taktikaning mohiyatini tushuntirib bering.
3. Sport razvedkasi va strategik reja tushunchalarini batafsil izohlab bering.
4. Strategik reja va taktik reja nima bilan farq qiladi?
5. Taktik fikrlash samaradorligi qanday psixologik sifatlar bilan bog'liq?

XIII BOB. BADMINTONCHILAR SPORT TRENIROVKASINING UMUMIY ASOSLARI

13.1. Sport trenirovkasi haqida tushuncha

Sport trenirovkasi jismoniy, ruhiy va funksional imkoniyatlarni “to‘lqinsimon” prinsipda oshirib borish, texnik-taktik mahoratni shakllantirish, belgilangan musobaqa sikllarida sportchini yuksak “sport formasi” bilan ta’minalash va shu musobaqalarda foydali natija ko‘rsatishga “mas’ul” uzoq muddatli pedagogik jarayondir.

Sport keng ma’noda musobaqa faoliyati, unga maxsus tayyorgarlik ko‘rish shu yo‘nalish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ahloqiy, madaniy-maishiy, jismoniy va psixofunksional, texnik va taktik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. “Sport” tushunchasining mohiyati insonni ja’miyki to‘sinq va qiyinchiliklarni yengib o‘z imkoniyatlari chegarasini yanada kengaytirishga qaratilgan intilishidan iborat.

Sport – bu ruhiyatni “charxlovchi”, kayfiyatni ko‘taruvchi, insonni jismonan, ma’nan va ruxan shakllantiruvchi, uning “ichki” va “tashqi” madaniyatini (morfologiyasi – qaddi-qomati va funksional resursini) takomillashtirib boruvchi, insoniyatga cheksiz quvonch hadya etuvchi zamonga mos, o‘ta ommaviy ijtimoiy harakatdir. Demak, sport chuqur ma’noli ko‘p qirrali ijtimoiy omildir.

“Sport” atamasi etimologik nuqtayi nazaridan inglizcha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, daraxt kurtaklarini bir-biridan “o‘zib” o’sishini anglatadi.

Zamonaviy sport – bu o‘z evolyutsion tarixi, mavqeyi va maqomi hamda o‘ziga xos musobaqa qoidalalariga ega bo‘lgan ko‘pdan-ko‘p turlardan tarkib topgan.

“Sport” va “sport trenirovkasi” atamalari pirovardida “musobaqaga tayyorgarlik”, “musobaqa jarayoni”, “musobaqa faoliyati” tushunchalarini anglatadi.

“Trenirovka” atamasi inglizcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “mashq qilish”, “charxlash” ma’nosini bildiradi. Ushbu atama turli sohalarda qo‘llaniladi. Masalan, “aqliy (intellektual) trenirovka”, “jismoniy trenirovka”, “gipoksiq trenirovka”, “hayvonlar trenirovkasi” tushunchalari amaliyotda keng o‘z aksini topgan. “Hayvonlar trenirovkasi”, “hayvonni dressirovka qilish” tushunchasidan tubdan farq qilib, hayvonlarni biror-bir tadqiqot uchun tayyorlash (oq kalamushni tretbonda yugurishi) yoki hayvonlarni (masalan, itni) “harbiy xizmatga” tayyorlash va hokazo sohalarda amalgalashirilishi mumkin.

Sport amaliyotida “sport trenirovkasi” atamasi “sport tayyor-garligi” atamasi bilan mantiqan yaqin bo‘lsa-da, ular bir-biridan tubdan farq qiladi. “Sport tayyorgarligi” tushunchasi keng qamrovli ma’noga ega bo‘lib, sportchini jamiyki faoliyatini (uyqu, trenirovka, ovqatlanish, tibbiy profilaktika va hokazo) musobaqaga tayyorlashga qaratilgan jarayondir. “Sport trenirovkasi” esa bir maqsadga yo‘naltirilgan jarayondir va nisbatan torroq ma’noni anglatadi.

Muntazam sport trenirovkasi natijasida insonning harakat faoliyati shakllanib boradi, yangi harakat shakllari vujudga keladi, hayotiy zarur harakat malakalari (chopish, sakrash, yurish va hokazo), ko‘nikmalari takomillashadi, psixik sifatlar (fikrlash, ong, iroda, diqqat, hissiyot va boshqa) sayqal topadi. Muayyan sport turiga xos harakat malakalari mukammallahashadi.

13.2. Sport trenirovkasining maqsadi, vazifalari va mazmuni

Sport trenirovkasi – bu uzoq muddatli pedagogik jarayon bo‘lib, o‘z oldiga o‘yin malakalariga o‘rgatish, ularni takomillashirish, texnik-taktik harakatlarni o‘zlashtirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Vazifalari:

- ma’naviy va ruhiy xislatlarni tarbiyalash;
- jismoniy va funksional tayyorgarlikni taraqqiy ettirish;
- sihat-salomatlikni mustahkamlash;
- asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalash (kuch, tezkorlik, chaq-qonlik, chidamlilik, egiluvchanlik);

- hayotiy zarur malaka va ko'nikmalarni shakllantirish (yurish, chopish, sakrash, uloqtirish, suzish);
- "Alpomish" va "Barchinoy" test talablariga tayyorgarlik ko'rish va topshirish;
- texnik va taktik harakatlarni ijro etishda zarur qobiliyat va maxsus sifatlarni taraqqiy ettirish;
 - o'yin malakalari – texnik va maxsus sifatlarni taraqqiy ettirish;
 - o'yin malakalari – texnik va taktik harakatlarni yuqori saviyada ijro etishni o'zlashtirish;
 - hujum va himoyada jamoa bo'lib maqsadga muvofiq harakat qilishni shakllantirish;
 - badminton bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallash (rejalashtiruv hujjatlari, kundalik olib borish, o'rgatish texnologiyasi, hakamlik amaliyoti, ish qobiliyatini tiklash vositalari);
 - o'zlashtirilgan o'yin malaka va ko'nikmalarini musobaqada samarali qo'llashni joriy etish.

13.3. Sport trenirovkasining prinsiplari, uslublari va vositalari

Shartli ravishda sport trenirovkasi uslublarini uch guruhga bo'lish mumkin: so'z, ko'rgazmali va amaliy. Ushbu uslublar alohida yoki birgalikda (baravariga) trenirovka mashg'ulotning vazifalariga mos bo'lishi, mazkur vazifalarni hal eta olishi lozim. Bundan tashqari, bu uslublar trenirovka prinsiplariga, shug'ulanuvchilar yoshiga va tayyorgarligiga (malakasiga) mos bo'lishi darkor.

So'z uslubi – murabbiy tomonidan biror texnik element, malaka yoki jismoniy mashqlar mohiyati, tarkibiy tuzilishi koordinatsion, biomexanik va kinematik xususiyatlarini bayon etish, tushuntirish, ular haqida tasavvur hosil qilishdan iborat. Ko'rgazmali uslub odatda so'z uslubi bilan bir vaqt ni o'zida qo'llaniladi va mashqlar na'munasi, texnik nusxalari hamda ijro etish tartibini videofilmlar, slaydlar va rasmlar yordamida namoyish etishdan iborat.

Amaliy uslublar o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi:

1) muayyan sport turiga xos texnik malaka, harakat ko'nik-malarini hosil qilish va shakllantirishga qaratilgan uslublar, ya'ni aksariyat sport texnikasini o'zlashtirishga qaratilgan uslublar;

2) jismoniy sifatlarni tarbiyalash va rivojlanadirishga qaratilgan uslublar, ya'ni aksariyat harakat sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan uslublar.

Lekin u yoki bu uslublar qayd etilgan ikki holatda ham qo'llanilishi mumkin.

Aksariyat sport texnikasini o'zlashtirishga qaratilgan uslublar:

Sport texnikasini (harakat malakasini) to'liq yoki qismlarga (elementlarga) bo'lib o'rgatish uslublari mavjud. Ayrim hollarda harakatlarni qismlarga bo'lib o'rgatish imkoniyati bo'lmasa, bunday harakatlar to'liq holda o'rgatiladi.

Lekin sport texnikasini aniq tarkibiy tuzilishiga (strukturasiga) mos ravishda o'rgatish uchun, uni imkoniyati boricha qismlarga bo'lib o'rgatish katta samara beradi. Bunda, ayniqsa, taqlidiy (imitatsiya), to'psiz bajariladigan (yoki to'pni o'rniqa qulay buyum, moslama) mashqlar juda qo'l keladi.

Qismlarga bo'lib o'rgatish uslubi. Ayniqsa, dastlabki, boshlang'ich o'rgatish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Harakatning texnik qismlari shakllana borgan sari (qaytarish uslubi yordamida), uni to'liq holda o'rgatish uslubi o'z o'mini egallab boradi.

Dastlabki o'rgatish jarayonida tayyorlovchi va yondosh-tiruvchi mashqlarga e'tibor berish muhim ahamiyatga egadir.

Sport texnikasini qismlarga bo'lib o'rgatish uslubi nafaqat boshlang'ich o'rgatish jarayonida, balki texnik-taktik mahoratning eng yuqori bosqichlarida ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, yangi texnik usul yoki taktik kombinatsiyalarni kashf etishda juda qo'l keladi.

Aksariyat harakat (jismoniy) sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan uslublar:

Bunday uslublarning tarkibiy mohiyati mashqlarni (yuklamanli) qo'llanish xususiyatiga (mashq soni og'ir-yengilligi, shiddati) qarab farqlanadi.

Sport trenirovkasi davomida barcha mashqlar ikkita asosiy uslublar doirasida bajariladi: to‘xtovsiz va to‘xtab-to‘xtab qo‘llash uslublari.

To‘xtovsiz uslub – bu mashqni to‘xtovsiz yoki biror harakat faoliyatini uzlucksiz ijro etilishi bilan ifodalanadi. To‘xtab-to‘xtab qo‘llash (takrorlash) uslubi – mashqni ma’lum vaqt oralig‘ida qo‘llash (dam berib) bilan ifodalanadi. Ikki uslub qo‘llanilganida ham mashqlar uzlucksiz yoki to‘xtab bajarilishi mumkin. Mashqlarni tanlash va ularni qo‘llash xususiyatiga qarab, trenirovka mashg‘uloti umumlashtirilgan (integral) yoki muayyan yo‘nalishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Maksimal kuchlanish uslubi aksariyat yaxshi tayyorgarlikka ega sportchilarga nisbatan qo‘llanilishi tavsiya etiladi. Bu uslub, odatda, maksimal og‘irliklar yoki kuch mashqlarini maksimal marta qaytarish bilan izohlanadi. Mashqlarni umumlashtirilgan tarzda qo‘llash, ularda bir vaqt ni o‘zida bir necha sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Mashqlarni muayyan yo‘nalishda qo‘llash esa, aksariyat alohida sifatni shakllantirishga qaratiladi. Bundan tashqari, o‘yin va musobaqa uslublari mavjud bo‘lib, ular mustaqil uslublar shaklida qo‘llaniladi.

O‘yin uslubi – bu biror harakatni o‘yin tarzida yoki o‘yin davomida ijro etilishi bilan ifodalanadi. Bu uslub nihoyatda samarali bo‘lib, uni qo‘llanilishida mashqlar muayyan o‘yin vaziyati doirasida bajariladi. Mashg‘ulotni aynan shu tarzda olib borilishi shug‘ullanuvchilarining emotsional holatini ko‘taradi. Ushbu uslub yordamida murakkab texnik-taktik masalalar (taktik fikrlar, taktik kombinatsiyalarni mos tanlash va hokazo) hamda psixologik vaziyatlar hal etiladi. Musobaqa uslubi – aynan musobaqa mashqlarini bajarish, mashg‘ulotni musobaqa tarzida o‘tkazish va turli musobaqalarda ishtirot etish bilan bog‘liq. Bu uslub mashqlarni yuqori shiddatda bajarilishini taqozo etadi yoki musobaqada g‘alaba qozonish uchun qanday shiddat, usul, aniqlik kerak bo‘lsa, shunday tarzda bajariladi. Musobaqa usuli sport trenirovkasi jarayonida jamiyki shakllangan texnik-taktik mala-kalar, kombinatsiyalar, sifatlar, qobiliyatlarni umumlashtirishda, bog‘lashda (integrallashtirishda) asosiy rolni o‘ynaydi. Shu bilan bir qatorda, mazkur uslubni qo‘llashda sportchilarni malakasi,

mahorati va imkoniyatlari inobatga olinishi zarur. Qayd etilgan uslublardan tashqari, qo'shma yoki aralash uslub, harakatni tahlil qilish uslublari mavjud.

Qo'shma uslubni qo'llash natijasida bir vaqt ni o'zida bir necha sifatlar (kuch, tezkorlik, chidamlilik va hokazo) va malakalar (texnik usul, taktik harakat) shakllantiriladi.

Sport trenirovkasi prinsiplari

Sport trenirovkasi jarayoni ma'lum prinsiplar (tamoyillar), tartib-qoida, ilmiy va uslubiy qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu qonuniyatlar sportchi tayyorlash tizimini bir tartibda, to'g'ri va samarali tashkil qilishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Sport trenirovkasining prinsiplari jamiyki tarbiya va o'rgatish jarayonida umumpedagogik-didaktik prinsiplarga asoslanadi. Lekin sport trenirovkasi davomida qo'llaniladigan shiddatli, og'ir va davomli mashqlar ushbu prinsiplarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Chunki bu holat shug'ullanuvchilar organizmini to'g'ri taraqqiy ettirish, ularning psixofunksional imkoniyatlarini ehtiyyotkorlik bilan kengaytirishga qaratiladi.

Sport nazariyasi va amaliyotida quyidagi asosiy prinsiplar qo'llaniladi: onglilik va faollik, "imkonbob" (shug'ullanuvchi imkoniyatiga mos yuklama berish) va individuallashtirish, muntazamlik, ko'rgazmali, "o'stira borish" (progressivlashtirish).

Onglilik va faollik prinsipi o'quv-trenirovka jarayonida bosqichma-bosqich qo'yiladigan barcha maqsadlarga erishish, o'yin malakalarini o'zlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan muhim shartlardan biridir.

O'quv trenirovka topshiriqlarini (yuklamani) shug'ullanuvchi imkoniyatiga mos tarzda berish (imkonbob) va individuallashtirish prinsipi. Ushbu prinsip – beriladigan barcha trenirovka topshiriqlari shug'ullanuvchini yoshi, jinsi, tayyorgarligi va individual xususiyatlariga mos bo'lishini taqozo etadi.

Muntazamlik prinsipi ko'p yillik o'quv-trenirovka jarayonida mashg'ulot uzlusizligini ta'minlashda, mashg'ulotdan mashg'u-lotga talabalar darajasini oshirib borishni maqsad qilib qo'yadi.

“O‘stirib borish” (progressivlashtirish) prinsipi o‘quv-tre nirovka jarayonida mashg‘ulot topshiriqlarini murakkablashtirib borish, yuklama hajmi va shiddatini oshirib borish, mahoratni yangi bosqichlarga olib chiqishni taqozo etadi.

Ko‘rgazmali prinsip barcha prinsiplarni samarali qo‘llash va maqsadga muvofiq natijaga erishishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuni ham ta’kidlab qo‘yish o‘rinlik, yuqorida qayd etilgan barcha prinsiplar quyidagi didaktik tartib-qoidalar asosida qo‘llanilishi zarur:

- oddiydan murakkabga;
- o‘zlashtirilgandan-o‘zlashtirilmaganga;
- osondan-qiyingga.

Sport trenirovkasi qonuniyatları

Muhokama etilgan prinsiplar sport trenirovkasining qonuniyatlariga mos bo‘lishi shu jarayonni samarali tashkil qilinishiga imkon yaratadi.

Sport trenirovkasi quyidagi qonuniyatlar asosida olib boriladi: “Yuqori natijalarga yo‘naltirish”, “Umumiy va maxsus tayyor garlik birligini ta’minalash”, “Trenirovka mashg‘ulotlarining uzluk sizligi”, “Yuklamani asta-sekin va maksimal tarzda oshirish”, “Yuklamani to‘lqinsimon tarzda qo‘llash (o‘zgartirib borish)”, “Trenirovka jarayonini qaytalanish (sikl) asosida tashkil qilish”.

Yuqori natijalarga yo‘naltirish

O‘quv-tre nirovka jarayonining bosh maqsadi sportchilarni musobaqaga yuqori “sport formasi” darajasida tayyorlash va ushbu musobaqada yuqori sport natijasiga erishish imkoniyatini yaratish. Demak, muntazam, uzlusiz o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar davomida qo‘yiladigan strategik vazifa sportchini yuqori natijalarga yo‘naltirish bilan bog‘liq.

Trenirovka mashg‘ulotlarining uzluksizligi

Trenirovka jarayonida uchraydigan turli tanaffuslar sportchi va trenerning oldiga qo‘ygan maqsadini yo‘q qilishga olib keladi. Shuning uchun ko‘p yillik trenirovka jarayonida muntazamlikni uzilishi, turli tanaffuslarni ro‘y berishga yo‘l qo‘ymasdan, uni uzluksizligini ta‘minlashi kerak. Lekin ushbu uzluksizlik trenirovka yuklamasini dam olish, ish qobiliyatini tiklash bilan almashinib turishi asosida amalga oshirilishi kerak.

Yuklamani asta-sekin va maksimal tarzda o‘stirib borish

Aynan shu qonuniyat badmintonchilarining barcha kuch-imkoniyatlarini musobaqa vaqtida safarbar qilishga qaratilgan. Buning uchun ko‘p yillik trenirovka jarayoni davomida jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlikka oid vazifalar, topshiriqlar va mashqlar asta-sekin “osondan-qiyingga”, “oddiydan-murakkabga”, “o‘zlash-tirilgandan-o‘zlashtirilmaganga” tartibi asosida maksimal hajm va shiddat darajasida ijro etiladi.

Yuklamani to‘lqinsimon oshirish

Ko‘p yillik trenirovka jarayonida yuklama to‘lqinsimon tarzda oshirib borilishi lozim. Bu qonuniyat organizmni yuklarnadan so‘ng tiklanish muddatiga charchoq asoratlarini “yo‘qolish” vaqtiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun yuklama bilan dam olish, yuklama bilan organizmni tiklovchi mashq-tadbirlarni muvofiq va samarali qo‘llanilishi alohida ahamiyatga ega.

Trenirovka jarayonining qaytalanishi (siklliyligi)

O‘quv-trenirovka jarayoni haftalik sikllarga, bosqich va davrlarga bo‘linadi. Aynan ushbu sikllar ko‘p yillik jarayonda “spiralsimon” qaytalanishning yuqori natijalariga qaratiladi.

Nazorat savollari

1. Sport trenirovkasining terminologik va mantiqiy mohiyati nimalar bilan ifodalanadi?
2. Sport trenirovkasining maqsadi va vazifalarini tushuntirib bering.
3. Sport trenirovkasining uslublari, vositalari va prinsiplarini bat afsil izohlab bering.
4. Sport trenirovkasining davriyligi va “sport forması” haqida qanday tushunchalarga egasiz?

XIV BOB. BADMINTONCHILAR TAYYORLASH JARAYONINI BOSHQARISH

14.1. Boshqaruv jarayoni haqida tushuncha

Inson o‘zining muayyan darajada shakllangan xotira, ong, tafakkur, idrok, diqqat, hissiyot va iroda kabi ruhiy xislatlari, tezkorlik, kuch, chaqqonlik, chidamlilik va egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlari, zukkolik, bilimdonlik, uddaburonlik, topqirlik va donolik kabi intellektual qobiliyatları asosida o‘z faoliyati yoki o‘zga obyekt faoliyatini boshqaradi.

Sport amaliyotida esa boshqariluvchi obyekt – sportchi boshqaruvchi subyekt – trener bo‘lib hisoblanadi. Boshqaruv deganda, biror bir obyektga muntazam ta’sir ko‘rsatib, shu ta’sir natijasi asosida muayyan maqsadga erishish uchun hosil qilingan o‘zgarish tushuniladi. Sportda tayyorlash jarayoniga murakkab dinamik tizim sifatida qaralib, uni boshqaruvchi subyekt vazifasini pedagog-trener, boshqaruv obyektlari vazifasini esa sportchilar, jamoalar yoki o‘quv guruhlari bajaradi.

Sport tayyorgarligi tizimining murakkabligi shundan iboratki, u katta qismdagi bir-biri bilan bog‘langan va bir-biri bilan harakat qiladigan jarayonlardan (texnik, taktik, psixologik va boshqa) iborat.

Sport tayyorgarligi natijasida sportchilarning bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishi kuzatiladi. Bu jarayon uzoq muddatlidir.

Sport tayyorgarligini boshqarishning asosiy farq qiladigan xususiyati shundan iboratki, bunda boshqariluvchi obyekt inson bo‘lib hisoblanadi. Bu trenerga sportchining o‘zini boshqarish qobiliyatini ham har xil yo‘l bilan rivojlantirish vazifasini qo‘yadi. Sport tayyorgarligining samarasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri sportchining o‘zini boshqarish va o‘zini mukammallashtirish qobiliyatiga bog‘liq.

Trener-sportchi-jamoat-trener o‘zaro uzviy tizimi doirasida olinadigan axborot va ma’lumotlar maqsadli boshqaruvga asos bo‘lishi darkor.

Boshqaruvning muhim shartlaridan biri – bu sportchining o‘zini boshqarish va o‘zini mukammallashtirish qobiliyatini faol rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijodiy hamkorlikdan iborat.

Boshqaruvning asosiy vazifalari – mashg‘ulotlarni rejalash-tirish va tashkillashtirish, nazorat qilish va qiyosiy tahlil qilish bilan ifodalanadi. Bularning hammasi boshqaruvning davriyilagini va to‘xtovsizligini ta’minlovchi yopiq halqa hosil qilib, bir-biri bilan o‘zaro harakat qiladi.

Boshqaruv jarayoni bir mashg‘ulot davomida yoki bir hafta davomida, bosqichda, yillik tayyorgarlik sikllari bo‘ylab davom etadi.

Tayyorgarlikning asosiy shakllari. Badmintonchilar tayyorlashning asosiy shakllari sport mashg‘ulotlari va musobaqalarda ishtiroy etish jarayonlaridan iborat. Ular bir-biri bilan bog‘langan, lekin shu bilan birgalikda, boshqaruvning asosiy vazifalari mazmu-nini aniqlovchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu sababli tayyorgarlikni boshqarish 2 bo‘limga bo‘linadi:

1. Mashg‘ulot jarayoni va musobaqaga tayyorgarlik ko‘rishi boshqarish.
2. Musobaqa jarayonida o‘zini boshqarish.

Nazorat savollari

1. Jarayonni boshqarish nimani anglatadi?
2. Badmintonchilar tayyorlash jarayonini boshqarish qanday omillarga asoslanadi?
3. Jarayonni boshqarishda tayyorgarlikni nazorat qilish natijalari qanday ahamiyatga ega?
4. Jarayonni rejalashtirishda qanday omillar e’tiborga olinadi?
5. Rejalashtirish va boshqarish jarayonlarining bog‘liqligi ni-malardan iborat?

XV BOB. TURLI YOSH GURUHLARIGA MANSUB BADMINTONCHILAR TAYYORLASH XUSUSIYATLARI

Ko‘p yillik sport trenirovksi bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqichda muayyan yoshga mansub o‘quv guruhlari tanlangan sport turiga xos bilim, ko‘nikma va malakalarni trener boshchiligidagi shakllantirib boradi. Kort badmintonida o‘quv guruhlari tarkib jihatidan boshqa sport o‘yinlari turlariga nisbatan shug‘ullanuvchilarining kam sonligi bilan farqlanib, bir o‘quv guruhida, navbatdagi o‘quv guruhiga ko‘chirilishida shug‘ullanuvchilar tarkibi borgan sari yanada kamayib boradi.

Shug‘ullanuvchi bolalarning nasliy va hayot davomida shakllangan jismoniy, psixologik va morfofunksional imkoniyatlari qarab, ular kichik yosh guruhidan katta yosh guruhiga o‘tkazilishi mumkin.

Bolalarni guruhlarga qabul qilish va ularni bir guruhdan ikkinchi guruhga ko‘chirish me’yoriy test sinovlari natijalari asosida amalga oshiriladi.

Barcha guruhlarda o‘tkaziladigan o‘quv-mashg‘ulot jarayoni quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilishi darkor:

- sog‘liqni mustahkamlash, chiniqtirish, jismoniy, psixologik va morfofunksional imkoniyatlarni shakllantirish;
- hayotiy zarur harakat ko‘nikmalarini (o‘tirish-turish, yurish-yugurish; sakrash, siljish-to‘xtash; tortilish va hokazo) takomillashtirish;
- jismoniy sifatlarni (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlik, egiluvchanlik) taraqqiy ettirish;
- badmintonga oid maxsus sifatlarni (sakrovchanlik, sakrash chidamkorligi, tezkor kuch va o‘yin chidamliligi, diqqat, xotira, iroda, zukkolik va hokazo) shakllantirish;
- texnik va taktik malakalarga o‘rgatish va takomillashtirish;
- o‘yin mahoratini o‘quv o‘yini va musobaqalarda oshirib borish.

O'quv-trenirovka jarayonida beriladigan jismoniy va texnik mashqlar o'z hajmi, shiddati, murakkabligi va qaytarilish soni jihatlaridan turli yoshdagi va jinsdagi bolalarning funksional hamda jismoniy imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda me'yorlanishi kerak.

O'rgatish jarayonida qo'llaniladigan jismoniy va texnik-taktik mashqlarning to'g'ri taqsimlanishi malakali badmintonchilar tayyorlash samarasini belgilaydi.

Boshlang'ich o'rgatish jarayonida mashqlarning aksariyat foizi bolalarning jismoniy va funksional tayyorgarligini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak, qolgan qismi esa texnik-taktik malakalarini o'zlashtirishga mo'ljallangan bo'lishi muhim shartlardan biridir. Bu bosqichda turli harakatli o'yinlar, shu jumladan, badminton o'yiniga ixtisoslashtirilgan harakatli o'yinlarni qo'llash tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil qilishga yordam beradi. Bunday harakatli o'yinlar o'rgatish va takomillashtirish jarayonining barcha bosqichlarida qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Takomillashtirish bosqichida asta-sekin umumiy jismoniy mashqlar foizi qisqartiriladi, maxsus jismoniy mashqlar va texnik-taktik mashqlar foizi esa ancha ortadi. Mashqlarning hajmi bir oz kamaytirilib, shiddati va qaytarilish soni oshirib boriladi.

Ko'nikmalarни mukammallashtirish (mustahkamlash) bosqichida mashqlarni ijro etish shiddati musobaqa darajasiga yetkazilishi lozim. Bu bosqichda aksariyat musobaqa mashqlari turli o'yin vaziyatlariga mos ravishda qo'llanilishi katta ahamiyatga ega. Har bir o'yin malakasini (volanni kiritish, qabul qilish, zarba berish) turli usullarda ijro etishga o'rgatish, masalan, zarba berishning o'ng va chap qo'lda nisbatan bir xilda bajara olish o'yin malakalarining ijro etish doirasini kengaytiradi va harakat zaxirasini boyitadi.

O'rgatish va takomillashtirish jarayonida o'yin malakalarini uzoq vaqt davomida jismoniy, texnik-taktik jihatdan tez, kuchli, chaqqon, aniq va vaziyatga mos samarali ijro etilishini ta'minlash uchun aksariyat hollarda mashqlar charchash asoratlari mavjud hollarda bajariladi. Lekin bunday mashg'ulotlar nihoyatda ehtiyojkorlik bilan qo'llanilishi darkor. Chunki me'yordan ortiq

yuklama (yuklama) bola organizmini zo'riqishga, jarohat olishga yoki patologik holatlarga duchor qilishi mumkin.

Yosh badmintonchilarni tayyorlashda ularni psixologik sifatlarini ham parallel tarzda shakllantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, badminton o'yinida yoki o'yining ayrim vaziyatlarida muvaffaqiyatga erishish barcha sifat, mahorat va qobiliyatlarni yuqori taraqqiy etganligi bilan bir qatorda, tez fikrlash, tahlil qilish, farqlay bilish, to'g'ri baholash, diqqat, xotira, oldindan sezish (ansipatsiya), iroda, zukkolik hamda "ayyorlik" xislatlarining shakllangan bo'lishini talab qiladi.

Iste'dodli yosh badmintonchilarni tayyorlash samaradorligi ko'p jihatdan sport to'garaklari va sport maktablariga qabul qilishda tanlov jarayonini maqsadga muvofiq tashkil qilishga bog'liq bo'ladi.

"Tanlov" – ko'p yillik jarayon bo'lib, o'z ichiga dastlabki tanlov, qayta tanlov (guruhdan guruhga o'tkazishda saralash), o'yin funksiyalari bo'yicha tanlov o'tkazish, jamoa tarkibiga tanlov asosida qabul qilish kabi bosqichlarni kiritadi.

O'quv-trenirovka jarayonida murabbiy o'z rahbarligi ostida shug'ullanayotgan turli yoshga mansub guruh a'zolari tarkibidan qobiliyatli, boshqalarga o'rnak bo'ladigan bolalarni tanlab olishi va ularni o'ziga faol yordamchi qilib tayyorlashi, nafaqat mashg'uylotlar samaradorligini oshiradi, balki sport intizomi, umuman, ta'lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tashkil qilishga yordam beradi. Ushbu masalaning yana bir ahamiyatli va yordamchi joyi shundaki, ular ommaviy badmintonni tashkil qilishda, iste'dodli bolalarni izlab topish, turar joylarda – mahallalardagi bolalarni badmintonga jalb qilish, musobaqalar tashkil qilish, me'yoriy mashq-testlarini hamda "Alpomish" va "Barchinoy" testlarini qabul qilishda alohida o'rin egallaydi.

Har bir murabbiyni sport to'garagi va sport maktablarida o'quv-trenirovka jarayonini maqsadga muvofiq tashkil qilishi uchun shug'ullanuvchi bolani ta'lim olayotgan maktabi, o'qituvchilari va ota-onalari bilan hamkorlikda ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki murabbiy mashg'uylotlarni samarali olib borishi, shug'ullanuvchi bolaning mashqlarni o'zlashtirishi, uni mahoratini shakllanishi, shu bolani mакtab va uydagи ahvoli, kayfiyati,

dunyoqarashi, qiziqishi hamda xislat va boshqa omillarga bog'liqdir.

Ma'lumki, shug'ullanuvchi bolani o'quv-trenirovka jarayonida mashqlarni ongli tushungan holda ijro etishi, yuklamani qanday ta'sir etayotganligini sezishi, malaka va ko'nikmalarni hamda o'yin sirlarini mukammal o'zlashtira olishi ko'p jihatdan uning nazariy-intellektual tayyorgarligiga ham aloqadordir. Demak, har bir murabbiy o'z rahbarligi ostida shug'ullanayotgan bola haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lishi, shu bolani nafaqat malakali sportchi qilib yetishtirishga yordam beradi, balki ma'naviy-mada-niy jihatdan yetuk inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Quyidagi jadvallarda turli yosh guruhlariiga rejalash-tiriladigan o'quv-mashg'ulot yillari va haftalik soatlar hajmi qayd etilgan (16, 17 va 18-jadvallar):

16-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi

O'quv-mashg'ulot yili	Yoshi	Haftalik mashg'ulot soni va vaqtি	Haftalik soatlar hajmi
1-o'quv yili	7	3 marta 90 daqiqadan	6 soat
2-o'quv yili	8	3 marta 90 daqiqadan	6 soat
3-o'quv yili	9	4 marta 90 daqiqadan	8 soat

17-jadval

Boshlang'ich ixtisoslashtirilgan bosqich

O'quv-mashg'ulot yili	Yoshi	Haftalik mashg'ulot soni va vaqtি	Haftalik soatlar hajmi
1-o'quv yili	10	6-7 marta 1,5-2 soatdan	12 soat

17-jadvalning davomi

2-o‘quv yili	11	6-7 marta 1,5-2 soatdan	16 soat
3-o‘quv yili	12	7-10 marta 1,5-2 soatdan	18 soat
4-o‘quv yili	13	7-10 marta 1,5-2 soatdan	20 soat

18-jadval

Chuqurlashtirilgan tayyorgarlik bosqichi

O‘quv-mashg‘ulot yili	Yoshi	Haftalik mashg‘ulot soni va vaqtি	Haftalik soatlar hajmi
1-o‘quv yili	14	Har kuni 2 ta mashg‘ulot 2 soatdan 6 kun	22 soat
2-o‘quv yili	15	Har kuni 2 ta mashg‘ulot 2 soatdan 6 kun	24 soat
3-o‘quv yili	16	Har kuni 2 ta mashg‘ulot 2 soatdan 6 kun	28 soat

Yuksak sport mahoratini takomillashtirish bosqichi – ko‘p yillik sport tayyorgarligini o‘z ichiga oluvchi muntazam va uzlusiz olib boriladigan jarayondir. Ushbu bosqichda mashg‘ulotlar kuniga 2 martadan badmintonchilarning yoshiga qarab 1,5-2,5 soatdan 6 kun davomida tashkil qilinishi tavsiya etiladi. 1 kun dam olish kuniga ajratiladi.

Ko‘p yillik sport trenirovkasining eng yuqori pog‘onasi bo‘lgan mazkur “yuksak sport mahoratini takomillashtirish” bosqichi uzoq muddatli uzlusiz jarayon bo‘lib, aynan shu jarayon davomida iste’dodli badmintonchilarni tayyorlash to‘garakda

tanlov o‘tkazish bosqichidan boshlab haftalik va yillik mashg‘ulotlarni bir-biriga mutanosib tartibda tashkil qilishga bog‘liqdir.

Bolalarni badminton to‘garagiga qabul qilishda tanlov jarayoni qanchalik sifatli va maqsadga muvofiq o‘tkazilgan bo‘lsa, shunchalik boshlang‘ich tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Binobarin, badmintonga tanlov o‘tkazishda bolalarning nasliy qobiliyatları va hayot davomida shakllangan harakat imkoniyatlari – qaddi-qomati, harakat ko‘nikmalari va malakalari, jismoniy ko‘rsatkichlari (tezkorlik, kuch, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik) va albatta, badmintonga xos jismoniy va psixologik qobiliyatları (xotira, diqqat, ong, tafakkur, idrok, iroda, shu jumladan, zukkolik, sezgirlik, topqirlik, uddaburonlik va hokazo) e’tiborga olinishi zarur. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bolalarda qiziquvchanlik, intiluvchanlik, faoliyk va motivatsion hissiyotlarni uyg‘otmog‘i lozim. Buning mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan umumiylari maxsus jismoniy hamda badmintonga xos mashqlar sermazmunli, sodda va o‘zgaruvchan vaziyatlari xususiyatlarga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Harakatlarga o‘rgatish va ularni takomillashtirish davomida ko‘proq badmintonga turdosh yoki unga moslashtirilgan harakatli o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik boshqichida dastlabki bosqichda o‘tkazilgan mashg‘ulotlar mazmuni murakkablashtirib boriladi, ularning hajmi va shiddati sekin-asta to‘lqin-simon tartibda oshirib borilishi darkor. Ushbu bosqichda maxsus jismoniy va texnik mashqlar ustunligi ta’milanishi kerak. Nazorat, sinov, rasmiy va norasmiy o‘yin uchrashuvlariga urg‘u beriladi.

Chuqurlashtirilgan tayyorgarlik bosqichida vositalardan tashqari texnik-taktik mashqlar ustunligi ta’milanadi.

Individual imkoniyatlar shakllantiriladi. Texnik-taktik harakatlar vazifali, erkin, modellashtirilgan va murakkablashtirilgan (ikki raqibga qarshi, o‘zgaruvchan vaziyatlar va h.k.) o‘yinlar davomida “charxlanadi”.

Ushbu bosqichda mashqlar hajmi va shiddati orttiriladi. Shiddatli mashqlar majmuasidan so‘ng, mashg‘ulotlar va musobaqalar yakunida badmintonchilar organizmini “tinchlantiruvchi” va

ish qobiliyatini tiklovchi qisqa muddatli relaksatsion, nafas va antistatik holatlarda bajariladigan qayishqoqlik (egiluvchanlik) mashqlaridan foydalaniladi.

Badmintonchilarga alohida individual strategik dasturlar ishlab chiqiladi va tayyorgarlik mazkur dasturlar asosida tashkil etiladi.

Uzoq muddatga mo‘ljallangan yuksak sport mahoratini takomillashtirish jarayonida badmintonchilar individual strategik dastur va maxsus reja asosida shug‘ullanadilar, mashg‘ulotlar musobaqa taqvimiga muvofiq modellashtirilgan tartibda tashkil qilinadi. Mazkur bosqichda badmintonchilarning barcha imkoniyatlari yanada kengaytiriladi, jismoniy sifatlar mazmuni ixtisoslikka yo‘naltiriladi, texnik-taktik usullar serqirraligi, o‘zgaruvchanligi, turg‘unligi va ichki-tashqi omillar ta’siriga nisbatan barqarorlashtiriladi. Tanlangan ustuvor o‘yin usullari shakllantiriladi. Alohida uchrashuvlar, muayyan raqib yoki raqiblarga qarshi ijro etiladigan o‘yin uslublari charxlanadi. Ish qobiliyatini tiklovchi, oshiruvchi va funksional faollikni kuchaytiruvchi mashqlar mutnazam qo‘llanib boriladi.

Psiyologik xislatlar (xotira, diqqat, ong, idrok, tafakkur va hokazo) hamda zukkolik, “makkorlik”, iroda kabi qobiliyatlar takomillashtiriladi.

Nazorat savollari

1. Turli yosh guruhlariiga mansub badmintonchilar tayyolashda qanday omillarga asoslaniladi?
2. Qanday yosh guruhlari mavjud, ularning tayyorgarlik dasturiga tavsif bering.
3. Turli yosh guruhlarida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar farqi nimalardan iborat?
4. Bir yosh guruhini ikkinchi yosh guruhiga ko‘chirishda qanday omillarga asoslaniladi?
5. Turli yosh guruhlariiga xos tayyorgarlik turlari bir-biriga mutanosib bo‘lishi shartmi, ushbu mutanosiblik mohiyati nimadan iborat?

XVI BOB. TURLI YOSH VA QATLAMGA MANSUB AHOLI SOG'LIG'INI SHAKLLANTIRISHDA BADMINTONNING O'RNI

16.1. Ommaviy badmintonning tashkiliy masalalari

Yurtimiz o‘z mustaqilligiga erishgan kunlardan boshlab, Prezidentimiz tashabbusi va uning bevosita rahbarligida jismoniy tarbiya va sport tamomila yangicha mazmun, yangicha yo‘nalish va ommaviylik cho‘qqisiga qarab rivojlana boshladi.

Zamonaviy tibbiy-biologik tadqiqotlardan ma’lumki, dastavval turmush va mehnat faoliyati davomida faol harakatda bo‘lgan, sog‘lom va jismonan quvvatli bo‘lgan insonlar, keyinchalik jismoniy harakatni sustlashtiradilar yoki kasb-kori bilan shug‘ullanib yurgan ba’zi shaxslar vaqt yo‘qligini bahona qilib, o‘z harakati va sog‘ligiga “xiyonat” qiladilar. Bunday holatlarda harakatning sustlanishi yoki faol harakatni chegaralanishi – gipodinamiya yuzaga keladi.

Mutaxassis-olimlarning fikriga binoan, gipodinamiya zamon kasalliklari (yurak ishemiyasi, taxikardiya, gipertoniya, bronxial astma, osteoxandroz va hokazo)ni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bunday holatlarni oldini olish, ularni bartaraf etish uchun tibbiy muolajalar, dori-darmonlar kam samarali ta’sir etadi, ular sog‘liqni yetarli tiklash va mustahkamlash kuchiga ega emas, deb uqtirgan edi buyuk tabib-olim Abu Ali ibn Sino. Uning fikricha, maqsadli yo‘nalishga xos harakatlar majmuasi, me’yorlangan jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanish eng o‘tkir, bezarar, orom bag‘ishlovchi, sihat-salomatlilik belgilarini shakllantiruvchi “tekin dori-darmon” va “tekin muolaja” ekan.

Binobarin, sog‘lig‘i zaif yoki zaiflashgan shaxslarga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar mazmuni, shiddati, hajmi va yo‘nalishi ushbu shaxslarning real imkoniyatlariga qarab me’yorlanishi lozim. Bunday mashg‘ulotlarni tashkil qilishda o‘yin mohiyatini yanada soddalashtirish, masalan, setlar yoki geymlar sonini

kamaytirish yoki devor oldida o'ynash mumkin. Mashg'ulotlarni 45-60 daqiqa muddat oralig'ida haftasiga 3 marta o'tkazish muntazamligi ta'minlansa maqsadga muvosiq bo'ladi.

Kuzatuvlardan ma'lumki, badminton o'yini dam olish uylarida va oromgohlarda eng ko'p tashkillashtiriladi. Badminton maydonchalariga keluvchilarning asosiy maqsadi yuqori malakaga yoki g'alabaga erishish emas, balki jismonan va ruhiy dam olishdir. Shuning uchun ularga sodda o'yin qoidalarini, texnik usullarni tanishtirish, o'rgatish va ularni qiziqishlarini oshirish ko'proq muhimdir.

Badminton o'yinini tashkil etishda mashg'ulot joylarini tanlash va jihozlar bilan ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Shug'ullanuvchilar va ishqibozlar uchun maydoncha atroflari o'rindiqlar bilan jihozlanishi kerak. Badminton maydonchalarini bir nechta bo'lishi zarur. Chunki bu mashg'ulot bilan shug'ullanuvchilarning ko'payishiga olib keladi. Maydonchalar yonma-yon tarzda joylashtirilib, ular orasi yetarli darajada keng bo'lishi kerak. Maydoncha atroflarini ko'kalamzorlashtirishga katta e'tibor berish kerak. Maydoncha yaqiniga badminton o'yini qoidasi va texnik usullarni bajarish bo'yicha rasmlarni qo'yish o'yinchilarni tezroq harakat ko'nikmalarini egallahsga ancha yordam beradi. Oromgohning sport ishlari bo'yicha yo'riqchi-uslubiyatchisi bu haqda zarur ishlarni amalga oshirishi kerak.

Maydonchalar turli yoshdagilar uchun maxsus ajratilishi va kerakli darajada jihozlanishi lozim. Ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazishda tibbiyot xodimlari xizmati ta'minlanishi darkor. Ommaviy sog'lomlashtirish va sport bayramlariga badminton sport turini kiritish tavsiya etiladi. Bularni tuman, shahar miqyosida, mahallalar o'rtasida o'tkazish mumkin. Musobaqa oldidan yuqori malakali sportchilarining ko'rgazmali ishtiroy etishi o'zgacha samara beradi.

Badminton musobaqasini dam olish uylarida va oromgohlarda o'tkazishda jamoalarni tashkil qilish qiyinchilik tug'diradi. Chunki o'yinchilarning o'yin ko'nikma va malakasi har xil bo'ladi. O'tkazilayotgan musobaqalarni qiziqarli bo'lishini ta'minlashda o'yinchilarni bir-biriga teng qilib taqsimlash zarur. O'yinchilarni tayyorgarlik darajasiga qarab o'yin qoidalariga

yengilliklar kiritish mumkin. O‘yinchilarning mahoratlari oshgan sayin qo‘llanilgan yengilliklar asta-sekin olib tashlanadi.

Qaysi dam olish uyi, sog‘lomlashtirish maskanida sport ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha yerda hordiq chiqaruvchilar yoki salomatliklarini tiklovchilar ko‘p bo‘ladi. Salomatlik va jismoniy tayyorgarlik darajasiga qarab, shug‘ullanuvchilarni quyidagi guruhlarga bo‘lish tavsiya etiladi:

I guruh – jismoniy mashg‘ulot bilan doimiy shug‘ullanib turuvchi yoshlari va o‘rta yoshdagilar;

II guruh – jismoniy mashg‘ulot bilan doimiy shug‘ullanmaydigan, sog‘lom, lekin ayrim funksional kamchiliklarga ega bo‘lganlar;

III guruh – surunkali kasallikka chalingan, jismoniy mashg‘ulot bilan umuman shug‘ullanmaydiganlar.

Guruhlarning xususiyatlardan kelib chiqib, mashg‘ulotlarni me’yorlangan darajada tashkil qilish va o‘tkazishga e’tibor berish kerak. Badmintonni sog‘lomlashtirishdagi o‘rnii bo‘yicha suhbata va muloqotlar o‘tkazib turish uni aholi o‘rtasida yanada ommalashishiga turki bo‘ladi.

Badmintonni turli yosh va qatlamga mansub aholi o‘rtasida yanada ommalashtirish, uni tatbiq etish miqyosini kengaytirish ishlarini tashkil qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Shuni ham ta’kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan tashkiliy va uslubiy tadbirlarni amalga oshirishda faqat o‘qituvchi-trenerlik yoki yo‘riqchi-uslubchi lavozimlarida rasman faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassislar faolligi yetarli bo‘lmaydi. Badmintonni aholi o‘rtasida yanada ommalashtirish, to‘garak mashg‘ulotlari va musobaqalar doirasini kengaytirish uchun mutaxassis-trenerlar badmintonga ixlos qo‘ygan iqtidorli yosh shug‘ullanuvchi bolalar tarkibidan jamoatchi-trener, jamoatchi-yo‘riqchi hamda jamoatchi-tashkilotchi nomzodlarini tanlash va ularni muvofiq o‘quv dasturlari asosida o‘tkaziladigan seminarlarda malakasini oshirish ishlarini ham olib borishlari zarur bo‘ladi. 19-jadvalda ana shunday seminarlarni o‘tkazishga mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejasi berilgan.

**Badminton bo'yicha jamoatchi-yo'riqchilar va trenerlar
tayyorlashga mo'ljallangan seminar mashg'ulotlari
O'QUV REJASI**

T/r	Mashg'ulotlar mavzulari	Ajratilgan soatlar hajmi
Nazariy mashg'ulotlar:		
1.	Jahonda va O'zbekistonda badmintonni rivojlanishi.	2
2.	Badmintonga o'rgatish va mashg'ulotlarni tashkil qilish.	8
3.	Musobaqa qoidalari va hakamlik qilish.	6
4.	Musobaqa Nizomi va uni tashkil qilish.	4
5.	Turli yosh va qatlamga mansub aholi sog'-ligini shakllantirishda badmintonning o'rni.	4
Jami:		24
Uslubiy mashg'ulotlar:		
6.	O'yin texnikasiga o'rgatish va badminton bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish.	12
Jami:		12
Amaliy mashg'ulotlar:		
7.	Yo'riqchilik va trenerlik amaliyoti.	54
8.	Musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish amaliyoti.	24
9.	Hakamlik qilish amaliyoti.	18
Jami:		96
Hammasi:		132

16.2. Badminton mashg'ulotlarini o'tkazish tartibi

Badminton bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlar samaradorligi ustuvor jihatdan tashkiliy, uslubiy va texnologik masalalarni maqsadli rejalashtirish hamda qo'llashga bog'liqdir. Badminton o'yini boshqa sport o'yinlariga qaraganda ancha murakkab mazmunga ega bo'lgani uchun (usullar ikki anjom: raketka va

volan ishtirokida ijro etilishi), ayniqsa, dastlabki o'rgatish bosqichida shug'ullanuvchi bolalarga ko'proq individual yondashish zarurligiga e'tibor qaratiladi. Nisbatan katta maydonda birgina badmintonchini o'ynashi badmintonchidan yuksak tezkilik-kuch, epchillik, chidamlilik, iroda va zukkolik xislatlarini talab qiladi.

Badminton bo'yicha dastur materiallarini o'rganish uchun barcha jismoniy mashqlar, texnik va taktik usullar hamda o'yinning nazariy va amaliy qoidalarini chuqur o'zlashtirish darkor. Mashg'ulotlarning samaradorligi o'qituvchi mashg'ulotni to'g'ri rejalashtirishi va tashkil etishiga, ko'proq foydali harakatlarni qo'llash mahoriyatiga bog'liqdir. Jihoz va asbob-anjomlardan foydalanish katta rol o'ynaydi.

Badmintonga xos harakatlarga muvaffaqiyatli o'rgatish uchun bir necha volan va maydoncha bo'lishi yetarli emas. Albatta, to'ldirma volan, osib qo'yilgan volanlar, anjomlar, moslamalar va boshqa shu kabi jihozlar bo'lishi zarur. Dasturda badminton uchun ajratilgan soat harakat texnikasi va taktikasini zarur va yetarli darajada o'zlashtirib olishga yetmaydi. Shuning uchun ta'lrimuassasalarida, korxonalarda va tashkilotlarda badminton sporti bo'yicha seksiya mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Badminton sport seksiyasini tashkil etish badmintonchilarni tayyorlashdan boshlanadi. O'quv guruhlari shug'ullanuvchilarining tarbiyaviy uyg'unligi hamda yosh jihatdan bir xilligi trenirovka mashg'ulotlari shakliga xos tushadi.

Umumiy faoliyatda muntazam ravishda ishtirok etish shug'ullanuvchilarni yagona jamoa qilib jipslashtiradi, bu ham jismoniy tarbiyaning o'quv hamda tarbiya vazifalarini samarali hal etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Badminton seksiya mashg'ulotlarini o'tkazishda ham qabul qilingan qator umumiy talablarni bajarish kerak bo'ladi.

Birinchidan, shug'ullanuvchilarni o'qitish va tarbiyalash butun mashg'ulot davomida amalga oshirib borilishi kerak.

Ikkinchidan, mashg'ulot o'tkazishda har qanday yo'llar bilan bo'lsa ham usuliy shablonlardan qochish kerak.

Mashg‘ulot mazmuni va uslubiyatini xilma-xil qilish, vazifalarning doimiy ravishda murakkablashib borishi, shug‘ullanuvchilarning organizmi va ruhiyatida sodir bo‘ladigan siljishlar dinamikasini e‘tiborga olish va shu natijalar asosida mashg‘ulotlarga zarur o‘zgartirishlar kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, shug‘ullanuvchilarning shaxsiy xususiyatlarni hisobga olgan holda ularni bir tekisda o‘quv faoliyatiga jalb etish kerak. Faqat shu yo‘l bilan mashg‘ulotni shug‘ullanuvchilar uchun uzoq vaqt davomida bir butun o‘quv-tarbiya jarayoniga aylantirish mumkin.

To‘rtinchidan, har bir mashg‘ulotda o‘rgatish va takomillashtirish jarayoniga didaktik prinsiplar asosida yondashish hamda mashg‘ulot yuklamalarini to‘lqinsimon tartibda oshirib borish darkor.

Beshinchidan, mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan mashqlar shug‘ullanuvchilarning yoshi, jinsi va tayyorgarlik imkoniyatlariga mos bo‘lishi zarur. Mashqlar oraliqlarida organizmni tinchlanituvchi va ish qobiliyatini tiklovchi qisqa muddatli relaksatsion mashqlardan foydalanish kerak bo‘ladi.

Badminton mashg‘uloti uch qismga: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy qismlarga bo‘linadi.

Mashg‘ulotning tayyorgarlik qismida saflanish mashqlari, yurish, yugurish, jismoniy sifatlarni shakllantiruvchi va badminton usullariga xos taqlidiy mashqlar berilishi tavsiya etiladi. Badmintonga turdosh bo‘lgan harakatli o‘yinlar va shug‘ullanuvchilarga yaxshi tanish bo‘lgan harakatlardan foydalanish ayni muddaodir. Umumiy rivojlantirish mashqlarini qo‘llashda izchillik va serqirralik prinsiplariga amal qilish lozim.

Mashg‘ulotning eng murakkab vazifalari asosiy qismda hal etiladi. Odatda, yangi materialni, koordinatsiya jihatdan murakkab harakatlarni o‘rganish asosiy qismning boshida hal etiladi.

Badmintondagi texnik va taktik harakatlarga o‘rgatish vazifalari bosqichlarga qat’iy rioya qilgan holda (tanishirish, o‘rgatish, takomillashtirish) asosiy qismda hal etiladi. Texnik va taktik harakatlarga o‘rgatishda tayyorlov, yondashtiruvchi mashqlar majmuasidan keng foydalanish maqsadga muvofiqliр.

Mashg'ulotlarning yakuniy qismida harakat shiddatini astasekin kamaytirish, bajarilgan ishni shug'ullanuvchilar tomonidan tahlil qila bilihga erishish juda muhimdir. Uy vazifalariga alohida e'tibor berish kerak. Mashg'ulot mustaqil bajariladigan mashqlar bilan to'ldiriladi.

Badminton mashg'ulotlarini o'tkazish joylarini tanlash ham muhim ahamiyatga ega.

Mashg'ulotlarni mumkin qadar ochiq havoga olib chiqish imkoniyatidan to'la foydalanish kerak.

Ba'zan quyosh, shamol, shug'ullanuvchilar e'tiborini chalg'itadigan predmetlar dars o'tkazishga halal berishi mumkin. Ammo ochiq havoda o'tkazilgan mashg'ulotlar shug'ullanuvchilar organizmi uchun o'ta foydali bo'lib, ularning chiniqishiga, sog'lig'ini mustahkamlashga yordam beradi.

Shu bilan bir qatorda, jismoniy sifatlarni, ayniqsa, badmintonchilar uchun o'ta muhim bo'lgan tezkorlik va sakrovchanlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarda doimo an'anaviy standart mashqlarni qo'llash kutilgan natijani bermaydi. Aksariyat mutaxassis-olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, qayd etilgan sifatlarni tarbiyalashda nostonart o'yin mashqlaridan foydalanish shug'ullanuvchilarda juda katta qiziqish o'ygotor ekan. Eng muhimi, shakllantirilayotgan sifatlar qisqa vaqt ichida o'ta samarali rivojlanishi isbot qilingan.

Nazorat savollari

1. Ommaviy sog'lomlashtirish ishlarida badminton qanday ahamiyatga ega?
2. So'nggi yillarda dasturiga badminton kiritilgan qanday ommaviy musobaqalar o'tkazilyapti? Ularga qisqacha izoh bering.
3. Yurtimizda qanday sog'lomlashtirish maskanlari mavjud va ularda badminton qanday o'rinn tutadi?
4. Badminton bo'yicha sog'lomlashtirish guruhlari qanday tashkil etiladi?

XVII BOB. TEXNIK TAYYORGARLIK

17.1. Texnik tayyorgarlik va uning pirovard natijasi

Texnik tayyorgarlik – bu ko‘p yillik va muntazam olib bori-ladigan pedagogik jarayon bo‘lib, uning pirovard natijasi yuksak texnik mahorat bilan ifodalanadi.

Demak, musobaqalarda foydali natijaga erishish ustuvor jihatdan texnik tayyorgarlikning pirovard natijasi – texnik mahorat bilan belgilanadi. Harakat malakasini mahorat bilan ijro etish va musobaqalarda g‘alaba qozonish – bu faqat yillik sport trenirovksi evaziga namoyon bo‘lishi mumkin. Harakat malakalarini ijro etish texnikasi qanchalik takomillashgan bo‘lsa, musobaqada g‘alabaga erishish imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi.

G‘alabaga erishish – bu musobaqani asosiy maqsadidir. Lekin g‘alabaga erishish sportchilarni muayyan va yakuniy maqsadlarga qaratilgan harakatlariga bog‘liq. Demak, texnik tayyorgarlik ko‘p yillik sport takomillashuvi jarayonining asosiy negizidir.

Sport texnikasi – bu ixtisoslashtirilgan, bir vaqtning o‘zida, ketma-ket va ma’lum maqsadli tartibda bajariladigan harakatlar majmuasidir. Sport texnikasi – harakatni aniq, yengil, vaziyatga muvofiq, kam kuch sarf etib, yuqori samarada ijro etishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Texnik tayyorgarlik – bu ko‘p yillik faoliyat bo‘lib, ma’lum harakatlar majmuasini texnik jihatdan ma’lum maqsadli tartibda, vaziyatga muvofiq barqaror, mukammal va samarali bajarilishini ta’sinlovchi pedagogik jarayondir. Mazkur jarayon sport tayyorgarligining asosiy va ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi.

Texnik tayyorgarlikning bosh maqsadi harakat yoki harakatlar majmuasini texnik tomonidan har qanday vaziyatlarda va qarshi ta’sirlar sharoitida barqaror hamda samarali ijro etilishidan iboratdir.

Texnik tayyorgarlik va uning pirovard natijasi – texnik məhorat ma'lum rejaga asosan bosqichma-bosqich nazorat mashqlari (testlar) va yozma kuzatuv uslublari yordamida mashg'ulotlar hamda musobaqalar jarayonida baholanib turiladi.

Texnik tayyorgarlikni shakllantirish jarayonida o'yin texnikasining bio-mexanik qonuniyatlarini o'zlashtirish va harakat yoki harakatlar majmuasini texnik tomondan maqsadga muvofiq barqaror va mukammal takomillashtirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yangi harakat texnikasini o'rganish, o'zlashtirish mavjud harakat tajribasiga asoslanadi.

Harakat yoki harakatlar majmuasining texnikasini o'zlash-tirish shug'ullanuvchida kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni yetarli darajada rivojlan-tirishni taqozo etadi. Bu sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarilish tartibi va yo'nalishi o'rgatiladigan (o'zlashtiriladigan) o'yin malakasining texnikasiga mos bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Harakatlar texnikasiga o'rgatish jarayonida quyidagi uslubiy tavsiyalarga rioya qilish lozim:

- birinchidan, ma'lum harakat texnikasini (agar noto'g'ri o'rgatilgan bo'lsa) qaytadan o'rgatish holiga chek qo'yish maqsadida, o'rgatish jarayonini boshlanishidayoq to'g'ridan-to'g'ri harakat texnikasini eng samarali nusxasiga o'rgatish zarur; •

- ikkinchidan, o'rgatish jarayonida nazariy mashg'ulotlarga alohida e'tibor berilishi zarur, toki o'rganuvchi o'rgatilayotgan harakat texnikasining ijro etish tartibini fikran to'liq anglasin, xotirada yaxshi eslab qolsin va tafakkurida to'g'ri bajara olsin;

- uchinchidan, o'rgatish jarayonida o'rganuvchi o'rgatila-yotgan harakat texnikasini har xil vaziyatda, har xil tezlikda, aniq va maqsadga muvofiq bajarilish imkonini ta'minlovchi yetarli rivojlangan jismoniy sifatlar poydevorini yaratishi shart. Chunki o'rganuvchi jismonan zaif bo'lsa, o'rgatilayotgan harakat texnikasi xatolar bilan ijro etiladi, samara bo'lmaydi, o'rgatish yo'nalishini maqsadga muvofiq tomonga burish imkonini chegaralanadi, hatto yo'qoladi.

Texnik tayyorgarlikni amaliyotga joriy etish o'rgatish va takomillashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

1-bosqich. Harakat texnikasi, uni ijro etish tartibi haqida ilk bor tushuncha hosil qilish va o'rgatiluvchini ruhiy jihatdan mazkur harakat texnikasini o'zlashtirishga tayyorlash.

2-bosqich. Harakat texnikasiga o'rgatish jarayonida boshlang'ich ko'nikma malakalarini hosil qilish, tarbiyalash, o'zlashtirishni sekin-asta murakkablashtirish.

3-bosqich. Harakat texnikasini to'liq va mukammal bajarish. Ortiqcha harakatlardan xoli bo'lish.

4-bosqich. Harakat texnikasini barqaror, to'liq va tez bajarish.

5-bosqich. Harakat texnikasini turli o'zgaruvchan vaziyatlarda maqsadga muvofiq bajarish.

6-bosqich. "Chuqurlashtirilgan" – murakkablashtirilgan o'rgatish va takomillashtirish jarayoni.

7-bosqich. O'rgatilgan malakalar texnikasining mukammalligini ta'minlash, saqlash va ularni ijro usullarini kengaytirish, boyitish va takomillashtirish.

Texnik tayyorgarlikni maqsad va vazifalarini amaliyotga joriy etish ixtisoslashtirilgan vositalar (mashqlar) yordamida amalga oshiriladi. Aslida "vositalar" keng ma'noga ega bo'lib, ularni turlari xilma-xildir. Asosiyları, tabiiyki, yondashtiruvchi mashqlar, texnikaga oid mashqlar (yoki asosiy mashqlar) va ikki tomonlama badminton o'yini bo'lib hisoblanadi. Lekin masalani muvafaqqiyatli va samarali hal etish uchun o'rgatish va takomillashtirish jarayonida tayyorlov mashqlari va taktikaga oid mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Boshqacha qilib aytganda, jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi va taktikaga oid mashqlarni texnikaga o'rgatish jarayonida qo'llab borish, o'zin jarayonida badmintonchida o'z texnik imkoniyatidan foydalanish darajasini orttiradi. Demak, texnik tayyorgarlik jismoniy va taktik tayyorgarlik bilan uzviy va chambarchas bog'liqdır.

Yuqorida qayd etilgan vositalar ma'lum uslublar asosida qo'llaniladi. Uslublar – bu trenerni o'rgatish jarayonida (texnik

tayyorgarlikda) beradigan mashqlarni (vositalarni) qo'llash texnologiyasidir.

Uslublar shartli ravishda 3 turga bo'linadi: tushuntirish, ko'rgazmali va amaliy.

Texnik tayyorgarlik jarayonida shug'ullanuvchilarni yoshiba, imkoniyatlariga, o'rgatish bosqichiga qarab, u yoki bu uslublarni ustunligi bo'lishi mumkin.

Tushuntirishga oid uslublar o'z ichiga so'zlab berish, suhbat, ko'rsatma, tahlil va muhokama kabilarni oladi.

Ko'rgazmali uslublar: o'quv filmlari, tasviriy filmlar, suratlar, texnikani trener tomonidan namoyish qilinishi, o'yinlarni kuzatish va hokazo.

Amaliy uslublar:

1. Harakat texnikasini to'liq holda o'rgatish.
2. Harakat texnikasini qismlarga bo'lib o'rgatish.
3. Boshqaruv uslubi.
4. Harakatli ko'rgazma uslubi.
5. Qaytarish uslubi.
6. Murakkablashtirish uslubi.
7. Charchoq holatida o'yin malakalarini bajarish uslubi.
8. Qo'shma uslub.
9. Aylanma usulida mashq bajarish.
10. O'yin uslubi.
11. Musobaqa uslubi.

17.2. Texnik mahoratni shakllantiruvchi omillar

Badmintonching texnik mahoratini oshirishda shunday omillar mavjudki, ularni o'quv-trenirovka jarayonini rejalashtirishda, tashkil qilishda va boshqarishda e'tiborga olish samara zaminidir. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Maxsus jismoniy sifatlarni va qobiliyatlarni yuqori darajada rivojlangan bo'lishi.
2. O'yin malakalarining barcha usullarini texnik jihatdan o'zlashtirilgan bo'lishi.

3. Musobaqaning o‘zgaruvchan vaziyatlarida hamda tashqi va ichki ta’sirlar sharoitida harakat (o‘yin) texnikasini barqaror va mukammal bajarilishi.

4. Badmintonchining o‘z o‘yin uslubini yuqori mahorat bilan bajarishi.

5. O‘yin qoidalariga va o‘yin intizomiga rioya qilgan holda faollik ko‘rsatish, zukkolik, makkorlik, tadbirkorlik sifatlarini namoyish qila bilish.

6. Badmintonchi o‘z shaxsiy imkoniyatlardan samarali foydalana olishi;

7. Organizmning funksional imkoniyatini yuqori darajada rivojlanganligini ta’minlash, uni yuklamaga bardosh berish darajasini oshirish.

Shuning uchun mazkur omillar sport tayyorgarligini boshqarishda asosiy mo‘ljal bo‘lib xizmat qilishi kerak.

O‘yin malakalari va ko‘nikmalarining shakllanishi ularni o‘zlashtirish tartibi va o‘rgatish texnologiyasiga asoslanadi.

Harakat texnikasiga o‘rgatish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) o‘rgatiladigan harakat texnikasi bilan tanishish, uni ijro etish tartibini kuzatish va xotirada harakat izini (nusxasini) qoldirish;

2) malakani oddiy sharoitda o‘zlashtirish;

3) malakani murakkablashtirilgan sharoitda o‘zlashtirish;

4) malakani o‘yinda mukammal egallash va takomillash-tirish.

O‘rgatish jarayonini qayd etilgan tartibda amalga oshirishda qo‘llaniladigan vositalar (mashqlarni) quyidagi didaktik prinsiplarga asoslanishi shart:

- oddiydan murakkabga (ayrim hollarda murakkabdan oddiyga prinsipi ham qo‘llanilishi mumkin);

- yengildan og‘irga (yuklama nuqtayi nazaridan);

- o‘tilganidan o‘tilmaganiga.

O‘rgatish jarayonida qo‘llaniladigan barcha uslub va vositalar aytib o‘tilgan prinsiplarga asoslanishi kerak.

Shakllangan malakalarni barqarorlashtirish va mukammallashtirish

Shakllangan texnika tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) ta'sirlar natijasida o'zining tarkibiy (koordinatsion, biomexanik, kinematik jihatlari) nusxasini yo'qotishi mumkin. Masalan, harorat, havo namligi, atmosfera bosimi, tomoshabinlarning olqishi va hokazo tashqi ta'sirlar yoki aylanma tezlanishlar vaqtida tana muvozanatining yo'qolishi (chayqalish), charchash, psixologik stress va hokazo ichki ta'sirlar natijasida yuksak shakllangan o'yin usullari texnik jihatdan yengil, tez va aniq ijro etilmasligi mumkin.

Bunday holatlar yuz bermasligi uchun, o'yin texnikasini o'zgaruvchan vaziyatlarda, tashqi va ichki ta'sirlar sharoitida bajarishni mashq qilish, sportchi organizmini yuklamaga bardosh berish imkoniyatini oshirish kerak bo'ladi. Mashg'ulotlar davomida qo'llaniladigan texnika va taktikaga oid mashqlarni charchash holatida, ruhiyatga ta'sir etuvchi (shovqin, issiqlik) vaziyatlarida qayta-qayta takrorlash zarur.

Sport tayyorgarligining har davr va bosqichlarida o'quv-mashg'ulot uslublari o'ziga xos ustunlikda qo'llaniladi va "dam olish – mashg'ulot-yuklama"si tizimini boshqarishga qaratiladi. Bular jumlasiga uzluksiz mashq-yuklama, "bekatma-bekat" aylanma, qaytarma-o'zgaruvchan, oraliq (interval), "qo'shma" uslublar kiradi.

Yuqorida qayd etilgan o'rgatish va takomillashtirish uslublari va vositalari texnik tayyorgarlik jarayonida quyidagi o'yin usullarini ijro etishda qo'llaniladi:

- raketkani ushslash usullari va texnikasi;
- raketka bilan ijro etiladigan dastlabki, o'zgaruvchan, tur-g'un,vaziyat va qarorga mos jangovor holatlar;
- o'ng va chap tomonlardan sapchigan volanga zarba berish;
- o'ng va chap tomonlardan havodagi volanga zarba berish;
- baland uchib kelayotgan volanga bosh ustidan zarba berish;
- o'ng va chap tomonlardan yassi zarba berish;
- o'ng va chap tomonlardan kesma zarba berish;
- o'ng va chap tomonlardan burama zarba berish;

• qayd etilgan usullarni to‘rdan uzoq joydan va to‘r yaqinidan ijro etish;

- yassi usulda volan kiritish;
- volanni kesma zarb bilan kiritish;
- burama usulda volan kiritish va hokazo.

Mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llaniladigan mashqlar hajm, shiddat, mazmun va muddat jihatlaridan shug‘ullanuvchi tayyorgarligiga va jinsiga qarab tanlanishi zarur. O‘rgatish va takomillashtirish uslublari va vositalari har xil tartibda qo‘llanilishi mumkin.

Texnik tayyorgarlik sport tayyorgarligi jarayonida jismoniy, taktik va o‘yin tayyorgarligi jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim.

Texnik tayyorgarlik davomida shakllantiriladigan o‘yin usullarining tarkibiy komponentlari tarkibi texnik tayyorgarlik davomida shug‘ullanuvchilarning yoshi, sport malakasi hamda badminton texnikasi va taktikasi shakllanib borishi bilan qisman o‘zgartirilishi yoki ko‘paytirilishi mumkin. Texnik tayyorgarlik jarayonida usullarga o‘rgatish va ularni takomillashtirishda mazkur texnik komponentlarga asoslanish tavsiya etiladi.

Nazorat savollari

1. Badmintonchilar texnik tayyorgarligining asosiy maqsadi nimaga qaratiladi?
2. Texnik tayyorgarlik qanday bosqichlardan iborat?
3. Texnik tayyorgarlik uslublari va vositalari, ularning mohiyati nimalar bilan izohlanadi?
4. Texnik tayyorgarlikni tashkil qilishda qanday omillarga asoslaniladi?
5. Texnik tayyorgarlik qanday nazorat qilinadi va baholanadi?

XVIII BOB. TAKTIK - STRATEGIK TAYYORGARLIK

Taktik-strategik tayyorgarlik jismoniy, texnik, funksional va psixologik imkoniyatlarni o‘zida mujassam qilgan hamda mazkur imkoniyatlarning integral ifodasi bo‘lgan uzoq muddatli, munta-zam va uzlusiz shakllantiruvchi pedagogik jarayon bo‘lib, o‘z oldiga yuksak taktik mahoratni o‘zlashtirish, musobaqalarda foydali natija ko‘rsatish va g‘alabaga erishishni yagona pirovard maqsad qilib qo‘yadi.

Umumiy taktik tayyorgarlik, muayyan musobaqa uchrashuviga yoki bir necha musobaqa sikllariga taktik tayyorgarlik ko‘rish, bo‘lajak raqib yoki raqiblar o‘yinlari xususiyatlariga mos, musobaqa o‘tkazish hududiga xos iqlim, kun va tun bioritmiga muvofiq modellashtirilgan real strategik mashg‘ulotlar asosida amalga oshirilishi darkor.

Binobarin, tabaqalashtirilgan taktik-strategik jarayon samaradorligini ta’minalash uchun modellashtirilgan mashg‘ulotlarda quyidagi omillarga amal qilish maqsadga muvofiq:

Birinchi omil – umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlanganlik darajasi hamda ularni o‘yin jarayonida ‘uyg‘un namoyish etilishi.

Ikkinci omil – o‘yin usullari texnikasining shakllanganlik darajasi va ularni mahorat bilan ijro etilishi.

Uchinchi omil – taktik fikrlash “boyligi” va taktik harakatlarini serqqirralligi.

To‘rtinchi omil – texnik-taktik harakatning turg‘unligi, o‘zgaruvchanligi, ko‘p variantliligi, tashqi va ichki ta’sirlarga barqarorligi.

Beshinchi omil – psixofunksional (xotira, diqqat, hissiyot, tafakkur, ong, iroda, ko‘rish kengligi, yurak, nafas olish va hokazo organlar) imkoniyatlarni shakllanganlik darajasi.

Oltinchi omil – o‘yin ixtisosligi (amplua)ni mukammal o‘zlashtirilganligi.

Yettinchı omil – o‘ng va chap qo‘lda nisbatan bir xilda hujumni amalga oshirish imkoniyati.

Sakkizinchı omil – raqib o‘yinchilari va raqib jamoa taktikasi hamda boshqa imkoniyatlardan xabardor ekanligi.

To‘qqizinchı omil – musobaqa o‘tkazilayotgan sport saroyiga xos iqlim (harorat, havo namligi, tomoshabinlar va h.k.) sharoitlariga tez moslashish qobiliyatini.

O‘ninchı omil – nazariy (intellektual) tayyorgarlik darajasi.

Mazkur omillar doirasida qayd etilgan barcha imkoniyatlarni yuksak darajada shakllantirish ko‘p yillik sport trenirovkasida amalga oshiriladigan taktik tayyorgarlikning strategik maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

Taktik tayyorgarlik o‘ziga xos uslub va vositalar yordamida shakllantiriladi. Taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining darajasi va dinamikasi maxsus test mashqlari hamda videotasvirga tushirish asosida muntazam nazorat qilinishi va olingen natijalarga muvofiq taktik mahoratni shakllantirish jarayoniga zarur o‘zgartirishlar yoki qo‘sishchalar kiritilishi mumkin.

Taktik tayyorgarlik – uzoq muddatli jarayon bo‘lib, u dastlabki tayyorgarlik bosqichidan boshlab, toki oliv sport mahoratini takomillashtirish bosqichigacha uzlusiz davom etaveradi. Kelajakda taktik mahoratni samarali o‘zlashtirish uchun taktik fikrlash, vaziyatni payqash, farqlash, tahlil qilish va vaziyatga mos yoki qarama-qarshi taktik usullarni ijro etish qibiliyatlari dastlabki tayyorgarlik bosqichidan boshlab shakllantirilib boriladi.

Taktik tayyorgarlik nazariy-intellektual tayyorgarlik va psixologik tayyorgarlik jarayonlari bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqidir. Nazariy mashg‘ulotlarda shug‘ullanuvchilarning nafaqat xususiy (shaxsiy) taktik imkoniyatlari (taktik usullar, taktik fikrlash, taktik reja tuzish, taktik qaror qabul qilish va h.k.) shakllantiriladi, balki bo‘lajak raqib o‘yinchilar va raqib yoki raqiblarning taktik va strategik andozalari (modellari) ham puxta o‘rgatilishi zarur. Muayyan raqib jamoaga qarshi modellashtirilgan o‘yin mashg‘ulotlari va nazorat musobaqalari muntazam tashkil etilib borilishi maqsadga muvofiq. Modellashtirilgan o‘yin

mashg'ulotlarida har bir o'yinchining o'yin uslubi (taktikasi va strategiyasi) e'tiborga olinishi darkor.

Taktik tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil qilish uchun dastavval uslubiy mashg'ulotlarda badmintonchining shaxsiy o'yin uslubi va raqib yoki raqiblarning taktik imkoniyatlari videofilmlar yordamida tahlil qilinadi.

Taktik savodxonlik (bilimdonlik) va taktik mahoratni takomillashtirishda xotira, diqqat, ong, hissiyat, tafakkur, iroda va hokazolarni shakllantirish bilan bir qatorda zukkolik, uddaburonlik, tashabbusni o'z qo'liga olish, "ayyorlik" (yaxshi ma'noda) kabi xislatlarni ham sayqal toptiruvchi vaziyatli mashqlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy mashg'ulotlarda texnik-taktik mahoratni integral ravishda shakllantirish foydali natijaga erishish imkoniyatini kengaytiradi.

Nazorat savollari

1. Badmintonchilar taktik-strategik tayyorgarligining asosiy maqsadi nimaga qaratiladi?
2. Taktik-strategik tayyorgarlik qanday bosqichlardan iborat?
3. Taktik-strategik tayyorgarlik uslublari va vositalari, ularning mohiyati nimalar bilan izohlanadi?
4. Taktik-strategik tayyorgarlikni tashkil qilishda qanday omillarga asoslaniladi?
5. Taktik-strategik tayyorgarlik qanday nazorat qilinadi va baholanadi?

XIX BOB. JISMONIY-FUNKSIONAL TAYYORGARLIK

19.1. Jismoniy va funksional tayyorgarlik haqida tushuncha

Sport texnikasi va taktikasiga o'rgatish, ularni sportchilar tomonidan o'zlashtirish va yuksak texnik-taktik mahoratga erishish sur'ati ustuvor jihatdan jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham ko'p yillik sport trenirovkasining barcha bosqichlarida ushbu tayyorgarlik turiga alohida ahamiyat qaratiladi. Darhaqiqat, zamonaviy sport musobaqalarida sportchilar faoliyati maksimal jismoniy imkoniyatlarni chegarasida amalga oshiriladi. Jismoniy imkoniyatlarning u yoki bu darajada namoyish etilishi o'z navbatida sportchi organizmining funksional tayyorgarligiga bog'liqdir. Demak, jismoniy va funksional tayyorgarlik erta yoshlikdan boshlab (dastlabki tayyorgarlik bosqichidan) uzoq muddatli sport trenirovkasining eng so'nggi (oliy) bosqichigacha muntazam va uzlusiz shakllantirib borilishi lozim.

Jismoniy tayyorgarlik yoki jismoniy sifatlarga xos ko'rsatkichlar – bu ish qobiliyatining (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik)ni ifodalovchi joriy mezonlardir.

Funksional tayyorgarlik esa shu ish qobiliyatini aks ettiruvchi ichki imkoniyatlari (yurak-tomir, qon aylinish, nafas olish, o'pka, jigar, taloq, buyrak, mushaklar va hokazo a'zolari faoliyati), ko'rsatkichlar (puls, arteriya qon bosimi, o'pkaning tiriklik sig'imi, nafas olish soni, PWS₁₇₀ va h.k.) bilan ifodalanadi.

So'nggi yillarda funksional tayyorgarlik ko'pchilik olimlar tomonidan mustaqil tayyorgarlik turi sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, funksional imkoniyatlarni shakllantirishda fiziologik (kardio lider, elektrostimulyatsiya, veloergometr, massaj, sauna va h.k.), farmatsevtik (vitaminlar, ho'l mevalar, sharbatlar va hokazo) uslublar qo'llanilmoqda.

Mushaklarni taranglashtirish (stretching – bukilish-yozilish) va bo'shashtirish (relaksatsiya), daryo, o'rmon, tog' hududlarida

sekin shiddatda yugurish, antistatik holatlarda mashqlar bajarish ish qobiliyatini tiklash, kuchaytirish vositalari sifatida joriy etilgan.

Jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, muvofiq sport turining xususiyatiga mos ravishda tashkil qilinishini taqozo etadi.

Ushbu jarayonning asosiy maqsadi umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalashga qaratiladi.

Umumiy jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasi maxsus jismoniy sifatlarni samarali yoki samarasiz shakllanishiga bog'liq bo'ladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik sportchilar organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratiladi. Barcha sport turlari kabi badmintonda ham o'yin malakalarini tez, aniq va vaziyatga nisbatan maqsadga muvofiq ijro etish eng avvalo maxsus jismoniy sifatlarga bog'liqdir.

Maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vositalari turli yo'nalishda ijro etiladigan maxsus mashqlar bo'lib, sakrash, hatlash, maydon bo'ylab o'zgaruvchan tezlik va yo'nalishlarda yugurish, egilish, burilish kabi harakat malakalaridan iboratdir.

Ma'lumki, zamонавий badmintonda barcha o'yin malakalari aksariyat vaziyatlarda o'ta katta tezlanish va kuchlanishda ijro etiladigan zarba, volan kiritish va ularni turli usullaridah iborat. Demak, maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonini tashkil qilishda sport tayyorgarligining davri va bosqichlariga qarab sakrash, turli yo'nalishda qisqa oraliqlarga yugurish, burilish, to'xtash, depinish mashqlari alohida yoki o'yin malakalarini ijro etish bilan qo'llanilishi mumkin.

Maxsus kuchni rivojlantirish. Badmintonda qator o'yin malakalari – zarba berish, volan kiritish aksariyat kuch sifatining yuqori darajada rivojlanganligini talab qiladi. Binobarin, ushbu malakalarni samarali bajarish uchun qo'l va oyoqlar, umuman, tana qismlarining mushaklari tez va kuchli qisqarish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, mushaklarning qisqarishi portlovchi kuch bilan amalga oshirilishi kerak.

Demak, badmintonchi kuchini shakllantirishda asosiy e'tibor tezkor-kuch sifatini rivojlantirishga oid maxsus mashqlarga qaratilishi darkor.

Ushbu maxsus mashqlarni o'yin malakalari bilan bir vaqtida qo'llanilishi yaxshi samara beradi.

Tezkor-kuch sifatlarini tarbiyalash, ayniqsa, ularni og'irlik moslamalari (oyoq va belga qo'rg'oshindan qilingan moslama, zarba berishda bilakka o'mashtiriladigan og'irlik moslama) va turli trenajyorlar yordamida rivojlantirish umumiy jismoniy tayyorgarlik bosqichida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Quyida ayrim tana qismlari mushaklarining kuchini rivojlan-tiruvchi namunaviy mashqlar yoritilgan.

Bilak mushaklari kuchini rivojlaniruvchi mashqlar:

- gantellarni (1-3 kg) qo'llarda ushlab, bilak-kaft bo'g'imida o'ng va chap tomonga aylanma harakat qildirish;
- shu bo'g'imida gantelni yuqoriga va pastga harakatlantirish;
- to'ldirma volanni uloqtirish (qo'llar yuqoriga yozilgan holatdan, bilak-kaft bo'g'imiga urg'u berish lozim);
- to'ldirma volanni ikki qo'llab yuqoridan uzatish va hokazo.

Yelka mushaklari:

- har xil holatlardan turli uzoqlikka to'ldirma volanni uloqtirish;
- o'ng va chap qo'l bilan amartizatorda zarba malakasini taqlid qilish;
- qo'llarga tayanib yotgan holatda qo'l bilan "yurish", "siljib yurish", "sakrab yurish";
- shu holatda – turli yo'naliishlarga;
- volan (yoki to'ldirma volan) bilan zarba berish;
- o'tirgan holatda oldinga va orqaga to'ldirma volanni uloqtirish va hokazo.

Sakrovchanlik – hatlash. Badmintonda sakrovchanlik o'ng va chap tomonlarga, oldinga va orqaga shiddatli hatlash ko'nikmalari bilan farqlanadi. Mazkur sifatlar o'ta tezlikda va o'zgaruvchan yo'naliishda uchib kelayotgan volanga hatlab yetishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Namunaviy mashqlar:

- o'z vaznidan 50-70% og'irliklar bilan o'tirib-turish;

- 50% dan ortmagan og‘irlikni yelkaga qo‘yib, yarim o‘tirgan holatdan shiddat bilan turish;
- turli og‘irlilikdagi moslamalar bilan sakrash, yon tomonlarga, orqaga va oldinga hatlash;
- trenajyorlarda oyoq mushaklarini mashq qildirish;
- turli tezlikda va balandlikda arqon bilan sakrash;
- turli balandlikdagi to‘siqlar osha sakrash va hokazo.

Maxsus tezkorlik. Badmintonchining maxsus tezkorligi, uni qisqa muddat ichida maydoncha bo‘ylab harakatlanishi va o‘yin malakalarini vaziyat talabiga mos ravishda samarali ijro etishi bilan belgilanadi.

Tezkorlik badmintonda 3 xil shaklda namoyon bo‘ladi:

- turli ishora va vaziyatni payqash tezligi (raqibning xatti-harakati, o‘yin vaziyatini o‘zgarishi va uni baholash, raqib o‘yinchining joylashishi va hokazo);
- ushbu vaziyatlarga nisbatan tezkor va maqsadga muvofiq harakat qilish;
- harakatlanish yoki bir necha harakatlarni ko‘p martalab ijro etish tezligi.

Namunaviy mashqlar:

- murabbiyni turli ishorasiga turli harakatlar bilan tez va aniq javob berish. Masalan, murabbiy bir marta chapak chalsa – volanni o‘ng tomondan zarba berish malakasini taqlid qilish, ikki marta chapak chalsa – chap tomondan zarba berish taqlidini bajarish, bir qo‘lini yuqoriga ko‘tarsa – bosh ustidan zarba berish taqlidi va hokazo;

- badminton maydonchasi maketida turli taktik vazifalarni qisqa muddatda yechish (taktik vaziyatni baholash va to‘g‘ri qaror qabul qilish tezligini takomillashtirish);

Maxsus chidamkorlik. Zamonaviy badmintonda turli mazmundagi maxsus chidamkorlik (sakrash chidamkorligi, tezkor va tezkor-kuch chidamkorligi, o‘yin chidamkorligi) hal qiluvchi omil deb e’tirof etiladi. Ushbu sifatlar, ayniqsa so‘nggi geym va setlarda o‘zini “men”ligini ko‘rsatadi. Chunki chidamkorlik, shu jumladan, yuqorida qayd etilgan chidamkorlik turlari tushunchasi – uzoq vaqt davomida charchamasdan shu sifat yoki o‘yin malakalarini yuqori ish qobiliyati darajasida samarali ijro etish demakdir.

Tezkor va tezkor-kuch chidamkorligi – bu kort bo‘ylab harakatlanish va o‘yin malakalarini katta tezlikda ko‘p marta samarali ijro etish imkoniyatini anglatadi. Ushbu sifatlarni rivojlantirish yuqori tezlikda ijro etiladigan maxsus mashqlarni ko‘p martalab qaytarish yordamida amalga oshiriladi.

Bu sifatlarni rivojlantirishda o‘ta charchash yoki zo‘riqish hollarini oldini olish uchun katta tezlik bilan ijro etilayotgan mashqlar (yoki mashqlar majmuasi)ning bir marta qaytarilishi 20-30 s bo‘lishi, mashqlarni ijro etish oralig‘i (dam olish) 1-3 daqiqa, qaytarilish soni esa 4-10 martaga teng bo‘lishi maqsadga muvo-fiqdir.

Namunaviy mashqlar:

- “mokisimon” yugurish;
- “yulduzsimon” yugurish;
- maydon bo‘ylab diagonal yugurish;
- shu mashqlarni o‘yin usullari taqlidi bilan bajarish.

Maxsus chaqqonlik. Chaqqonlik integral jismoniy sifat bo‘lib, o‘z tarkibiga tezkorlik, kuch, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlarini kiritadi. Chaqqonlik muayyan muddat ichida o‘zgaruvchan vaziyatlar ta’sirida turli tezlanish va kuchlanishlar bilan ifodalanuvchi har xil harakatlarni maqsadli hamda aniq ijro etishni talab qiladi. Badminton korti voleybol maydonidan kattaligi bilan deyarli keskin farq qilmasa-da, voleybol maydonida 12 nafar o‘yinchи harakat qiladi, badmintonda esa 2 ta yoki 4 ta. Demak, badmintonchiga keskin o‘zgaruvchan vaziyatlarda raqib tomonidan “uzatilgan” (zarba, chalg‘itib tashlash yoki volan kiritish) volanga yetib kelish va aniq hamda foydali natija bilan tanlangan usulni ijro etish uchun chaqqonlik sifati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Binobarin, badmintonchiga xos chaqqonlik sifatlarini maqsadli shakllantirish uchun o‘yin xususiyatiga mos maxsus mashqlardan foydalanish lozim, bunday mashqlarni qo‘llashda quyidagi sharoitlarni yaratish darkor:

- vaziyatlarni murakkablashtirish va o‘zgaruvchanlik miq-yosini kengaytirish;
- ijro etiladigan harakat vazifalarini murakkablashtirish va ijro etish muddatlarini qisqartirish;

- favqulotli vaziyatlarni yaratish va tashqi ta'sirlar (2 ta raqibga qarshi o'ynash, chalg'ituvchi vaziyatlar tug'dirish va hokazo) sonini oshirish;
- yangi harakat usullarini "ixtiro" qilishga va vaziyatdan foydali natija bilan "chiqishga" undash.

Maxsus egiluvchanlik. Badminton o'yinida ijro etiluvchi texnik-taktik malakalarni samarali ijro etishda egiluvchanlik sifatining ahamiyati alohida o'rin egallaydi. Badmintonchining egiluvchanligi o'ziga xos optimal amplitudada rivojlangan bo'lishi lozim. Me'yordan ortiq yoki kam amplitudaga ega egiluvchanlik o'yin malakasining ijro etilish samarasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Masalan, o'yinga volan kiritishda agar orqaga egilish qobiliyati chegaralangan bo'lsa, inersion kuch susayadi. Maxsus egiluvchanlikni tarbiyalash uchun egilish, bukilish, yozilish, buri-lish va bo'g'imlarni "qisish"ga oid mashqlarni bajarish mumkin.

Namunaviy mashqlar:

- o'tirgan holatda gavdani bukish – peshona tizzalarga imkoniyati boricha yaqinlashtiriladi, oyoqlar bukilmaydi;
- "bukur ko'prik" mashqini bajarish;
- tik turgan holatda tananing tos-bel qismidan aylanma (o'ng va chap tomonga) harakatga keltirish;
- ikki shug'ullanuvchi turli holatlarda bir-birini bukish, egish, burish, "yozish" mashqlarini bajaradi va hokazo.

19.2. Jismoniy sifatlarni baholash testlari va me'yoriy ko'rsatkichlar

Ko'p yillik sport trenirovkasining barcha bosqichlari jismoniy sifatlarning rivojlanish dinamikasini turli uslublar va test mashqlari yordamida nazorat qilib borish jismoniy tayyorgarlik jarayonida qayd etilishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni aniqlash va ushbu jarayonga muvofiq kiritish imkonini yaratadi. Jismoniy tayyorgarlik jarayonini nazorat qilishning yana bir muhim xususiyat-lari shundan iboratki, olingan nazorat natijalari asosida jismoniy yuklamalarni miqdorli yoki me'yorlash mumkin bo'ladi, zo'riqish holatlarini oldini olish imkoniyati tug'iladi. Ayniqsa, olingan natijalar jismoniy mashqlarni shug'ullanuvchilar yoshi,

jinsi va real imkoniyatlariga qarab tabaqalashtirish chorasini belgilashga asos bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Jismoniy-funksional tayyorgarlik tushunchasining izohi.
2. Badmintonchilar jismoniy tayyorgarligining asosiy maqsadi nimaga qaratiladi?
3. Maxsus jismoniy sifatlar qanday vositalar bilan rivojlan-tiriladi?
4. Jismoniy tayyorgarlikni tashkil qilishda qanday omillarga asoslaniladi?
5. Jismoniy tayyorgarlik qanday nazorat qilinadi va bahola-nadi?

XX BOB. PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK

Boshqa har qanday sport turi singari badminton ham o'yinchiga yuqori darajadagi hissiy va ruhiy bosim o'tkazadi. Shu bois, nafaqat jismoniy, balki ruhiy-hissiy yuklamani ham to'g'ri taqsimlash ko'p jihatdan samarali o'yin ko'rsatishga ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, ruhiy barqarorlik – zamonaviy badmintonning asosi hisoblanadi.

Maydonchada qanday qilib mulohaza bilan harakatlanish mumkin? Qachon diqqatni bir joyga jamlash, qachon esa sal yengil tin olish va o'zini bo'sh qo'yish kerak bo'ladi? Raqibga, hakamlarning xatolariga, maydonchaning yomon yoritilganligiga, volanning sisfatsizligiga, o'zining muvaffaqiyatsiz o'yiniga qanday munosabatda bo'lish kerak? Bular – juda muhim va qiziq savollar. Ularning javoblari esa undanda qiziqroq.

O'yinchining maydonchada ruhiy jihatdan o'zini g'alabaga chog'lab harakat qilishining asosini diqqatni jamlash tashkil etadi. Aynan diqqatning jamlanganligi hamma narsani o'z vaqtida bajarish imkonini beradi, ya'ni: volanning uchib kelayotganini ko'rish, unga yaqinlashish, qo'lni kerish va zarba berish. Ammo insonning ruhiy o'ziga xosligi uzoq vaqt diqqatni bir joyga jamlab turish imkonini bermaydi. Maktab, kollej va oliy o'quv yurtlarida dars mashg'ulotlari davomiyligi odatda 45 daqiqadan oshmaydi. Ammo bu ham juda ko'p. Olimlarning isbotlashlaricha, inson atigi bir necha daqiqa, ayrimlar hatto bir necha soniyagina diqqatini bir joyga jamlab turishi mumkin ekan. Sportda aynan diqqatning jamlanganligi o'yindagi o'ziga ishonch va yutuqlarning bosh omili ekanı isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Shu bois, o'yin paytida sportchining diqqatni jamlash bilan bog'liq imkoniyatlarini aniqlash va ro'yobga chiqarish juda muhim vazifalardan biridir. Diqqatni jamlashni mashq qilish juda qiyin jarayon, ammo sportda yuqori natijalarga erishishni niyat qilganlar uchun u nihoyatda zarur.

Shuningdek, mutaxassislar xotirjam o‘ynashni maslahat berishadi. Ko‘pchilik sportchilar berilib ketadigan ortiqcha shiddat o‘yinni to‘g‘ri tashkil qilishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jahl bilan o‘ynash, ayrimlar o‘ylaganidek g‘alaba qozonishga emas, aksariyat hollarda ruhiy tushkunlikka va mag‘lubiyatga sabab bo‘ladi. Afsuski, ba’zi bir sportchilar jahl va dadilllikni bir-biri bilan adashtirib yuborishadi va o‘z g‘alabalariga aynan jahl bilan o‘ynaganliklari sabab bo‘lganini aytib o‘tishadi. Ammo jahl chiqsa, aql ketadi, keraksiz bosim yuzaga keladi, xatolarga yo‘l qo‘yiladi.

Raqibingizga yakson qilib tashlash kerak bo‘lgan dushman sifatida qaramang. Chiroyli va yaxshi o‘yin uchun undan minnatdor bo‘lishga harakat qiling. Bu xislat esa sizning kamolotingizga xizmat qiladi. Ayrim murabbiylar o‘z shogirdlariga bir qator xiylalarni o‘rgatishadi. Bundan maqsad esa: o‘yin paytida raqibni asabiylashishga majbur etish; unga yashirin bosim o‘tkazish; uning xotirjam o‘ynashiga yo‘l bermaslik, asossiz xatolarga yo‘l qo‘yishga majbur qilish. Masalan, o‘yin paytida ayrim sportchilar shu maqsadda tanaffuslar paytida volanni raqibga noqulay tarzda tashlab berib, uni maydoncha bo‘ylab ortiqcha harakatlар qilishga, volanni yerdan olish uchun egilishga majbur etadi; har safar volanning to‘g‘ri oshirilganligiga shubha bildiradi; go‘yoki poyafzalining ipini bog‘lab olish uchun o‘yinni tez-tez to‘xtatadi; xuddiki jahl ustida qo‘lidagi raketkani polga uradi va hokazo. Bunday holat ko‘proq hakamsiz o‘tkaziladigan o‘yinlarda kuzatiladi. G‘alabaga bo‘lgan ishtiyoq o‘yindan zavq olishga to‘sinqinlik qilmasligi kerak.

Shuni yodda tutingki, sport odob-axloqi qoidalariga rioya etish, raqib, hakamlar va tomoshabinlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, badminton qoidalariga ko‘ra, sportchining majburiyati hisoblanadi. Qoidalarda mazkur masalalar aniq-tiniq belgilab qo‘yilgan bo‘limlar mavjud.

O‘z harakatlari, masalan, baqirish va imo-ishoralari bilan raqibni ataylab chalg‘itmaslik kerak.

To‘r ustida turgan volanga zarba bermoqchi bo‘lgan raqibga raketka yoki tana bilan to‘sgan holda xalaqit bermaslik zarur.

Minoradagi hakamning ruxsatisiz maydonchadagi sportchi o‘yin paytida maydonchani tark etishga haqli emas; mazkur qoidalarda belgilab qo‘yilgan tanaffuslar bundan mustasno.

O‘yinchiga quyidagilar taqiqlanadi:

- ataylab o‘yinni cho‘zish yoki to‘xtatib turish;
- tezligi va uchish trayektoriyasini o‘zgartirish maqsadida volanning shaklini ataylab o‘zgartirish;
- o‘zini nomunosib tutish;
- sportchiga xos bo‘limgan xatti-harakatlar qilish.

Sportchiga xos bo‘limgan har qanday xatti-harakatlar va ularga nisbatan ko‘rilgan choralar to‘g‘risida darhol Bosh hakamga xabar berilishi kerak.

Agar minoradagi hakam o‘yinchiga qoidabuzarligi uchun ogohlantirish bermoqchi bo‘lsa, unga: “Yonimga keling” deydi, keyin esa sariq kartochka tutgan o‘ng qo‘lini boshi uzra baland ko‘tarib, sportchiga xos bo‘limgan xatti-harakatlari uchun ogohlantiradi.

Agar ogohlantirish olgan sportchi qaytadan jazolanayotgan bo‘lsa, minoradagi hakam o‘yinchiga “Yonimga keling” deydi, keyin esa qizil kartochka tutgan o‘ng qo‘lini boshi uzra baland ko‘tarib, sportchiga xos bo‘limgan xatti-harakatlari uchun ogohlantirish beradi. Shu bilan bir vaqtda uning raqibiga ochko yoziladi.

Partiyalar orasida sodir etilgan sportchiga xos bo‘limgan xatti-harakatlar ham xuddi o‘yin paytidagi kabi jazolanadi. Minoradagi hakam o‘yinni davom ettirishdan oldin ana shu jazoni e’lon qiladi. Shunday qilib, partiya 1:0 hisobi bilan boshlanishi mumkin, partiya o‘rtasidagi tanaffusdan keyin esa o‘yin (aytaylik, 11:8 hisobida tanaffusga chiqilgan bo‘lsa) 12:8 yoki 9:11 hisobi bilan davom etishi mumkin.

Agar minoradagi hakam jiddiy xato yoki takroran sodir etilgan qoidabuzarlik uchun bungacha ogohlantirilgan o‘yinchini yana jazolamoqchi bo‘lsa, yoxud o‘yinchi tanaffus tugaguncha maydonchaga qaytmagan bo‘lsa, minoradagi hakam qoidabuzarga murojaat etib “Yonimga keling” deydi, keyin esa qizil kartochka tutgan o‘ng qo‘lini boshi uzra baland ko‘tarib, sportchiga xos bo‘limgan xatti-harakatlari uchun ogohlantirish beradi va Bosh

hakamni yoniga chaqiradi. Agar Bosh hakam qoidabuzarga mag'-lubiyat yozish kerak, degan xulosaga kelsa, minoradagi hakamga qora kartokchani uzatadi. Minoradagi hakam qoidabuzarga murojaat etib “Yonimga keling” deydi, keyin esa qora kartochka tutgan o'ng qo'lini boshi uzra baland ko'tarib, sportchiga xos bo'limgan xatti-harakatlari uchun mag'lubiyat yozilganini e'lon qiladi.

Juftlik bahslarida tanbeh va birinchi ogohlantirish berilganda bayonnomaga jazolash alohida qayd etiladi. Juftlikdagi qaysi o'yinchi ogohlantirilishidan qayt'i nazar, ikkinchi ogohlantirish juftlikka tizimli qoidabuzarlik sifatida beriladi va ularga qizil kartochka ko'rsatilib, Bosh hakamga murojaat etiladi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, maydonchadagi har qanday sportchiga xos bo'limgan xatti-harakatlar va munozaralar barcha ishtirokchilarning o'yin sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatar ekan.

O'yindagi asosiy ruhiy-hissiy holat uchta omilga tayanishi kerak, bular: xotirjamlik, diqqatni bir joyga jamlash, o'ziga ishonch. Yana bir qadrlanadigan xususiyat – hisob qandayligidan qat'i nazar, sportchi o'yinni oxirigacha davom ettirishi kerak. Badminton tarixida mag'lubiyati go'yoki aniq bo'lib turgan sportchilar iroda va qat'iyat tufayli g'alaba qozonib ketgan holatlar ko'p bo'lgan. Volan o'yinda ekan, har narsa bo'lishi mumkinligini doimo yodda tuting.


Shu bilan birga, o'zining sportchiga xos bo'limgan xatti-harakatlari bilan raqibga ataylab bosim o'tkazmagan holda, uning ruhiy-hissiy jihatdan ojiz tomonlaridan o'yin paytida ustalik bilan foydalanish noto'g'ri hisoblanmaydi. Masalan, raqibingiz chap qo'li tomonga yo'naltirilgan zARBALARDAN qo'rqishini sezib qolsangiz, imkon qadar ana shu tomonga o'ynashga harakat qiling. Mabodo, juftlik va mikst uchrashuvlarida raqiblarinigiz maydonchadagi joylashuv borasida tez-tez bahslashib qolishsa, volanni aynan ana shu bahsli hududlarga yo'naltirishga intiling.

O'zingiz uchun noqulay vaziyatlarda ham yutuq va g'alabaga intilish uchun sabab izlang.


O'quv-mashg'ulot va musobaqaoldi jarayonlarida 7- va 8-andozalarda aks ettirilgan psixologik sifatlar va musobaqaoldi

holatlariga doir tasniflardan foydalanish o‘ta muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

7-andoza



8-andoza



Nazorat savollari

1. Psixologik tayyorgarlik tushunchasi nimani anglatadi?
2. Qanday psixologik sifatlar mavjud va ularning qisqacha mazmuni nimadan iborat?
3. Badmintonga xos qanday psixologik sifatlarni bilasiz va ularni qanday tarbiyalash mumkin?
4. Musobaqaoldi psixologik tayyorgarligi mohiyati va mazmuni nimalar bilan izohlanadi?
5. Salbiy psixologik holatlarni bartaraf etish qanday amalga oshiriladi?

XXI BOB. YUQORI RAZRYADLI BADMINTONCHILAR BILAN MASHG'ULOT O'TKAZISH XUSUSIYATLARI

Zamonaviy sport musobaqalarida raqobatning keskinlashib borishi va ushbu vaziyat ta'sirida yuksak natijaga erishish zaruriyat sportchilarning jismoniy va psixofunksional imkoniyatlari hamda ularda sport mahoratini maksimal shakllantirish muhimligiga e'tibor qaratadi. Lekin yuksak biojismoniy imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan o'quv-mashg'ulotlar hajmi va shiddatini uzlusiz oshiraverish, ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi mumkinligi isbot talab qilmaydi. Shunday ekan, bugungi sport amaliyotida pirovard foydali (bezarar) natijaga erishish zaruriyati o'quv-mashg'ulot jarayoniga ish qobiliyatini (jismoniy, funksional, texnik-taktik imkoniyatlar) shakllantiruvchi (o'stiruvchi), tiklovchi va kuchaytiruvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar tatbiq etilishini taqozo etadi. Bunday texnologiyalarni ham to'g'ridan-to'g'ri "ko'r-ko'rona" qo'llash foydali natija bermasligi ehtimoldan xoli emas. Demak, "trener-sportchi-trener" uzlusiz "aloqa" tizimida foydali maqsadga erishish uchun ushbu texnologiyalar muayyan "subyekt" (sportchi)ning ko'p qirrali imkoniyatlariga mos holda qayta ishlab chiqilishi yoki tamomila yangi texnologik yondashuv ixtiro qilinmog'i darkor. Boshqacha qilib aytganda, yuqori malakali, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlashga "bel bog'lagan" trener o'z kasbiy-pedagogik faoliyatiga "tadqiqotchi" va "ixtirochi" sifatida ijodiy yondashishi lozim.

Ma'lumki, yuqori malakali sportchilar tayyorlash jarayoni yuksak sport natijalariga erishish maqsadiga muvofiqlashtirilgan bo'ladi. Binobarin, o'qituvchi-trener chuqur va keng qirrali nazariy bilimlarga ega bo'lishi, mashg'ulotlar hajmi, shiddati, takrorlanishi, davomiyligi va yo'nalishini "subyekt" (sportchi)ga nisbatan qo'llash qonuniyatlari hamda ularni aks ta'sir natijalarini aniq bashorat qilish va pirovard foydali maqsadni ko'ra bilishi darkor.

Yuqori malakali badmintonchilar bilan ishslash, ular bilan o'quv-mashg'ulot va integral tayyorgarlik jarayonlarini maqsadli

tashkil qilish jahon miqyosiga mos model ko'rsatkichlarga asoslanish, yordamchi trenerlar va mutaxassis-olimlar tomonidan muntazam o'tkaziladigan kuzatuv natijalaridan unumli foydalanishga bog'liqdir. Masalan, sport takomillashuvi guruhlarida shug'ullanuvchi yuqori malakali badmintonchilarda tayyorgarlik turlari bo'yicha taqsimlanadigan soatlar hajmi quyidagicha bo'lishi tavsiya etiladi (20-jadval).

20-jadval

Yuqori malakali badmintonchilarga mo'ljallangan namunaviy yillik o'quv rejasi (soat)

(I.V. Vsevolodov, A.I. Shokin, 2005-yil bo'yicha)

T/r	Tayyorgarlik turlari	Sport takomillashuvi guruhlari	
		1-yil	2-yil
1.	Nazariy tayyorgarlik.	35	40
2.	Texnik-taktik tayyorgarlik.	490	649
3.	Jismoniy tayyorgarlik.	264	278
4.	Psixologik tayyorgarlik.	42	50
5.	Nazorat ko'chiruv test sinovlari.	3	3
6.	Musobaqa tayyorgarligi (turnirlar soni).	16	18
7.	Ish qobiliyatini tiklash va shakllantirish mashg'ulotlari.	45	55
8.	Tibbiy nazorat.	12	12
9.	Yillik yuklamalar hajmi.	828-900	1008-1152

Jadvalda qayd etilgan tayyorgarlik turlari, ularga ajratilgan mashg'ulotlar yoki tadbirlarga ajratilgan soatlar hajmi "Sport mahoratini takomillashtirish guruhlari"ga mo'ljallangan bo'lib, ular malakali badmintonchilarning real tayyorgarligi, imkoniyatlari va tajribasiga qarab, u yoki bu tomonga o'zgartirilishi mumkin.

Hatto bir yillik tayyorgarlik siklida badmintonchilarni mashg'ulotlar, musobaqalar va test sinovlarida ko'rsatgan natijalariga asosan rejaga qo'shimcha tadbir-yuklamalar (mashg'ulotlar muddati, musobaqalar soni kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi, mashg'ulotlar mazmuni va yo'nalishi o'zgartirilishi mumkin) kiritilishi mumkin.

Tayyorgarlik siklida va bosqichlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlash uchun trener har bir mashg'ulotga va butun yillik tayyorgarlik jarayoniga tashkiliy-strategik rejalar ishlab chiqishi hamda ulardan maqsadli foydalanishi darkor. Agar masalaga ko'p yillik sport trenirovksi jihatidan qaraladigan bo'lsa, unda trener tabaqlashtirilgan tayyorgarlik xaritasiga asoslanishi darkor, (9-andoza).

9-andoza



Yuqori malakali badmintonchilarga mo‘ljallangan “yuksak mahoratni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar bosqichi”da haftalik mashg‘ulotlar mikrotsikllarida quyidagi vazifalarga urg‘u berish tavsiya etiladi:

Haftalik mashg‘ulotlar siklida trener har bir o‘yinchini imkoniyatiga qarab har bir mashg‘ulotga xos yuklama hajmi va shiddatini aniqlashi, olingan natijaga asosan mashg‘ulot loyihasini moslashtirishi darkor.

21-jadval

-	dushanba	1. Umumiy va ixtisoslikka yo‘naltirilgan jismoniy mashqlar, turli o‘zgaruvchan tezlanish, kuchlanish va yo‘nalishda ijro etiladigan maxsus mashqlar. 2. Volan kiritish va qabul qilish mashqlari. Birinchi volan kiritish sifati va samaradorligini shakllantirishga ustunlik berish.
-	seshanba	1. Musobaqalashtirilgan va modellashtirilgan mashqlar. 2. Kortning orqa chiziqlarida ijro etiladigan usullarni turg‘unlashtirish va barqarorlashtirish. Juftlik o‘yinlariga xos volanlarni qabul qilishni takomillashtirish.
-	chorshanba	Nazorat, sinov va shartli o‘yinlar.
-	payshanba	1. Taqlid qilinadigan va volan bilan o‘ynaladigan erkin mashqlar. 2. Tanlangan va eng yaxshi o‘zlashtirilgan zarba turlarini mashq qilish.
-	juma	1. Sekin, shiddatli va o‘zgaruvchan yo‘nalishli yugurish mashqlari. Egiluvchanlik va qayishqoqlik mashqlari. 2. Volan kiritish – qabul qilish. Tay-breyk o‘yinlarini takomillashtirish.
-	shanba	Modellashtirilgan o‘yin mashg‘uloti.

Umumiy fundamental (umumjismoniy), maxsus jismoniy va musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichlarida hamda musobaqa sikllari

davomida yillik tayyorgarlik bo‘yicha ishlab chiqilgan strategik rejaga asosan mashg‘ulotlar mazmuni, hajmi, shiddati, yo‘nilishi va pirovard maqsadlari muvofiq ravishda moslashtirilgan bo‘lmog‘i lozim.

Shiddatli mashqlar va har bir mashg‘ulotdan so‘ng ish qobiliyatini tiklovchi, funksional a’zolarni “tinchlanтирувчи” jismoniy va ruhiy imkoniyatlarni dastlabki muvozanatga olib keluvchi qisqa muddatli “stretching – relaksatsion – gipoksik – respirator” shakl-mazmunli mashqlar majmuasini “statik-antistatik” holatlarda muntazam ijro etish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, haftada bir marta, ayniqsa, musobaqa sikllaridan so‘ng badmintonchilar organizmining funksional faoliyati, umumiy va maxsus ish qobiliyatini tiklash hamda salomatlik zaxiralarini kuchaytirish maqsadida massaj, vitamin, ko‘katlar va mevalar sharbatini iste’mol qilish, sauna vositalaridan foydalanish, shu jumladan, kundalik autotrening mashqlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

XXII BOB. MUSOBAQA FAOLIYATINI BOSHQARISH

Badmintonga xos musobaqa faoliyati – bu bir yoki ikki badmintonchining shunday sonli raqib yoki raqiblariga nisbatan rasmiy qoidalarga muvofiq keskin raqobat ostida amalga oshiradigan jismoniy, texnik-taktik, psixologik va intellektual xatti-harakatdir.

Mazkur jarayonning har bir lahzasi, geymlari, setlari va “taybreyk”larida foydali natijaga erishish ustuvor jihatdan badmintonchi yoki badmintonchilarning faqat o‘zlariga bog‘liqdir. O‘zga sport o‘yinlari bo‘yicha o‘tkaziladigan musobaqa uchrashuvlarida trener o‘z o‘yinchilariga nafaqat tanaffuslarda yoki majburiy to‘xtalishlarda (o‘yinchining jarohat olishi, o‘yinchini almashtirish va h.k.) ko‘rsatmalar berishi mumkin, balki uchrashuv davomida ham ularning xatolarini tuzatish, yangi rejani qo‘llash, taktik harakatlarini o‘zgartirish bo‘yicha muvofiq maslahat va tavsiyalar berishga haqlidir. Lekin badminton musobaqalarida bunday imkoniyatlardan trener (yoki sardor) uchun chegarlangan. Badmintonda barcha taktik-strategik ko‘rsatmalar, raqib imkoniyatlari va taktikasi, uning zaif jihatlarini va sir-asrorlari haqidagi yo‘l-yo‘riqlar asosan musobaqa oldidan beriladi. Demak, badmintonchi uchrashuv davomida raqibga qarshi rejalashtirilgan taktik-strategik faoliyatini shaxsan o‘zi boshqaradi.

Buning uchun badmintonchi uchrashuvda raqobatlashadigan raqibi haqida mumkin qadar ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Raqibning zaif jihatlarini bilishi, ularga qarshi ijro etiladigan harakat usullarini loyihalashtirishi va amalga oshirish choralarini ko‘rishi, o‘z kamchiliklarini esa oshkor qilmaslik yo‘llarini aniq tasavvur qilishi lozim. Qisqa muddatli to‘xtalishlarda badmintonchi o‘z raqibining navbatdagi qarshi xatti-harakati, qo‘llashi mumkin bo‘lgan texnik-taktik usulini bashorat asosida aniqlashga intilishi va ularga qarshi ijro etiladigan o‘z usullarini fikran idrok qilishi, agar bashorat natijasi asil vaziyatga mos kelsa, shu

rejalashtirilgan usul yoki usullarni unumli amalga oshirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchrashuv oldidan yoki uchrashuv davomida badmintonchida qator salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, ortiqcha hayajonlanish, xavotirlanish, qo‘rquv alomatlarini paydo bo‘lishi, tushkunlikka tushish kabi holatlar ustunligi bilan jangovor holat ustunligi o‘rtasidagi muvozanat u yoki bu tomonga o‘zgarib turishi mumkin. Ta’kidlash muhimki, salbiy holatlar ustunligi yuzaga kelganda, aksariyat xotirani pand berishi (eslab qolish qobiliyatining zaiflashishi), diqqatni “bo‘ysunmasligi”, vaziyatni idrok qilishni “loyqalanishi”, hissiyotni o‘tkirsizlanishi va irodani zaiflashuvi ro‘y berishi mumkin. Bunday vaziyatlarda zukkolik, “makkorlik”, topqirlik, uddaburonlik va vaziyatni aniq tasavvur qilish xislatlari ham o‘z salohiyatini yo‘qotadi.

Boshqa bir vaziyatlarda badmintonchida jazava va talvasaga tushish, jahlni yuzaga kelishi, man-manlik, raqibni mensimaslik, undan o‘zini yuqori qo‘yish holatlari ham vujudga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda badmintonchida bir qarashda faollik yuqori bo‘lsa-da, nazorat sifati kamayib ketadi, harakatlar vaziyatga muvofiq bo‘lmaydi.

Musobaqaoldi va musobaqa uchrashuvlari davomida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan bunday holatlarda badmintonchi o‘z-o‘zini qanday boshqarishi mumkin degan savol tug‘iladi. Mutaxassis-olimlarning fikriga ko‘ra, musobaqaoldi vaziyatlarda va uchrashuvlar davomida yuzaga keladigan bunday salbiy holatlarda ustuvor jihatdan “autotrening” (xayolan mashq qilish, o‘zini ishontirish) mashq-formulalaridan foydalanish o‘ta samarali natija berar ekan.

Quyida musobaqaoldi vaziyatlarida qo‘llaniladigan “autotrening” formulalari keltirilgan:

“Tinchlanirish” formulasi:

- chuqr nafas olish – kuchanish – mushaklarni taranglashtirish va keskin bo‘shashtirish – “siltab” nafas chiqarish;
- chuqr nafas olish – nafasni saqlash va keskin nafas chiqarish;
- chuqr nafas chiqarish – nafasni saqlash va chuqr nafas olish;

- 5-6 marta chuqur nafas olib, chuqur nafas chiqarish.

“Ichki” so‘z bilan takrorlanadi:

- ichki organlarim va mushaklarim “tozalandi”, “yengil-lashdi”;

- o‘zimni yengil his qilyapman;

- hayajonlanish, xavotirlanish, titroq alomatlari yo‘qoldi;

- yod xayollar yo‘qoldi;

- nafas olishim ravon, yuragim osoyishta ishlayapti;

- tanamda, mushaklarimda kuch yig‘ilmoqda;

- yaxshi dam oldim, musobaqaoldi razminkasiga shayman;

• razminkada tanam, ruhim va mushaklarim maksimal toza-lanadi, kuchim safarbarlikka tayyor bo‘ladi;

• razminka natijalari a’lo bo‘ldi, o‘zimni nihoyatda yengil sezyapman, fikrim o‘tkirlandi;

• razminka davomida raqibim xatti-harakatlari, uning imko-niyatlarini kuzatdim;

• o‘zimni va raqibim imkoniyatlarini taqqosladim – men undan ustunman, kuchli o‘yin ko‘rsatishga ishonchim komil;

- 5-6 marta chuqur nafas olib, nafas chiqardim;

• musobaqaga shayman, jangovor holatdaman – “jangga olg‘a”!

Qayd etilgan ishontirish so‘z-mashqlari ko‘zni yumib fikran takrorlanadi.

So‘z-mashqlar mazmun jihatidan qisman o‘zgartirilishi mumkin, lekin holatni kuchaytirish tartibiga rioya qilish tavsiya etiladi.

Uchrashuv davomidagi to‘xtalishlarda qo‘llaniladigan tiklanish va shaylanirish so‘z-mashqlari (2-3 daqiqa):

• orqa bilan yotib, ko‘zni yumib, oyoqlar yuqoriga vertikal ko‘tariladi;

- oyoqlar yuqoriga qarab silkitiladi;

- oyoqlar qaychisimon harakatlantiriladi;

• oyoqlar tushiriladi – kuchanish, barcha mushaklarni tarang-lashtirish va keskin bo‘shashtirish;

• fikran so‘z bilan takrorlanadi: tiklandim-kuchlandim – “jangga shayman”, tik turib 5-6 marta chuqur nafas olib, keskin nafas chiqariladi.

Uchrashuv tugaganidan so'ng bajariladigan ishontirish so'z-mashqlari:

- ayni vaqtda uchrashuv natijalari meni qiziqtirmaydi;
- o'tgan uchrashuv natijalari xayolimdan butunlay chiqarildi;
- men tanamda, ruhimda va mushaklarimda paydo bo'lgan charchoq – toliqish asoratlarini tozalayman.

Tiklantiruvchi mashqlar:

1. Uchrashuv davomidagi mashqlar uzoqroq muddatda takrorlanadi.

2. O'zini bukish, siqish, kuchanish, tanani burish, aylantirish mashqlari chuqur nafas mashqlari bilan birgalikda bajariladi.

3. Iliq vasov suvda yuvinish.

Musobaqa natijalarini videotasvirdan tahlil qilish, kerakli xulosalarni kundalikka yozish v navbatdagi uchrashuv rejasini tuzish.

Nazorat savollari

1. Badminton musobaqasining mohiyati va u boshqa sport o'yinlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalardan qanday xususiyatlар bilan farqlanadi?

2. Badmintonda musobaqa faoliyati qanday va nimalarga asosan boshqariladi?

3. Musobaqa faoliyatini boshqarishda qanday omillarga asoslaniladi?

4. Boshqarish samaradorligini oshirish uchun qanday chorallarni qo'llash mumkin?

5. Musobaqaoldi holatlari va o'yin faoliyati qanday boshqariladi?

XXIII BOB. TALABALAR ILMIY TADQIQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tizimini shakllantirish, uni yanada ommaviylashtirish hamda aholining kundalik ehtiyojiga aylantirish, ushbu sohani ilmiy asosda tashkil qilishni taqozo etadi. Ayniqsa, o'zbek sportini raqobatbardosh bosqichga ko'tarish, uni xalqaro miqyosga olib chiqish faqat ilmiy izlanishlar, chuqur tadqiqotlar evaziga amalga oshirilishi mumkin. Binobarin, soha bo'yicha ta'lim olayotgan har bir bo'lajak mutaxassis ilmiy-nazariy jihatdan to'la-to'kis qurollangan, o'z kasbining ustasi, zamonaviy, ilg'or ilmiy-tadqiqot uslublarini o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Demak, institut talabalari, shu jumladan, badminton ixtisosliklari talabalari o'quv rejasidagi barcha fanlar qatori ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha ham zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashlari shart. Talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari birinchi navbatda sportchilarning umumiyligi va maxsus jismoniy tayyorgarligi hamda texnik-taktik mala-kalarini takomillashtirishga, o'quv trenirovka jarayonini shakllantirish, jumladan, qo'llaniladigan trenirovka va musobaqa yuklama-larini sportchining jismoniy - funksional imkoniyatlariga muvofiqligini aniqlashga qaratilishi darkor.

23.1. Ilmiy tadqiqot ishlariiga qo'yiladigan talablar va ilmiy ishlar turlari

Sport o'yinlari bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari maxsus yo'naltirilgan murakkab jarayon bo'lib, jismoniy tarbiya va sport amaliyotidagi holat yoki muammolarni o'rghanishga qaratiladi. O'rGANILADIGAN ilmiy mavzu mohiyati va yo'nalishi jihatidan dolzarb amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Har bir ilmiy tadqiqot ishidan avval o'rGANILADIGAN muammo yuzasidan ilmiy «ehtimol» (gipoteza) belgilanadi. Ushbu muammoni o'rghanish natijasida shu «ehtimol» isbot asosida tasdiqlanadi yoki tasdiqlanmaganligi e'tirof etiladi.

Ilmiy ish o‘z maqsadi va vazifalariga mos keluvchi muayyan reja asosida amalga oshiriladi. Har bir ilmiy ishning pirovard natijasi amaliyotga foydali ta’sir ko‘rsatishi lozim. Har bir ilmiy ish o‘ziga xos bo‘lgan tekshiriluvchi obyekt, ilmiy uslublar va kerakli uskuna-anjomlarga ega bo‘lishi shart. Ilmiy tekshirish, asboblar yordamida o‘lchash, tekshiruvni o‘tkazish shart-sharoitlari yagona standart holatda bo‘lishi muhim. Olingan ilmiy ko‘rsatkich va natijalar tekshirilgan jarayonni aniq ifoda etishi zarur.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy ish olib boruvchi har bir tadqiqotchi tekshiriluvchi obyekt inson ekanligini yoddan chiqarmasligi talab qilinadi.

Ilmiy tadqiqotning yakuniy natijalari quyidagi ish shakkllari bilan ifodalanishi mumkin:

- ilmiy ma’ruza yoki uning tezisi (qisqacha matni);
- ilmiy maqola;
- ilmiy tavsiyanoma;
- ilmiy axborot;
- referat;
- ilmiy hisobot;
- ilmiy qo‘llanma;
- diplom ishi;
- magistrlik dissertatsiyasi;
- nomzodlik dissertatsiyasi;
- doktorlik dissertatsiyasi;
- monografiya.

Ilmiy ma’ruza – seminar, konferensiya, simpoziumlarda olimlar diqqatiga taqdim etiladi va o‘z ichiga ilmiy tadqiqot ishlari bo‘yicha muayyan mavzu mohiyatini ochib berishga qaratiladi.

Ilmiy maqola – muayyan ilmiy tadqiqotning ayrim bosqichi yoki yakunlangan natijalari tahlilini ilmiy jurnal, to‘plam va boshqa nashriyotlar orqali e’lon qilinadi.

Ilmiy tavsiyanoma – bosqich yoki yakunlangan ilmiy ish natijalari, ularning tahlili va xulosalari asosida amaliyotga taqdim etiladigan takliflar majmuasini o‘z ichiga oladi. Odatda, bunday tavsiyanomalar avval amaliyotga tatbiq etiladi, so‘ng ularning ahamiyati va amaliy samarasi tan olingach, rasmiy ravishda tasdiqlanadi.

Ilmiy axborot – aksariyat hollarda tezkor yig‘ilishlarda, ilmiy rahbar, ilmiy xodimlar va amaliyot mutaxassislari oldida ilmiy tadqiqotning borishi yoki uning yakuniy natijalari haqida qisqa og‘zaki ma’lumot berish bilan ifodalananadi.

Referat – ilmiy ishning ushbu shakli tanlangan ilmiy mavzu doirasidagi yoki shu mavzuga bevosita aloqador adabiyotlardan ma’lumotlar to‘plib, ularni taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish orqali o‘rganiladigan muammo dolzarbligini isbotlab beruvchi yozma fikr-mulohazalardan iborat bo‘ladi.

Ilmiy hisobot – to‘liq yakunlangan ilmiy tadqiqot yoki uning ayrim qismi bo‘yicha olingan natijalarning atroflicha tahlili va xulosalarini aks ettiruvchi ilmiy ish bo‘lib, yozma ravishda ilmiy ma’muriyatga taqdim qilish uchun tayyorланади. Ilmiy hisobot fan va texnika bo‘yicha davlat ma’muriyati tomonidan belgilangan talablar asosida ishlab chiqiladi hamda dissertatsiyalar kabi barcha bo‘lim, bob va bandlar matnini o‘z ichiga oladi.

Ilmiy qo’llanma – ko‘p yillik ilmiy tadqiqot natijalari va xulosalariga asoslangan holda yaratiladi. Ilmiy qo’llanma turli mavzularga oid masalalar mohiyati, nazariy asoslari, ularni o‘rganish uslubiyati va vositalarini yoritib berishga qaratiladi.

Masalan: sport tayyorgarligining turli davr va bosqichlarida o‘quv-trenirovka mashgulotlarining ilmiy-uslubiy asoslari ochib berilishi mumkin.

Diplom ishi, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari – jismoniy tarbiya va sport sohasida muayyan dolzarb mavzuni ilmiy tadqiqot asosida chuqur hamda atroflicha ochib berishga qaratiladi. Ushbu ilmiy ishlar o‘zining maqsad va vazifalari ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati va tavsiyalari, asoslangan xulosalariga ega bo‘lishi lozim.

Monografiya – ko‘p yillik ilmiy tadqiqot va izlanishlar natijalari asosida ishlab chiqiladigan va kitob shaklida nashr qilinadigan yirik ilmiy ish mahsuli.

23.2. Ilmiy tadqiqot uslublari, izlanuvchi obyekt va o‘rganiluvchi predmet

Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish va o‘tkazishda eng asosiy uslublardan biri pedagogik kuzatuv bo‘lib hisoblanadi. Pedagogik kuzatuv oldindan puxta ishlab chiqilgan maxsus reja asosida amalga oshirilib, o‘z maqsad va vazifalariga ega bo‘lishi darkor. Pedagogik kuzatuvni ma’lum tartibda muntazam olib borilishi muhim shartlardan biridir.

Pedagogik nazorat muayyan obyekt (sportchi, jamoa, mashgulot, musobaqa va hokazo) ustidan ma’lum vazifa bilan belgilangan jarayonlar (mashg‘ulot hajmi, shiddati, sportchining funksional holati yoki uning o‘zgarishi va hokazo) bo‘yicha o‘tkaziladi. Har bir kuzatilayotgan jarayon statik qonuniyatlarga ko‘ra aniq isbot qilish uchun yetarli darajada o‘rganilishi kerak.

Sport tizimida, jumladan, sport o‘yinchilariga oid sport turlari doirasida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish dastavval shu turlar amaliyotiga xos turli yo‘nalishdagi ilg‘or tajribalarni o‘rganishni talab qiladi. Masalan: yetakchi trenerlar tajribasi, yetakchi sportchilar tajribasi, yetakchi jamoalar tajribalarini o‘rganish. Ushbu tajribalarni o‘rganish uslubiy jihatdan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Reja tuzish.
2. Maqsad va vazifalarni belgilash.
3. O‘rganiladigan asosiy masalalarni belgilab olish.
4. Olingan natijalarni statistik jihatdan umumlashtirish.

O‘rganiladigan jarayonlar:

- adabiyotlarni tahlil qilish;
 - rejalahtirish hujjatlarini o‘rganish;
 - pedagogik kuzatuv;
 - trenirovka mashg‘ulotlarini qayd etish;
 - so‘rovnoma o‘tkazish;
 - suhbatlar o‘tkazish;
 - mashg‘ulot va musobaqalar natijalarini (o‘yin malakalari soni, hajmi va samarasini) to‘plash;
 - kundalik daftarlarni o‘rganish.
- ### **Ilmiy tadqiqot uslublari.**
- xronometriya;

- stenografiya;
- dinamometriya;
- miografiya;
- pulsometriya;
- kardiografiya;
- spiroografiya;
- radiometriya;
- ensefalografiya va h.k.

Muayyan ilmiy ish, dastavval, o'rganish uchun tanlab olingen obyekt yoki jarayonning holati va uning dinamikasi belgilangan maqsadga mos ravishda uzoq vaqt davomida tadqiqot asosida tekshiriladi. Olingen natijalar chuqur va atroficha tahlil qilinadi. Tekshiruv statistik jihatdan yetarli darajada amalga oshirilganidan so'ng, maxsus rejaga binoan pedagogik tadqiqot 1-2 yil davomida o'tkazilishi mumkin. Pedagogik tadqiqot o'tkazish uchun tekshiruv-chilarning yoshi, jinsi, jismoniy va sport tayyorgaligi imkoniyati boricha bir xil bo'lgan ikkita guruh tanlab olinadi. Tekshiruvchilar soni ularning sport malakasi, belgilangan maqsad va vazifalariga qarab, 10-15 tadan 50-100 tagacha bo'lishi mumkin. Tadqiqotda ishtirok etadigan ikki guruhdan biri nazorat guruhi, ikkinchisi esa tadqiqot guruhi deb ataladi.

Nazorat guruhi amaldagi dastur asosida shug'ullanaveradi. Faqat ushbu guruh tadqiqot boshida, o'rtasida va yakunida tanlangan ilmiy uslublar yordamida tekshiriladi.

Tadqiqot guruhi esa tadqiqotchi tomonidan ilmiy asosda ishlab chiqilgan maxsus reja dastur bo'yicha shug'ullanishni davom ettiradilar. Tadqiqotning maqsad va vazifasiga qarab, tekshiruvchilar har mashg'ul davomida yoki bosqichma-bosqich tekshiriladi.

Tadqiqot muddati ikki guruhda bir xil bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

23.3. Ilmiy tadqiqot va uslubiy ishlarni tashkil qilish malakalarini o'zlashtirish

Adabiyotlar bilan ishlash. Talaba ta'lim olish davomida ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni taqqoslay

bilish, umumlashtirish va biliobiografik ko'rsatkichlari bilan o'zicha referat tarzida bayon qilib olishni o'rganishi lozim.

Ilmiy uslublarni o'rganish, ularni tadqiqotda qo'llash texnologiyasini o'zlashtirish, tadqiqot natijalarining ilmiy mohiyatini bilgan holda tahlil qilish «ilmini» egallash, natijalarni statistik uslubda hisoblay bilish va boshqa shunga o'xshash bilim va malakalarни shakllantirish talaba uchun ilmiy tadqiqotni samarali tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Agar ilmiy uslublardan foydalanish murakkab texnik vositalar (asbob, apparat, kompyuter, trenajer va h.k.) yordamida amalga oshiriladigan bo'lsa, unda shu texnik asboblarni ishlatish malakasini ham puxta o'zlashtirish kerak bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari qanday mohiyatga ega?
2. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari qanday amalga oshiriladi?
3. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarida qanday uslub va test sinovlaridan foydalaniladi?
4. Ilmiy ish (tezis, maqola, BMI va h.k.) qanday tayyorlanadi?
5. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari qanday maqsadlarga xizmat qiladi?

NAZORAT TEST TOPSHIRIQLARI

1. O‘zbekistonda Badminton federatsiyasi qachon tashkil etilgan?

 - a) 1916-yilda
 - b) 1925-yilda
 - c) 2011-yilda
 - d) 2000-yilda

2. Yakkama-yakka o‘yin maydoni o‘lchamlari qanday?

 - a) $13,4 \times 5,2$
 - b) $12,4 \times 5,2$
 - c) $13,4 \times 6,1$
 - d) $10,5 \times 6,1$

3. Badminton to‘rining balandligi qancha?

 - a) 150 sm
 - b) 155 sm
 - c) 120 sm
 - d) 156 sm

4. Xalqaro badminton federatsiyasi (IBF) qachon tashkil topgan?

 - a) 2001-yil
 - b) 1934-yil
 - c) 1990-yil
 - d) 2011-yil

5. Yakkalik o‘yinda hisob 6:4 bo‘lganda volan qaysi tomondan o‘yinga kiritiladi?

 - a) chap tomondan
 - b) o‘ng tomondan
 - c) o‘rtadan
 - d) farqi yo‘q

6. Juftlik o‘yinda jamoaning bir o‘yinchisi ikki marta ketma-ket volanni qaytarsa...

- a) volan qayta tashlanadi
- b) hisob volanni qaytaruvchiga yoziladi
- d) o‘yin davom etadi
- e) o‘yin to‘xtatiladi

7. Maydonda o‘yinchilarining harakatlanish turi va tezligi nimaga bog‘liq?

- a) volanni uchish trayektoriyasi, tezligi va yo‘nalishiga
- b) badmintonchilar epchilligiga
- d) texnik-taktik tayyorgarligiga
- e) o‘yin tajribasiga

8. Bahslar necha partiya davom etadi?

- a) 4
- b) 3-5
- d) 2
- e) 1

9. “Taktika” tushunchasi qaysi tildan kelib chiqqan?

- a) yunon tilidan
- b) lotin tilidan
- d) nemis tilidan
- e) ingliz tilidan

10. Qabul qiluvchi tomon – bu ...

- a) zarba tashlayotgan taraf
- b) zarba qabul qilayotgan taraf
- d) istalgan taraf
- e) zarba tashlashni rejalashtirayotgan taraf

11. Qanday uslublar yordamida shug‘ullanuvchilarda o‘yin texnikasi to‘g‘risida tasavvur shakllanadi?

- a) namoyish qilish va so‘zlab berish uslublari yordamida
- b) mashqlar uslublari yordamida
- d) uqtirish uslublari yordamida

e) ishontirish uslublari yordamida

12. Volansiz ijro etiladigan texnik mashq qanday nomlanadi?

- a) taqlidiy mashqlar
- b) yondashtiruvchi mashqlar
- d) tayyorlov mashqi
- e) yordamchi mashqlar

13. Juftlik o‘yin – bu ...

- a) nizomda ko‘rsatilgan o‘yinchilar bahsi
- b) bir-biri bilan bahslashayotgan bir juft o‘yinchilar
- d) bir-biri bilan bahslashayotgan ikki juft o‘yinchilar
- e) nizomda ko‘rsatilgan juft o‘yinchilar

14. Yakkalik o‘yin – bu ...

- a) bir-biri bilan bahslashayotgan ikki juft o‘yinchilar
- b) bir-biri bilan bahslashayotgan bir juft o‘yinchilar
- d) nizomda ko‘rsatilgan o‘yinchilar bahsi
- e) nizomda ko‘rsatilgan yakka o‘yinci

15. Volanning uzunligi qancha?

- a) 8-10sm
- b) 4-5sm
- d) 5-6sm
- e) 6-7sm

16. O‘yin olib borish taktikasi vositalari nima?

- a) texnik usullar va ularning turlari
- b) o‘yindagi fikrlash
- d) taktik kombinatsiyalar
- e) joy tanlash va siljib borishlar

17. Musobaqalar qaysi hujjat asosida o‘tkaziladi?

- a) musobaqalar to‘g‘risidagi nizom asosida
- b) jismoniy tarbiya jamoasi kengashi rejasi asosida
- d) musobaqalarning kalendar rejasi asosida
- e) tuman badminton federatsiyasi ishlab chiqgan hujjat asosida

18. Mashg'ulot nechta qismlardan iborat?

- a) uchta
- b) oltita
- d) to'rtta
- e) ikkita

19. Mashg'ulotning tayyorgarlik qismida qo'llaniladigan mashqlar nimaga muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak?

- a) dars vazifalariga
- b) dars hajmiga
- d) dars shiddatiga
- e) dars mazmuniga

20. Hisob 1:8 bo'lganda volan qaysi tomondan o'yinga kiritiladi?

- a) o'ng
- b) chap
- d) markazdan
- e) istalgan tomondan

21. Darsning yakuniy qismida qanday vazifa qo'yiladi?

- a) organizmni tiklash, darsga yakun yasash va uy vazifasini e'lon qilish
- b) dars samaradorligini tahlil qilish va umumiy baholash
- d) o'tilgan mavzuni so'rash
- e) dars sifati bo'yicha shug'ullanuvchilar fikrini eshitish

22. Dars bayonnomasining oxirgi ustuni qanday nom bilan belgilanadi?

- a) tashkiliy-uslubiy ko'rsatmalar
- b) tavsiyalar mazmuni
- d) ko'rsatmalar mazmuni
- e) mashqlar andozasi va izohi

23. Hisob 7:3 bo'lganda volan qaysi tomondan o'yinga kiritiladi?

- a) o'ng
- b) chap
- d) istalgan

e) markazdan

24. Darsning yakuniy qismida “Quvlashmachoq” o‘yinini qo‘lash mumkinmi?

- a) mumkin emas
- b) mumkin
- d) mumkin, agar o‘quvchilar buni talab qilsa
- e) mumkin, agar o‘qituvchi xohlasa

25. Zarbani qabul qiluvchi o‘z zonasining ... turishi mumkin.

- a) istalgan joyida
- b) markazida
- d) orqa zonada
- e) old zonada

26. Texnik vositalar asosida o‘qitish orqali nima ta’minlanadi?

- a) materialning yengilligi va chuqur o‘zlashtirilishi
- b) egallanadigan bilimning mustahkamligi oshadi
- d) yodda qoladigan bilimlar mustahkamlanadi
- e) o‘qitish muddatlari qisqaradi

27. IBF qachon tashkil topgan?

- a) 1934-yil
- b) 1933-yil
- d) 2011-yil
- e) 1997-yil

28. Musobaqalarda nechta o‘yin turi mayjud?

- a) yakkalik, juftlik (erkaklar), mikst
- b) juftlik (erkaklar), juftlik (ayollar), mikst
- d) yakkalik, mikst
- e) yakkalik, mikst, juftlik (erkaklar), juftlik (ayollar)

29. Badmintonchining chidamkorligini qaysi turlarini bilasiz?

- a) tezkor- kuch, sakrash, o‘yin
- b) ko‘p marta sakrash qobiliyatiga ega
- d) o‘yin vaziyatiga qarab tez o‘z harakat faoliyatini moslashtirish

e) o‘yin vaqtida charchoqni yengish

30. Badmintonchiga xos maxsus chaqqonlik sifatini qanday turlarini bilasiz?

a) yangi harakatni tezkor o‘zlashtirish, oraliq va vaqtini tez va aniq farqlash, koordinatsion chaqqonlik

b) yangi usullarni tez o‘zlashtirish, kerakli himoya harakatlari

d) akrobatik va sakrovchanlik

e) qiyin sharoitda to‘g‘ri chamlash, himoyadan hujum harakatiga tez o‘tish

31. Musobaqa siklida yoki butun o‘yin davomida badmintonchini maxsus ish qobiliyatini uzoq vaqt saqlab qolishini ta’minlovchi maxsus jismoniy sifatning nomi nima?

a) o‘yin chidamkorligi

b) kuch chidamkorligi

d) organizm turg‘unligi

e) tezkorlik chidamkorligi

32. Juftlikda to‘ldirma to‘pni otish qanday kuchni rivojlantiradi?

a) qo‘llarning tezkor inersiyon kuchini

b) qo‘llarning absolyut kuchini

d) qo‘llarning statik kuchini

e) qo‘llarning dinamik kuchini

33. Badminton o‘yini O‘zbekistonda nechanchi yillardan rivojla-na boshladi?

a) 50-yillardan

b) 60-yillardan

d) 30-yillardan

e) 20-yillardan

34. Volanni uzatish zonasining uzunligi qancha?

a) 3m

b) 2m

d) 1,98m

e) 1,92m

35. O‘zgaruvchan yo‘nalishda tezkor harakatlanish mashqlari qanday jismoniy sifatlarni rivojlantiradi?

- a) chaqqonlikni
- b) maxsus tezkorlikni
- d) tezkorlik chidamkorligi
- e) tezkor kuchni

36. O‘yinda volanni uzatish uchun necha marta imkoniyat beriladi?

- a) 1
- b) 2
- d) 3
- e) musobaqa turiga qarab

37. Musobaqa to‘g‘risidagi nizom qachon ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi lozim?

- a) har qanday kalendar yil boshlanishidan oldin
- b) musobaqa boshlanishidan 10 kun oldin
- d) musobaqa boshlanishidan bir hafta oldin
- e) oldindan, musobaqa miqyosiga qarab

38. Musobaqalarni tashkil qilish va o‘tkazish maqsadi, vazifalari hamda boshqa shartlari qaysi hujjatda qayd qilinadi?

- a) musobaqalar to‘g‘risidagi nizomda
- b) Badminton federatsiyasi rejasida
- d) hakamlar hay‘atining ish rejasida
- e) Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi ish rejasida

39. Musobaqa ishtirokchilari, g‘oliblari va sovrindorlarini rag‘-batlantirish tartibi qaysi hujjatda o‘z ifodasini topadi?

- a) musobaqa nizomida
- b) musobaqaning yopilish dasturida
- d) musobaqaning taqvim rejasida
- e) musobaqaning yopilish senariysida

40. Badminton mashg‘ulotlarining ustuvor maqsadi – bu...

- a) sog‘lom va iqtidorli badmintonchilarni tarbiyalash

b) jismoniy baquvvat bolalarni tarbiyalash
d) iqtidorli badmintonchilarni tarbiyalash
e) viloyat, shahar va respublika terma jamoasiga nomzod tayyorlash

41. Shug'ullanuvchilar harakat texnikasida yuz bergan kamchiliklarni bartaraf etish uslubi qanday nomlanadi?

- a) xatolarni tuzatish uslubi
- b) oynasimon tuzatish uslubi
- d) qismlarga bo'lib o'rgatish uslubi
- e) tushuntirish uslubi

42. O'rgatish jarayonini samarali tashkil qilish qanday prinsiplarga bog'liq?

- a) didaktik prinsiplarga
- b) psixologik prinsiplarga
- d) mantiqiy prinsiplarga
- e) dialektik prinsiplarga

43. Mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan barcha uslublar necha guruhga bo'linadi?

- a) so'z, ko'rgazmali va amaliy uslub
- b) uzlusiz va oraliq uslub
- d) o'yin va musobaqa uslubi
- e) to'liqligicha va qismlarga bo'lib o'rgatadigan uslub

44. Mashg'ulotning tayyorgarlik davri qanday bosqichlarga bo'linadi?

- a) umumiylaytayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, musobaqaoldi
- b) jismoniy, integral, psixologik tayyorgarlik
- d) texnik, taktik, integral tayyorgarlik
- e) boshlang'ich o'rgatish, kelgusi o'rganish

45. Sport tayyorgarligining tayyorgarlik davri nechta bosqichdan iborat?

- a) uchta
- b) ikkita

- d) beshta
- e) to'rtta

46. Sport mashg'ulotlarining yillik sikli qanday davrlarga bo'linadi?

- a) tayyorgarlik, musobaqa, o'tish
- b) nazariy, maxsus tayyorgarlik, tiklanish
- c) umumiyl jismoniy, texnik, taktik
- e) umumiyl tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik

47. Qaysi hollarda volan uzatish takrorlanadi?

- a) volan noto'g'ri uzatilsa
- b) chap zonadan o'ng zonaga tashlansa
- d) volanni yurib uzatsa
- e) o'yinchi yuqoriga tashlangan volanni ura olmay qolsa

48. Yillik tayyorgarlik reja-jadvalida birinchi bo'lib qaysi tayyorgarlik turi qayd etiladi?

- a) nazariy tayyorgarlik
- b) intellektual tayyorgarlik
- d) integral tayyorgarlik
- e) psixologik tayyorgarlik

49. Uzatilgan volan to'rdan oshib o'tayotib unga tegib, keyin raqibni uzatish maydonchasiga tushsa yoki qabul qiluvchi uni yerga tushmasdan urib yuborsa...

- a) o'yin davom etadi
- b) volan uzatish takrorlanadi
- d) ochko yoziladi
- e) farqlanmaydi

50. Volanni urayotgan paytda uzatuvchining belidan yuqori bo'lisa, uzatish ... hisoblanadi.

- a) noto'g'ri
- b) to'g'ri
- d) farqi yo'q
- e) minimal

51. Raketkaning istalgan qismi volanni urayotgan paytda o‘yin-chining raketka ushlab turgan panjasidan yuqori bo‘lsa ...

- a) volan noto‘g‘ri uzatilgan hisoblanadi
- b) volan to‘g‘ri uzatilgan hisoblanadi
- c) farq qilmaydi
- d) o‘yin davom etadi

52. Mashg‘ulotlarda jismoniy zo‘riqish alomatlarini oldini olish uchun qanday chora qo‘llaniladi?

- a) murabbiy ish qobiliyatini tiklovchi mashqlar qo‘llashi lozim
- b) murabbiy shug‘ullanuvchilar diqqatini chalg‘itishi lozim
- c) murabbiy shug‘ullanuvchilar kayfiyatini ko‘tarishi lozim
- d) murabbiy mashg‘ulotni to‘xtatib dam berishi lozim

53. Nima uchun ayrim hollarda murabbiylar shug‘ullanuvchilar charchaganda ham shiddatli mashqlar qo‘llaydi?

- a) chidamkorlik va irodani shakllantirish uchun
- b) harakatlanish va ongni shakllantirish uchun
- c) texnik-taktik harakatlar faolligini oshirish uchun
- d) jismoniy faollikni oshirish uchun

54. Uzoq muddatli o‘yinlarda sportchi toliqsa ham o‘z imkoniyatini safarbar eta olishi nimaga bog‘liq?

- a) sportchining irodasiga
- b) sportchining absolyut kuchiga
- c) sportchining energetik imkoniyatiga
- d) sportchining chidamkorligiga

55. O‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilishga mo‘ljallangan rejalashtiruv hujjatlarini kim tuzadi?

- a) trener-o‘qituvchi
- b) sport maktabi direktori
- c) o‘quv ishlari bo‘yicha direktor muovini
- d) trenerlar kengashi

56. To‘g‘ri ta’rifni toping:

- a) volan o‘ng zonadan chap zonaga uzatiladi

b) volan chap zonadan o‘ng zonaga uzatiladi
d) zonalar farqlanmaydi
e) volan o‘ng zonadan o‘ng zonaga (chap zonadan chap zonaga) uzatiladi

57. Uzatuvchi volanni yurib turib uzatsa...

- a) o‘yin davom etadi
- b) uzatuvchi tomonidan volan to‘g‘ri uzatilgan hisoblanadi
- d) volan noto‘g‘ri uzatilgan hisoblanadi
- e) volan maksimal uzatilgan hisoblanadi

58. Badminton federatsiyasi tashkil topgan kun...

- a) 26-avgust
- b) 11-aprel
- d) 27-sentabr
- e) 27-avgust

59. Raketka ramkasining uzunligi qancha?

- a) 23-24 sm
- b) 25-26 sm
- d) turlicha
- e) jismoniy imkoniyatga qarab turlicha

60. To‘rning eni qancha?

- a) 75 sm
- b) 98 sm
- d) 70 sm
- e) 76 sm

61. Zarbalar kiritish jarayoni nimasi bilan bir-biridan farqlanadi?

- a) o‘ng va chap zonalarda farqlanadi
- b) racketkani ushslash usuli bilan
- d) maydonning old va orqa zonalari bilan farqlanadi
- e) o‘yinchilarning mahorati bilan farqlanadi

62. To‘rning uzunligi qancha?

- a) 8 m

- b) 6,5 sm
- d) 7 m
- e) 6,1 sm

63. Volanning og‘irligi qancha?

- a) 4,74-5,50 gr
- b) 3,50-4,50 gr
- d) 6-6,50 gr
- e) turlich

64. Raketka dastasining uzunligi qancha?

- a) 60-65 sm
- b) 43-45 sm
- d) 23-24 sm
- e) turlich o‘lchamda

65. Musobaqalarda ishtirok etish tayyorgarlik dasturiga kiritildimi?

- a) kiritiladi
- b) kiritilmaydi
- d) musobaqa – bu mustaqil jarayon
- e) kiritiladi, agar musobaqlar rasmiy bo‘lsa

66. Sport mакtabiga tanlov qanday o‘tkaziladi?

- a) maxsus test mashqlari natijalariga ko‘ra
- b) suhbat asosida
- d) so‘rov nomda asosida
- e) ota-onalarning arizasiga binoan

67. Tanlov o‘tkazuvchi murabbiy ko‘rikdan o‘tmasdan boladan amaliy test qabul qilishi mumkinmi?

- a) mumkin emas
- b) mumkin
- d) mumkin, agar bola baquvvat bo‘lsa
- e) mumkin, agar ota-ona iltimos qilsa

68. Juftlik o‘yinda maydon o‘lchamlari qanday?

- a) $13,4 \times 5,2$
- b) $13,2 \times 5,2$
- d) $13,2 \times 6,1$
- e) $13,4 \times 6,1$

69. Nechanchi yilda badminton olimpiada o‘yinlari dasturidan joy oldi?

- a) 1992-yilda
- b) 1994-yilda
- d) 1990-yilda
- e) 2000-yilda

70. Erkaklar o‘rtasida qanaqa xalqaro musobaqa o‘tkaziladi?

- a) Tomas kubogi
- b) Uber kubogi
- d) Uimblodon turniri
- e) Jahan championati

71. Ayollar o‘rtasida qanaqa xalqaro musobaqa o‘tkaziladi?

- a) Uimblodon turniri
- b) Uber turniri
- d) Jahan championati
- e) Olimpiada o‘yinlari

72. Raketkaning og‘irligi?

- a) 200-210 gr
- b) 142-156 gr
- d) 144-146 gr
- e) 210-220 gr

73. Tomas kubogi nechanchi yildan boshlab o‘tkaziladi?

- a) 1947-yildan
- b) 1955-yildan
- d) 1885-yildan
- e) 1934-yildan

74. Uber kubogi nechanchi yildan boshlab o'tkaziladi?

- a) 1994-yildan
- b) 2000-yildan
- c) 1955-yildan
- e) 1956-yildan

75. Nechanchi yildan boshlab jahon birinchiligi o'tkazib kelindi?

- a) 1990-yildan
- b) 1955-yildan
- d) 1947-yildan
- e) 1997-yildan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi. Qonuni // Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to‘plami. –T.: Sharq, 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. // Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to‘plami. –T.: Sharq, 1997.
3. «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonun. // O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish haqida/ O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2015 yil 5 sentabr, №174, 1-4 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017, 48 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016, 56 b.
6. Abidov S.A. Tennis yosh tanlamaydi. –T.: “Sharq”, 2001, 64 b.
7. Безверхов В.П. Библиотека тренера. Теннис. “Times New Roman”. –Т., 2011, 374 с.
8. Барчукова Г.В., Богушас В.М., Матыцин О.В. Теория и методика настольного тенниса. Учебник. – М.: Академия, 2006, 528 с.
9. Былеева Л.В. Подвижные игры. Практический материал. Учеб. пособие. – М.: ТВТ Дизион, 2005, 277 с.
10. Годик М.А. Физическая подготовка футболистов. – М.: Олимпия – ПРЕСС, 2006, 272 с.
11. Голенко В.А., Скородумова А.П., Тарпищев Ш.А. Азбука тенниса. –М.: Тера-Спорт, 1999, 126 с.
12. Голенко В.А., Скородумова А.П., Тарпищев Ш.А. Школа тенниса. – М.: Дедалус, 2001, 190 с.
13. Голенко В.А., Скородумова А.П., Тарпищев Ш.А. Академия тенниса. – М.: Дедалус, 2002, 236 с.

14. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта в системе подготовки спортсменов. –Киев, 1999, 318 с.
15. Помыткин В.П. Книга тренера по бадминтону. Теория и практика// ОАО «Первая образцовая типография», «Ульяновский дом печати», 2012, 342 с.
16. Помыткин В.П. Книга тренера по бадминтону. //Теория и практика. Часть I. Начальная подготовка. –М.: ООО “Гражданский альянс” 2012, 342с.
17. Pulatov Sh.A. Tennisga o'rgatishning an'anaviy va no-an'anaviy texnologiyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2007, 47 b.
18. Pulatov A.A., Ummatov A.A., Pulatov F.A. Voleybol. // O'quv uslubiy qo'llanma. –Toshkent, 2017, 131 b.
19. Смирнов Ю.Н. Бадминтон. Учебник для институтов физической культуры. «Физкультура и спорт». –М., 1989, 157с.
20. Смирнов Ю.Н. Бадминтон // Учебник для институтов физической культуры. «Физкультура и спорт». –М., 1989, 157с.
21. Саламов Р.С. Спорт машғулотларини назарий асослари. – Т.: ЎзДЖТИ, 2005, 238 б.
22. Salimov U.Z., Pulatov A.A., Pulatov Sh.A. Tennis. //O'quv uslubiy qo'llanma. –Toshkent, 2017, 131 b.
23. O'zbekiston tennis federatsiyasi Namangan viloyati bo'limi. Tennis. // O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2017, 125 b.
24. Щербаков А.В., Щербакова Н.И. Игра бадминтон. – Москва, 2009, 121 с.
25. John Edwards – Badminton. Technique, tactics, training. TheCrowoodPressLtd 2014. – 96p.
- 26: Bernd-Volker Brahms – Badminton Handbook. Training, tactics, competition. Maidenhead: Meyer and Meyer Sport (UK) Ltd., 2014. – 400p.

Internet saytlari

1. www.lex.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.natlib.uz
4. www.edu.uz
5. www.rsl.uz
6. www.badminton.uz

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob “Badminton nazariyasi va uslubiyati” faniga kirish.....	5
II bob Badmintonni vujudga kelishi va rivojlanish tarixi.....	11
2.1. Badmintonni paydo bo‘lishi va uni shakllanish bosqichlari.....	11
III bob O‘zbekistonda badmintonning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi.....	15
3.1. Badmintonning mustaqillik davrigacha rivojlanishi.....	15
IV bob O‘yin texnikasi asoslari va uning tasnifi.....	21
4.1. Texnika haqida tushuncha.....	21
4.2. Badminton texnikasi, uning tasnifi va mazmuni...	22
4.3. Hujum texnikasi zarbalarining turlari.....	46
V bob O‘yin taktikasi.....	71
5.1. Taktika haqida tushuncha.....	71
5.2. Yakkalik o‘yin taktikasi.....	72
5.3. Juftlik o‘yin taktikasi.....	79
5.4. Aralash juftliklar (mikst)ning o‘yin taktikasi.....	95
5.5. O‘yin rejasini tuzish chizmasi.....	99
VI bob O‘yin qoidalari va musobaqalarni tashkil qilish	102
6.1. O‘yin maydoni, racketka va badminton volan.....	102
6.2. O‘yin qoidalari haqida.....	110
6.3. Hakamlar apparati tuzilmasi.....	122
6.4. Musobaqalarni o‘tkazish chizmasi.....	143
VII bob O‘yin texnikasiga o‘rgatish uslubiyati.....	152
7.1. O‘rgatishning umumiy asoslari.....	152
7.2. Dastlabki o‘rgatish va uning mohiyati.....	154
7.3. Dastlabki o‘rgatish jarayonining bosqichlari va uslublari.....	156
7.4. O‘rgatish vositalari va trenirovka.....	157
VIII bob O‘yin taktikasiga o‘rgatish uslubiyati.....	172
IX bob Badmintonchilar tayyorlashda tanlovnинг о‘рни.....	175

X bob	Badminton bo'yicha o'tkaziladigan dars mazmuni va uni o'tkazish tartibi.....	181
10.1.	Darsning tuzilishi va mazmuni.....	181
10.2.	Darsni rejalashtirish va o'tkazish tartibi.....	182
XI bob	Badmintonchilar jismoniy tayyorgarligi va uni rivojlantirish uslubiyati.....	185
11.1.	Jismoniy tayyorgarlikning umumiylashtirish.....	185
11.2.	Jismoniy tayyorgarlikning vazifalari va mazmuni.....	186
11.3.	Jismoniy tayyorgarlikning vositalari va uslublari..	187
11.4.	Jismoniy sifatlarni tarbiyalash.....	189
11.4.1.	Ish qobiliyati, charchash, tiklanish va jismoniy imkoniyatlarni oshirish.....	189
11.4.2.	Chidamkorlikni tarbiyalash.....	193
11.4.3.	Tezkorlikni tarbiyalash.....	193
11.4.4.	Kuch sifatini tarbiyalash.....	199
11.4.5.	Chaqqonlikni tarbiyalash.....	201
11.4.6.	Egiluvchanlikni tarbiyalash.....	203
XII bob	O'yin strategiyasi.....	206
XIII bob	Badmintonchilar sport trenirovkasining umumiy asoslari.....	211
13.1.	Sport trenirovkasi haqida tushunchalar.....	211
13.2.	Sport trenirovkasining maqsadi, vazifalari va mazmuni.....	212
13.3.	Sport trenirovkasining prinsiplari, uslublari va vositalari.....	213
XIV bob	Badmintonchilar tayyorlash jarayonini boshqarish.....	220
14.1.	Boshqaruva jarayoni haqida tushunchalar.....	220
XV bob	Turli yosh guruhlariga mansub badmintonchilar tayyorlash xususiyatlari.....	222
XVI bob	Turli yosh va qatlamga mansub aholi sog'ligini shakllantirishda badmintonning o'rni.....	229
16.1.	Ommaviy badmintonning tashkiliy masalalari.....	229
16.2.	Badminton mashg'ulotlarini o'tkazish tartibi.....	232
XVII bob	Texnik tayyorgarlik.....	236
17.1.	Texnik tayyorgarlik va uning pirovard natijasi.....	236

17.2.	Texnik mahoratni shakllantiruvchi omillar.....	239
XVIII bob	Taktik - strategik tayyorgarlik.....	243
XIX bob	Jismoniy-funksional tayyorgarlik.....	246
19.1.	Jismoniy va funksional tayyorgarlik haqida tushuncha.....	248
19.2.	Jismoniy sifatlarni baholash testlari va me'yoriy ko'rsatkichlar.....	251
XX bob	Psixologik tayyorgarlik.....	253
XXI bob	Yuqori razryadli badmintonchilar bilan mashg'ulot o'tkazish xususiyatlari.....	259
XXII bob	Musobaqa faoliyatini boshqarish.....	264
XXIII bob	Talabalar ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish.....	268
23.1.	Ilmiy tadqiqot ishlariga qo'yiladigan talablar va ilmiy ishlar turlari.....	268
23.2.	Ilmiy tadqiqot uslublari, izlanuvchi obyekt va o'rganiluvchi predmet.....	271
23.3.	Ilmiy tadqiqot va uslubiy ishlarni tashkil qilish malakalarini o'zlashtirish.....	272
Nazorat test topshiriqlari.....	274	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	288	

СОДЕРЖАНИЕ

Введение	3	
I глава	Введение в предмет “Теория и методика бадминтона”	5
II глава	История возникновения и развития бадминтона	11
2.1.	Возникновение бадминтона и этапы его развития.....	11
III глава	История возникновения, создания и развития бадминтона в Узбекистане	15
3.1.	Развитие бадминтона в период Независимости.....	15
IV глава	Основы техники игры и её классификация 21	21
4.1.	Понятие о технике.....	21
4.2.	Техника бадминтона, её классификация и содержание.....	22
4.3.	Техника нападения.....	46
V глава	Тактика игры	71
5.1.	Понятие о тактике.....	71
5.2.	Тактика одиночной игры.....	72
5.3.	Тактика парной игры	79
5.4.	Тактика смешанных пар (микст).....	95
5.5.	План схемы игры	99
VI глава	Правила игры и организация соревнований	102
6.1.	Площадка для игры, ракетка и волан.....	102
6.2.	Правила игры.....	110
6.3.	Структура аппарата судей.....	122
6.4.	Схема проведения соревнований.....	143
VII глава	Методы обучения технике игры	152
7.1.	Основы обучения техники.....	152
7.2.	Сущность начального обучения технике.....	154
7.3.	Этапы и методы начального обучения	156
7.4.	Средства обучения.....	157
VIII глава	Методика преподавания тактики игры	172

IX глава	Место отбора в подготовке бадминтонистов.....	175
X глава	Порядок проведения и содержание тренировочного занятия по бадминтону.....	181
10.1.	Структура и содержание урока.....	181
10.2.	Планирование и проведение урока.....	182
XI глава	Физическая подготовка бадминтонистов и методология тренировки.....	185
11.1.	Общая физическая подготовка.....	185
11.2.	Цели и содержание физической подготовки..	186
11.3.	Средства и методы физической подготовки...	189
11.4.	Воспитание физических качеств.....	189
11.4.1.	Повышение физической работоспособности.	189
11.4.2.	Воспитание выносливости.....	193
11.4.3.	Воспитание быстроты.....	193
11.4.4.	Воспитание силы.....	199
11.4.5.	Воспитание ловкости.....	201
11.4.6.	Воспитание гибкости	203
XII глава	Стратегия игры.....	206
XIII глава	Основы спортивной тренировки по бадминтону.....	211
13.1.	Концепция спортивных тренировок.....	211
13.2.	Цели, задачи и содержание спортивной тренировки.....	212
13.3.	Принципы, методы и средства спортивной тренировки.....	213
XIV глава	Процесс подготовки бадминтонистов.....	220
14.1.	Понятие об управлении процессом подготовки бадминтонистов.....	220
XV глава	Особенности подготовки различных возрастных групп бадминтонистов.....	222
XVI глава	Роль бадминтона в формировании здоровья людей разного возраста	229
16.1.	Организационные аспекты массового бадминтона.....	229

16.2.	Проведение тренировочного занятия по бадминтону.....	232
XVII глава	Техническая подготовка.....	236
17.1.	Техническая подготовка и её конечный результат	236
17.2.	Факторы определяющие технические навыки	239
XVIII глава	Тактико-стратегическая подготовка.....	243
XIX глава	Физическо-функциональная подготовка...	246
19.1.	Понятие о физической и функциональной подготовке.....	248
19.2.	Тесты и критерии оценки физических качеств	251
XX глава	Психологическая подготовка.....	253
XXI глава	Особенности проведения тренировочных занятий с бадминтонистами высшей квалификации.....	259
XXII глава	Управления соревновательной деятельностью.....	264
XXIII глава	Формирование исследовательских умений студентов.....	268
23.1.	Виды требований в научно-исследовательских работах.....	268
23.2.	Методы, объект и предмет научного исследования.....	271
23.3.	Овладение навыками организации научно-исследовательских и методических работ....	272
Контрольные тесты.....	274	
Использованная литература.....	288	

CONTENTS

Introduction	3
I chapter Introduction to the subject "Theory and Technique of Badminton"	5
II chapter History of emergence and development of badminton	11
2.1. Emergence of badminton and stages of its development.....	11
III chapter History of emergence, creation and development of badminton in Uzbekistan	15
3.1. Development of badminton in the period of Independence	15
IV chapter Bases to equipment of game and its classification	21
4.1. Concept about equipment.....	21
4.2. Equipment of badminton, its classification and contents	22
4.3. Technology of attack.....	46
V chapter Tactics of games	71
5.1. Concept about tactics.....	71
5.2. Tactics of single game.....	72
5.3. Tactics of pair game	79
5.4. Tactics of the mixed couples.....	95
5.5. Plan of the scheme of game	99
VI chapter Rules of the game and organization of competitions	102
6.1. The platform for game, racket and flounce.....	102
6.2. Rules of the game.....	110
6.3. Structure of the office of judges.....	122
6.4. Scheme of competitions.....	143
VII chapter Methods of training in equipment of game ...	152
7.1. Bases of training of equipment.....	152
7.2. Essence of elementary education to equipment.	154
7.3. Stages and methods of elementary education....	156
7.4. Training tool.....	157

VIII chapter	Technique of teaching tactics of game.....	172
IX chapter	The place of selection in training of badminton players.....	175
X chapter	Order of carrying out and content of training class in badminton.....	181
10.1.	Structure and maintenance of lesson.....	181
10.2.	Planning and carrying out lesson.....	182
XI chapter	Physical training of badminton players and methodology of training.....	185
11.1.	Overall physical fitness.....	185
11.2.	Purposes and content of physical training.....	186
11.3.	Means and methods of physical training.....	189
11.4.	Education of physical qualities.....	189
11.4.1.	Increase in physical working capacity.....	189
11.4.2.	Endurance education.....	193
11.4.3.	Speed education.....	193
11.4.4.	Education of force.....	199
11.4.5.	Dexterity education.....	201
11.4.6.	Flexibility education.....	203
XII chapter	Strategy of game.....	206
XIII chapter	Bases of sports training on badminton.....	211
13.1.	Concept of sports trainings.....	211
13.2.	Purposes, tasks and content of sports training...	212
13.3.	Principles, methods and means of sports training.....	213
XIV chapter	Process of training of badminton players....	220
14.1.	Concept about management of process of training of badminton players.....	220
XV chapter	Features of training of various age groups of badminton players.....	222
XVI chapter	Badminton role in formation of human health of different age.....	229
16.1.	Organizational aspects of mass badminton.....	229
16.2.	Carrying out training class in badminton.....	232

XVII chapter	Technical training.....	236
17.1.	Technical training and its end result.....	236
17.2.	Factors the defining technical skills.....	239
XVIII chapter	Tactical and strategic preparation.....	243
XIX chapter	Physical functional training.....	246
19.1.	Concept about physical and functional training	248
19.2.	Tests and criteria for evaluation of physical qualities.....	251
XX chapter	Mental conditioning.....	253
XXI chapter	Features of carrying out training occupations with badminton players of the top skills.....	259
XXII chapter	Managements of competitive activity.....	264
XXIII chapter	Formation of research abilities of students...	268
23.1.	Types of requirements in research works.....	268
23.2.	Methods, venue and subject of scientific- isledovaniya.....	271
23.3.	Mastering skills of organitsaziya scientific and methodical works.....	272
Management sof competitive activity.....	274	
The literature.....	288	

A.A.PULATOV, O.M. SAVATYUGIN, SH.SH. ISROILOV

BADMINTON NAZARIYASI VA USLUBIYATI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2017

Muharrir:	Sh.Aliyeva
Tex. muharrir:	F.Tishaboyev
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Rahmatullayeva

**E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AI №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 12.12.2017.**

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 18,0. Nashriyot bosma tabog‘i 18,75.

Tiraji 200. Buyurtma №232.

**«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi» da chop etildi.**

100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.

ISBN 978-9943-11-647-4



A standard linear barcode representing the ISBN number.

9 789943 116474

